

Ushbu bitiklarimni validam Karomxon Umarxo'ja qiziga va mushkuldoshim Saidaga atadim. Muallif

"Jondan aziz ukajonim, Maqsud, bu besh kunlik omonat dunyoni sizlarga tashlab keta turib, u ota yurtni, sizlarni, xolalarimu pochchalarimu tog'alarimni, bu dunyodan o'tib ketgan barcha mahalladoshlarni esladim. Va Ulug'xo'jaboylar sulolasining umidli novdasi bo'lgan senga shu omonat gaplarimni qoldirgim keldi..."

Maqsud, qo'y, o'zingni bos. Yig'lama. Men senga armonlarimnimas, o'z xato-yu gunohlarimni to'kmoqdamman. Yolg'iz Olloh va o'zimgi-na biladigan gunohlarimni senga ishonib aytmoqdamman. Sen uzoqqa boradurgan yigtsan, tushunib olarsan, deb o'layman. Yurtimizda kimlar meni qaroqchi deb atar, kimlar so'nggi bosmachi, deb tavqi la'nat tamg'asini bosib ham qo'ygandir. Balki, ba'zilar birovning to'yini buzib, nikohidagi ayolini olib qochgan nobakor deb bilar. Lekin men, Xudovandi Karimga ming qatla shukrлarki, u gunohi azimga botib ulgurmadi. Mening gunohim boshqa narsada: bu dunyoda har neki Oollohning izni-irodasisiz bo'Imasligini unutib, Bahriiddin oshnamning qasosini olmaguncha qo'ymayman, deb qasam ichganim va shu niyat bilan bir bandaga bilib-bilmay zulm o'tkazib qo'yanimdir! Men sultonlar ham jur'at etolmaydigan bir jazoni inson bolasiga, Xudo qo'shqa'llab urib qo'yan kimsaga ravo ko'rib, yomon adashibman. U asli beayb bo'lib chiqdi, Maqsud..."

Adib Murod Mansurning "Judolik diyori" asari ana shu tarix va kechmishtalar haqida bahs etadi.

Allohning bo'yog'ini (lozim tuting). Allohning bo'yog'idan chiroyliroq bo'yoq berguvchi kim bor?! Va biz unga ibodat qiluvchilarimiz. Qur'on karim, 2/138

### SULTONMURODNING YOLG'IZ O'TINCHI

Ey inson... o'z asling nimarsadur va ne yerdin kelibsan va ne yerga borgungdur? Bu olam manzilgohiga nima ishga kelibsan va seni nima uchun ofarida qilibdur? Saodating ne ishdadur?..Muhammad G'azzoliy

Birinchi bo'lim

Yodgor Na'matak (Muqaddima)

Hech kim ko'zi ochiq turib, bolaligi kechgan joylardan ayrilmasun ekan. Ayrilsayam, yodga soladigan biron narsa qolsin ekan u atroflarda.

Yodimda: jimjiloqday keladigan pichoqcham bo'lardi. Yo'q-yo'q, pakkicha emas, qalamtarosh ham emas, sadaf bandli mitti pichoqcha. Tog'am hadya qilgan edi. Kattalarnikidan farqi - qini yo'q, xolos.

Kschalari yostig'im tagiga qo'yib yotardim. Ko'z ochishim bilan joyini paypaslab qolardim. Xuddi uyqudaligimda birov o'marib qo'ygandalig(!).

Goho bolalarga ko'z-ko'z qilgani maktabga olib borib, qaytishda tushirib qo'ymayin, deb tarix kitobimning muqovasi orasiga yashirib yurardim. Bir kuni o'sha pichoqcham... osmonga uchdimi, yerga kirdmmi, hech yerda yo'q-da. Bir alam qiladi, bir alam qiladi. Zir yugurib, hammayoqning titi-pitisini chiqarvordim. Tokchadagi kirtaxning taglariyam qolmadi, kitoblarimning ichiyam. Yurgan yo'llarimni necha qaytalab aylanib chiqdim, qani topilsa! Shunday alam qiladi, shunday alam qiladi! Go'yo ichim yonib ketyapti.

Axiyri chidayolmadim: o'zimni sandal chekkasiga otib, ho'ngrab yubordim.

Avval ho'ngrab-ho'ngrab, keyin kuyib-kuyib, so'ngida o'ksib-o'ksib, toza yig'ladim. Hech alami tarqamasdi, unutolmasdim pichoqchamni. Axiyri yig'lay-yig'lay, oyimlarning kelishlarini kutib, namozshomga yaqin uxbab qolibman.

O'sha yotishimda tush ko'ribman. Jondan aziz pichoqcham tushimga kiribdi. Chiroyli mo'ylov qo'yan, qora qosh, qora ko'zli, uloqchilarday xushqad bir yigit: - Yo tavba, shunaqayam aniq-taniq ko'rindimi?! - tepamda jilmayi-ib turibdi. Qo'lida o'sha sadaf bandli mitti pichoqcham...

- Shumi, bolakay? Yigit kishi do'ppisi bilan pichog'ini oldirmaydi. Ma, mahkam bo'l endi.

Pichog'imni olayotib uyg'onib ketdim. Yigitning suvrati shunday ko'z oldimda turibdi. Qarindoshlarimizdan kimgadir juda-juda o'xshab ketadi, quyib qo'ygandek-u, lekin kimligini hech eslay olmayman. Yo Xizr buva yigit suvratida ko'rindilarmikan?

Shundan keyin chindanam pichoqchamni topib oldim. Ertalab qarasam, sandal ustidagi katta gardin patnisimiz tagida turibdi. Birov atay shu yerga qo'yib ketganday. O'zim juda yaxshi eslayman: pichoqchamni sadaf bandi qirilib qoladi, deb hech patnis tagiga yashirmas edim...

Oyim uzun kechalar qora chiroq yorug'ida mashina tikib o'tirib, ba'zan Xudoning qahriga uchrab, yurtini yer yutgan, to'fon turib suv bosgan, vulqon otilib kunpayakun bo'lib ketgan joylar, qavmlar haqida hikoya qilib qolsalar, men dahshatga tushib, manahozir o'sha falokatlar yopirilib kelayotgandek sandal ko'rpasini boshimga tortardim-da, tancha ichiga kiriblar ketardim. Oyim esa, iliq jilmaygancha, yupatishga tushar edilar:

- Sen qo'rhma, hali qiyomat qo'pmaydi. Namoz o'qiydigan bitta odam qolsayam, olamni yer yutmaydi. O'shaning sharofatidan Xudo o'zi asraydi, - dardilar.

Va ertalablari tanlarga va ruhlarga huzurbaxsh etuvchi yoqimli ovozdan - oyim qur'on tilovat qilayotgan bo'lsalar - uyg'onib ketib, qiroatning xush ohangidan erib yotarkanman, o'zimga-o'zim taskin berardim:

- Yaxshiyam oyim borlar, qiyomat qo'pmaydi... Ammo oradan ko'-o'p yillar o'tib, bir kuni - O'rigimiz shoxlari rosa yashillikka burkalib, dovuchchalar tishga tegay degan kezda yer ostidan bir ofat guldirab keldiyu hammaning tinchini o'g'irladi-qo'ydi: ming yildan beri o'tirib kelgan yerimizdan ayrildik-qoldik. Uylarimiz silkindi, u yer-bu yerining suvog'i ko'chdi, sinchlari ochilib qoldi, hech kimni tom bosmadi. Taxmonlar o'rnida, tokcha ham tashlab yubormadi. Ammo shu ofat bahona bo'ldiyu hamma ko'chirmaga tushdi. Bog'larimizu soyularimizni shahar yutdi, o'rnida do'mlar qo'ziqorinday potrab chiqqa boshladi. Kindik qonimiz to'kilgan, necha pusht otalarimiz o'tgan u diyordan hech vaqo qolmadi. Tuproq o'sha-o'sha, makon o'sha edi-yu, lekin endi u diyor yo'q edi. Uni yodga soladigan bir o'r yo qir, bir soy yo jilg'a, bir qo'rg'on yo hovli qolmagandi...

Yillar keyin shu do'mlardan biriga ko'chib kelgan oshnam nevarasiga aqiba qilib beradigan bo'ldiyu kechqurun savzi to'g'rarga bordik.

Bir-biriga qalashtirib qurib tashlangan bu toshqo'rg'onlar orasidagi "hovli"da, pala-partish o'ris daraxtlar ostida joy hozirlarkanmiz, qay biridandir taralayotgan tanish bo'ydan biir huzurlandik. Shunda oshnam:

- Bay-bay-bay, jiyda gulining hididanam o'tkir-a! Qarang, bir chaqirimdan gurkirab kelib turibdi, - dedi. Meni xo'rsiniq bosdi.

- Ho-ov,.. jiyda gulining hidi qayoqdayu bu qayoq-da!.. Bu do'mlarning ostida qolib ketgan bog'larni ko'rmagansiz-da...

- Shoshmang-shoshmang, chindanam shu yerda hovuz bo'lguchi edi, gir atrofidan har bahor bir chiroyli safsar gullar o'sib chiqadigan. Keyin axlat bilan to'lib ketib edi. Hozir pastak o'rnii qolgan, qarang.

- Rostdanam... - Men o'ziyu gir aylanasi sal cho'kib, bir paytlar hovuz bo'lganidan darak berib turgan joyga yutoqib tikildim. Va, kimning hovuzi ekan, deb eslashga urindim. Shu alfov... bu "cho'kma" hovuz chetida cho'kirtak to'nkasidan gurkirab o'sib chiqib, yakkam-dukkam gullashga ulgurgan na'matakka ko'zim tushdi. Gulkosalari yirik-yirik, gulbarglari bo'liq-bo'liq, tiniq-tiniq, nafarmon edi u.

Hayratda qoldim. Shu na'matak xotiramni jonlantirib yuborganday edi. Ha, ha, hovuzning bir tomonida supacha bo'lardi. Supa chetida esa bir tup na'matak o'saru gullagan kezlar Izzadan esgan sal shabadadan ham hovuz yuzini na'matak gulbarglari tutib ketar edi.

O'sha manzara xayolimda qayta jonlanib, ular hovuz suvining yengil mavjlarida xuddi nimpushti yelkanli qayiqchalarday, u tomondan bu tomonga suzib borib-suzib kela boshladilar... Xuddi o'sha vaqttagiday...

Esladim! Topdim! Bu o'sha xolamgilarning bog'i-mizga tutash tashlandiq hovuzlari edi. Gir atrofini baland-baland safsar gullar tutib yotguvchi, ko'klam kelishi-la bir yonini egallagan yolg'iz na'matak nafarmon-nafarmon gullab, tinmagur qurbaqlar allamahalga dovur vaqir-vuqur bazmlar qurguvchi hovuz.

Undan u yog'i eski anhor o'tgan chakalakzoru xaroba qo'rg'on - tomlari valangor, devorlari qor-yomg'irlarda nurab yotgan - biz peshinlarda berkinmachoq o'ynab charchamaguvchi bir joy edi.

Endi bilsam, bu diyorning tanazzuli xuddi o'sha kezdan, yolg'iz na'matakli bu hovuzning egasiz qolishi, bog'larida binafshalar ochilib, maymunjonlar g'arq pishib yotadigan bu qo'rg'onning xarobaga aylanishidan, xolavachchalarimning har yoqqa tirqirab ketib, bevatan qolishlaridan boshlangan ekan!

Bu yetim na'matak endi o'sha biz ko'z oolib ko'rgan diyordan bir ma'yus xotiraday, tirik ertak guli misoli, u safoli va baloli kunlardan bir yodgor bo'lib, do'mlar o'rtasida o'z holicha o'sib, o'z holicha gullab yotar edi...

### Oydinda Uchgan Turnalar

Yarim kechamidi, bir uyg'onsam, qovug'im to'lib, sim-sim achishib ketyapti. Ammo hech ko'zimni ochgim yo'q, shunaqa shirin uyquda ekanman! Qovoqlarim qumga to'lganday, kipriklarimni birov shirachlab tashlaganday. Shu yotishimda qulog'imga bir ajib qur-qurlagan tovushlar kiradi. Bu tovush-nag'malar tomimiz tepasidan kelyaptimi yo bog' tomonganmi - bilolmayman. Turnalar shekilli? Boyaqishlar shunaqa kech qolib ketishibdimi? Unday desam... buncha yaqindan kelmoqda bu ovozlar? Xuddi ustimda g'ujg'on o'ynashayotgan kabi?..

Amal-taqal qilib ko'zimni oolib oldim. Shirach yuvildi, qum aridi go'yo. Shundagina ko'rdir: deraza tagida yotgan ekanman, ustimga kelib qolgan to'lin oy - ko'kning yolg'iz kelinchagi derazaning tepe ko'zidan mo'ralab turibdi.

Bog' tomongan boyagi qur-qurlar, noma'lum qushlarning sirli chug'ur-chug'urlari eshitiladi. Go'yo turnalar tungi olis uchishidan toliqib, bir zumga yoni-mizdag'i hovuz bo'yiga qo'nganu bir-birlariga yo'lda ko'rganlarini hovliqa-hovliqa so'ylab berayotganday. Dik etib tura, hovliga chiqdim. Beixtiyor oyog'im bog' eshikka tomon tortdi. Tashqari - butun olam sutdek oydinga cho'milib yotibdi: ishkomlari devor sarxoklarigacha allatovur ko'rindi.

Tambani olib, eshikni ochdimu ostonada lol qoldim. Hali-hanuz anglab yetolmaymanki, tushimmidi yo o'ngim? Bir talay ajib qushlar oy nurlarini emib yotgan xaroba qo'rg'on tepasidan pastlab kelib, oydanda oq - jujun qanotlarini yoyganicha hovuz bo'yiga qo'nishar, qaybirlari "qur-ey, qur-ey"lab suvga talpinishar, suvga qongan qaybirlari esa, juft-juft bo'lib, hovuz atrofida raqsga tushishar, o'z tillarida bir-birlariga roz aytib, nag'malar chalishar edi.

Har ko'klam va har kuzda osmoni falakdan arg'amchi solib o'tguvchi, "qur-ey, qur-ey"lari biz bolalarni dalalarga yo tomlarga chorlaguvchi bu qushlarni hozir men juda yaqindan, ellik qadam beridan ko'rib turardim, ularning xuddi tushdagiday, oydinda uchib-qo'pishlaridan hayratda edim. Ular shunday ovloqlarni xush ko'rishadi. Ilgarilar Qo'shilish ga qo'nib, Bo'zsuv bo'ylarida suvlab quvnagan bo'lsalar, bugun xolamgilarning tashlandiq qo'rg'oniga oralabdilar. Yo'lidan adashdilarmi yo kimsasiz hovuz oydinda ko'zlariga xarobalar orasiga tushib qolgan dumaloq ko'zgu bo'lib ko'rini, o'zlarini oynakka solgilar kelib, bu yerga qo'ndilarmi? Manzara chindanam g'aroyib edi.

Balki men hamon tush ko'rayotgandirman?..

Yo'q, bu ovloq, bu xaroba qo'rg'onning shunaqa jozibasi ham bor: aynilsa na'matak gullaganda, safsar gullar ochilganda biz bolalaru qizlar shu yerga tanda qurib olamiz. Anuv qarovsiz bog' ortida hali qo'ziqorinlar potrab, maymunjonlar ham pishib bersin-chi!..

Balki bular turna ham emasdир? (Axir bundayin jujunqanot turnalarni kim ko'ribdi? Ovozini demasa, nimasi o'xshaydi?) Balki bir nimalar meni yotgan yerimdan avrab olib chiqib... Va o'zlar qush bo'lib ko'rini...

Sovuqdanmi, boshqadanmi junjikib, bog' eshikni sekingina yopdimu tambani bosa, uuga chopdim. O'rnimga kirasolib, ko'rpani boshga tortarkanman, taxmon tomongan oyimning ovozlarini keldi:

- Ha, Maqsudxo'ja, uyqusiradingmi?

- Yo'q, oyi, o'zim, - dedim uyalib.

- Hayallab qolding?

Xayriyat, tutnim ham, ajinalar ham emaskan. Oyim sezib yotgan ekanlar. O'zimga kelib, ko'rganlarimni aytishga oshiqdirm.

Boshimdan ko'rpani otib tashlab, azza-bazza o'tirib oldim.

- Oyi-chi, oyi, xolamgilarning qo'rg'onida nimalarni ko'rdir, aytaymi?

- Niman ko'rding?

- Allaqqanday katta-katta, g'alati qushlar uchib yuribdi. Turnaga o'xshaydi, lekin oq, kulrang, yashil - har xil. Hovuz bo'yida g'ujg'on o'ynab yotibdi. Rosa zo'r sayrayaptida o'ziyam.

- La havla va la quvvata... "Subhonolloh", de, bolam.

- Aytdim, oyi...

- Yana ayt-da, yot, uxla. Ko'zingga ko'rinishibdi...

- Nima, oyi? - dedim hayratga tushib.

- Boyaqishlar, - deb pichirladilar oyim.

- Kim, oyi? Kim ko'zimga ko'rinishibdi?

Axir, o'zim ko'rdirim-ku! Rostdanam u qushlar uzoq yurtlardan uchib kelaturib qo'ngan turnalardi.

Oyim chuqur tin olib, xo'rsindilar. Ovozlar ham qaltirab chiqdi.

- Xudo rahmat qilgan bo'lsin hammalarini. Chirqirab yuribdi ekan haliyam boyaqishlarning ruhlari.

Men hayron qoldim.

- Nega unaqa deysiz, oyi?

- Boyaqish xolangni, Abdurahim eshon pochchani aytaman-da. Shunday xonadon... tariqday sochilib ketdi-ya, xonavayron etdilar-a! - Oyim o'rnilaridan turib o'tirib, ro'mollarini o'rashga tutindilar. - Xudoyim o'zi bilib-ko'rib turgandir? Qasd qilganlarni qoldirmas bunday!

Oyim azza-bazza ro'mollarining uchini mijjalariga bosdilar. Ovozlari yana qaltirab chiqdi.

Darvoqe, o'zi nima bo'lgan? Shu qo'rg'on haqida gap ochildi deguncha ko'zları yoshlanib, ovozlari o'zgarib kelaveradi. Rahmatli xolang, rahmatli Abdurahim eshon pochcha, deydilar-u, u yog'ini aytolmaydilar. Biz esimizni tanibmizki, bu uylarning tomi ochiq, paxsa devorlari qor-yomg'irlarda nurab yotadi. Shuncha yilning badalida bu yerga hech kim ko'chib ham kelmadi, tomlarini tiklashga urinmadni ham. Qarg'ish tekkanday, so'ppayib yotadi. Hovuzga ham suv kirib-chiqib turadi-yu, lekin bizdan bo'lak hech kim ichmaydi.

"Oyi-i, ular qayoqqa ketishgan, nimaga qaytishmaydi?" deb so'ragim keldi-yu, jur'at eta olmadim. Oyim o'z yumushlari bilan chiqib borardilar.

Ha, oyimlarga ham osonmas. Yarim kechagacha qora chiroqda ish tikib, moshinachilik qiladilar. Bomdodni o'qiboq sigir sog'adilar. Kechqurun sog'ilganini dokada suzib, ikkita idishni to'ldiradilar-da, paranjini qiyshiq yopinib, Cho'lponotaning sut bozoriga yo'l oladilar. Qaytishda ro'zg'orga bozor-o'char qilib keladilar. Ungacha kun ham yoyilib ketadi. Keyin dalaga qarab chopadilar. Tushgacha bir qop, tushdan keyin bir qop dagirga o't olib kelmasalar, boshqa hech vaqo yo'q. Kunimiz shu sigirga qolgan. Maktabdan kelgunimcha, u ko'chamizdag'i tol tagida "ro'za tutib" yotadi. Tushdan keyin men bitta kitobni qo'lting'imga qisib, Izzaga o'tlatgani olib ketaman. Cho'milib, baliq tutib, chimzorlarda gurpaklashib umrimiz o'tadi. Zeriksam, tolning soyasiga o'tib, chimzorga cho'zilaman-da, pag'a-pag'a bulutlarning ming shaklga kirishiyu so'fito'rg'aylarning chug'urlashiga mahliyo bo'llib, soatlab ko'kka tikilib yotaman...

Bunday qarasam, oy allaqachon derazamiz ko'zidan o'tib havolab ketibdi. Endi bir parcha nuri taxmon tomonga cho'zala tushib turardi. Boyagi ovozlarni qo'msab, tashqariga quloq tutdim. Ammo bu safar nimagadir qurildoqlar ovozidan bo'lak hech tovush eshitilmadi.

Boyagi qushlar nima bo'ldi ekan? Oyim "ko'zingga ko'rinishibdi-da" deb nimani, kimni nazarda tutdilarkin? Shu xayollar og'ushida ekanman, totli bir uyqu eltilib kelib, sekin o'rninga cho'zildim va o'zim sezib-sezmay xayoliy olamlarga suzib kirib ketdim.

### Jala Yo'lida Qolgan Qo'rg'on

Hech qancha uxlamadim. Bir mahal tom tepasida nimadir qasirlab ketdi. Osmon qoq ikkiga bo'linib uzilib tushayotganday, joni-ponim chiqib, turib o'tirib olibman.

Boyagi charaqlagan oydindan asar ham yo'q. Uyni zulmat bosib, hech narsani ko'rib bo'lmaydi. Oyim qani ekanlar?

Paypaslanib, taxmon tomon surildim. Yo'q, oyim o'rınlarini yig'ishtirib, allaqachon jo'nab ketib bo'ptilar. Dahlizda sut idishlar ham ko'rinishmaydi. Tog'orachalar tagi g'ira-shira oqaribgina turibdi. Qo'rqa-pisa derazamizdan tashqariga mo'raladim. Osmon qorayib, shunday pastlab tushibdiki, naq bo'g'otimizga tiralib qolganday. So'ritok yog'ochlari ham arang ko'zga chalinadi. Zulumot shunchalik.

Shu mahal ko'kda chaqmoq ildiz otib, olam bir lahma titroq yog'du ichida qoldiyu boyagidan battar momaqaldiroq turdi.

Chopib ostonaga chiqib olibman. Yuzlarimga namchil havo epkini urilib, yomg'ir hidi anqib ketdi. Orqasidan shatir-shutur bilan o'zi ham yetib keldi, birpasda olatasir jala quyib yubordi.

Yo tavba, shuncha bulut qaerda turganakanu havoyi jahon qachon aynib ulgura qoldi?! Oyijonim nahot sezmadilar? Yo sezsalar ham, tavakkal jo'nab yuboraverdilarmi? Birpasgina sabr qilsalar-ku...

Momaqaldiroq endi Yakkabog' tepasida, naq xolamgilar tashlab ketgan qo'rg'on ustida gumburladi. Osmonda bir-birlari bilan tosh otishib "o'ynashayotgan" chol-kampir bizdan uzoqlashib borar, bu yoqda endi jala avjiga minar edi. U tomg'a urilib takirlar, tarnovlardan vahimasi bilan bir ariq suv sharillab tushar, hovli betini qoplagan yomg'ir yuzida pufakchalar bodrab chiqar edi.

Bunga sari men ostonada tipirchilab turibman. Axiyri boshimga bir qopchiqni tashlab, bo'ynimni qisgancha, zariljoyga yugura ketdim. Qaytib kelgunimcha hamma yog'im shalabbo bo'ldi. Artinib-surtinib, o'rningi yig'ishtirishga tutindim.

Bu orada havo yorishib, zulmat qayoqqadir chekindi. Ancha-muncha suvini to'kib olgan bulutlar boyagidan ko'tarilib oqarishganday edi. Momaqaldiroq ham endi Kattabog', Tuvak tomonlarga ko'chgan, ovozi borgan sari bo'g'iqlashib-uzoqlashib borar, jalaning kuchi qirqilib, tom ilgarigiday takirlamas, tarnovdan kelayotgan suv endi ancha beriga tushar edi.

Hozir jala tog'alarimning mahallasi Kattabog'ga yetib borib, hamma olatasirni o'sha yoqda qilmoqda. Yaxshiyam yo'llini o'zgartirib o'sha yoqqa yurdi. Cho'lpon-ota ga qarab bosib borsa, oyim va boshqa bozorchilar iima qilishar edi?

Men sal bo'lsa-da, taskin topib, uy yuzini yig'ishtirishga tushdim. Tog'orachalarning ustini patnis bilan yopib, deraza tavaqalarini ohib yubordim-da, uyni supura boshladim.

To ishlarni bir yoqli qilgunimcha, Cho'lponota tepasida bulut chokidan yorilib, osmon moviy daryoday ochildi. So'ng uzoqdan kun tojday yarqirab chiqdiyu bu yoqda yomg'ir ham tinaqoldi. Ora-chora huwillab, kurtak oygan daraxtlarni silkitib, marjon-marjon tomchilarni duvva-duvva to'kayotgan shamol allaqayoqlardan bodroq isiday toza, xushbuy isni dimoqqa keltirib urardi. Men bunaqa vaqtarda kuragimdan qanot chiqarib, tozarib borayotgan ko'kka uchgim, dalayu kengliklarga chiqib ketgim kelaveradi. Balki haligi momaqaldiroqdan keyin ishkomlar orasiyu yolg'iz biz biladigan joylarda qo'ziqorinlar potrab chiqqandir? Vir do'ppi-bir do'ppi qilib terib olganga, olovga tutib kabob qilib yeganga nima yetsin. Eh! Aliakbarni chaqirib, maktab vaqtigacha o'tib kelsakmi edi!

Men ko'chaning narigi betidagi tepalikka solingan, gir aylanasi tuproq tomli (bahor keldi deguncha biz ustida varrak uchirib charchamaydigan) qo'rg'onga qarab chopdim. Shuncha jala quygani bilan tuproq ko'chaga go'yo "jin ham urmagan" edi. Yakkamdukkam ko'lmaqlarni demasa, namin shabada ko'tarib ketib, selgib ulguribdi. Aliakbarlarning eshigi oldidagi azim yong'oq nosrang kuchala chiqarib yuboribdi. Tagi bilan bitta "zuluklari"... Tom orqasidagi qator olchalar xumchalab yotibdi. Har xumchasida bir tomchidan yomg'ir-zirak, qilt etgan shabadaga ham duv-duv to'kiladi. Aliakbarni hovlisida ko'riboq qistadim:

- Yur, o'tib kelamiz?

- Qayoqqa? Maktab-chi?

- Bo'l, ulguramiz. Xolamgilarning qo'rg'onidan o'tgan eski ariqni bilasan-ku. Har yili potrab chiqadi.

- Qo'ziqorinlarmi? Shoshma, men hozir.

U tezda yag'ir do'ppisini boshiga ilib chiqdi va biz Yakkabog' tomonga qarab, shipillab ketdik. Necha qishu ko'klamlarning qor-yomg'irlarini ko'raverib, uchinchchi paxsasi yemirilib bo'layozgan qo'rg'on xarobalari va unga ko'tarilaverishdagi yolg'iz shaftoli uzoqdanoq mana men, deb ko'zga tashlanib turardi shu choqda.

Yo tavba! Xaroba tagida mung'ayibgina o'sgan shaftoli shu qadar qiyg'os gullabdiki, go'shangadan chiqqan kelinchak deysiz! Men uni qachondir, yana qaerdadir ko'rganday, yuragim gup-gup urib, to'xtab qoldim va Aliakbarni qistadim:

- Uni qara, uni! Turishimi qara! Aliakbar ham besh ketib to'xtadi:

- O'! Rosa ochilibdi-ku! - Keyin achinib qo'shib qo'ydi: - Shunday qo'rg'on... xolavachchalaringga buyurmaganini qara.

- E, nimasini aytasan!.. (Boyo'g'lixona bo'lib yotishi... kimlarga kerak ekan?!)

Oftob valangor uylar qo'rg'on devorlarini, har butayu har maysani o'pib, yoyilib kela boshladi. Qushlar ham salomga chiqishdi. Uchib-qo'nib, chag'ir-chug'ur bilan bozor qila boshlashdi. Ana, sassiqpopishak "ku-ku-pish"lab ola qanotlarini yoyganicha, yonginamdan havolab o'tdi. Qaerdadir mayna qiqirlab, sa'va sayrashga tushdi. Bedana patpalolqab, sanog'ini sakkizga yetkazib to'xtadi, lekin quloqlarim ostida hamon sayrayotganga o'xshar edi. Xuddi olam qushlari shu yerga yig'ilgan kabi, bir-birlariga navbat bergilari kelmasdi.

Aliakbar yengimdan tortib qistadi:

- Chopdik, kech qolamiz.

"Ana aytmovdimmi, vuy, buni qara"lab ariqning u betidan-bu betiga sakraymiz. Bulturgi xazonlar tagidan vij-vij chiqqan qo'ziqorinlarni avval bittalab, keyin tanlab tera ketamiz:

- Onaboshilarini ol, onaboshilarini! Maktabdan qaytgunimizcha bolachalari ham mush-mushakon bo'pqoladi, ko'rasan. Ustiga xazon tashla, xazon! - deb bilag'onlik qiladi Aliakbar. Men esam do'ppim to'lib, yangi topganlarimni qo'ynimga tijishtiraman. Alhol, terib tugatolmasligimizga ko'zimiz yetib, qaytdik. Kelsam, oyim sut idishlarini chayib, bir chekkaga to'nnarib qo'yayotgan ekanlar. Meni ko'rib yuzlari yorishdi:

- Qaerga yo'qolding, desam, shuni izlab ketuvmiding?

- Aliakbarminan xolamgilarning qo'rg'onlariga o'tdik. Shunaqa ko'p chiqibdiki...

- Osh bo'lsin, bolam, osh bo'lsin. Erta turganga shunaqa halolidan yetkazadi, Xudoyim. Qaniy? - Oyim bir donasini qo'llariga olib, hidlab ko'rdirilar-da, o'pib ko'zlariga surtdilar. - Omonliq-somonliq, shu kunlarga yetkazganiga shukr. - Qaytarib do'ppimga soldilar.

- Oshxonaga kiritib qo'y, kechka qovurib beraman. Vor, endi, choyingni ichu yugur, matabingdan kech qolma.

- Xo'p bo'ladi, oyijon.

Qaymoqqa nonni bulab, paqqos tushirib oldim-da, yelkaga jildni osib, maktabga zing'illadim. Xayolimdan esa, boyagi manzara - xarobazordan chiqib kelin-salom qilib turgandek, qiyg'os gullagan bir tup shaftoli(!) hech ketmaydi. Uning nimpushti gullarini, salomga egilgan shoxini xuddi birov miyamga chizib qo'ygandek. Yana qaerda ko'rgan ekanman bunaqa chiroyli narsani?.. Hali oftob yoyilib ketsin, asalarilar ustida g'ujg'on o'ynasin, o'shanda tagidagi maysazorga cho'zilib, ularning bir maromda g'o'ng'illashiga quloq bersang bormi, eh!..

Xarobasi shunchalik go'zal, obodligida qanday bo'lgan ekan bu qo'rg'on?!

### Asol Xolamning Bilakuzugi

Ertalabki qo'ziqorinni jindek kartoshka bilan qovurib-dimlagan ekanlar, bir antiqa, ilikdek ovqat bo'pti. Non bilan paqqos tushirib, og'zimda qolgan mazasiga besh ketib o'tirib edim, oyim ko'z taglari bilan iljayibgina qarab qo'yidilar.

- To'ydingmi, bolam?

Bildimki, kimgadir ilinib ozgina opqo'yanlar, bormi desam, opkelishdan ham toymaydilar. Yegim kelib turgan bo'lsa ham, sezdirmadim.

- To'yganda qandoq! Asal bo'b ketipti ovqatiz, oyi! - dedim maqtab.

Dasturxoni yig'ishtira boshladilar.

- Unday bo'lsa, otlan, uzoq kecha - Asol xolangni ko'rib kelamiz, haqingga bir duo qilib yesinlar. Yolg'iz odam, savob bo'lar. Men hayron bo'ldim.

- Kelinlari-chi, oyi?..

Oyim ha deganda javob qilavermay, qora chiroqni ko'tarib, oshxonaga yo'l oldilar.

- Bugun ko'chini ortib ketishdi...

- Iy-y! Marg'u kennoyimi-ya? - Men garangsib qoldim.

- Ha, bolam, peshonasiga sig'magan ekan bu uy, bu qo'rg'onlar. Qizil paranjida kelib, o'sha paranjisida ketdi, boyaqishgina...

Men tushunmadim bunga. Lekin birdan lop etib, xuddi birov oltin hal bilan chizib qo'ygandek ertalabki manzara xotirimga keldi.

Ko'z oldimda salomga egilgan kelindek bo'lib, o'sha bir tup (qiyg'os gullagan) shaftoli turardi. Topdim! Men uni ilgari ham ko'rganman! Asol xolamnikiga to'ydan keyin birinchi borganimizda ko'rganman. Shunda u boshiga shaftoli gulli uzu-un simro'molmi, to'r ro'molmi tashlab chiqqan. Avval oyimlarga, so'ng menga bir chiroyli salom qilganida xiyyla vaqtgacha esim og'ib turib qolgan edim. Topdim! Shunda ko'rganman! Piylani uch barmog'inining uchiga qo'ndirib choy uzatarkan, shirin jilmayib:

"Oling, qaynim-qaynijonim, dasturxonga qarangla", deya qistagan edi. Mening birdan erib ketganlarim - hamma-hammasi qayta-boshdan yodimga tushdi. Rostdanam tili bir g'alati shirin, allaqayoqli kelinlarnikiday edi, ovozi bir alomat, quloqqa moyday yoqardi. O'zidan-chi, o'zidan bir yoqimli iforlar gurkirab, ado bo'lmasmi edi-ey. Keyin erkalab bag'riga tortib qo'rganida-chi, boshim gir aylanib, ne hollarga tushmovdim? Hali-hali o'sha atir hidlarini qo'msab qolishlarim, o'zini ko'rgim kelishlari-chi!

Shu kelinoyim bizni tashlab ketibdimi?

- Endi xolam bir o'zlarini qoldilarmi? - dedim achinib.

- Qandoq qilsinlar, bolam. Avval pochchani olib ketishuvdi. Keyin bu balo qaerda turganakan, bir kechada gungursday o'g'ildan judo bo'ldilar. Mana, endi kelin ham ketdi.

- Turaversa bo'lasmidi, oyi?

Ko'z oldimdan pakanagini, buning ustiga, bir qo'llarini bellariga tashlab, zo'rg'a enkayib yuradigan lo'libashara Asol xolam o'tdilar. Xolam nikoh kechasi o'g'illari yo'qolganidan beri yanayam bir burda tortib qoldilar. Uzzukun darvoza oddidagi qari qoratal tagida hali javrab, hali yig'lab-siqtab, yo'l qarab o'tirganlari-o'tirgan. Biz, matab bolalar hayiqibgina ko'chaning narigi betidan jim-jim o'tib ketamiz.

Oyim chuqr tin oldilar:

- Uyam birovning qizi, bolam.

Men tushuna olmadim. Birovning qizi bo'lsa, shunday hayhotday xonadonda qari odamni yolg'iz tashlab... ketaveradimi?

Nihoyat, chiroqni pastlatib qo'yib, tovoqdagi tomoqni sochiqqa o'radik-da, eshikka tambani solib, ona-bola yo'lga tushdik.

Qushlar yotoq-yotog'iga kirib ketib, quruldoqlarga navbat tekkan. Binafshami, bodroqmi hidini atrofga socha-socha yumshoq bahor shabadasi o'ynoqlab yuribdi. Yuz-ko'zingdan o'rgilib, ipakday mayin "qo'llari bilan" asta silab-siypasa, olamda yo'q bir rohat sezasan. Tepadagi yong'oqzor tomonda haqqush "quv-quv"laydi. Haybat akamlarning eshigi ro'parasidagi yalang'och sadadan pastlab uchgan boyo'g'li ko'chaning narigi betidan qo'rg'on orqasiga singib ketdi. Xolamgilarning eski hovuzida qurbaqalar bazmi avjga minib, biri olib-biri qo'yib, shunaqa vaqir-vuqurlab yotishbdiki, tomoshaga kelgan ajinayu qulochkashlar ham ularning qilig'idan qiqir-qiqir kulishayotganga o'xshaydi.

Yakkabog' tomondan yarim palla qovoqday kemtik oy chiqib kelyapti. Shabada o'ynoqlab o'tib, tolbargaklar hidini dimog'imga uradi. Biz yarmi kesilib, yarmi kesilmay qolgan tollar tagidan - chiviqlari yig'ishtirib olib ulgurilmagan yo'ldan turtinib-surtinib o'tib, Asol xolamning darvozalariga yetamiz. Bir vaqtlar karvonsaroylarnikidek katta qilib qurilgan bu darvoza, mana, necha yiddirki, yopilmaydi. Nega deganda yopsa ochilmas, ochsa yopilmas bo'lib, tob tashlab qolgan. Tuzatib qo'yadigan mard yo'q. To'yda bir tuzatilganday bo'luvdi. Keyin bir muddat yopib yurilib, yana tob tashlab qiyshaydi. Endi kelin ham ketib, valangor yotibdi. Xolam qarigan chog'larida shu kunlar ham bor ekan-mi?

Katta ko'chaning yoqasiga tushgan boloxonali uzun uy, pasti ishkomlarga tutashib ketgan ochiq hovli zi-mistonki, yutaman deydi.

Hovlidagi bukri kampirlardek besh-olti tup behilarni demasa, ishkomlargacha qaqqaygan hech vaqo yo'q. Shundanmi yo vaqt xufton bo'lib qolganigami, hammayoq hvuillab yotibdi. (Ertasiga ko'rdim: ishkom boshida yolg'iz bir tup shaftoli qiyg'os gullab chiqibdi. U boshiga shaftoli gulli uzun simro'mol tashlagan ana o'sha kelin kabi bir chiroqli salom qilib turar, xaroba qo'rg'on oldida ko'rganimga juda-juda o'xshab ketardi. Balki o'shadir, o'sha kelib olgandir?..)

Ammo muylishga yetgan joyimizda eng chekkadagi uy derazasi yonida yo'q yerdan odam qorasi paydo bo'lib, lip etdiyu ko'zdan yo'qoldi.

Nima balo, Qulochkash ekanmi? Devorga qapishib turgan bo'lsa, bizni ko'rib, qochib qoldimi?

Unday desam, Asol xolamnikida Qulochkashga nima bor? O'zлari yolg'izlar-ku.

Shu mahal ichkaridan xolamning tashvishli qaqshagan ovozlari eshitildi:

- Voy-hoy, kimsan? Nima qilyapsan?

Yuragim shuv sidirilib, oyimlarning yenglaridan tortqiladim:

- Oyi-oyi, eshitapsizmi, o'g'ri yuribdi.

- O'g'ri nima qiladi, bolam? Xolang o'zi shunaqaroq bo'p qolganlar.

Menga taskin beryaptilar desam, shu vaqt chindanam xolamning bir g'alati suyingan ovozlari yangrab, kechani tilib o'tdi:

- Voy-hoy, odamle-er, eshitmadim demangle-er! Bahriddinam qaytde-e! Ko'zimning oqu qorasi qayt-de-e!

Oyim og'ir xo'rsindilar:

- Bemahal kepmez, bolam...

Ammo suyinib, bir yerga yetib turgan xolam, birdan ovozlari o'zgarib, hirqirab qoldilar:

- Yo'qotgan... yo'q-otgan, voy-hoy, nima qivotsan? Kimsan o'zing, baloginaga yo'liqqur!..

- Ana, aytmadimmi, oyi?!

Boshimni silab turgan oyimning qo'llari ham qaltirab ketdi. Qadamlarini tezlatdilar:

- Chindanam, ichkarida birov bor shekilli?.. Lekin zinaga chiqib ulgurmagan ham edik, katta deraza taraqlab ochilib, birov bor bo'yicha o'zini hovliga otdiyu oyog'i yerga tegar-tegmas jon-jahdi bilan ishkom tomonga qocha boshladidi. Orqasidan Asol xolamning alamli qarg'ishlari yangradi:

- Baloginaga yo'liqsang bo'lmasme, Sultonmurod! Kelib-kelib men g'aribni tunaysanmi-e?!

Ko'rib turibman: oyim taxta bo'lib qoldilar. Keyin uyga chopib kirib, derazani taqa-taq yopdilar-da, xolamni urisha ketdilar:

- Hoy, opa! Esingizni yeb qo'ydingizmi? O'chiring uningizni! "Sultonmurod" lashingiz nimasi?! Hozirgina nima deyatuvdingiz?

Hali buzilmagan tanchaning yonidan turib ulgurmagan xolam sandalni mushtay-mushtay, aytib yig'layotgan joylarida birdan jimb qoldilar.

- Salomxon, senmisan? - dedilar yig'ilari qotmagan bir ovozda.

- Ha, menman, opa. Ko'rgani kelayotuvdik. Siz adashmang, derazadan tashlab qochgan baloginaga yo'liqqurni menam ko'rdim. "Sultonmurod" deb ayyuhannos solasiz, umi, umasmi, qayoqdan bilaqoldingiz? - Oyim urisha-urisha lampani yoqa boshladilar. Uy ichi bir oz yorishdi. Xolam yengilgina yopilgan tancha ortida oyoqlarini uzatgancha, sochlari to'zg'ib o'tirardilar. Yonlarida dumaloqlanib yotgan qora adyol.

- Bekorlarni aytibsan! O'sha edi! O'shandan bo'lak go'r ham emasdi! - Birdan Asol xolamning jazavalari tutib, boshlarini bir xunuk chayqagancha, bo'g'ilib-bo'g'ilib, tizzalariga mushtay-siqtashga tushdilar:

- Kelib-kelib menginani tunadi-ya! Xolam-ku, ona urmida onam-ku demadi-ya! Erkagi yo'q deb kirgan-da, tirkagi yo'q degan-da, yashamagur! Sanga dunyo keragakan, so'ramaysanmi, daydi! Voy, bilakkinem, voy bilaklarim-e!

- Opa deyman! Bo'ldi-da! - Oyimning yer tepinib, jerkiganlarini hecham ko'rgan emasdim, angrayib qoldim. - Eshitgan nima deydi, o'layapsizmi? O'sha sang'i bo'lgan taqdirda ham aytadigan gapmi shu?!

Asol xolam boyagi shaxtlaridan tushishga tuttdilar-u, baribir bilaklarini silab, yum-yum yig'lashdan o'zlarini tiya olmadilar.

- Kelib-kelib meni tunaydimi, menginani tunaydimi? Hayhotday xonadonda sho'ppayib qolganim yetmaskanmi? Voy, yana qanaqa azoblari borakan Xudoyimning? Olsa olaqolmaydimi omonatini! Qutula qolmaymanmi hammasidan! Voy, Bahriddinim, Bahriddinam, meni bu mozoristonga tashlab, qayoqlarga ketding-ey, jonim bolam! Jonginam bolam!

Oyim Asol xolamni urishib ham, yalinib ham yupata olmasliklarini sezdilarmi, sandalning past tomonidagi kalta ko'rpachaga cho'kib, birdan Qur'on tilovat qilib yubordilar.

Men ham sekingina bir chetga o'tirdim. Xolam birpas hiqillab turib, boshlarini solintirgancha, jimishga majbur bo'ldilar.

Lampa chiroqning piligi so'xta tortib chirsillar, olov tili ko'tarilib-ko'tarilib qo'ygani sari bir "arvohkapalak" uning atrofida parillab aylanar edi.

Oyim qo'llarini ochib, duo qilishga tushdilar:

- Omin, o'qigan shu Qur'onimdan hosil bo'lgan savoblarni shu xonadondan o'tib ketgan ajdodlarning ruhiga, xususan, go'rlari biz

bilmagan uzoq yurtlarda qolgan pochchamiz Mukarram qori akaning ruhi poklariga fiysabililloh bag'ishladim. Ey poko parvardigoro, shu xonadonning boshiga tushgan balolarni o'zing ko'targin, domi-daraksiz ketgan farzandlarining boshini toshdan qilib, iloho, o'zing daragini chiqargin. Qariganda bizlarni bunday xoru zor qilib qo'yimagin.  
Tilovatning ta'siri bilan hammamiz endi o'zimizga kelib qolgan, boyagi dahshatu qo'rquvlar ham qayoqqadir g'oyib bo'lgan edi. Oyim o'rinalidan turdilar-da, sholchaning ustida yotgan ro'molni xolamga olib berib, uyni yig'ishtirishga tushdilar.

- Oling, opa, boshingizga o'rab oling. Bunaqa o'tirmang.

Qora adyolni taxmonga tutdilar. Yo'l-yo'l qizil dasturxonni topib, sandalga yoydilar. Tovoqni ohib qo'yidilar. Qovrilgan qo'ziqorin hidi gurkirab ketdi.

Asol xolam hamon bilaklarini silab-siypagancha, dasturxonga teskari o'tirar, miq etmas edilar. Xuddi esi og'ib yuradigan odamday ora-chora ba'zan xunuk kulib qo'yardilar.

Oyim choy damlab kelib o'tirdilar.

- O'giriling, opa, dasturxonga qarab oling. Manavi ovqatga qarang.

Asol xolam hech narsa demadilar. Hatto oyimga qarab qo'ymadilar. Shunday bo'lsa-da, so'zsiz o'tirilib, tovoqni oldilariga tortdilar-da, ovqatni chapillatib yeyishga tushdilar. Men bir chekkada qisinib o'tirga-nimni ko'rib, oyim buyurdilar:

- Tur, bitta piyola topib kel.

Men dikka turib, tokchalarga alangladim. Piyola ko'rmay, chor-nochor hovlidagi oshxonaga qarab yurdim. Nazarimda, hozirgina derazadan tashlab qochgan o'g'rining sheriklari hovlida pusib turganday, men chiqishim-la dast ko'tarib qopiga tiqadiganday edi. Kap-katta bola, jon hovuchlab zinaga chiqsam, deraza oldida shipday bo'lib bir odam turgan ekan. Yuragim shuvillab ketdi.

Qichqiray deyman-u, ovozim chiqmaydi. Holimni sezib, haligi qora tomoq qirdi.

- Bu men, Anvar tog'angman, - dedi. Keyin derazaning bir tavaqasini ohib, oyimlar bilan so'rashdi.- Opa, yaxshimisiz? O'zingiz sho'tta ekansiz-ku. Yaxshi o'tiribsizlarmi?

- Ha, Anvarxo'ja, sizmisiz? Yo'talib qo'yiamsizam?.. - Oyim dabdurustdan deraza tavaqalari ochilganiga ko'ksilariga tufladilar.

- Men-men. Opamning ovozlariga chiqqanim. Tinchlikmikan?!

Hamisha siz-sizlab, og'zidan bol tomib turadigan bu odam meni ko'rdi deguncha azza-bazza qarshimda cho'nqayib, so'rasha ketar, cho'ntagidan bir nimalar olib tutqazib, ilinar edi. Men o'zimga kelib, oshxonaga chopqilladim.

Qaytganimda oyim u kishini koyir, Asol xolam esa, hech gap bo'limganday ovqat yeyar edilar.

- Siz qanaqa odamsiz, Anvarxo'ja? Qari odamni shunday, yolg'iz tashlab qo'yasizmi? Bolalarning birontasi chiqib yotsa bo'lmaydimi?

Hamon derazaning u yog'ida turgan Anvar tog'am o'ng'aysizlanib, yer suzdilar.

- Endi, opa, o'zingizdan qolar gap yo'q. Bolalar.... deya yamlandilar.

- Kiring bu yoqdan, begona odamday turguncha! - Oyim shunaqa edilar, jahllari chiqsa, hech kimni ayamasdilar. - Nima, bolalar? Or qiladimi?

- Nega, opa? Or qiladigan bo'lsa, boshini urib yorarman! - U kishi azza-bazza deraza rahiga mushtlab qo'yidilar. - Ammo bu kishining odatlarini bilasiz, yarim kechasiyam turib olib, "Bahriddinam"lab qoladilar. Bolalar yurak oldirib qo'yishibdi. Bo'lmasa, o'libmizmi...

Oyim tushunganday qarab qo'yidilar.

- Sezgirroq yotingda bo'lmasa, siz ham, - dedilar. Lekin o'g'ri tushganini indamay qo'yaqoldilar.

- Xo'p, opajon, xo'p, jonim bilan. - Anvar tog'a qutulganlariga shukr qilib, "xo'p-xo'p"lab deraza tavaqasini yopdilar.

Asol xolam o'sha yoqqa qarab, aftilarini bujmaytirdilar:

- Qorang o'chsin, iloyim, suv ilonday vishillamay... Bular hammasi sherik! Hammasi shu xonadonni to'zitsam, xomtalash qilsam deydi!

Asol xolam yana ayniy boshlagan edilarmi, yo chindanam tog'ani tanib qarg'ardilarmi, bilib bo'lmasdi. Oyim birdan muloyim tortib, xolamni aldab-suldab chalg'itishga tushdilar:

- Hoy, opa, opajon, meni keldingmiyam demaysiz-a? Menam uyimni tashlab kelganman sizni deb. Bu yoqda Maqsudxo'jam o'tiribdi...

Asol xolam oyimni endi ko'rganday, qo'llarini ko'zlariga tutib tikildilar:

- Senam meni tashlab ketmaysanmi? Ayt, tashlab ketmaysanmi? - dedilar yig'lamsirab.

- Nega unaqa deysiz, opajon? Xudoga shukr, mana, yeb-ichib o'tiribsiz. Vahimangiz nimasi?

- Qolasan-a? Yotib qolasan-a?

- Nima, qo'rqiapsizmi? Qo'rqiapsizmi, endi kelmaydi! Kelgandayam, nimayizni oladi?

Asol xolam o'sha-o'sha qaysarlik bilan bosh chayqa-dilar:

- Pochchangni olib ketti u yalmog'iz! Bahriddinamni olib ketdi u. Kelininnyam ko'p ko'rdi menga.

Endi seniyam olib ketadimi, Salom? Ayt, kimim qolyapti mening? Kimim??.

Oyim chidayolmay, piqillab, etaklarini ko'zlariga bosdilar. Nimadir deb xolamni yupatmoqchi bo'ldilar-u, ovozlar chiqmay... turib ketdilar. Xolam birdan o'zlariga keldilar. Hay-haylab, o'rinalidan yulqinib turdilar:

- Hoy, Salomxon, men esi yo'qni kechir! Birpasgina o'tiraqol. Yuraklarim qon bo'lib ketgan, birpasgina yozilaylik, jon singil.

- Xo'p-xo'p, mana, o'tirdim. - Oyim qaytgan kishi bo'ldilar.

Xolam endi meni ham sandal yoniga qistashga tushdilar:

- Voy, yarimta no'xotimdan o'zim aylanay. Beri kelaqol, bu yoqqa o'taqol. Men senga nimalar olib qo'yibman-ku hali. - U kishi quti titkilashga, yong'oq, jiydalar olib, dasturxonga to'kishga tushib ketdilar.

Pildirab yurib, birpasda choyni ham yangilab keldilar. Qaysidir qutilardan kallak qand olib, bir bo'lagini mening piyolamga solib qo'yidilar. O'tirgan joylarida oyimning yelkalariga qoqib, kuraklarini silab, aylanib-o'rgilganlarini, choy berib qistaganlarini ko'rsangiz. Darrovda tamomila boshqa odam bo'lди-qoldilar.

- Yaxshiyam sen borsan, Salomxon. Dardimni yengillatasan. Xudo xayringni bersin, manavi toychog'ingning rohatlarini ko'rib yurgin, iloho.

Men Asol xolamning bu aylanib-o'rgilishlari orqasida biron gap yo'qmi deb xavotirlanib o'tiribman. Ilgari qishda kelganimizda shunday bo'lgan-da. Aylanib-o'rgilib, avrab o'tirib, bir vaqt qarasak, tanchaning ichidan oyog'imizni tizimcha bilan kursiga bog'lab qo'yibdilar. O'z ko'ngillarida, ketib qolmasin, deganmilar.

Shuni sezibmi, oyim gappa soldilar:

- O'zi qo'lingizda bilaguzugingiz bormidi, opa? "Yo'qolgan pichoqning sopi" birdan eslariga tushib, xolam bilaklarini silab, hiqillay boshladilar.
- Kelingina tashlab ketganakan... Undan ola ketgani tuzzuv edi. Bahriddinginamdan esdalik qilib... Iv-v...
- Oyimning ranglari qora-qizil bo'lib ketdi.
- Qayoqdan is ola qolibdi, yaramas?! - Keyin ovozlarini pastlatib so'radilar: - Siz o'zi basharang qurg'urni basharasini ko'rdingizmi yo tusmollab?.. Asol xolam xunuk bosh chayqadilar:
- O'shandan bo'lak it kirarmidi?! - Yuzlarini o'girib o'tirib-o'tirib, anchadan keyin bo'shashdilar.- Ko'zim ilinay degan ekan, bir mahal qarasam, shiftday bo'lib tepamda bittasi turibdi. Qo'lida boyagi qora adyol. Esimni yig'guncha boshimga yopib, sitib oldi-ketdi. Voy-voylagancha qolavurdim.
- Hali ko'rmasdan... "Sultonmurod"lab yotibsizmi?! - deb jerkib berdilar oyim. - Yomon bo'lsa, kim ekan?.. Rahmatli singlingizning yetimchasi. Fig'oningizni eshitib, boyaqish go'rida tikka bo'ldi desangizchi.

Asol xolam birdan to'nlarini teskari kiyib, o'ti-rilib oldilar:

- Sen namuncha o'shaning yonini olib qolding? O'g'rinii o'g'ri, to'g'rinii to'g'ri deydi-da!

Oyim bo'sh kelay demasdilar:

- Qo'l bilan ushlagamingizmi, jim o'tiring. Uyat bo'ladi! Men ham ko'rdim qorasini. O'sha bo'lsa, tilimni tishlamay nima qillardim?!

Xolam yumshadilar:

- Men qaydan bilay, pishillab-harsillashidan o'shami deb...

- Sizga shunday tuyilgan, endi hap o'tiraturing-chi, bedarak ketmas. - Oyim xolamni tinchitib, qo'zg'aldilar. - Turaqol, o'g'lim, vaqt ham allamahal bo'ldi.

O'zi uyqu bosib o'tirgan edim, darrov turdim. Asol xolam azza-bazza yig'i-sig'iga tushdilar:

- Mana shunaqa-da. Hammang kelasan-ketasan. So'ppayib o'zim qolavuraman bu hayhotday mozoristonda. Uning keladi - talaydi, buning keladi - tunaydi... Iv-v...

Xolam yana ayniy boshlagan edilar. Bir amallab zinadan tushib oldigu uyimizga zipillab qoldik.

Oy terak bo'yidan oshib, havolab ketbdi. Atrof sutdek oydinligiga qaramay, har bitta daraxt orqasida bir kimsa pusib turganga o'xshar, uzoqda akillayotgan it ovozi ham aniq-taniq eshitilar edi. Orqamizdan tun qo'ynini yorib, yana Asol xolamning nolayu faryodlari tarala ketdi:

- Voy Bahriddinginem, menginani tashlab, qayoqlarga bosh olib ketding, bole-em?! Bu dunyoda yana qayta ko'ramanmi seni, bole-em?

Titrab ketdim. Oyim og'ir xo'rsindilar:

- Tirnoqqa zor o'tgan opam!.. Asrandisiga tegmasalar nima qilardi edi?! Xudoyim o'zi ko'rib-bilib turgandir. Javobi bordir, bordir javobi bu xo'rliklarning?..

Quruq qayrag'ochdan uchgan bir nima pastlab va xunuk "qiv-qiv"lab borib, ko'chani kesib o'tdiyu daf bo'ldi. Oppoq to'lin oy o'sha quruq qayrag'ochgayam, uqalanib ado bo'lgan devor sarxoklarigayam, yo'l chekkasidagi ko'rpa bo'lib yotgan o'tlargayam nurini birday, ayamay to'kar edi.

### Nusrat Pochchaning Tashriflari

Salqingina shom tushgan, Tegirmenko'chaning bu yog'idagi soylik ustida ko'kish bir tuman Izzagacha tasmadek yoyilib yotibdi. Hamma daladan uy-uyiga shoshgan mahal. Kunning bu pallasida tovushlar allatovur jaranglab eshitila boshlaydi. Bizning dalalar shunday, tongga qadar har xil tovushlardan jangillab, soylar shovullab chiqadi.

Ona-bola oldinma-ketin hovliga kirib borsak, uyda mehmon o'tiribdi. O'chokda olov yonib, qozonda go'sht qovurilyapti. Hovlini piyozdog' hidi tutib ketgan. Supada shaharlilik qarindoshimiz Nusratilla pochcha shom namozini o'qiyaptilar. Biz kelganimizni ko'rib, oldi ochiq oshxonamizdan ipakday muloyim Oyposhsha xolam chiqib keldilar.

- Voy, Salomxon, keldingmi dalangdan? Hali qachon qaytasan, deb qozonga unnab yubora qoluvdim.

Oyim quchoqlashib ko'risharkanlar, xijolatdan o'pka-gina qilib:

- Voy, opa-ey, kelganakansiz, biron ta bolani yogurtirmsizmi? Meni uylatirib nimalarga unnab yuribsiz? - dedilar.

- Pochchangni bilasan-ku, shoshirib tashlaydilar. Cho'lponotaning yog'-go'sht olganakanlar, qozonga bosaqol, arvoh xotira, Salomxonnikida bir kecha yotib ketamiz, deb qo'ymadilar...

- Ajab qipsizlar-da. Xush kepsizlar. - Oyim yo'lakay ro'mollarimi to'g'rilagancha, uyg'a shoshildilar.

Shundagina xolam meni ko'rib, bir qo'llarida kapgir, bir qo'llarini ko'tarib, ko'rishgani kela boshladilar.

- Voy, xolaginang aylansin, katta yigit bo'p qopsan-ku, bolam. Jo-on Xudoyim, oying rohatingni ko'rsin, o'sha kunlarga o'zi yetkazsin, - deb bag'rilariga tortib, kuraklarimni silab, peshonamdan o'pib qo'ydilar. Bunga sari ulardan ham, oyimlardan kelgani kabi, bir ifor taralib, bag'irlariga singib ketgim kelar edi.

Bu orada joynamozni yig'ishtirib, Nusratilla pochcha pishillab-harsillab supadan tusha boshladilar.

- E-e, Mahmudxo'ja eshonning chirog'i, yaxshimisan? Qani-qani, kel-chi. Bir omonlashib qo'yaylik. Obbo do'nан toychog'-ey. Men salom berib, chopib bordim. U kishi ham quchoqlariga olib, go'yo bo'ylarimni hidlaganday iskala-nib, alqay-alqay peshonamdan o'pa ketdilar. Katta-katta qo'llari, ipaqdanam muloyim kaftlari bilan boshu bo'yinlarimni silashga tushdilar.

- Illoho, shu uylarning chirog'ini o'zing yoqib o'tirgin. Xudo yetimlarning g'amini o'zi yegan, o'zi qo'llagan. Bobur mirzoday, peshonasini yorug' qilgan. Senam yurtda martabalar topgin...

Nusratilla pochcha shunaqalar o'zi. Og'izlaridan bol tomib, o'sha ajdodlarini bir eslab qo'ymasalar, o'rniga tushmaydi: "Shahzoda sendekligida unday qilgan, sendekligida bunday qilgan. O'n ikkisida davlat so'rigan, o'n oltisida falon-falon mamlakatlarni olgan..." va hokazo va hokazo. Quloq solsangiz, bundanam g'aroyib hikoyatlarga tushib ketadilar.

Shuncha narsani qaerdan biladilar, hech aqlga sig'dirolmayman. Aytishlaricha, o'zлari ham o'sha Bobur mirzoga o'xshab, ona tomonidan Yunusxonga tutashib kelar emishlar.

- Hey, sen bilmaysan, yaqin-yaqinlargacha oyim rahmatlining sandiqlarida Boburshohning tilla banddi qilichi saqlanar edi, vallohi a'lам. Falon yilgi kov-kovda opchiqib ketganlaricha ketdi bedarak... Badbaxtlar yolg'iz yodgorligimizniyam qo'ymadilar-a, - deb ichimizga olov yoqqanlari-yoqqan har gal. Keyin bizning ham savol xaltamiz ochilib ketadi o'z-o'zidan.

Ammo hozir "boraqol, bo'tam" deganday yelkamga qoqib, yuzimni siypab qo'ydilar. Men hayitlik tekkan boladay ichim toshib

tursa-da, o'zimni bosib, sipolik bilan nari yurdim. Shirin bir tuyg'udan boshim osmonda. Suyagi yo'g'on, gavdali bu odam buncha muloyim, buncha halim ekan? Undan mushk-anbar hidiga o'xhash bir muattar hid gurkirab kelib turar, bu bo'y yuziga yarashiqli chirolyi kuzalgan soqollaridan keladimi yo ust-boshlaridanmi - bilmasdim, bilolmasdim. Ulardan boshqa bironta odamdan shunaqa bo'y tuygan emasman, rosti.

Nihoyat, osh damlanib, samovar qaynaguncha sigir ham sog'ib kelindi, boshqa ishlar ham kusar topdi. Oyim hali ko'mib ulgurilmagan tancha atrofiga joy qilgan ekanlar. Buvamizdan qolgan tabarruk sandal ustiga dasturxon yoyilib, chor gardishli katta gardin qo'yildi. Uning o'rtasidagi gullari o'ngib ketgan bo'lسا-da, girdidagi nozik naqshi butun, bittayam siri ko'chmagan edi. Non ushatilib, choy keldi. Tokchadagi chiroq o'rta olinib, soyalar devorga ko'chdi. Fayz bir yerga yig'ilganday edi.

To'rda Nusratilla pochcha sandalning bir tarafini to'ldirib, qo'sh yostiqqa suyangancha, mammun jilmayib o'tiribdilar. Har qimirlaganlarida "O'zingga shukr, shu kunlarga yetkazganingga shukr", deb qo'yadilar. Qarshimda esa, oq-oppoq bo'lib, Oyposhsha xolam choy quyadilar, boshlaridagi qo'shqavat oq ro'molning bir uchini bo'ynilaridan o'tkazib, shundaygina yelkalariga tashlab qo'yanlarigami yo chiroq o'sha yoqdaligi uchunni, yuzlari shunday chirolyi bo'lib ketganki, qarab-la to'ymayman.

Bu orada oyim oshni yolg'iz chinni laganimizga suzib keldilar. Osh o'rta qo'yildiyu dasturxonga yana ham fayz kirib ketdi.

- Bismillohir rohmanir rohiym, Xudoyimga shukr, yetkazganiga shukr, qani, ne'matini mahtal qilmanglar. Mana, men boshladim, - deya Nusratilla pochcha yeng shimarib, oshga qo'l uzatdilar.

Yo tavba! Bu shaharlik mehmonlarimizning qo'li shunchalar shirinmidi yoki qo'y go'shtining mazasimidi, lekin osh juda zo'r bo'libdi. Hidi gurkirab, boshni bir aylantirsa, o'zi tomoqdan moydek o'tib, o'n yoqar edi.

Oyim samovar patnisiga sezdirmaygina chayindi tashladilar shekilli, tagiga tushgan cho'g' vashillab so'ndi. Pochchaga choy uzatayotib, oshga qistadir:

- Yaxshi-yaxshi olinglar, pochcha, opa, yo'l bosib kelgansizlar.

Pochcha o'zlariga yarashadigan bir tarzda boshlarini saraklatib, alqashga tushdilar:

- Bay-bay-bay, bu dunyoning taomi bo'lmabdi. Rostini aytsam, sizlarning oldingizda yangamning oshini shirin qilgan pochchamning masallig'i degan gaplaram bekor. Bekor-bekor.

- Oyim rahmatlidan bizga yuqqani shuda, - deb qo'ydilar xolam. - Boshqa nima qopti? To'g'rimi, Salomxon?

Oyim xayollanib, bosh silkidilar. Pochcha oshdan bosh ko'tarib, xolamga quvnoq ko'z tashladilar:

- Boshqa nima qoptimi? He, kepcik-kepcik oltinlar-chi, oltinlar?..

Xolam qanaqadir bir voqeani eslab, yuzlariga nur yog'ildi:

- E, Sanobar-e, qayoqdagi unut gaplarni kavlashtirasiz-a. Qarib, qitmir chol bo'lib qolyapsizki biram.- So'ng o'sha voqeana nasha qilib, sandalning chetiga urib qo'ydilar. - Salomxon, esingdami, Umarxo'jaboy qizlarining sepiga bir kepcikdan tilla bo'lishibdimish, deb eshidimizni turnaqator sovchi bosgani?..

Oyim yuzlarini yashirib, kuldilar:

- Shuning uchun sut puliga ham qurbi yetib-etmaydiganlar kuyov bo'lgan ekan-de!..

Men hech narsa tushunmadim. Pochcha xo'rillatib-xo'rillatib choy ichaturib, oyimning gaplariga qalqib ketdilar.

- Rost-da, nega kulasiz? - deb qo'ydilar xolam. Pochcha o'zlarini zo'rg'a bosib, yo'talningmi, kulginginmi zo'ridan ko'zlaridan tirqirab chiqqan yoshlarni arta-arta hansirardilar:

- E, la'nati kepcik, la'nati sep!.. Qayoqdanam esga soldim.

- Biz-ku, mayli, boshqa joyda aytu ko'r mang, pochcha, teshik qulqoq - bilib bo'ladimi...

- Ha, shuni ayt, - deya kutilmaganda xolamning oshga uzatilgan qo'llari lagan chetida qotdi. - Ana, Asol opamlarnikiga oralagan emish-ku. Rostmi, Salomxon? Shuncha so'rasam, o'zları, e, yo'q, o'g'ri nimamni oladi, deb turibdilar?

Oyim tillarini tishlab qoldilar. Aftidan, bular u kungi voqeadan bexabar kelib qolishgan-u, kimdir bir uchini eshitib, xolamnikida yotolmay bu yoqqa chiqaverishgan. Oyim ham buni anglab, yamlandilar.

- O'zim ustida edim, opa...

Xolam sinchkov-sinchkov tikildilar:

- Sen, Salomxon, yashirma, borini aytavur. Oyim endi tasalli berishga oshikdilar:

- Hay, opa, qiziqsiz-a, o'sha gaplarga ishonib o'tiribszimi? Nomini atab chaqirganlari bilan u emasdi. O'zim ko'rdim-ku derazadan tashlab qoqganini. Pakana, pachqqina odamiydi. Men bilamanmi, ular biladilarmi?

Pochcha kaftlarini qoshlariga surkab, barmoqlarini yaladilar. Keyin erinmay sochiqqa artinib, soqollarini silab, moyladilar-da, pishillab yostiqqa suyandilar. (Oshdan bir-ikki cho'qum yegim kelib turgan bo'lسا-da, men ham sekin qo'limni torta qoldim).

- Ha-a-a, - dedilar cho'zib, - qiziq bo'pti-ku. Biz bu gaplardan bexabar, opam yolg'iz qoldilar, Sul-tonmurodni yuborib tursakmikan, deb kelib yuribmiz. Bir chekkasi qora, bir chekkasi manavi notinch zamonda chetroq yuratursami deb...

O'rta qimlik cho'kdi. Har kim o'z xayoli bilan mashg'ul bo'lib qoldi.

Pochcha yana tomoq qirib yo'taldilar, yuzlarini ishqab, o'tirgan joylarida betoqat qo'zg'alib qo'ydilar:

- O'-o'-o', chatoq bo'pti, chatoq. Hovliqib qopmiz, hovliqib, Sanobar.

- Nega unaqa deysiz? Mana, Salomxon aytvotti, xijolat bo'ladijan hech gap o'tmabdi-ku.

- E, baribir-da, Sanobar. Men hovliqma elburutdan raisga kirib-la yuribman. Ruxsat olib-la yuribman.

- Ko'nuvdimi? - dedilar xolam ham xijolatga tushib.

- Ko'nmay nima?! Qiziqsan-a, Sanobar! - Pochcha xolamga ilkis qaradilar. - Nima, Sultonmurod shunaqa qo'rqinchli odammidiki? Gapingni qarayu...

Pochcha o'rnashib o'tirvoldilar-da, og'izlaridan bol tomib, asrandilarini oyimga alqay ketdilar. "Ey, Salomxon, bu eshon pochchamning o'g'illari bir yigit bo'ldi: o'ktamlikdayam, suqsurlikdayam tengi yo'q. O'nta yigitning ichida jo'rabsoshi, qirqta yigitning ichida bek sanalgudek. O't-olov! Bilmagan yurti, oshmagan tog'i, ichmagan suvi qolmadi. Har do'stlari borki, bilmadim, bu boladan kim chiqadi, kim chiqadi. Faqat..."

Ha, pochcha faqat bir narsadan tashvishdamishlar. Anuv Eski Jo'venning melisasi Zokir badbaxt odam quriganday u bilan o'chakishib qoptiyimish. Yo qamataman, yo askarga jo'nataman deb tig'alib kelib yotganmishda nuql.

Pochcha melisani "Egamning tiyg'i parroniga uchragur", deb koyib, choyni oz-ozdan ho'plab o'tirib edilar, birdan nimadir nasha qilib, bosh chayqab-chayqab, o'zlarini to'xtatolmay qiqirlab-qiqirlab kulishga tushdilar. "Hah bolasi tushmagurlar, bolasi tushmagurlar! Nima qilishibdi degin, Sanobar?", deb Zokir melisani qanaqa qilib "yarashuv oshi"ga chaqirishga-nini aytib berib qoldilar.

Anoyilar-e! Tigr'alavuradimi bu, deb uni avval toza musallasga bo'ktirishibdi. Oyoqda turolmay qolgach, postiga obborib, "chiroqpoya" qilib ketishibdi. Bir mahal qarashsa, postda sham yonib yotganmish, erib oqib yotganmish. Postning ichida birov baqirib-chaqirarmish, o'midan turolmasmish. Qorovullar chopib borishsa, Zokir melisa ekan.

- E, toza hangoma bo'b ketdida shu gap. O'shandan beri Sultonmuroddan qasdini ololmay halak, - dedilar pochcha mijjalarini arta-arta.

- Voy, o'laqolsin. Shunga o'tqazib qo'yanakanmi? - dedilar xolam.

- Ha-da. Qancha ishlovminan qutqazvolsam... "Haqiqat qilsa, baravar qilsin, biz ikkitamiz", dermish jiyaning.

- Yo'g'-e. Bilmaganda bu yoqda siz borligingizni.

- Bilganda ham bir karra aytardi: Nima qilib aralashib yuribsiz deb. Axiyri o'sha sheriginiyam qo'shib bo'shatvoldim.

- Kim ekan? - deb qiziqdilar xolam. Pochcha qo'l siltadilar:

- Kim bo'lardi, qumloqlik bir otning qashqasi ekan. Chamanmi, Machonmi, degan. - Yana o'zları "andavalab" siperishladilar: - Balki binoyi yigitdir. Melisani bilasan-ku, hamma udli-shudlisini hisobga olib yuradi.

Keyin pochcha piyolani bir chetga qo'yib, tizzalariga to'kilgan ushoqni terib, alahsindilar. Va shu alahsish barobarida yengil xo'rindilar:

- Shunaqa gaplar, Salomxon. Biz shu asrandimiz shu yoqlarda yura tursami deb keluvdik. Aksiga olib... bu yoqda bunaqa gaplar ekan.

- Jilla qursa, ko'chib chiqqunimizcha tursa edi, - dedilar xolam.

Ol-a! Niyatlar shu ekan-ku! Tag'in "bir yigit bo'lди-bir yigit bo'lди"lab alqaganlariga o'laymi?!

- Bularqa qolsa, ertagayoq anuv qirg'inbarotga jo'natvoradi. Keyin biz nima degan odam bo'lamiz Abdurahim eshon pochchaning ruhlari oldida. Bir arzandalarini asray olmasak?

Oyim yakandozning chetini himarib-tekislab o'tirgan edilar, bu gapdan ilkis bosh ko'tardilar.

- Pochcha, unchalik bo'lsa, mana uy-joy: Asol opamlarnikida turdi nimayu bu yerda turdi nima?! Kelaversin.

Ana xolos! Men yalt etib yuzlariga qaradim: "O'g'ri-kazzob bir odam-a?! Kelib-kelib biznikida-ya! O'g'rixona bo'larkan-da?!"

Ammo oyim menga qarab ham qo'ymadilar:

- Kelsa, begonami, ota yurtiga keladi! - dedilar kesib.

- Uyaltirib qo'ymasmikan? - Pochcha yamlanib, xolamga qaradilar.

- Balki quyilib qolar, arvochlар yor bo'lib? - dedilar xolam.

- Qaniyi, chiroqlarini yoqib o'tirsa, opamning arvochlар shod bo'lmasmidi! - dedilar oyim mahzun tortib va laganni ko'tarib chiq qoshladilar.

Rosti, menam o'zim kal - ko'nglim noziklardanman, shekilli, g'ijinim qistab-qistab o'tiribman: o'zi bularga bo'y bermay ketgan ekan-ku, tag'in qirqa yigitning ichida bek sanalgudek deb maqtaganlari nimasi?! Bitta sho'tumshuq ukasining o'zi yetardi, bunisiniyam tiqishtirishmasa. Hech kimi yo'q deb opkelavurishar ekan-da?..

### Yashil Qushlar Yoxud Pochchaning Bobur Mirzo Haqida Hikoyalari

Oyim qozon-tovoqlarni yuvib, oshxonani saramjon qilyaptilar chog'i, hayallab qoldilar. Men sandalning bir yog'ida tizzamga patnisni to'nnarvolib, o'zimcha dars qilyapman. Pochcha qo'llarida do'lanarang tasbeh (donasiyam do'lanadek keladi), xumdek boshlarini solintirgancha, jimplar. Ko'zları yumuq. Mizg'iyaptilarmi, bir narsani o'layaptilarmi - bilib bo'lmaydi.

Men u kishidan odatdagidek biron sarguzasht (balki yana Boburshoh haqida boshlab qolarlar) eshitishga ilhaqman-u, sezmaydilar. Nihoyat ko'zları tushib iliq jilmaydilar.

- Ha, jiyan, elityaptimi?

- Yo'q, nega? - dedim xijolatga botib. Holbuki, chindanam uyqu elita boshlagan edi.

- Elitmasin, elitmasin, - dedilar u kishi pishillab qo'zg'alib. Keyin katta kaftlari bilan soqollarini tutamlab siladilar. - Sening shu yoshingdamikan, vallohi a'lам, bizning Bobur mirzo uyqularidan kechib, Andijon tomonlarda g'animlari ustiga ot qo'yib, qilich solib yurgan kezlar... Bir kuni desang...

- Qo'ying, Sanobar, yana boshladningizmi o'sha hikoyalaringizniB ?

Xolamning tuyqus e'tirozlaridan pochcha norozilanib to'xtadilar.

- Hikoyalaringa... nima qipti?

Xolam u kishining og'ringanlarini sezib, siperishladilar:

- Endi, o'zizam, Sanobar...

- Nima o'zim? Oshirvoryapmanmi? Arzimabdimi Bobur mirzo?

- Yo'q, nega, arziydi. Unday demayapman menam.

- Bo'lmasa, nega aralashasan, moshxo'rдaga qatiq bo'lib?

- Xo'p, ana, jim o'tirdim, - deb xolam orqalariga suyanib oldilar, - aytganingizcha aytavuring... eshitar quloqni topvolib...

- Ana, xolos! - deya pishillab kulib yubordilar pochcha. - Bir, qo'ying, deysan, bir... eshitar quloqni topvolib! Sen eshitmasang, mana, jiyan eshityapti!

- Bittasi Sultonmurodmidi? - dedilar xolam kutilmaganda kesatib. - Eshitaverib... nima bo'ldi?

Nima bo'lganini... men tushunmadim. Lekin pochcha shu bir og'iz so'z nasha qilib, rosa yayrab kuldilar. Keyin o'zlarini tutolmay, o'tirgan joylarida yelkalari silkinib-silkinib, qiqirlab-qiqirlashga tushdilar.

- Kuling-a, kuling. Sizga kulish bo'lsa, - deb xolam yuz burdilar.

- Voy, Sanobar-ey, Sanobari tushmagur-ey. shunaqa degin?! O'shalarni eshitaverib, degin?!

- Ha, o'zizam aybdorsiz, - dedilar xolam ginalaridan tushmay.

- Aybdorman-aybdorman. - Pochcha bunga sari ta'sirlanib, bosh chayqab-chayqab kulkarkanlar, tan berdilar, - faqat... faqat, hamma unga o'xshasa jon derding, Sanobar!

Kimga o'xshasa? Sultonmurod akamgami yo Bobur mirzogami? Unda nega bu yoqlarga opchiqib turishmoqchi? Kelib yurishibdi? Xolam kesatibroq bir nima dedilar, men anglamay-la qoldim. Pochcha esa, o'sha-o'sha, nasha qilganda chiqqan ko'z yoshlarini hali kaftlariga, hali ro'molchalariga artib o'tirarkanlar, axiyri tinchib:

- Quyilishibam qolar, xolajonisi, quyilishibam... Bu yog'i ota yurt... - dedilar murosa ohangida.

Hikoya hikoyada qolib, xolam gapni boshqa yoqqa burdilar:

- Ota yurtda otaning arvohini ham o'yłasa bo'lardi, boyaqish eshon pochcha, ikki enlikkina xabarsiz... ketib boryaptilar.
- Pochcha qo'llarida tasbelni shiqirlatib:
- Nimasini aytasan, - deb qo'ydilar.
- Yozig'i nima ekan, shunday odam? Pochcha yumshoq kulib, chuqur tin oldilar:
- Heh, Sanobar-a, Sanobar, baloning qattig'i kimga kelishini bilsang eding. Eshon pochchaning kimligini bilmaganday gapirasani?
- Avliyodek bir odam edilar. Nega bilmay?!
- Ha-a, ana endi o'zingga kelding, Sanobar. Xudovandi Karim ham balo-musibatlarning eng zo'rini avval payg'ambarlariga, qolavursa, avliyolariga yuboradi. Shu bilan imtihon etadi, bilsang. Ho'-o', Sanobar-a, bu olag'ovur dunyoda Abdurahim eshon pochchaday baloning og'ziga to'g'ri borish, iymonni bermaslik osonmi deysan, osonmi? U kishi, inshoollo, shahid maqomida ketdilar, ruhlari yashil qushlarga aylanib ... Jannati na'imlardan nasib etdi desang-chi, nasib...
- "Yo Ollo! - Men yuragimga g'ulg'ula tushib, hapriqib qoldim. - Rostdan o'sha qushlar yashil ekanmi, ruhlar ekanmi, oyim aytganlariday?"
- Qo'rqib ketganimni ham, sevinchdan yuragim yorilar darajaga borganini ham bilmayman. Pochchadan so'ray deyman-u, so'ray olmayman, tilim tanglayimga yopishib qolganday.
- Ko'z oldimda esa, o'sha kungi ko'rganlarim: olam oy nuriga g'arq bo'lib yetibdiyu men bog' eshikda qotib turibman. Bir ajib, bir g'alati qushlar xolamlarning xaroba qo'rg'oni ustidan pastlab kelib, ovloq hovuz bo'yiga qo'nmoqdalar, qo'nmoqdalar. Qur-qurlashib uchib-qo'nib, ziyorat etib yetibdilar. O'shalar ham yashil qushlar edi chog'i?..
- Shunaqa deysiz-u, butun boshli bir xonadon tirkirab ketsa, achinmay bo'ladi?
- Ha, nimasini aytasan! - deb turib, yana boyagi gapga ko'chdilar, Sultonmurod akamni maqtashga tushdilar: - Men bunimizning taqdiridan ko'pam qo'rqlayman. Eshon pochchadan yuqqani bor. Hamma xavfim anuv kichigidan. Qo'ldoshxo'ja o'qishga yuborib yaxshi qilmabdi. Salomxonning qo'l ostidan chiqarmasa bo'lardi.
- Tushunmadim. Unisi qaytaga Sultonmurodingizdan mo'minrog'-u...
- Qayoqda! Indamas, sho'rtumshuq desang, to'g'ri bo'lar edi. Ana, Maqsud biladi-ku, to'g'rimi, do'nan toychoq? - Pochcha erkalagandek ko'zлari bir muloyim kulib qaradilar. (Olim akam rostdanam arazgo'y, ichimdagini top xilidan edi. Lekin oyimlardan hayiqib turar, so'zlarini ikkita qilolmasi edi. Qocholmay turgan ekan, o'qishga ketdiyu qorasini ko'rsatmay ham qo'ydi.)
- Men yomonlagim kelmay, yelka qisdim.
- Balkim.
- Balkim emas, anchagina ichidan pishgan. Yosh qolgan-da. Ota-onaning mehriga qonmagan. Sultonmurod esa, o't-olovligiminar bo'lak odam. - Keyin iyib ketib, uzoq yilgi bir voqeani eslay ketdilar: - Bir kuni degin, Sanobar, u vaqtida rahmatli eshon pochcham hayot edilar, biz chor-atrofdan kitobxonlikka yig'ilib turadigan paytlarimiz, borsam, endi asr namoziga o'tishgan ekan, qavatlarida shu bir qarich o'g'illari Sultonmurod bir chiroqli takbir tushirib turibdi. Borib men ham qo'shildim. Eshon pochcham imomlikka o'tdilar, biz orqalarida turib namoz o'tadik. So'ngida "Qani, o'g'lim, o'qivorasizmi?" dedilar. Ilgari eshitmaganakanman, qiroatminan, shu, bir chiroqli o'qiy ketdi, bir chiroqli o'qiy ketdiki "Taborakkallazi" ni. Shu jimitdek bolachalik ixlosimiz yo'qligidan, rosti, uyaliblar ketdim. Keyin, desang, "Opoqdodasi, bizni ozgina darsimiz bor edi", deb haligi yonimizda qo'ndoqdek bo'lib namoz o'tagan bolakayni imtihon eta boshladilar. Men some' - quloq berib o'tiribman. Eshon pochcham so'rab turibdilar. Bola biyron-biyron javob qilib turibdi. Ko'zлari porlaydi, porillaydi, yana so'rang deganday. Har bitta mo'min-musulmon bilishi shart bo'lgan narsalarni biyron-biyron aytib beraversa, degin, yoqamni ushlab qolibman. Qatiq to'kilsa ham, yuqi qoladi-ku, axir, Sanobar. O'sha bolada shu...
- Kenjasim kimning farzandi ekan, Xudo xohlasa, bir yigit bo'lsin u ham, - dedilar xolam.
- Pochcha miyig'larida jilmayib, bir qarab qo'ydilar-u, indamadilar. Sovub qolgan choylarini simirib, yastandilar.
- Men aybsitayotganim yo'q, lekin mehrga qonmagan bunisi. Nari borsa, atak-chechak yurgan bola edida u mahal. Ha, keyin sen unutma, Sanobar. Ilgari poshsholar xos navkarlikka bekorga, ota-onasini tanimaydiganlarni olishmagan? Chunki ularda mehr kamroq bo'ladi. Berahmroq keladi. Olganini beradi-da, olmasa nimani beradi, Sanobar?
- Qo'ying, Sanobar. Xudoning yozganidan ortiq bo'larmidi. - Xolam pochchaning mulohazalariga qo'shilmagan edilar.
- Men aytdim-qo'ydim-da, bolani o'sha o'qishga berib, Qo'ldoshxo'jang chakki qipti.
- Hoy, Sanobar, o'zizzi ja bilimdon sanavorasizki.... Nima Qo'ldoshxo'ja? Yomon bo'lsin, deptimi? - Xolam birpasda xafa bo'lib, arazlagan kishiday yuzlarini burib o'tirib oldilar. - Sultonmurodingizniyam maslahat qilmadiz, axiyri nima bo'ldi?
- Nima bo'pti?
- Mana, Salomxonga qoldiraylikmi deb o'tiribsiz-ku. Qo'ldoshxo'jaga maslahat solganiyz-da...
- Qo'ldoshxo'jang avliyomidi?! - Pochchaning soqollari dikkayib tushdi. Hatto uzun-uzun qoshlari ham tikkayib ketdi.
- Avliyo bo'imsa ham, bir tayinli maslahat chiqardi undan.
- Xo'sh, nima deysan?.. Nima bo'lsa, peshonasidan, deb yuboraverayinmi harbga birovning bolasini? O'zлari to'zib ketgani yetmaydimi?
- Xolam bo'sashdilar.
- Kelib-kelib, boshida erkagi yo'q, Salomxonga qoldiramizmi deyman-da.
- Salomxon tushunadigan xotin. Siyosati ham qattiqqina. Sultonmurod sho'tta turadi, tamom! - dedilar pochcha gapni kesib. Men bo'shashib tushdim! Ana xolos! Shaharning mashhur o'g'risi biznikiga qo'r to'karkan-da? Bu yog'i qiziq bo'ldi-ku!..

### Qizg'aldoq Xumchalari

Chumchuqlar chirqillasha-chirqillasha inlariga kirib ketishdi. Osmon hali yorishib tursa ham, devor taglariyu ariq bo'ylarida qoramtil sharpa kezib qopti. Oyim shosha-pisha namozlarini o'qib olib, sigir sog'ishga tushdilar. Men ikki choynakkina suv sig'adigan jazzi oq ruh samovarimizga (uning old tomonidagi tamg'alarini ichida ikki boshli qush rasmiyam bor) olov qalab, karnayidan gurillab chiqayotgan o'tga mahliyo bo'lib turgan edim, ko'cha eshigimiz g'ijirlab ochildi. Ostonada barvasta odamning qorasi ko'rindi.

- Opa?! Sho'ttamisiz?

Mag'rur ovozlaridan tanidim: Qo'dosh tog'am! U kishi Qonqus tomonidagi allaqaysi kalxo'zda kim bo'libdir ishlaydilar. O'zлari mo'ylov qo'yvorgan, barvasta, uncha-munchani nazar-pisand qilmaydigan, kerilib yuradigan odam. Lekin shu tomonga yo'llari

tushsa-tushmasa, oyda bir-ikki biznikiga bosh suqib o'tishlari, allamahalgacha gaplashib o'tirib ketishlari bor.

Men tog'am lablarining chetida sassiz, lekin yoqimli kulib turishlarini juda yoqtiraman. Bir xil odamlar shunday kulta, o'zingni tahqirlagandek sezasan. Lekin tog'amniki boshqacha. Xuddi "ha, jiyan, no'xatpolvon bo'lib yuraversizmi, bunday bo'yga ham zo'r bering-da", deb erkalab turganday. Men yugurgilab borib, salom berdim.

- E, jiyan, senmisan? Bo'yni qo'yib yuboribsiz-ku, yaxshi-yaxshi. Yigit degan shundoq bo'pti!

Qo'lim u kishining kaftlarida yo'q bo'lib ketib, o'zim bag'rilariga yopishdim. Kiyimlaridanmi, mo'ylovlaridanmi tamaki hidi gupillab anqib turardi.

Oyim sut chelakni bir chekkaga qo'yib, shoshildilar.

- Keling, Qo'l doshxo'ja, esonmisiz-omonmisiz? El-ovullar, hamma qarindoshlar tinchmi? O'zingiz?.. - U kishi ilgaritdan tog'alarimni shunday sizzirab, soyasiga ko'rpacha solgudek izzatlab so'rashadilar.

Tog'am yelkalarini tutdilar. So'ng mening bo'ynimdan quchgancha, ichkariga boshladilar.

- Yur-chi, men senga nima opkeldim ekan. - Va uyga kirib, buyurdilar: - Qani, ko'zingni yum, qo'lingni och-chi.

Men hovuchimni ochib, ko'zimni yundim.

- I-i-i, anoyi-ey, kaftini desam, hovuchini ochadi.

- Mana bo'lmasa, - dedim aytganlarini qilib. (Ammo-lekin, nima ekan, deb ichim qurishib boryapti.)

- Bu boshqa gap, - dedilar kaftimga... qo'lomdek og'ir, g'adir-budir narsa qo'ydilar.

- Topdim, radyolni toshi! Oyi, tog'am tosh opkeptilar quloq radyolimizga. - Men suyinib-irg'ishlay ketdim va kaftimni yuma, chiroq yorug'iga chopdim. Qarasam, chindanam, o'shanday tosh! Kumushday yaltirab turibdi!

- Rahmat de, yo'q yerdan topib keptilar, bolam. Men katta bo'lib qolganimni unutib, yana bir irg'ishladim:

- Rahmat, tog'ajon! - So'ng tokchadagi ditektorni titkilab, o'lib qolgan toshini almashtirishga tushdim.

Oyim qo'yarda-qo'y may taxmondan yangi ko'rpacha olib yozgunlaricha radyolim qitir-qitirlab ishlay ketdi.

- Endi nuqul beshga o'qiyisiz-da, jiyan, - dedilar tog'am.

- O'qiyman! - Va'dani quyuq qilib yuboraverdim.

- O'nni a'loga tugatsang... shaharga o'qishga kiritib qo'yaman, - dedilar tog'am.

- Tugataman ham! - dedim-u, birdan o'ylanib qoldim. - Unda... oyim nima qiladilar? Yo'q, o'qishizga bormayman.

- Ana, xolos! - O'tirgan joylarida tog'am xandon tashlab kulib yubordilar. - Ha, aynib qolding darrov? Ko'zimiz ochig'ida o'qib qolsang-chi?

Men yelka qisdim: Olim akamni jo'natvorgan edilar, meni ham jo'natsalar, bu yerda kim qoladi, oyimga qora bo'lib? Asol xolamga o'xshab, sho'ppayib o'tiradilarmi?

Tog'am gardanimga shapatilab, dashnom berdilar:

- Sen yelka qisma. Keyin tomiringda Ulug'xo'jaboylar avlodining qaysar qoni kezinsa ham, bundan tiyil. Bizning avloddan ko'p aytuvli odamlar chiqqan, lekin hammasini xarob qilgan, bilasanmi, nima?

- Nima? - dedim men.

- O'sha - qonimizdag'i qaysar johillik! Uni tizginlay olmaganimiz!

Tog'am birdan nega nasihat o'qib, tanbeh bera ketdilar, tushuna olmay o'tirardim. Ko'zimni yerdan uzmasdim. Uzsam, battar tutoqishlarini bilaman.

Nihoyat, hovurlaridan tushib, bizni sevintirgilar keledimi, tantanavor dedilar:

- Men nimaga keldim, bilasizlarmi?!

- Bu yorug' jahonda bizga yaxshilik sog'inadigan sizdan bo'lak kimimiz bor, Qo'l doshxo'ja. Albatta, yaxshi gap, yaxshi xabar bilan kelasiz-da, - dedilar oyim topgan-tutganlarini gardin ustiga tashirkanlar.

Tog'am maqtovni xush ko'rari edilar, orqalaridagi yostiqqa yastanib, huzurlangancha:

- Opa, men sizlarni ko'chirib ketmoqchiman, - dedilar.

Oyim qo'llarida choynak-piyola, uy o'rtasida to'xtab qoldilar.

- Qayoqqa, Qo'l doshxo'ja?

- Kattabog'ga-da, opa, qayoqqa bo'lardi? Yurasizmi, qiynalib? Qavatimizda bo'lasiz. Ukangizning yonidagi joyni xatlatib qo'ydim nomingizga.

- Bu joylarimiz-chi? - dedilar oyim hamon o'zlariga kelolmay.

Tog'am qo'llarini aylantirib tushuntirdilar:

- Bu yerlar... Yakkabog' atrofidagi bari qo'rg'onlar buziladi. Buzib, ekin maydonlariga qo'shib yuboriladi. Shunaqa qaror bor, opa. Sizga Qang'lidan joy ajratib qo'yishgan ekan.

- O'zimizdan so'ramasdan-a?

- He, opa-ya, shuncha joylarimizni olganda so'rov midi, endi so'raydi? Endi ota-bobomning joyi edi, degan gaplariz o'tmaydi.

Qayoqqa sursa, o'sha yoqqa qarab ketaverasiz.

- Urush paytiyam... shunaqa qilarkanmi? - dedilar oyim, ularning esi joyidami, degan kabi.

- Yo'q. O'rtaga urush tushib, bu narsalar to'xtab turibdi. Lekin erta-birisini kun tinchib olib, bari-bir ko'chiradi. Men katta pilonlarini bilaman-ku, opa. Undan ko'ra, qavatimizga obketib olay.

Oyim endi joylaridan jilib, tashqariga qarab yurdilar:

- Menden avval, ana Asol opamlarini opketib turinglar. Savobga qolasizlar.

Tog'am bir muddat yer suzib turib, yana ilkis bosh ko'tardilar:

- Opam... unamadilar, unasalar, qani edi. O'laman sattor, Bahriдиним qaytmaguncha, hech qayoqqa jilmayman, deb o'tirbdilar.

Oyim nimadir demoqchi bo'lib, bir qarab qo'ydilar-u, indamay chiqib ketdilar. Tog'am qo'llariga bitta lo'ppi jiydani olib, uning xol-xol qizil po'stini tomosha qila boshladilar; avval kaftlariga olib salmoqlab, barmoqlari bilan ezib-ezib ko'rdilar. Keyin tishlari bilan etini ajratib, chimchilog'dek uzun danagini gardin chetiga qo'ydilar. Unda chindanam alif bitiklari bir naqshday saflanib turar edi. (Beixtiyor jiyda gulining birdan yo'qolib qolishini, kattalar, u danagiga alif yozdirgani hajga ketgan, deyishlarini esladim.)

Tog'am xayollar qochib, yana bitta jiyda danagini yalang'ochladilar. So'ng qarshilarida men o'tirganimni ko'rib, hushyor tortdilar-da, kulimsiradilar:

- Xo'sh, senam ketging yo'qmi, jiyan?

Men nima deyarimni bilmay gangib qoldim. Ko'z oldimdan Yakkabog', Mirjumon atrofidagi bog'lar, mol boqadigan soylar charx

urib o'tdi birdan. Bo'sh qoldik deguncha, shabboxun urib ketardik bu joylarga. Keyin yolg'iz xolam yodimga tushib:

- Biz ketsak, Asol xolam... nima qildilar? Ulardan kim xabar oladi? - deb yubordim. Tog'am kaftlari bilan yuzlarini ishqab, kulimsiradilar:

- Shunday degin?

- Siz bilmaysiz, anuv kuni odam tushgani ustiga borib qolibmiz, - dedim hovliqib. Tog'am hayratlashdilar:

- Odam?..

- O'g'ri-da.

- Yo'g'-e, indamadilar-ku menga? Qachon oralabdi? Kim ekan?

- Sultonmurod akammish...

Men bu gapni qanday aytib yuborganimni o'zim qam bilmay qoldim.

- Sultonmurod? O'zimizning... jiyanimiz-a? - tog'amning ko'zlari qotib, qorachig'i kengayib bora boshladi. - Yaramas! Men uni shunday qo'yarkanmanmi?! Hali shoshmay tursin.

Men ichim shuvillab, kichkina tortib ketdim: aytib nima qillardim-a?

Choy ko'tarib oyim kirdilar.

- Zerikmaygina o'tiribsizmi, Qo'ldoshxo'ja? Siz bir piyola choy icha turing, men ovqatga unnab yuboray.

- Mayli-yu... bu yog'i qiziq bo'pti-ku, opa? - dedilar tog'am.

Men pusib ketarga joy topa olmay qoldim.

- Nima qiziq bo'pti? - Oyim choy quyishdan to'xtab, menga o'grayib qaradilar. Men talmovsirab, sekingina uydan sirg'alib chiqab boshladim.

- Opamlarnikiga odam tushganini aytaman-da. Eshitgan qulorra yaxshi bo'lmaabdi-ku.

- Ana shuning uchun ham bizni qo'yaturib, u kishimi ko'chirib keting. Savobga qolasiz, - dedilar oyim.

Men qiya ochiq eshik tagidan ketolmay turibman. Tog'am tizzalariga shapatilab, chuqur tin oldilar:

- Shuncha tushuntirdim, avrab bokdim, yalinib ko'rdir, qani ko'nsalar. Goh bib-binoyi bo'lib, "Men Mukarram pochchangning ruhini chirqiratib ketamanmi, qayoqdagi gaplarni gapirasani!", deb qoladilar. Goh aynib, yig'lab beradilar. "Shu kecha Bahreddinginam keladigan. O'zi kelsin. Kelib kelinni chimildiqqa opkirsin, innaykeyin...", deydi.

- Xudoning xohishi, nimayam qilaylik. O'zi sabr bersin ishqilib.

- Aytishga oson, - dedilar tog'am xo'rsinib.

- Shukr qiling, Qo'ldoshxo'ja. Hammanglarni terib ketsa, nima qillardik biz?

- O'shanda nimagadir tegmovdi. Endi qo'ymaydi, opa. Bitta qo'ymay opketadi! - dedilar tog'am qandaydir alam bilan.

- Sizniyam-a, Qo'ldoshxo'ja? - dedilar oyim tash-vishlanib.

- Meniyam, Islom, Akrom, Isroilniyam chaqirib turibdi.

- Bitta suyanganimiz siz edingiz...

- Shuning uchunam... ko'zim ochig'ida ko'chirib opketay, opa.

Men "xo'p demasinlar-da, devormasinlar-da", deb titrab turibman. Ko'ngillari yumshab ketmasaydi, deb qo'rqib turibman. Ich-ichimdan bir qaltiliq turib kelmoqdaki...

Shuncha tavallolarim ham bir bo'ldi, oyimning bir og'iz so'zlari ham...

- Unday bo'lsa, maylin, Qo'ldoshxo'ja...

Eshik kesakisiga suyanib turib edim, tizzalarim bo'shashib o'tirib-la qoldim. Keyin - qancha o'tdi - bilmayman, o'sha ichimdan bir narsa kuydirib-toshib chiqa boshladiyu o'zim sapchib turib ketdim. Ko'chagami, bir yoqlarga qochib boryapman-u, tomog'imdan yig'i aralash bir g'alati xo'ngroq bosib kelyapti.

- Yo'q-yo'q, keragamas! Keragamas hech!..

Tog'am allamahalda qaytib ketdilar. Lekin men qimirlab ham qo'ymadim. Xayrlashmadim ham. Xuddi yer ko'tarmaydiganday qo'shnining bog' devoriga chiqvolganman. O'tiribman miq etmayin, ming yil qidirganda topisholmaydigan joyda - tollar orqasida. Yana oyog'imni osiltirvolganman. Juda botib ketsa, salanglatib qo'yaman yo narigi tomonga oshirib olaman.

Oyim xavotirlanib, qidirib chiqmagunlaricha kirib borgim ham yo'q: arazim shunchalik!

Chetidan bir burdasi ushatilgan nonday kemtik oy xolamlarning xaroba qo'rg'oni ustidan chiqib kelmoqda. Uzoqda yolg'iz it akillab, xayolimni o'g'irlaydi. Tolzor ko'chamiz boshidagi ko'prik ostida qurillayotgan quruldoq ham hech tinadigan emas. Uning sasimi, nimadir ichimni sidirvoray deyapti. Bu yodqa ko'chib ketarimizning xabarini eshitgan kabi bahor kechasining tentiroq shabadalari o'yoqlab-o'yoqlab kelib, pyuhi ro'moldayin mayin "kaftcha"lari bilan yuz-ko'zlarimni siypalab, ovutmoqqa boshlaydilar...

Men esam, tog'am opkelgan radyoltoshlaridan ham kechvorib (qo'lim yetsa, uyga kiolsam, allaqachon it-qitvorgan bo'lardim), arazlab o'tiribman. Ich-ichimdan xo'rlikmi-xo'rsiniqmi toshib kelmoqdaki, naryog'i yo'q. Xatto shamollar ham meni qo'yib, tollar ustida huvillab, yig'lamoqqa boshlaydilar.

Tavba, tog'am shuning uchun kelgan ekanlarmi? Ayniqsa, qilar ishni qilib qo'yib, indamayin jo'nab k "borganlari, bir og'iz, u qani, jiyan qani, demaganlari hammasidan ham o'tib tushyapti, alam qilyapti.

Ha, u kishi ketdilaru men qalamtaroshini, nainki qalamtaroshi, undanam azizroq narsasini oldirib qo'ygan bolakaydek bo'ldim-qoldim. Mana, endi, ko'zim jiqla yoshga to'lib, kimsasiz bir kechada tolzor ko'chamizda tentirab yuribman. Safsargullar yakkamdukkam xumchalay boshlagan o'sha tashlandiq hovuz bo'ylaridan, tomlariyu bo'g'otlarini qizg'aldoq'u chuchmoma o'tlar bosgan kulbamiz atrofidan ketolmayman. Qizg'aldoq o'tlar shokila-shokila bo'lib xumchalab yotibdilar, ayni "qizmi-o'g'il" o'ynaydigan payt. Biz esa, ularni ochilishiga ham qo'ymay, buzar emishmiz, qo'porib tashlar emishmiz!

Vo darig', o'zimiz buzzganda shunchalik! Boshqa payt - majburlab ko'chirilganlar, ota yurtidan quvilganlar nima qilishgan ekan? Ne ko'ylargacha tushishgan ekan xolavachchalarim? Sultonmurod akam, Olim akamgilar?..

### Mimit Buva

Sigirni chizmzorga arqonlab, tol soyasiga yonboshlab olganman. Oqava ariqdan chopqillab tushayotgan kumushdek tiniq suv shaldirab, sadafdekk ko'piklanib yotibdi. O'sha yoqdan yovvoyi yalpiz hidiga qo'shilib, bir salqin ufuradiki, qo'yaverasiz. Soyami, o'sha ariqdan urayotgan epkinmi xush yoqib, asta chimga cho'zilgim keladi. Cho'zildim ham. Yumshoq chimda huzurlanib bir dumalab oldim. Shunda boshim allanarsaga tekkanday bo'ldi. O'ngarilib qarasam, o'qish kitobim. Boya tashlab ketganimcha,

yotgan ekan. Bag'rimni marzaga bosib, o'rmonga kirib ketgan qaroqchi haqidagi hikoyatni o'qiy boshladim. Bir payt Izzaning nariji yog'idan birov chaqirib qoldi:

- Hov, eshon bola? Eshon bola-yov?..

Qarasam - Mimit buva. Oq-oppoq qaribam sigir boqishini qo'y maydigan kishi. Siddiq arrakashning bog'i pastidan o'tgan so'qmoqda turibdi. Juda xudojo'y odam. Ozgina tekis joyga belbog' yoyib, mimitday bo'lib namoz o'qib o'tirganlarini ko'p ko'rganman.

- Assalomu alaykum, - deb ovoz berdim.

- Ha, o'tmaysizmi bizzi tomonga? Zeriktirmangda odamni, eshon bola!

- Siz qatga qo'ngansiz? - dedim.

- Hov, anov tutning soyasidaman. O'ting, otamlashamiz.

Bildimki, nimanidir ilinyapti.

- Hozir, - deya sapchib turib, pastga qarab yugurdim.

Mirqobil buva so'zini ikki qilmay borganimgami erib ketib, qaltiroq qo'llari-la bag'rige bosib qo'ydi.

- Obbo eshon bolam-ey, katta yigit bo'p qopsiz-ku...

Bu odam tog'alarim tomonidan tushib, mol boqib ketishini bilaman, lekin kimning buvasilagini hech surishtirmagan ekanman.

Bizga u "anuv buva" xolos. Noniga sherik bo'lganda elakishib turamiz-u, boshqa paytda parvoyimizga keltirmaymiz. Bilamizki, oq yaktak ustidan qavat-qavat belbog' bog'lab, qishin-yozin kalishda yuradigan bu mo'min-qobil chol boshqalarga o'xshab bizni tergamaydi ham, so'kib quvmaydi ham. Mushtdek bo'lib, bir chetda o'yinlarimizni tomosha qilib o'tirgani-o'tirgan.

U kishining ola sigiri har yili mosh sepiladigan soylikning pastida arqonlog'liq ekan. O'sha soylik Izzaga kelib tutashadigan joyda katta botqoqlik bor - biz sakrabam o'tolmaydigan tashlama. Shuning chetiga kimdir bir vaqtlar qator qilib, uchta tutu bitta tol ekkan. Tagiga quyuq soya tashlab, odamni ohanrabodek chorlab yotibdi. Buva bilan ikkimiz borib, o'sha yerga cho'kdik. Buva unnay-unray belbog'ini yechib, chim ustiga yoyib qo'ydi. Bitta zog'ora nonu ustida bir siqim mayiz. Nonni sindirib, mulozamat qildi.

- Oling, eshon bolam, birga tamaddi qilamiz. - Keyin kalta kamzulining chontagini kavlashtirib, ikkita yong'oq oldi: - Mang, eshon bolam, chaqib yuboring buni. Umarxo'ja buvangiz ektirgan yong'oqlardan yeb ko'ring.

Irg'ib turib, yong'oqni chaqib keldim, lekin qulog'im ostidan "buvangiz" degani ketmasdi. "Bu kishi bizzi buvalarni ko'rgan odam ekan-ku.." Iyib ketib:

- Buva, sizdan bir narsa so'rasam, maylimi? - dedim.

U kishi yelkamga qoq kaftini qo'yib, iliq jil-maydi:

- So'ray qoling, eshon bolam!

- Nimaga nuqul "eshon bolam" deysiz, buva?

Bir burda sap-sariq zog'orani og'izga olib borgan joyida qo'lini tushirdi.

- Eshon bola bo'lganiningizdan keyin eshon bola deyman-da.

Buvaning erkalashi menga moydek yoqayotgan bo'lsa-da, ortiqcha hurmatining ma'nisiga baribir yetolmasdim. Buva holatimni sezgandek, yanayam tushuntirmoqchi yuo'ldi:

- Sayyidlarga yaqin turasizlar, axir.

Sutga qorilgan talqonday bo'y taratib turgan zog'orani ham unutdim. Bu haqda oyimlardan eshitganlarim yodimga tushdi va Mirqobil buva go'yo menga yo'qotgan oltinimni topib berganday, quvonib ketdim.

- Siz buvalarimizdan qolgan oltin kitobni bilasizmi?

Buva daf'atan anglab yetmadni, shekilli:

- Qanday kitop? "Oltin" deysizmi, eshon bolam? - deb so'radi.

- Ha-da, yetti pusht yozilgan kitob-chi.

Buva iliq jilmaydi:

- Shajara deng.

- O'sha-o'sha. Ko'rganmisiz o'shani? - dedim men irg'ishlagudek bo'lib.

Mimit buva boshini saraklatdi.

- Nega? Hozir aytib turuvdiz-ku?

Buva "e-e" deganday o'ng qo'lini boshi uzra bir g'alati sermab, entikdi:

- ...Ammo yaxshi eslayman, rahmatli Abdurahim eshon pochcha o'sha shajaratlari daraklatib bir narsalar topgan edilar.

Ko'kaldoshda shahid ketgan Ulug'xo'ja buvangiz haqida, u kishining mengan o'g'illari haqida ko'p gapirib o'tirar edilar. Biz saboq olgani borib, eshitib qolganimiz shu, eshon bolam.

Men negadir hovliqardim:

- I-ya, mengan o'g'illari borakanmi? - dedim go'yo ilk bora eshitayotganday. So'ngra qarshisiga cho'kkalab, dedim:

- O'sha kitobni topsa bo'larmikan?

U kishi boyagiday qo'l sermadi.

- Qay-da!

Men endi bir uchini topdim deganimda, bu javobi g'alati edi.

- U ko'm-ko'mlarda qaerlarga ko'milib ketdi, kim bilsin, eshon bolam. Lekin... - deya buva nursiz, suzuk ko'zlarini jiddiy qadab, bir daqiqa jum qoldi.- Lekin ilohiy kitoblar bilan qo'shib ko'milgan bo'lsa, yo'qolmaydi. Xudoyimning o'zi asraydi. Yana o'zi biladi, biz nimani bilardik.

Ajabo. Shuncha narsani biladigan odam, biz nimani bilardik, deb tursa. Shunday oq-oppoq, yuzlaridan ajoyib nurlar yog'ilib o'tirgan odam... Onam aytib bergen Hizrnning qiyofasidagi yoqimtoy chol... (Yuziga, ko'ziga qarab o'tiribman-u, bir narsaga chalg'isam, xuddi yo'q bo'lib qoladiganday xavotirdaman...) shunday odam ham bizning yo'qolgan shajaramizni bilmasligi, bir hisobda, hafsalamni pir qildi. Lekin shajara haqidagi anuv gaplari ajoyib edi! Qaerga ko'milgan ekan-a, eshon pochchaning o'sha kitoblari?

Bir qarqunoq tepamizga uchib kelib, "qiyov-qiyov"lashga tuttdi. Ho'v naridagi bedapoyada allaqanday sariq boshli jimit qushchalar sa'va kabi biri olib-biri qo'yib, chuldirab yotibdi. Izzaning qayrilishida suv shaloplab-shaloplab qo'yadi. Ba'zan shabada bog' tomondan jiyya guli hidinimi-ey, bir totli bo'yлarni keltirib dimoqqa uradi. Ko'rinishdan mol boqishu namozini

o'qishdan bo'lakka yaramaydigan manavi Mirqobil buva har zamon "oling-da, eshon bolam", deb dasturxonga qistab qo'yadi. Unga sari men qisiniq-qimtinaman. Boshqa paytlardagi munosabatimni eslab, uyalib o'tiribman. Buva bizni shunchalik kiftiga ko'tarib, "eshonbolam"lab tursayu men arzitib salom ham bermas edim-a.

Sigirim zorlanib ma'radi.

- Men boray, buva. Hali maktabga ketishim kerak,- dedim ruxsat so'rab.

- Mayli-mayli, eshon bolam. Bizzi tomonlarga o'tib turing shunaqa, xo'pmi?

Men Izzaning tor bir yeridan hatlab o'tib, yugurib ketdim. Shunday yengil edimki, qaldirg'ochday uchib ketsam mumkin edi. Ilgari bolalar bilan quvlashmachoq o'ynaganimda, Izza bo'yidagi katta tepalardan pastga qarab chopganlarimda shunday bo'lardi. Xuddi yelkamdan qo'sh qanot o'sib chiqqanday, uchib ketardim! Hech zog' tuta olmasdi! Endi biron kimsadan biron shirin gap, shirin so'z, biron suyunchli xabar eshitsam, bas, hoziriday ahvolga tusha boshlayman. Bir yoqlarga uchib ketgim kelaveradi, kelaveradi...

### Mo'min Tog'aning "Mehmoni"

Kitobni qo'litiqqa urgancha, targ'ilni yetaklab tegirmon yo'lidan chiqib borsam, Mo'min tog'aning qo'rg'oni oldida tumonat odam. Erkaklar so'kingan, xotin-xalaj darvozaning jilovxonasiqti tiqilvolgan. Hovuz bo'yiga to'plangan tomoshatalab bolakaylarning-ku hisobi yo'q. Kimning qo'lida so'yil, kimnikida gavron.

Sigirni o'rikka bog'lab, o'sha yoqqa yugurdim.

Ayrimlar tol tomonga xezlanib-xezlanib boradi-yu, o'rtadagi Mo'min tog'adan o'tolmay qaytadi.

- Hoy, chirog'larim, o'dirib qo'yasizlar. Buyam xudoning bandasi.

Ammo Rahmatilla birgad ketmon dastani boshi uzra sermab, shang'illaydi:

- Shu gal o'rta tushmang, tog'a. Bularning bari bir go'r: ayaganingiz sari ko'zga cho'p soladi! Qo'yib bering, onasini Uchqo'rg'onidan ko'rsatvoraylik.

Yaqinroq bordim. Ariq bo'yidagi ichi chirib tushgan tolga yoqavayron, boshyalang bir odamni arqon bilan chirmab tashlashibdi.

O'lasi qilib urishgan shekilli, boshi ko'ksiga osilib yotibdi. Gardanu yelkalari mo'mataloq.

O'zim tengi bir boladan sekin shipshib surishtirdim:

- Nima bo'pti?

- Tom teshgan ekan, tutib olishibdi, - dedi u ko'zini chirmalgan odamdan uzmay.

- Bekor aytibsan, devol oshib tushganakan. O'zi aytdi-ku, eshitmadingmi? - dedi yonida turgan boshqa bir bola.

- Kuppa-kunduzi-ya?

- Hamma dalaga ketganini poylaganda bular?

- Sherigiyam borakanmi?

- Ha, ammo oyog'i chaqqon ekan, survivoribdi.

- Rostdan-a?

- Tolzor ko'chada ketvotkanini ko'rishibdi. "Tolzor" bizning ko'cha edi. Beixtiyor ichimga cho'g' tushdi. Asol xolamlarnikiga o'g'ri tushganini esladim. Nahot?..

- Kim ekan? - deb so'radim qo'rqa-pisa.

- Bilmadim. Sherigini sotmayapti, - dedi Aliakbar o'g'rining og'zi mahkamligiga besh ketib. - O'g'ri bo'lsayam zo'r ekan!

Mening xayolimda esa, bir ism: "Nahotki Sultonmurod akam? - deyman. - Uzi qolib, sherik boshlab keptimi endi?.. Bo'lakdir-e, o'libdimi?!"

Bu orada yigitlar yana norozilanib, qiziqqonroqlari shang'illay ketishdi:

- Qo'yib bering-da, tog'a. Shahdimizni o'ldirmang-da.

Sal yoshi kattaroqlari bo'lak taklif qilishi:

- Jilla qursa, eshakka teskari o'tkazaylik. Ko'chani bir aylantiramizu keyin qo'yib yuboramiz.

Mo'min tog'a egnida yashil to'n, boshida kichkina salla, hassaga tayangancha o'g'riga "qalqon" bo'lib turibdi. Aftidan, chekingisi yo'q. Qo'yib bersa, odamlar bechorani tilka-pora qilib tashlagudek alpozda.

- Qo'yinglar, chirog'larim, bir adashib kepqopti bu mehmon bolam.

- Adashibdimi? Mehmonni bu, tog'a? - deb yigitlar kulishdi. - Nasibasini yeb ketsin bo'lmasa.

- Yedi-edi, qorni ham to'ydi. Endi bu yoqlarga boshqa yo'lamaydi, - dedi tog'a.

Rahmatilla birgad yana o'rta qidqi.

- Hali gunohini ham tilab olarsiz? Ilgarigi zamon bo'lsa, birovning moliga cho'zilgan qo'llarini chopib tashlardik! - dedi u xuddi boltasi bor odamday azot qo'l siltab.

- Hoziram chopish kerak! Bittasini ibratga chopsak, hammasi in-iniga kirib ketadi, - dedi Haybat akam bilag'onlik qilib.

- Hozir bo'lak davr-da, - deb qo'ydi bir chekkada, katta to'nka ustida tamaki o'rab o'tirgan po'chtachi Mirhomid amaki.

- Bo'lmasa, boshini silab, yara-chaqasini bog'langlar-da, uzr so'rab, javob berib yubora qolinglar! - deb kesatdi Haybat akam.

Ammo Mo'min tog'aning parvoyi palak. So'zidan qaytadigan siyog'i yo'q edi.

- Hech narsamizni olmagan ekan, biz gunohidan kechdi, endi tarqalinglar sizlar ham, - dedi qat'iy kesib.

- Xo'p, biz rozi, - dedi Rahmatilla birgad, - faqat sherigini aytsin, qo'yvormagan nomard.

Shu payt Haybat akam dabdurustdan:

- Ha-ha, so'rab boqing, balki Sultonmurodni tanir, - deb qolsa bo'ladi. Mening g'ashim keldi: zo'r lab bo'yniga qo'ya qolinglar bundan ko'ra! Yoki Haybat akam rostdan ham bir narsani biladimi?

Mo'min tog'a hassasini qo'lting'iga qisib, o'g'riga o'girildi:

- Nima deysan, mehmon bolam? Ayt-da, qutul-ket bulardan.

Chandilgan odam bosh chayqab, nimadir dedi. Ovozi tashiga chiqmadi ham. Rahmatilla birgad shovqin soldi:

- Joning bormi, hammaga eshittirib ayt! Bu gal arang ming'irladi:

- Yolg'iz o'zimman.

- Yolg'izsan-a, yolg'izsan! Kimni laqillatmoqchisan! Mana senga, o'g'ri!

Qanaqqib aylanishib borib qoldi - bilolmay qoldim: Haybat akam uning yuziga qulochkashlab tortib yubordi. "Mehmon"ning boshi ikki aylanib ketdi-yov. Biz bolalar qo'rqqanimizdan "huv-v" tortvordik. Yana bitta urganida bormi, boshi sapchadek uzilib

ketarmidi?!

Mo'min tog'a hassasini ko'tarib, Haybat akamni quvib berdi.

- Qoch badbaxt! Qachondan beri yiqilganni tepadigan bo'lding?!

- Uzr, tog'a, uzr. O'zimni tutolmay qopman, uzr, - Haybat akam qo'lini ko'ksiga qo'ygancha, tisarildi.

Endi Mo'min tog'aning rostakam jahli chiqdi:

- Boringlar hammang! U senlarnikiga kelganmi, menikagami? Namuncha bag'ritoshsanlar?!

Boyadan beri shang'illab, hech kimga so'z bermayotgan Rahmatilla amakiyu Haybat akamlar damlari ichiga tushib ketdi. Odamlar jim-jim tarqay boshladilar.

### Po'chtachi Amaki

Biz bolalar tomoshaning tez tugab qolganidan afsuslanib istar-istamas jilarkanmiz, yo'l yoqasidagi to'nka ustida har doimgidek miyig'ida kulib o'tirgan quv po'chtachi amaki kutilmaganda shart tashlandiyu bittamizni tutib oldi. So'ogra "Chini-mini, xo'p!" deb qo'lini o'ynata-o'ynata o'sha bolaning qo'yniga tiqdi-da, u yerdan bir narsa chiqardi. Qitig'i kelgan sherigimiz qiqir-qiqir kulib, qiyshonglab turardi.

- Mang, polvon bola, so'rib ko'ring-chi, suzmangizdan qanaqa qurut chiqibdi!

Qurutni ko'rib, hammamiz o'ralashib bordik.

- Qaniy? Qaniy?..

Bola qurutni hayratlanib ham ikkilanib oldi. Kaftida aylantirib, rostakammi, yolg'onidakammi ekanligini to bilguncha... bir olg'ir chovut solib, olib qo'ydi va shu zahoti og'ziga tikdi.

- vooy, zo'r-ku, qaymoqning o'zi! - dedi ko'zini suzib.

Buni ko'rib, qolgan bolalar ham Mirhomid po'chtachini o'rab oldik:

- Mengayam bering...

- Mengayam "chiqarib" bering.

- Jo-on amakijon...

Amaki birdan yayrab ketdi va tamakisini chetga itqitib, kimga qurut, kimga yong'oq, kimga esa mayiz chiqarib bera boshladi.

Qizig'i shunda ediki, u "Chini-mini, xo'p!" deb turib, kimning boshi, kimning gardani, yana qay birimizning biqinimizdan biror narsa "paydo qilar", har gal bizlar shod qiyqirar edik. Hozirgina ro'y bergen hodisalarni - Mo'min tog'an ham, shaharlik "mehmon"ni ham, haligi mojarolarni ham unutib yuboray debmiz.

### Ko'zirlar

U yodqa Mo'min tog'aning daroz kampirlari bir kosa ayronmi, qatiqmi ko'tarib chiqqan, endi chol-kampir "mehmon yigit" ustida o'lib-tirilib yotishar edi. Adol opoqining do'rillagan ovozlari bizgacha eshitilib turibdi.

- Hoy bolam, manavini bir simir. Ichginang uzilib ham ketgandir sanginani. olol, xolang qoqindiq.

Tog'a uni toldan yechar-echmas Adol opoqi hali uning mo'mataloq yelkalarini silab, hali yoqalarini to'g'ri laydi. O'zicha javrab, kuyib-pishadi:

- Kel-kel, qaddingni ko'taraqol, xolang bo'yginangga qoqindiq. Ol buni. Malham bo'lzin. San ko'r-man ko'r bo'lib ketgin, ilohim. Shaharlik o'ng qoshi ustiga tushib borayotgan sochini selpib, kosani oldi va qo'shxo'llab tutgancha, yutoqib icha boshladi. O'ziyam bo'lari bo'lib, ichginasi kuyib ketgan ekan, qatiqni bir ko'tarishda sipqorib, huzurlanib turib qoldi.

Men unga qarab, qotib qopman. Ajabo, u qatiq ichdimi yo boshqa bir shifobaxsh narsami ichdi! Bir kosa qatikdan odam shunchalik tirilib qoladimi? Ko'zlarimga ishonolmasdim. Boya kaltak ostida shuncha kichkina tortib ketgan ekanmi, qarshimda oyoq-ko'llari uzun-uzun, o'zi nortuyadek beso'naqay, daroz odam bo'y rostlab borar, uning lablari do'rdoq-do'rdoq, burni ham o'qlig'idek bor edi. Faqat, hadeb qoshi va ko'zi ustiga sirg'alib tushib borayotgan sochini demasa, o'g'ri siyog'i yo'q.

- Mana, xola, temirga suv bergandek bo'liz! - dedi u axiyri kosaning yuqini ham qoldirmay.

Adol opoqi yayrab ketdi:

- Xol Lang aylansin, qatiq osh bo'larmidi, uyga kir, uyga. Sanga loyiq biron narsa toparmiz.

Tog'a ham qaytib, ichkariga qistay boshladi.

- Yur, mehmon bolam, jilla qursa, bir piyolagina choyimizni ichib ket.

Shaharlik xijolatga botib iljaydi. Lekin holati shundayki, yana sal qistashsa, kirib boradigan. Mayli, bugun sizlarga o'g'il bo'laqolay, buyuring, o'tiningizni yorib beraymi, o'g'iringizni yanchishib yuboraymi, deb ergashgudek. Shunaqa erib turibdi. Ammo shu tob Izzadan chiqaverish yo'ldagi Qorovultepa orqasida chang-to'zon ko'tarilib, aravanningmi, nimaningdir shaldiragan shovqini eshitildi. Va hech qancha o'tmay, tepa orqasidan qo'sh otli uzun arava otilib chiqib, to'g'ri shu yoqqa bostirib kela boshladi.

- Uni qaranglar, bollar, uni qaranglar! - deb qichqirib yubordim.

Chindan ham ularning keluvi, keluvidan ham burun arava ustida turib olib, qiv-qivlab qichqiruvlari bir g'alati edi.

- Parpinning chapanilari-ku, - dedi po'chtachi amaki o'tirgan yerida.

- Voy, rostdanam o'shalar!

Gurra qo'zg'olib, o'sha yoqqa yugurdik. Men hammadan orqada edim. Negadir anuv shaharlikdan ko'zimni uzmasdim. "Qochsachi, bir yoqqa urib keta qolsa-chi!" derdim. Qayoqda, qilt etmay turibdi. Men ham beixtiyor to'xtab, uni kuzata boshladim.

"Mehmon" aravani ko'rgach bir sergak tortdiyu nima gapligiga tushundi. Na o'takasi yorildi, na qaltirab qoldi. Qaytaga tiyraklashib, Mo'min tog'aga yaqinlashdi. U kishining yelkalaridan yengil quchdi-da, quloqlariga bir nima deb, so'ng anhor yoqalab tisarila boshladi.

Adol opoqi ichkaridan hayhaylab chiqib keldi:

- Hay bolam, qayqqa borasan? Kir bu yoqqa, ro'para bo'lma shularga.

- Mayli, xola, xijolat chekmang, - dedi u va ayzirib oqayotgan anhordan qoplonday sakrab o'tib, hovuz bo'yiga chiqib bordi.

- Voy, sani qara-yu. Tayyor joy turib... - degancha qolaverdi Adol opoqi. So'ng choliga qaradi: - Hoy, chaqirsangiz-chi uni haliyam...

Hassasini do'qillatib, Mo'min tog'a anhor yoqalab boraverdi:

- Hamonki uyga kirmading, ana, masjidga o't. Xonaqoga kirib ket, bolam. Xudoning uyiga bostirib kirolmaydilar, bor, - deb qistay

boshladi.

"Mehmon" aravadan ko'z uzmay, qiyamalab-lapanglabroq borarkan, tog'aning ko'ngillari uchunmi, bosh silkib, bir nimalar dedi. Lekin o'zi masjid qolib, katta ko'chani kesib o'ta boshladi.

Bu orada shaldirab kelayotgan qo'sh otli arava o'rikzordan o'tdi. Yo'l chetiga tizilishgan bolakaylar gurra unga ergashdilar. Bunga sari arava ustida turvolgan yigitlar (nima balo, rosa qimizxo'rlik qilib yotishganmi) qiyqirib, otlarni battar tezlashadi. Aravakash tizginni silkilagani yetmaganday, arqon uchini boshi uzra qamchiday chir aylantirib, shotiga chars-chars uradi.

- Ha-a, jonivorlar! Qadami shamoldan tezlar! - deb qiyqiradi.

Mening ichim toshib boryapti. Qorasini o'chirsa, o'chirib keta qolmaydimi anuv shaharlik! Qodir amakining devoridan lippa oshsa-ku, olam guliston! Hech bo'lmasa, Mirhomid amakinikiga uring ketmaydimi!

- Eh, qaysar-a, - deb tog'a ham yarim yo'dda to'xtadi, - boshiga yana tashvish sotib olyapti.

Adol opoqi lippalarini tushirgancha jovullab ko'chaning o'rtasiga dovrush tushib bora boshladilar:

- Hoy chol, hoy To'lavoy, bu yoqqa qarang. Qaytaring bu yer yutkurlarni. Bir baloni boshlamasinlar, axir.

Men o'takam yorilib, oldilariga uchib bordim.

- Qoching, opoqi, qoching. To'xtasa, o'zi to'xtaydi, - deb baqirdim.

Yaxshi ham chopib tushganim: otlar hurkib, aravani bedapoyaga surib ketdilar va biz qutulib qoldik. qolaversa, aravadagilar to o'zlarini o'nglab olguncha boyagi shaharlik yetadigan joyiga yetib oladi, deb suyundim. Lekin qaerda!

Xirmontepaga ketadigan ko'cha yoqasida, anhor bo'yiga chiqib, bemalol yuzini chayayapti. Har zamonda bu yoqqa kdrab-qarab qo'yadi, xolos. Shoshmaydi ham, qochmaydi x,am. Rosa dardi bedavo ekan-ku bu odam!

Xayriyatki, haligi hovliqmalar hozircha shaharlikni ko'rishgani yo'q. Aravadan sakrab-sakrab tushib, otlarning boshini qayirish, bir amallab ko'chaga olib chiqish bilan ovoralar.

Ular aravani qaytarib chiqqanida shaharlik bir hatlab anhordan o'tgan, Qodir amakining nahrali deioriga qarab yurgan edi.

Nahradan oshib o'tsa, qutuladi. Ammo u nahraga oorib to'xtadi, cho'ntagidan bir narsa olib, bamaylixotir tamaki o'ray boshladi.

Ana xolos!

Bu orada yaktak ustidan to'n kiyib, qiyiq bog'lagan qizil etikli chapani yigit g'o'ddayib, tog'aning oldiga chopib keldi.

- Hov amaki, qani mehmoniz? Yo qochirvordizmi? Tog'a yoqtirmaygina:

- O'zing kimsan? Seni kim chaqirdi bu yerga? - dedi.

- Bizmi? Parpingning yigitlarimiz. Tanimadizmi? Tog'a unga boshdan-oyoq razm solib, kesatdi:

- Xonning chopari emasakansan-ku, shundoq gapiravur-da. Xuddi men Parpingni bilmaydigandek.

- Bilsangiz, biz sizzi himoya etip keldik. Yakka-boqqa beso'roq kirganni ko'rsating bizga. Oyog'in sindiraylik biz! Qani u? - dedi hamon balandddn kelib.

Mo'min tog'a javob berguncha bo'lmay, bir bolakay hovliqib ko'rsatib yubordi.

- Ana-ana! Ko'chaning nari yog'ida! O'tib ketdi sizlarni ko'rib...

Tizgin bo'shalib, arava jildi. Yigitlar ikki yoqdan "mehmon"ni o'rab boraverishdi.

Adol opoqi qarg'anib, jovullab berdi:

- Ordona qolsin Parping! Endi himoyachi bo'p qoptimi?

Uchinchi yigit aravani ko'chaning boshiga burib, tusha boshladi. Bungacha qizil etiklisi ko'prik ustidan o'tib, qaynamanining narigi boshiga yetdi.

Biz ham hovuz bo'yil bilan katta ko'chaga chopdik. Erta ko'klamdayoq kesilib, xodasi ishkomga ishlatilib ketgan tollar tekis ko'klab yotibdi. Taglariga savat ko'targan xotinlarning soyasiday soya tashlagan.

Biz o'zimizni shu soyalarga olib, ko'zirlarning olishuvi qanaqa bo'lismi poylab o'tiribmiz. Birinchi bo'lib qizil etikli yigit chiraniq bordi. To'nining bir barini belbog'iga qistirib olibdi.

- Yaxshilikcha o't baqqa, xo'v hezalak, - dedi hali ko'prik ustidaligidayyoq.

- Kerak bo'lsa, o'zing o't. O'tib ko'r, - deb javob qildi shaharlik ham. U o'sha-o'sha tamakisini buruqsitib, nahraga suyalib turardi.

- O'tsam, qo'rqamanmi sendan! Gavdangga ishonma, bukri tuyu. Sen lo'k-lo'k etguncha... - deb kuldi qizil etikli. Uning tutamagan gapini bu tugatdi:

- ... men dumingni tugaman-qo'yaman!

Qiqirlab kulib yubordik. Qizil etiklining ori keldimi, bizga bir o'grayib qaradi-da, jahl ustida tisarilib, anhordan bir hatlagen edi, ancha nariga borib tushib, munkib ketdi. Shunda shaharlikka Xudo berdi. Tamakisini qayoqqa itqitdi, qizil etiklining tepasida qanday paydo bo'ldi - ko'rmay ham qoldim. Ko'rganim - to'niyu yaktagidan qo'shib, gardanidan azot ko'tarib turar va boyagi chiranchiq uning qo'lida mushuk boladay tipirchilar edi.

- Qo'yvor, nomard, g'irrom ekansan. Mard bo'lsang, o'rtaqa chiq, o'rtaqa, - deb xirilliardi u.

- Bittalab suvgi pishaman hammangni! Itning bolasiday vakanglab qochmaganining ko'raman! - Sha-harlik mehmon shunday deb qizil etiklini bir itqitgan edi, anhor o'rtasiga shaloplab tushdi va anchagacha o'zini o'nglay olmay qoldi.

Biz o'rnimizdan sakrab tura, qay birimiz ko'prik ustiga, qay birimiz narigi betga zing'lliadik.

Ammo shu top aravakash ko'prik ustidan o'kday uchib borib, shaharlikning orqasidan chunonam kalla qo'yidiki... O'ldi, deb yubordim men. Ammo shaharlik o'zini go'llikka solib turgan ekan, ustalik bilan bir chap bergen edi, aravakash demagani peshonasi bilan yer suzib tuttdi va ingrab yubordi. Shaharlik uni ham gardanidan boyagidek dast ko'tarib, anhorga itqitdi. Ayni shu damda uchinchi sheriklari o'qday yetib kelib, o'xshatib tushirib qoldi. Biz azbaroyi qo'rqqanimizdan uluv tortib yubordik.

Kasofatning zarbasi qattiq bo'lgan shekilli, shaharlik uch o'mbaloq oshib ketdi, lekin oxirgi daqiqada koptokdek sakrab turdi va uchib orqasiga qaytdi. Chapani hatto esini yig'ib ulgurmadi. Shaharlik uni bo'ksasi bilan chunonam tur-tib, uchirib yubordiki, uch metrcha nariga borib tushdi. Bu bilan kifoyalananmay, ustiga bostirib bordi-da, ordan dast turg'azdi va chap qo'lining orqasi bilan dahaniga bir tushirib edi, chapani deganining esi og'ib, orqa-oldiga qaramay qocha boshladi.

- Qanisan qolganing! Bittalab qiymalayman endi! - deb yer tepindi shaharlik g'azab ichida.

Sheriklari uchun o'zi yetarli bo'ldi. Suvdan chiqa, qochib berdilar. Shaharlik qochayotganlarning ketidan uch-to'rt qadam quvib ham qo'ydi:

- He, ustozingdan o'rgildim sen hezimlarni! qo'limga tushlaring, nima qilarkanman!

Ulardan biri jon holatda aravaga tashlanib, tizginni qo'liga oldi. Qizil etikli ham, boshqasi ham itirmon ko'chaga burilgan arava orqasidan chopdi.

- Hoy, shoshma, do'pping qoldi, olaket, - deb atay hazillashdi po'chtachi.  
Biz xaxolab kulib yubordik.

Bu Kun Qanday Kun O'zi  
Bolalar chug'urlasha boshladi:

- Qoyi-il!  
- Zo'r ekanmi! Bir o'zi uchtasiga bas keldi-ya!

- Ammo-lekin qotirdi. Ana, yigitning gul! - dedi kulib po'chtachi Mirhomid amaki. So'ngra shaharlikka yuzlandi: - Bu quturganlar o'zini shu dahaning ko'ziri biz deb biladi. Sen, uka, yaxshisi bular bilan o'chakishma, bular xudoning boshli-ko'zli bir balosi.

Bu orada Mo'min tog'a ham shu yerga yetib kelgan edi. Shaharlik chittonni yana yo'lga solmoqchi bo'ldi:

- Mirhomid to'g'ri aytdi, mehmon bolam. Yo tez ketib qutul, yo mening aytganimga kir. Ma'qulgina yigit ekansan. Xo'p de, bizgayam jabr qilma, o'zinggayam, - dedi yalinchoq ohangda.

Shaharlik anhordan hatlab bu qirg'oqqa o'tdi.

- Jabr deysizmi?

- Ha-da, ular u yoqdan hali nechtasini boshlab kelar, sen ham bu yoqda qarab turmassan, ikki o'rtada qirg'in chiqadimi? Qo'y, kimga kerak bu mashmasha? O'rtada qon to'kiladimi? Eshitgan quloqqa yaxshimas. Qolaversa, musulmon farzandisizlar.

Murjumonda shunaqa ish bo'pti, desa, bizga uyat.

- Unaqa niyatim yo'q, ota. Sizlarni uyatga qoldirguncha... O'lganim yaxshi, - dedi u kutilmaganda.

- Sen shunaqa deysan, lekin Parpi - Parpi-da. Bekorga bebaxt deb atabmizmi? - dedi Mirhomid amaki.

- Bebaxt? - Shaharlik go'yo muhim bir so'z eshitganday sergaklanib, bir po'chtachiga, bir Mo'min tog'aga qaradi. Ko'zlar yarq ochilgan, yuzlarida esa, bir g'alati ifoda - xijolatmi-ey, uyatmi-ey...

- Asli badbaxt, lekin odamlar uni bebaxt atab yuborgan.

- O'ziyam biladimi?

- Bilmay nima?! Lekin ko'ksi kirlab ketgach, or nima qiladi? Nomus nima qiladi unda? - dedi Mo'min tog'a hassasining uchi bilan yer chizib. - Iymon ham unaqa ko'krakni tark etadi, bo'tam.

- Unda, bunaqa kimsaning jazosi nima, ota?

Biz bolalar hamon tomoshabinmiz, uning gaplariga hayron qolib, miq etmay turibmiz.

- Bunaqa odamning betiga u dunyoda Xudoyam qaramaydi. Bu dunyoda it o'limini topib ketadi, agar vaqtida ko'ksini haromdan tozalamasa. Xudoyimning kalomi o'tirishib, iymoni qaytib kelmasa. Harom mol, harom rizq shunaqa yomon narsa, - dedi tog'a. Shaharlik bir zum g'alati o'ya tolib qoldi va keskin boshini ko'tardi.

- Tavbayam... foyda bermaydimi? - dedi ko'zlar javdirab.

- Nega foyda bermasakan? Tavbadan ulug' narsa bormi dunyoda?! Xudoyim o'z nomi bilan g'ofurur rohiymdir.

- Agar odam o'ladirgan, talagan, birovlarni qon qaqqhatgan bo'lsa hammi?

- Qaytib bu ko'chaga kirmaslik sharti bilan, joiz. Xudoyimning dargohi keng, tavba qilgan bandamning gunohidan o'taman, degan haq va'dasi bor. Tavbaning erta-kechi yo'q, o'g'lim.

- Unda duo qiling, ota, - dedi shaharlik kutilmaganda qo'lini ohib.

Biz hayron qoldik. Hatto Mo'min tog'a shoshib qoldilar.

- Ha, bo'tam, qayoqqa shoshmasang?

- Boray, - dedi u achchiq jilmayib, - O'shalariningizga yo'liqib, yana gunohkor bo'lib yurmay.

- O'zing bilasan, mehmon bolam, - deb tog'a hassasini bilaklariga ildilar-da, qo'llarini ohib qibлага qarab duo qila boshladilar.

Uzoq duo qildi. Lablariga titroq kirdi. Duoga ochilgan barmoqlariga titroq kirdi.

Qo'shilib, biz ham yuzimizga qo'l tortdik. Ko'rib turibman, shunday qahri qattiq shaharlik ham allaqanday mutaassirlanib turib qolgan edi.

- Rahmat, buva, - dedi o'sha-o'sha ta'sirlangan ovozda, - rozi bo'ling... hammasiga.

- Rozi bo'lmay nima! Roziman, - dedi tog'a, - yaxshi borgin.

- Yaxshi qoling. - U boshqa hech nima demay, anhor yoqalab, Xirmontepa tomonga keta boshladi.

Po'chtachi amaki uyiga kirib ketdi. Tog'a hovuz bo'yidagi kichkina masjidga qarab yurdi. Biz esamiz, chag'ir-chug'ur bilan bir-birimizni urib-engib, boyagi jang tafsilotlariga tushib ketdik. Bir o'zi uchtasini chalpak qilib tashlagan odamni umrimiz bino bo'lib ko'rmagan edik. Ko'rish qayqdida, eshitmagan ham edik. Birimiz olib, birimiz qo'yib yotsak, bilmayman, qancha vaqt o'tgan (ishqilib, Mo'min tog'adan duo olgan mehmonning qorasiyam ko'rinxay ketgan edi), Tegrimonko'chada ot choptirib kelayotgan otliq ko'rindi. Kim bo'ldi ekan, deb yana shoshib qoldik.

- Parpi bebaxt-ku?! - deb vahima qildi kimdir.

- Ha-ha, boya ko'ruvdim. Tegrimonning tepasidagi shiyponda maishat qilib yotishuvdi ular, - dedi boshqa sherigimiz.

Biz gurillab hovuz bo'yiga chopdik va tollarga suyanib o'zimizni go'yo panaga oldik. Ovozlarimiz o'chdi, tollarga qapishib ketdik. Nafasimiz ham ichimizga tushgan. Hazilmi, qarshimizda biz nomidan ham qo'rqedigan o'g'riboshi... Ustiga egar ham urilmagan otni qichab kelayotir.

U Haybat akamchalik haybatli bo'lmasa-da, asov ot ustida qo'ndoqdek o'tirib, uni chapdast choptirib kelar, yupqa to'nining barlari qush qanotidek shamolda pirpirar edi.

Oqliq katta ko'chaga yetib-etmay jilovni bir tortgan edi, ot tuyoqlari ostida yer qarsillab, changib ketdi, o'zi boshi qayrilib chir aylandi. Otdan ham burun egasining vajohatidan qo'rqqulik edi. U atrofga olazarak nazar tashlab, bir tirik jon izlar, lekin ko'ziga qon quylganmi, hech nimani ko'rmas edi.

Keyin birdan ko'priq ustida o'zicha valdiranib turgan Mirzarahimni sezib qoldiyu otning boshini o'sha yoqqa burdi. Uni tanidimiyo'qmi, bilmayman, lekin ot bilan to'g'ri bostirib borib:

- Qani u zo'r? Qayoqqa pusib ketdi, ayt, - deb o'dag'ayladi.

Mirzarahim nimani ko'ribdi?! Endigina uyidan chiqqan bo'lsa?!.. Qolaversa, unga hammasi baribir - Parpi o'g'ri bo'ladimi, Homid rais bo'ladimi, og'ziga kelganini qaytarmaydi. Hozir ham dabdurustdan labining chetida yarim ishshaygancha o'zicha qo'l silkilab:

- Qayoqqa ketardi, ketti, qaytib bo'pti, - dedi, - tamom-vassalom.

Oxirida hihi deb kulib ham qo'ydi.

Ko'rib turibman. Parpi bebaxtning jahli boshiga tepib, bo'g'riqib ketdi. Mirzarahim bechorani qamchilay ketmasa deb turibman. Yo'q, tagidagi ot tipirchilab, u otga alahsidi va jilovni qo'sh qo'llab tortib so'kindi.

- O'g'ri qayoqqa ketdi deyapmai senga, qanaqa galvarssan?

- Ket-ti, Cho'ponotadan nari ket-ti. Boravuring, yetvolasiz.

Biz angrayib turarkanmiz, Mirzarahim o'zi qaysi xayolda, Cho'lponotaning yo'lini ko'rsatdi-yubordi.

- Shunday demaysanmi, esi past! - dediyu Parpi o'g'ri otining boshini katta yo'lga burib, qamchi bosdi. Ot tuyoqlari ostidan chang sachratib, tuproq ko'chadan chopdi. Biz ko'cha o'rtasiga - Mirzarahimning oldiga tushib borib, har chekkadan alqay ketdik.

- Boplading, Mirza! Qoyilmiz senga!

Bolalar uning uzun-uzun qo'llariga osilib, yelkalariga qoqisharkan, u ta'sirlanib ishshaydi:

- Rost-da, okam hali qaytmaydila...

Tavba, dedim men yoqamni ushlab, hamma nima g'amda-yu, u kimni aytyapti? Yana vaqtida buning ro'para bo'lishi-chi?! Qanaqa tasodif bu?

Sekin tarqalisha boshladi.

Men sigirni uyimiz orqasidagi qantak o'rik tagiga qoziqlab, eshikka chopdim. Tambani surib tashlab, kitob-daftarlarni olgani ichkari uyga yugurdim. Kirdim-u, kirgan joyimda qotdim. Uy o'rtasida, arslonning o'ligiday cho'zilib, birov yotar edi! Bosi ostida bitta yostiq, o'zi taqir gilamga yuzturban cho'zilgancha uxlab qolibdi.

Qo'rqa-pisa aylanib o'tib, yuziga qarasam... Sultonmurod akam!

E qoyil! U yoqda sherigini (agar sherigi bo'lsa) Parpi bebaxt demaganlar yanib-izlab yuribdi, bu yoqda bu kishim uyquni urib yotibdilar!

Men maktabga ketvorishimniyam, dalaga - oyimning oldilariga chopishimniyam bilmasdim.

### Tun Poshshosi

O'pkam og'zimga tiqilib, maktabga yetib borsam, allaqachon hamma sinf-sinfiga kirib ketibdi. Hovlida bola zoti yo'q. Lekin bizning sinfdan allaqanday g'ovur-g'ovur keladi. Muallim Said G'ani domla yo'q ekanlar, bir sinf bolani bitta darsxonaga qamab qo'yishibdi. Chag'ir-chug'ur avjida: kim gurpaklashib, kim gap talashgan, nakd bozor. Eshikni shart ochib, Said G'ani domladay, pang ovozda:

- Salom, bolalar! - dedim. Hamma joy-joyiga chopib, tikka bo'ldi. Beixtiyor:

- Salom, ma'lum! - deb yuborishdi.

Keyin aldanganlarini ko'rib, har chekkadan talay ketishdi:

- Qitmir! Ushla uni!

- Salomingni ko'rsatib qo'yaman!

- Sen ham qo'lga tusharsan!

- Boshiga sol, Ahmad, boshiga, o'sha kitobing bilan. Aqli kirsin.

Odatdagidek "Ikkinch qilmayman" bilan zo'rg'a qutuldim. Shu payt eshik ochilib, zahar muallim Husnitdin akaning qorasini ko'rindi:

- Oyilaringning uyimi, bozor qilasanlar? Dars o'tgani qo'yasanlarmi-yo'qmi?! - deb o'shqirdi.

Hozirgina bozor qilib yotganlar birdan pusib qoldik. Husnitdin muallim bo'shashdi.

- Ma'limalaring topshiriq bilan ketgan. Boravurlaring, ozodsanlar! - dedi-da, burilib chiqdi-ketdi.

Uyga kelsam, Sultonmurod akam hali ham dong qotib uxlab yotibdi.

Bir itimiz bo'lardi, Yo'lbars degan. Kun bo'yi bir kunjakka kirib yotib, kechasi bo'ldi deguncha, izg'ib ketardi. Unga "Boyo'g'li" deb ot qo'yvolgan edim. Buyam o'sha "tun poshshosi"ga o'xshaydimi, nima balo?

Jildni tokchaga irg'itgan edim, patnis daranglab ketib, tun poshshosi ilkis boshini ko'tardi. Birpas garangsib turdi-da, keyin tanib qolib, jilmaydi:

- Ha-a, pakana pari, keldingmi? - Turib o'tirdi. Yostiq izi tushib qolgan cho'ziq yuzini ishqab, kerishdi. - Maktabingga bormay, nima qip yuribsan?

G'ashim kelib, yuzimni burdim: "Sakkizinchiga o'tsam ham, pakana pari ekanman-da?" U kului:

- Ha, oring keldimi, pakana pari?

- Kelsa, sizga nima? - deb to'ng'illadim.

- Kelgani yaxshi. Or - yigitning ko'rki. Demak o'sayapsan.

Bu gap yoqib, g'ashligim tarqaldi. Sultonmurod akamning kelbati chavandozlarnikidek edi. Chayir. Qирг'иу burunli. Labining ustidagi kalta mo'ylovi bir yarashibdi. Shu turishda to'n kiyib, chakkasini durra bilan tang'ib olsami, uloqchingning o'zi. Lekin hozir shaharcha kiyungan, ustiga-ustak, boshyalang, sochlari jin-galak edi. Egnida bu tomonlarda hali rasm bo'limgani iroqi gulli yoqasiz ko'yak. Ipak bog'ichlari bir chiroyl...

O'rnidan turib, bo'yi shiftga yetgudek bo'lib yana kerishgan edi, kuraklari shiqirlab ketdi. "Vuh" deb qo'yidi-da, yuvingani tashqariga chiqdi. Orqasidan suqlanib qarab qoldim.

Ammo shunday odamning qilib yurgan ishlari... G'alati. Nahotki o'sha ko'chaga kirib ketgan? Yana, or haqida gapiradi.

Sultonmurod akam tushib borgan hovuzning uch tarafini tollaru ajoyib sariq safsar gullar tutib, chakalak bo'lib yotardi. Tolning ochilib qolgan ildizlari zina bo'lib qolgan, ovloq, ajoyib joy edi. Sultonmurod akam o'sha yoqda allavaqtgacha qolib ketdi.

Nihoyat bog' eshigimizdan qaytib kirganida, men ham hovlida ivrisib yurardim. Kelib, supa yonida to'xtadi. So'riga, uning orqasidagi ishkommalarga suqlanib boqdi. Qilt etgan shabadaga ham duvva-duvva to'kilayotgan uzum gullarini hovuchiga yig'ib hidlarkan:

- Oh-oh, bo'yularingdan! Mast etaman deydi-ya, pakana pari! - dedi huzurlanib.

Men uning ustidan kuldim: shaharli akam-e!

- Uyning orqasiga o'ta ko'rmang unda. Xolavachcham yalt etib qaradi:

- Nega, pakana pari?

- Jiyda gulining hididan boshiz aylanib ketmasin yana...

U suyib yelkamga qokdi:

- Ha, sen pismiq, meni shaharchiga chiqarib qo'ydingmi hali?!

- Bo'lmasa, nimasiz? Dalachimidiz?
- Obbo sen-ey, Yakkabog'dagi qo'rg'onimiz esingdan chiqdimi? Bo'lishi mumkin, bo'lishi mumkin. Unda sen ko'ylagingning orqasi tugig'lik yurarding, pakana pari,
- Nega endi, yaxshi eslayman.
- Nimani eslaysan?

Eslab qolganlarimni sanashga tushdim:

- Uloqqa borganmiz, devorga chiqvolib, tomosha qilganmiz...
- Ey, zo'san-ku! O'sha uloq beriladigan bedapoyani bilaman degin?! - Qiziqib ketganidan, meni quchib, kiftimga bir tushirdi: - Eshigimizning ro'parasidagi sayxonlikni aytapsan-da?

Men bosh silkidim. So'ngra hovliqancha bir voqeani ipidan-ignasigacha aytta boshladim.

- Bir mahal, deng, bir qizil ot to'g'ri bizga qarab egasini opqochib kelaverdi. Orqasida bir gala ot. Hamma: "Ushla, utpla!" deb qiyqirib, uni quvib kelyapti. Biz devor nahrasida tikka turvolganmiz. Shunda birov "Qo-osh!" deb baqirdiyu...
- ... sizlar o'takalaring yorilib, o'zlarining har chekkaga otdilaring va...
- ... boyagi qizil ot o'sha nahradan sakrab, oshib ketsa, deng...

- Quvib kelayotganlar qamchilarini tishlab qolavurdilar, qizil otliq Qangli yo'liga chiqib ketvordi... shundaymi?

- Eslarkansiz, - dedim xotirasiga besh ketib. Sultonmurod akam xandon tashlab kuldi:

- Nega eslamay? Axir, uloqni ilib ketgan o'sha To'lابoy qozoq edi-da?!

Shunisini unutgan ekanman. Ko'zimni yashirdim. U yelkamga qokdi:

- Hechqisi yo'q, hechqisi... Muhibi, qo'rg'onimizni bilarkansan. Borganakansan u joylarga... Qani, yana nimalarni eslab qolgansan? - dedi u birdan erka-lagannamo ohangda.

- Yana... yana bog'laringizga maymunjonxo'rlikka tushardik.

- Etakdanmi? Bulbullar chax-chaxlab yotadigan joydan? Topdimmi?

- Topdiz. - Men qimtinib bosh silkidim, u esa xursand bo'lib ketdi:

- Men, tamom unutvorishdi, deb yuribman, kim ham eslardı, debman. Jilla qursa, sen bilarkansan-ku, pakana pari. Ayt, jonim, yana bir nimalarni eslab meni xursand qil.

Shunday nigoh ila tikildiki, beixtiyor yana xotirlay boshladim.

- Keyin... kattakon ko'k darvozalarining tepasida bir nok bo'lardi. O'zi xunukdan-xunuk, ko'm-ko'k, lekin mazasi shunday asal!..

- Topding, pakana pari, topding! Qoyilman senga! O'sha joy tashqi hovlimiz edi. Butun nokzoriydi! Hoji eshon buvamiz bu dunyoning hamma nokidan bo'lsin deb ektirgan ekanlar! - U quvonganidan ko'zlarini porlardi. Meni qistab yoniga o'tqazdi-da, gapga tushib ketdi: - Hovlimizning o'rtasidan kesib o'tib, hovuzga chiqib boradigan ariq bo'lardi. Butun qirg'og'ida anvoyi gulu rayhonlar o'sib yotardi. Rahmatli oyim, sening xolang shunaqa ayol edilar. Gul-rayhonsiz hovli - hovlimi, derdilar. Ey, u davrlar o'tdi-ketdi, pakana pari.

Oyog'imizning tagida yer bilan bitta bo'lib yotgan uzum gullariga tikilib, uzoq jum qoldi. Shu jum o'tirishida birovdan zo'r alami borga o'xshab ketar, ammo dardini aytmas edi. Yuzidan sayoq yuradigan siyog'i yo'q. Nega bunaqa yomonotliq bo'lib ketdi ekan? Boya ham uni zo'r berib o'g'riga sherik qilib ko'rsatmoqchi bo'lishi.

- Siz bu yoqda uyquni uriib yotibsiz, u yoqda toza tomosha bo'ldi, - dedim gapni burib. Sultonmurod akam daf'atan anglamaganday edi.

- Qayoqda?

- Tegirmongo'chaning boshida-da.

- Qanaqa tomosha?

- Bittasi rosayam chitton ekanki... - dedim hayratimni yashirmay, - bir o'zi uchtasini shunaqa urdi, shunaqa suvgaga pishdi...

Sultonmurod akam yelkamga rapidaday kaftini tashlab, silkidi:

- Shoshma, kim bilan kim solishdi?

- Mo'min tog'anikiga tushgan o'g'ri bilan Parpi bebaxtning yigitlari. O'zlarini chiraniib kelib, adablarini yeb ketishdi. Ammo-lekin bopladi, rosa haddini olgan ekan.

- U chittoning Mo'min tog'anikida nima qip yuribdi?

Boshidan tushuntirishga majbur bo'ldim: ushlab olishgan ekan, xo'b tavbasiga tayantirib, tolga bog'lab qo'yishibdi. Mo'min tog'a ajratib olib, qo'yib yuboruvdilar, bular ovozasini eshitib yetib kepti, dedim.

- Parpiyam bormidi?

- Yo'q, u keyin salt otga minib keldi.

- Uniyam urdi, degin?!

- He, yo'q. Ungacha jo'nab bo'lувди. Baxti borakan. Ko'lmasa, o'sha vajohati bilan otibam tashlardi, - dedim men.

- Zo'r bo'lsa, ottirib qo'yarmidi? Qutulib ketibdi-ku, axir.

- U Xirmontepaga qarab ketdiyam bu yoqdan Parpi izlab keldi...

- Keyin-chi?

- Hamma tarqab ketib-ketib, ko'priq ustida endi uyidan chiqqan Mirzarahim turuvdi. Parpi kelib-kelib o'shandan so'radi. Ammo-lekin u bopladi: o'g'ri ketgan yoq qolib, boshqa tomonni ko'rsatvordi.

- Devonaning ishini xudoning o'zi o'nglaydi, deganlari shuda!

- Ishqilib keyin tutib olgan bo'lmasin, - dedim men xavotirlanib.

- Kimni, Mirzanimi?

- Yo'q, anuvini. O'g'rilikni endi tashladim degan-da, - deb Mo'min tog'adan uzr so'raganlarini aytib berdim.

- Afsus, men bo'lmbabman-da, - dedi Sultonmurod akam achinib.

Shu tobda juda-juda so'ragini kelib, qo'rqa-pisa betiga qaradim:

- Siz uni tanirmidingiz?

Sultonmurod akam avvaliga sharakdab kulib yubordi, so'ngra yelkamga qoqarkan, jiddiy tortdi.

- Ammo-lekin shunaqa ikkita oshnam bo'lsa, o'zim bilardim! Unaqlar bilan dog'da qolmaysan hech! - dedi u allaqanday g'ururlanib. - Arzirkan oshna bo'lishga! Shunaqlardan chiqadi odamning zo'ri, ishonsa bo'ladi.

Keyin tizzasini quchgancha, hov olis osmondag'i oppoq, yolg'iz, momikdayin bir tutam bulutgami yo shabadada allalanib-

chayqalib yotgan tol uchlariqami tikilgancha ancha jim qoldi. Boyadan beri so'ri yog'ochida qayroqtoshdek bir qaldirg'och vijir-vijir etib kuylab yotgan edi. Endi yoniga yana bittasi kelib qo'ndi va bir-birlariga jo'r bo'lishib, valfajrlarini avjiga chiqarishdi. Birdan qaergadir ko'milgan kitoblar, shajaramiz haqdagi anuv gaplar esimga tushib, xolavachchamning biqiniga sekin turdim:

- Siz anuv kitoblarni qaerga yashirishganini bilasizmi?
- Qaysi kitoblar? Adamning kitoblarinimi?
- Ha-da, qaergadir yashirib qo'yilgan deyishadi-ku.

U bosh silkidi:

- To'g'ri, yashirib tashlashgan. Lekin biz bolalarni uxlatib qo'yib, yarim kechadan oshganda ko'mib kelishgan. Men bir kun avval namatga o'rab, sandiqlarga joylashganida ko'rganman. Katta-katta jiddli, qalin muqovali kitoblar edi. Bir boloxona kitobni shunaqqib yo'qotishgan. Xuddi o'likni ko'mganday, imi-jimida. Har bittasini o'pib, ko'zlariga surtib, o'rab-chirmashgan.
- Qaerga ko'mishgan ekan?
- Boqqa yo bo'lmasa, uyning orqasidagi tepalikkadir-da. Balki mozoristonga ko'mib kelishgandir, - dedi u negadir anig'ini aytgisi kelmaganday.

- O'sha bog'laringizning pastida bir mozormi, qayrag'ochzormi bor-ku, balki o'sha yerdadir? - deb taxminladim.

- Balki, lekin u kitoblar Yakkabog'dan chiqib ketmagan. Qaeradadir yotibdi, yer ostida, - dedi allaqanday xomushlanib. Keyin bir uh tortdi-da, boshimga issiq kaftini qo'ydi:

- E, pakana pari, sen kuyma, hali vaqt keladi, adalarimiz oqlanib, nomlari tildan tushmaydi. O'sha kitoblaram qazib olinadi. Mana ko'rasan, Xudoning o'zi asraydi u bitiklarni. Bittasiga gard yuqmay odamlarning qo'liga yetib boradi. U ilohiy kitoblarni hech kim yo'qotilmagan. Nega desang, ularga Xudoning kalomi bitilgan. Shunday, pakana pari. Yur, endi, choy qo'yib, biron narsa yeb olaylik. Axir, qorin ham piyozning po'sti bo'p ketdi-ku.

- Hozir-da, siz uyg'a kiravuring, - deb oshxonaga chopdim. Lekin ichim tobora qizib borardi. Kitoblar namatga o'ralib, sandiqlarga joylanganini ko'rgan ekan, bir boloxona kitob shunaqqib yo'qotilanini bilar ekan, shajaramiz, oltin kitobimiz qayoqqa qo'yilganini bilmaydimi? Jilla qursa, eshitgan chiqar buvamizning buvalarini... nomlari nimayu o'zları kim o'tganlar?..

Aytib qo'yay, men o'zim shunaqa g'alatiroqman: eski qutilarni o'chib, buvamining zamonidan qolgan narsalarni titkilab yuradigan odatim bor. Opog'oyimlarnikiga chiqsam ham, chetdagi eski hujradan beri kelmayman. Ishqilib, qarindoshlarning boloxonalariyu omborxonalarini bir tintib qo'yamasam, ko'nglim tinchimaydi. Kenja tog'amlarnikiga borsam-ku, oshxonalarining yonidagi donxonalaridan chiqmayman. Qachon qarasang, bir enlik chang va mog'or bosib yotadigan u xonada odam bo'yil keladigan katta-katta xumlar bor. Kprontasining ichiga tushib olsangmi, qidiribam topppgolmaydi. Tog'amning aytishlaricha, ilgari shularning hammasida necha yillab g'alla saqlanarkan. Hozir bo'm-bo'sh, yoniga sichqon ham oralamaydi. O'sha donxona tokchasida har xil qutilar bor, ko'pincha soatlab titkilab o'tiraman. Ichidan yalpoq boshli, o'zi bir qarichdan uzun arava mixlarimi-ey, zanglagan taqalaru mitti xaltachalarda qovun urug'larimi-ey chiqib qoladi. Shularni eksa, haliyam ko'kararmish. "Men atay opqo'yibman, bir kuni ekib, hammanglarni mehmon qilaman, ha-ha, buvalarimiz yegan qovunlardan biz ham totisak totibmiz-da", deydilar tog'am kulib.

Qovun urug'lari turganda, oltin kitobimiz yo'qoladimi? Uyam bir kunjakda yotgandir-da, axir. Osmondan tushmaganmiz-ku hammamiz...

Faqat alam qiladigi - O'sha Abdurahim eshon pochchaning bir boloxona kitoblarni ko'rmaganim, o'sha boloxonaga chiqmaganim. Chiqqan bo'lsam ham, hozir hech eslay olmayotirman. Oyim, kasal bo'lganiningda oborganman, o'qib qo'yganlar, oldilaridan chiqibqoq chopqillab ketgansan, deydilar. Lekin negadir o'zim hech eslay olmayotirman. Yog'och zinayam, u kishi o'tiradigan boloxonayam yodimda yo'q. Faqat, hovuz bo'yida chopqillab, sambitgullar orasida kapalak quvib yurganim kechagidek yodimda. Demak, borganimiz rost, u boloxonaga chiqqanimiz, patnisday-patnisday qalin muqovali kitoblarni o'qib o'tirgan eshon pochchani ko'rganimiz, u kishi boshimni silab duo qilganlari rost. (Oyim yolg'on aytmaydilar-ku, axir.) Hozir Sultonmurod akamdan shularni bir so'ragim kelardi.

Xudo xohlasa, oltin kitobimizni topmay qo'ymayman.

### Qo'sh Qizg'aldoq Yoxud Sirli Suvrat

Bir patnis jiyda-mayiz qilib, tandir nonni ushatib, endi choyga o'tirgan edik, ko'cha eshik oshig'ich taqilladi:

- Hoy, kim bor?

Men qolib, Sultonmurod akam bir sapchib tushdi.

- Qara-chi, kim ekan? - dedi sergaklanib.

Men ostona hatlab ulgurmay, Haybat akamning o'qday zardali ovozi hovlidan keldi:

- Maqsut, qattasan?!

Yuragim xunuk shig'llab, Sultonmurod akamga qaradim. Yolg'izsan-a, yolg'izsan, deb o'g'rining yuziga qulochkashlab tortganiyu uning boshi ikki aylanib ketayozgani ko'z oldimdan o'tib, nafasim go'yo ichimga tushib ketdi.

- Haybat akam-ku! - deb yubordim o'takam yorilib.

Ammo Sultonmurod akam parvosiga olmay (hech gapdan xabari yo'q-da), qo'l silkidi:

- E, umi?! Chaqir, kiraversin. Otamlashamiz bir,- dedi ochilib.

Mo'min tog'aning eshigidagi gapini sekin shipshib qo'ysam-ku, ko'radi ko'radianini. Ammo chaqma-chaqarlik bo'ladi-da.

Hovliga chiqib borsam, Haybat akam otxonadan o'tib, ichi chiriy boshlagan tolimiz tagida kelyapti. Meni ko'rib, "Yugur, tez!" deganday imladи. Istar-istamas qadamimni tezlatib edim, u to'ng'llab berdi:

- Ichkariga kirvolib, maqvotsan - G'iq etmaysan?!

Sultonmurod akam bilan birga o'tirganimni aytgim kelmadи. O'zimcha bir nimalar deb ming'irladim. Haybat akam labini burdi:

- Bu yoqqa qara, chop, - deb ko'krak cho'ntagidan jimitdek oqish bir nima chiqardi. Nima ekan, deb yugurib bordim. Haybat akam o'sha narsani yuzimga oynadek tutdi: - Taniyanmi?

Tanimay o'libman-da! Jimitdek narsa - suvrat ekan, suvratdagi odam esa, hozir ichkarida qo'r to'kib, choy ichib o'tirgan Sultonmurod akam edi. Ana xolos! Bunisi necha puldan tushdi?

Ammo suratki, bir ajoyib! O'zi xuddi shu iroqi gulli ko'yakda-yu, lekin bir hurpayib-achchig'lanib tushibdiki, hayron qolasiz. Men Sultonmurod akamni bu holatda hecham ko'rgan emasman. Shaharning urushqoq, chapani yigitlari ham bunchalik bo'lmas, bunday yovqarash qilib turmas. (Tavba, nimadan buncha alamzada?) Yoqa - valangor, lab - alam-la qimtilgan, ko'z - yonaman deydi.

Savatdek soch to'zg'ib ketgan.

- Ha, nafasing ja ichingga tushib ketdi? O'sha oliftami, axir? - dedi Haybat akam yelkamga turtib.
- O'sha... bo'lsa, nima?! - dedim to'msayib va sekin eshikka qarab yuraverdim. (Ishqilib o'zi sho'ttaligini negadir hech sezdirgim yo'q.)

U tutaqdi:

- Qayoqqa, hov galvars? Ammam qattalar?
- Qatta bo'lardilar, daladalar, - dedim battar to'msayib, - chaqiraymi?
- Keragi yo'q, - dedi u ham to'rsayib va birpas nimagadir alahsib turdi-da, hech narsadan hech narsa yo'q, birdan shang'ilay ketdi:
- Qancha jig'lladim! Necha qayta aytdim: hov amma, shu bolaga qaranglar, oyoq olishi bejo, yuzinglar yerga qarab qolmasin, dedim. Xo'p-xo'pdan nari o'tishmadi. Mana, oqibati! - U suratni cho'ntagiga solarkan, kerildi. - Xolavachchang menga rahmat desin. Cho'ntagidan shuni shilib qo'ymanimda bormi, ko'rardi ko'radiganini!
- Nimani ko'rар ekanman??

Shu tob ichkaridan Sultonmurod akam bir g'alati iljayib chiqib keldiyu Haybat akamning bo'lari-bo'lib, men qocharga joy topolmay qoldim. Yomon bo'ldi. Haybat akam ich-ichidan yanib, menga o'qrayib qo'ydi. Boshqa vaqt bo'lsa, qulog'imning tagida shavla qayna-tib olarmidi? Ammo hozir xolavachchamning oldida nochor, ham uyatli edi. O'zidan o'tdi, unga birov o'pkasini bosolmay valdirasin debdimi!

- Ha, oshnam, qattan mani tashvishim sanga tushib qoldi? - dedi Sultonmurod akam kesatgannamo.

U o'ng'aysizlanib, bir qur qarab qo'ydi-da, xijolat aralash:

- Begonamisan, odam o'zinikiga achiyidida joni?! - dedi. Keyin samimiy ko'rishishga chog'lanib borib, qarshisida to'xtadi. - Sho'ttaligingni bilganday kelganimi qara-ya...

- Shunaqami?! - dedi Sultonmurod akam boyagi ginasidan tushib. Qattiq qo'l tashlab, bir siltagan edi, Haybat akam demaganlar terakdek qalqib quchog'iga kirib bordi va yelkama-elka turib qolishdi. So'ng ikkalalari qiz o'rtoqlarday bel olishib, ko'risha ketdilar.

- Xo'p-pa! - deb Sultonmurod akam uni bir ko'tarib, aylantirib qo'ydi.

- Seni qara-yu! Zo'rayib ketipsan-ku! - dedi Haybat akam ham.

- Nima deb o'yloving biz "kichkina mitti - yiqitaman depti"larni! - deb Sultonmurod akam almisoqi gaplarini esga soldi.

Ikkalasi ham xoxolashib kulishdi. So'ng bu ham kamdek kiftlariga turtib, gardanlaridan tortib qo'yishdi.

Men quvonib ketdim: bu ikkala qarindoshim bir-biriga joni achiyidigan, bu qadar mehrli ekan-u, men nima xayollarga borib yuribman!

Lekin hozir shundoqqina tepalariga qaragan odam bundanam go'zal bir manzarani ko'rар edi. Tomimizning naq bo'g'otida ukpardek ochilgan qo'sh qizg'aldoq ko'klam shabadasida bir-biriga chirmashib hilpirayotibdi, lekin hech bo'y bermaydi, yana va yana qaddilarini rostlab olaveradi. Durkunligi xuddi bulardek... Ammo bu ikki qarindosh qani endi qarab qo'ysa...

Tomda qiyoq chiqarib, boshqo torta boshlagan o'tlar orasida unda-bunda chuchmomalar ko'rinati, lekin qizg'aldoqlar (boyagi bo'g'otdagidan boshqalari) endi sho-kila-shokila tugunchaklab, "o'g'ilmi-qiz" o'ynaydigan bo'lib yotibdi. Ustida tinmagur qaldirg'ochlar chappor urib, pastlab-ko'tarilib uchib yuradilar.

Otxonaning orqasidagi qantak o'rigimizning uchida allaqanday qizilbosh qushcha bilan sariqbosh sa'va galma-galiga chuldir-chuldirlab yotibdi, hovuz bo'yida esa, bulbul chax-chaxlab qo'yadi.

Shunaqa, olam yashnashga, hatto bo'g'otlarga, devor sarhoklariga tarmashib chiqib gullahsga, chakalaklarda chax-chaxlashga tushgan pallada mening bu yovvoyi qarindoshlarim topishib qolib, bir-birlariga "men senga aytSAM"lab yotishardi.

Birdan Haybat akam mavzuni burdi. Maqtangisi keldimi yo boshqa bir niyatdam, ishqilib, yuragi toshib, boyagi jajji suratni cho'ntagidan oldi.

- Buni qara, qaerdan topdim, o'rtoq! Seni Xudo bir asradi, - dedi hovliqib.

- Xudo asradi? Tushunmadim, - deb hayratlandi Sultonmurod akam.

- Buni ko'r, qay go'rarda tushgansan o'zing ham?

Sultonmurod akam suratni ko'rib, ko'z uza olmay qoldi.

- Ie, g'alati-ku, qaerdan topding?

- Senmisan o'zing?

- Menlikka menman, lekin... bu alpozda tushganimni eslayolmayapman hech.

- Tushmagan bo'lsang, tushirishgan, - dedi Haybat ham nimagadir shama qilib.

Sultonmurod akam o'graydi:

- Gaping qiziq! Kimga zarur kepti mening turq-tarovatim?

- Zarurdir-da, - dedi Haybat akam jiddiy ohangda. - O'zing dum ilashtirib yurganiningdan xabaring bormi?

- Dum?

- Ha-da, biz Mo'min tog'aning qo'rg'oniga oralagan odamni o'g'ri deb ushlab yuribmiz, u bo'lsa...

Sultonmurod akamning avzoyi o'zgardi:

- Og'zingga qarab gapir, bola, - dedi hurpayib. Qo'llari o'z-o'zidan musht bo'lib tutildi ham.

Haybat akam hayiqibgina bir qadam tisarildi.

- O'zing so'rading, men aytdim. Endi jahling chiqmasin-da, - deya zo'rma-zo'raki iljaydi u.

- Rasmni qattan olding?

- Qattan bo'lardi, o'shaning cho'ntagidan chiqdi. Hech kimga sezdirmay opqo'yganimga rahmat de. Hali opketishsa, bir umr boshing g'avg'odan chiqmasdi.

- Kimni opketishsa? - dedi Sultonmurod akam hushi joyiga kela boshlab. Chindanam Haybat akamning gaplari sirli ham tushunarsiz edi.

- Sen batta yotibsan, Parpi uni otib ketibdi, - dedi Haybat akam.

Boshimdan hovur chiqib ketdi-yov.

- Qanday otib qo'yadi? Axir, Mirzarahim... - deya oldim men. Hatto ichim achib, ko'zimdan yosh tirqiradi. Kelib-kelib endi-ya?.. Tavba qilib, yo'liga ketganda-ya?.. O'sha battolga uchrabdimi?

- Mirzarahim boshqa yoqni ko'rsatvorgani bilan... Yakkabog'ning Izzasida duch kepti, - dedi Haybat akam bir menga, bir

Sultonmurod akamga qarab. - Qoq peshin, dalada hech zog' yo'q, toza olishib, axiyri kuchi yetmay otib qochgan mish, ablah.

Yaxshiyam Cho'lponotadan kelayotganlar ko'rib qolishibdi.

- Hozir qattaykan? - dedi Sultonmurod akam shosha-pisha. - Yo opketib bo'lishdimi?

- Qatta bo'lardi, Mo'min tog'anikida. O'sha odamnikiga yetkazinglar, degannish. U boyaqishlar nima qilarlarini bilmay...

- Voy, ovsu-ar, voy, o'pk'a-a. Shuni aytmaysanmi avval... surat ko'tarib yurguncha?!

Sultonmurod akam birdan tutaqib, turgan yeridan sachrab ketdi va boshqa hech nima demay, ko'cha eshikka otildi.

Uy uuda, choy choyda qoldi. Biz ham orqasidan chopdik.

### Ko'k Qarg'a

Shohdevorimiz oldiga chiqsam, Sultonmurod akam tolzor ko'cha qolib, pastimizdag'i karam ekilgan maydon o'rtaidan ikki ariqni bir qilib hatlab, chopib boryapti. O'shanaqasi yong'oqzorning tagi bilan Mo'min tog'aning qo'rg'oniga o'tmoqchi, shekilli.

Men uyimizning orqasi bilan g'izilladim. Shunaqasi hovuz bo'yidan o'tib, Izzaga qarab ketgan katta tashlama ariqqa chiqsam, u yog'i oson. Usha ariq yoqalab nokzorgacha tushib boraman. Balki shu ketishda Sultonmurod akamga yetib ham olarman? Orqamda etigini po'pillatib, Haybat akam chopib kelyapti. Men unga qarabam qo'ymayman. Shunaqa vaqtida yalangoyoq yugurishga nima yetsin. Tikan-mikanni bosvolmasang, bas, yengil-engil sakrab ketaverasan. Chitton odamga ariq nima ekan, chalchiq nima ekan?!

Tashlama yoqalab, yolg'izoyoq yo'lga tushib olganman. Ketyapman g'izillab. To'piqdan oshgan o'tlar orasida yo'l ko'rini ko'rinnmaydi. Oyog'im ostidan uchgan chigirkalarining hisobi yo'q. Ular shunaqa soya izlab, o'tlar orasiga biqinishgan payt. Suvdan chiqib, oftobga o'zini solib yotgan qurbaqalar esa, jon halpida o'zlarini chetga otib, panjamning ustini ho'l qilib ketishadi. Orqalaridan tizillab otilgan suvdan irganiblar ketib, oyog'imni ariqqa bir pishib olamanu yana shipillavolib chopib keta boshlayman. To'pig'imga achitqi o'tlar o'ralashib, sim-sim achishadi. Lekin parvo qilmayman.

Bu o'qariqlardan necha qayta quvalashib o'tganmiz. Ko'zimizni bog'lab qo'ysa, Izzaga dovur biron nimaga to'qinmay (chakalaklarga kirib ketmay, ariqlarga tushib ketmay), chopib bora olamiz. Dala o'rtaida sadaday tutib ketgan katta toshnokka yetguncha ham sabrim chidamay, kartishkapoya ichidan yolg'izoyoq yo'l bilan yong'oqzorga burildim. Shunaqasi bir zo'r bersam, soylikdan yong'oqzorga chiqib borib, Sultonmurod akamgada yetib olishim mumkin. Bu joylardan Tegirmonko'chayu Mo'min tog'aning qo'rg'onigacha yer balandlab ketgan. Pasti esa, Izzaga dovur soylik. Ana shu soylik bilan tepalik o'rtafiga kimdir bir vaqtlar tekis yong'oq ekkon va u yong'oqlar hozir osmoni xafsimni tutib, tagiga tangadek oftob tushirmay qo'ygan. Kuz kelsa, oyilarimiz bizni shu yong'oqzordan topishadi. Bizdan qolgani egalariniki.

Sultonmurod akam kartishkapoya o'qarig'idan hatlayotib munkib ketdi. Eng chekkadagi yong'oqdan parillab ikki ko'kqarg'a ko'tarildiyu nokzorga qarab uchdi. Ular hech yolg'iz yurishmas, hozir ham haqqushlardek oldinma-ketin uchib borishar edi. Bilaman, shu yong'oq kavagida ularning ini bor. Har yili shu inlariqa tuxum qo'yib, bola ochishadi, uchirma qilib, chag'illatib ergashtirib yurishadi-da, birdan yo'q bo'lib qolishadi. Oyim, u xosiyatl qush, bu atrofda yolg'iz shular qoldi, tegmanglar, deb goho ogoxlantirib qo'yadilar. Bular ham yo'q bo'lsa, bu joylardan putur ketadi, xarob bo'ladi, deydilar. Negaligini hech tushunolmayman, lekin qo'rqb tegmasligimiz aniq. Men bu gapni hamma o'rtoqlarimga aytib qo'yganman. Tegsinlaram-chi, ko'raderlar mendan.

Orqamga o'girilib qarasam, Haybat akam endi nokzorga yetib kepti. Men esam, Sultonmurod akam bilan oldinma-ketin yong'oqzordan balandlab boryapmiz. Boya pastda oyog'imning tagiga ham qaramay yengil yugurib kelayotgan edim, endi tizzalarimning tepasi zo'riqib og'riy boshladi. Bu ketishda Mo'min tog'aning shohdevorigacha ham yetib borolmasam kerak. Lekin Parpi nomarddarcha otib ketgan shaharlik ko'zirning hozir Mo'min tog'anikida qonga belanib yotganini eslab... tizzamning tepasidagi og'riqlarni ham unutdim. Unga nima bo'pti ekan? Nima jin urib, Parpiga ro'baro' kepti? O'zi bu yoqlarga qon tortib kelgan ekanmi? Niyati o'g'rilik bo'lmasa, nima izlab yurgan ekan bu yoqdarda? Akamning surati uning yonida nima qiladi? Hech narsaga aqlim yetmay boryapman. Rostdan akamga ergashib kelgan bo'lsa-ya, deb qo'rqb ham qo'yaman.

Sultonmurod akam bo'lsa, hech yoqqa qaramay halloslab boryapti. Ko'ylagining popiltirikdi tizginlari yelkasi osha hilpirab, jingalak sochlari selp-selp to'zg'iydi. Tobora qadami og'ir ko'chayapti. Yer balandlagani sari chopish ham qiyin-da. Axiyri Mo'min tog'aning chetan eshigiga yetib-yopishdi-da, bir siltab ochdi va qadam bosgan joyida to'xtab qoldi.

Bu orada men ham yetib kelib, uning qo'ltig'i tagidan o'tib oldim-da, qistadim:

- Yuring, choping, nimaga to'xtab qoldingiz?!

Sultonmurod akam alanglab, kungay avvondan keyingi uyning derazasi tagida betoqat kezinayotgan Mo'min tog'aga termilgan edi. Mening daldam bilan ilga-riladi, yo'lakay mushtiga yo'talib, tog'aga salom berdi.

Kunchiqarga qaragan eshikning tor yo'lagiga qamalib olgan tekin tomoshabinlarni haydab solib, ichkariga hech kimni qo'ydirmay turgan Mo'min tog'a Sultonmurod akamni ko'rib, Xizrn topganday shoshib qoldi:

- Kiravur, bolam, kiravur. Zap kelding. Men qay bir eslik odamni chaqirsam, kimga xabar bersam, deb halak edim. Yaxshi kepsan, - degancha hassasini do'qillatib biz tomonga yurdi. - Harqalay shahar ko'rgansan, odam taniysan, Abdurahim eshon pochchamning to'ng'ichlari. O'zing bir nima qil bu musofirginani. Opkelishganidan beri alahlaydi, odam tanimay yotibdi, bolam. Nima qilarimizni bilmaymiz boyaqishginani. Duolar olib ketganidi. Qaysi ayblariga bu ahvolga solishibdi, qora qoniga belashibdi?! O'zing bir narsa qil: do'xtirga oborasanmi, shaharga yetkazasanmi...

Bu orada Haybat akam ham yetib keldi. Shu payt oshxonan oldida uzun ko'yaklarini lippa urib olgan Adol opoqi ko'rindi. Tirishburish kaftlari bilan mijjalarini arta-arta, bizga qarab kelarkan, hadeb javranardi:

- Hay, To'lavoy, yo'lbarsingizni bog'laganmisiz, bironta boyaqishni javrlantirib qo'ymasin. Odam tapirodimi u yashshamaguringiz, - deb turib, birdan Sultonmurod akamni ko'rib qoldi va uzun qo'llarini cho'zib, alqab kela boshladи: - Voy, xudo rahmat qilgur

Zumradxonning yodgorginasimi? Bormisan, bolam?! Bir yarashib turibsan, qara, ota yurtlarga. Ko'kqarg'ani ko'rib, odam burchalar quvonmaydi. Kelganing rost bo'lsin, ilohim, bolam. Shu aziz yerlarda unib-o'sgin. Ruhlar shod bo'lsin. Kel, bolam, kel,- deb bag'rige tortib, kuraklarini silab ko'risha ketdi.

Shu tobda opoqining ust-boshlaridan shirin bir bo'y gurkirab, ko'zlarim suzilib ketdi. Jon berib alqashi shirinmi, bu bo'yulari shirinmi - bilolmay qoldim.

Opoqi Sultonmurod akamning yelkalarini silab, silagan qo'llarini yuzlariga surtib-o'pib tavof qilayotgan edilar, Mo'min tog'a urishib berdilar:

- Keyin-keyin. Avval ichkari kirsin, uni ko'rsin, - deb o'zlar yo'l boshladilar.

Ular ayvon chetidagi zinadan chiqib, o'ngdag'i yorug'dahlizga kirdilar. Men qisinib, yelkam bilan eshik t.shaqasiga suyangancha ostonada qola qoldim, ichkariga utishga jur'at etmadim. Bola narsa, senga nima bor, dsb qolishganidan, shuyam yaxshi.

Shaharlikni uyning o'rtasiga, ikki qavat ko'rpanchang ustiga yotqizib qo'yishibdi ekan. Hali bunchalik haybatli ko'rinnagan edi. Pahlavonlarday bir uy bo'lib, cho'zala tushib yotibdi. Yelkalar keng-keng, qo'llari uzun-uzun, atrofga yoyvorgan, hatto oyoqlari ko'rpanchan oshib, gilamga tushib turibdi, shiminining pochalariyu oyog'idagi paypog'i qonga belanib, ivib qopti. Ustida pashsha g'ujg'on uchayapti. Lekin rangida rang yo'q, oq lavlagiday oqarib ketgan. Ko'zlari yumig'-u, qimtilgan lablarida, chakkalarida qattiq og'riqning izi qolgan. Ko'z ochishga holi ham yo'qday.

Sultonmurod akam kovshandozdan o'tdi-yu, u yog'iga jilolmay qoldi. Keyin menga qayrilib:

- Shumidi? - dedi allaqanday hayrat ichida. Men bir qadam ichkari bosib, bosh silkidim:

- O'sha, o'shaning o'zginasi.

Chunki u cho'ziq yuz, buning ustiga, sochi hadeb bir yoq qanshariga sirg'alib tushib ketaveradigan, silkib to'g'rilaqani bilan turmaydigan odam edi. Hozir ham bir tutam sochi o'ng peshonasini o'pib yotar edi.

- Tanidingmi, bo'tam, - dedi tog'a jonlanib.

- Yo'q, - deya bosh chayqadi Sultonmurod akam va tez borib, gilamga tiz cho'kdi. - O'q qaeriga tegibdi?

Tog'a cho'nqaydi.

- Bilmasak. Qon bo'ksasidanmi, qornidanmi oqib tushgan, tushavergan. O'zini bir amallab opkelishibdi.

Sultonmurod akam tusmollab turib, uning shimini yuqoriga sura boshlagan edi, u bosh to'lq'ab ingradi. Yo alahladi, yo bir nima demoqchi bo'ldi. Harholda, biz hech nima anglamadik. Sultonmurod akam, hushiga kelar, deb uning boshini siladi:

- Qaeringiz, birodar? - dedi umidvor tikilib. Uning kipriklariga jon bitib, qo'zg'aldi va hissiz, bemajol qaradi.

Sultonmurod akam yaqinroq suriddi:

- Agar ulov topsam, holingiz keladimi? - dedi yuzlariga boqib.

U ko'ksi ko'tarilib-tushib, bosh to'lq'adi.

- Balki Hoji do'xtirga odam yuborish kerakdir? - dedi Mo'min tog'a javdirab. - Boyaqish qiyinaliblar ketdi.

- Oqtepagami? - dedi Sultonmurod akam.

- Undan qo'li yengil kim bor? Yaqin-atrofda hech kimam yo'q. - Tog'a tizzalari qisirlab o'rnidan turdi-da, deraza tokchasiga borib o'tirdi.

Sultonmurod akam jilmadi.

- Vaqt ketadimi... - dedi bosh ko'tarmay. So'ng qayrildi. - Undan ko'ra, to'g'ri Arpapoyaga oborsam...

Axir, olamning yaradorlari o'shatta. Jangdan qaytganiyam, boradiganiyam.

- O'zing bilasan, bo'tam. Men bir narsa deyolmayman. Ulovim bo'lsaki, ma, ol, tez yetkaz, desam. Lekin qarabam o'tirib bo'lmaydi, - deb tog'a tokchadan ham turib ketdi. Uy ichiga sig'may, u yoqdan-bu yoqqa yurinishga tushdi. - Xudoyimdan aylanayki, butun nima bo'ldi, u bizning Yakkabog'dan ketolmay qoldi? Nima hikmati bor ekan bunda?

Shaharlik yotgan joyida to'lq'onib ingradi. Bir yonga o'girilib, g'ujanak bo'lismga tishdi-yu, qon sizib qotgan oyog'ini jildirolmay qiyndaldi. Sultonmurod akam uni yelkalaridan bosib, tinchlantirdi:

- Ozgina chidang, birodar. Xudoyim o'zi sabr bersin sizga. Men biron narsa topay, - deb o'rnidan tez tura boshladi. Shu payt shaharlik ko'zlarini oshib qoldi. Javdiragancha, majolsiz qo'llari bilan Sultonmurod akamning egnidan tutdi.

- Olib ketolsangiz... olib keting, - dedi entikib. - O'z uyim o'lan to'shagimga... Qoratoshimga... - Mijjalarida yosh yiltiradi.

- Siz hali... Qoratoshda nimisiz? - deb yubordi Sultonmurod akam allaqanday hayrat ichida.

Ammo u qaytib bir narsa demadi: yo holi kelmadi, yo aytgisi. Boshini bir yonga tashlab, jim qoldi. Sultonmurod akam unga qarab turolmay qo'zg'aldi:

- Xo'p, men ketdim! - dedi unga ham eshittirib. - Iloji boricha tez qaytaman. Kutib turinglar.

Ostonadan o'tdiyu Mo'min tog'aga qayrildi:

- Movzirnikiga o'tamanu qaytaman. Zora sho'tta bo'lsa, - dedi.

Mo'min tog'a duo qildilar:

- Xudo xayringni bersin, boraqol. Yeyilib qolmas izvoshlari...

Hech qancha vaqt o'tmay guvillagan odamlar orasini yorib o'tib, o'sha yo'lakdan:

- Hoy, Husanboy, Haybat, qanisizlar, yordamlashvoringlar. Movzirni Xudoning o'zi yetkazdi, - deb kirib keldi akam.

Men eshikka yugurib chiqib, yoqamni ushlab qoldim. Yo'l chetida raisning ubti yarim ochiq soyabonli qora izvoshi turar, jingalak sochli, bashang kiyungan Movzir aka otining sag'rinimi silab, yuganlarini mahkamlar edi. Yo'laqda ovozi do'rillab, qo'llarida kosa, Adol opoqi ko'rindilar:

- Xudo ol qulim desa, shuda, o'zi yetkazadi. Hov Movzir bolam, ma, manavini ichib ol. O'zi yarim cho'michgina suzdim. Ol, bolam, yo'l-oyoq bo'lsin. Nasibang sening.

- E, opoqi, bormisiz. Siz opchiqasizu men ichmaymanmi? Sizzi qo'lingizday shirin qo'l qaerda? - deya u ham opoqiga qarab kela boshladi.

Shu tob ichkaridan kattalar po'sht-po'shtlab, yaradorni ko'tarib chiqishdi. Odamlar nima bilan ovora-yu, Adol opoqi ularning ketidan galdirab, javrab boryaptilar.

- Hay, yaxshilar, hay, aylanaylor. Men bu bolaginamga deb ikki qoshiqqina issiq qiluvdim, ichirmadinglar ham...

Kimdir:

- Ko'rib turibsiz-ku, opoqi. Ulov topilganda yetvolaqolsin, - dedi. Kimdir yana boshqa narsa dedi. Opoqi bunga ham ko'ndi. Yo'l chetiga o'tib, bir do'ngga cho'nqaydi-da, birnimalarini deb duo qila ketdi. Hamma u kishiga qo'shilib, yuziga qo'l tortdi.

Izvosh jildi.

### Uning Chekiga Tushgan Ot

Sultonmurod akam ertasiga kechga yaqin (shundayam oftob Olmazorning orqasiga o'tib ulgurmay) qaytib keldi. Supaga - tom soyasiga joy qilib, choy opkeldim. Yuzi tund, ochila qolmaydi. Men esam, so'ramimni ham, so'ramasimni ham, bilmay o'tiribman. Bir payt Sultonmurod akam chuqr xo'rsindi.

- Ahvoli yomonroq... - dedi choyni ichishga ham shoshmay. Xavotirimni sezdi shekilli, betimga qarab, ma'yus jilmaydi. Suyub, yelkamni silab ham qo'ysi. So'ngra: - Sen qo'rhma, Xudo xohlasa, tuzalib ketadi. Uyidagilarga ham xabar berib qo'ydim. Lekin

o'sha Yakkabog'ning Izzasidagi olishuvning tafsilotini bilolmayapman-da, - dedi bir tin olib.

- Hech kim ko'rмаганмикан? - dedim men.

- Izlasam toparman. Lekin... lekin o'zining gapi qiziq. Nuqlul alahlaydi: o'zim aybdorman, o'zim, deydi.

Tushunmadim: o'zi nimaga aybdor bo'larkin? Bu yerda bir sir borga o'xshardi.

- Endi nima qilasiz?

- Tuzalsin-chi, o'ziga kelsin-chi, - deb akam nihoyat choyni qo'liga oldi.

Xuddi shu mahal ko'cha eshikda ot pishqirib, so'liq chaynagani eshitildi. Yugurib chiqsam, tog'am. Eshik zulfiniga otlarini bog'lab, sassiz kulgancha, kirib kel-yaptilar.

- Ha, jiyan, opam qanilar? - dedilar dabdurustdan.

- Daladalar.

- Uyda-chi, uyda kim bor?

- Sultonmurod akam.

- Juda yaxshi. Unda biz gaplashib o'tiraturamiz, sen zipilla, opamlarni aytib kel.

Topshiriq yoqinqiramay, eshikka yo'naldim. Hali Sultonmurod akamdan qancha narsa so'ramoqchi edim, o'zi ham bu yoqlarda nima qilib tentirab yurganini (yo kela qoldimi?) bilmoqchi edim, gapning beliga tepdilar-da.

Oyimlarni aytib, oftobda qizib yotgan bir qop o'tni ortmoqlab, daladan qaytsam, tog'a-jiyan qizishibroq o'tirishibdi.

- E-e, tog'a, bilaman, sizdan bo'lak qayishadiganimiz yo'q. Lekin shu ishni chakki qipsiz, - dedi Sultonmurod akam.

- Nega chakki bo'larkan? O'qib, melisa bo'p kelsa, nimasi yomon? - dedilar tog'am jerkibgina.

- Rahmatli adam ikki dunyodayam unamagan bo'lirlilar bu ishga...

- Otni minu uzoqni ko'zla, der edilar dodam rahmatli. Ko'zimiz tirigida sizlaram tup qo'yib, palak yoyib olinglar-da, jiyan.

- Murosai madora - shunaqami? - deb to'ng'illadi akam. Tog'am uming kesatig'iga parvo qilmadilar.

- Ha-ha, mador yig'aman degan murosa qiladi. Kekdan hech kim ko'karmagan. O'ch - intiqom deb yurib, ko'zingga qon to'lib yo yog' bosib qolmasin.

- Har kim chekiga tushgan otni minadi, - dedi Akam tog'amning ko'ziga qaramay, - mening chekimga... shu ot tushibdi! Men hali shunday qoldirmayman ularni! Oblochi boshlab kelganiniyam, uy oralab xolamni chirqiratib ketganiniyam!..

Tog'am mo'ylovleri dikkayib, qaysarsan-qaysar, deganday qaradilar-da, yana o'zlarini boscilar.

- To'g'ri, har kim o'zi yoqtirgan otni minadi, jiyan, sekin bir umr asov ot minolmaysan-ku, bir kunmas bir kun ustidan itqitib ketishi bor. O'jarlikdan Kimga jabr?

- Peshonamdan ko'rdim!

Sultonmurod akam yuzini ters burgan joyida oyim kirib keldilaru bu gaplar o'z-o'zidanoq to'xtab qoldi.

Ikkalalari ham turib, oyim bilan ko'rishgani yelka tutib, engashishdi.

- Hay-hay, qanday shamollar uchirdi, Qo'ldoshxo'ja, Sultonmurod?! Kelsam, uyimni to'ldirib o'tiribsizlar. Ko'z tegmasin, biram yarashib turibsizlarki!..

- Men haliyam siznikida turadigan bo'lib keldim, xola, - dedi Sultonmurod akam o'zini yaqin olib.

- Voy, bosh ustiga, xolang o'rgulsin, bosh ustiga. Kelsang, kimsan, jigarimning jigarisan, - dedilar oyim boshlari osmonga yetib.

- Men esam, yana o'sha gap bilan keldim, opa. Ko'chirsam, ko'chirib ketaqolay endi, - dedilar tog'am dabdurustdan. - Ertalabdan tayyorgarligingizni ko'raverasiz. Qarindoshlar hasharga kelishadi.

Oyim serrayib qoldilar bu xabardan.

- Muncha tez, Qo'ldoshxo'ja? U yoqda bir boshpana ko'tarmay turib-a?

- Voy, opa-ey, shu uyingizning uskunasini peshma-pesh oborib, bir haftada tiklab bersak, bo'ldimi? Ustaning zo'rini aytib qo'yanman, aynimang endi.

- Tog'a, otalarimizning yurtini tashlab ketib, nima topamiz? - dedi kutilmaganda Sultonmurod akam aralashib.

Oyim yomon tortishuv chiqib ketishidan cho'chibmi, qistadilar:

- O'tiringlar-o'tiringlar, bir duo qilaylik, avval. Qani, Qo'ldoshxo'ja, o'zingiz o'tganlarning ruhi-pokiga bag'ishlab bir tilovat qilib yuborasizmi?

Tog'amning shirali ovozları bor ekan, tilovatlaridan keyin o'z-o'zidan boyagi taranglik ham unutildi-ko'ydi.

- Ko'chish bo'lsa, ko'chish-da, Sultonmurod. Hammasiyam ota-buvalarimizning yurti. Bu mulkdan chiqib ketyapganimiz yo'q, - dedilar oyim endi bizni hayron qoldirib.

- Shuni aytинг. Ko'chsak, qaerga ko'chibmiz? To'raxo'ja akaning mulkidan Umarxo'ja akaning mulkiga o'tibmiz-da, - dedilar tog'am kulib; ham uzoq tarixdan tushib. Biz jon qulog'imizni tikib qoldik. - Birlari Yakkabog'ni, ikkinchilari Kattabog'ni makon tutishgan, farqi shu, xolos.

- Unda... Toshkentga o'ris bosib kirganida, Ulug'xo'ja buvamizning yonlarida turib menganlik qilgan qaysilari? Kenjalari bo'lib chiqadimi? - dedi Sultonmurod akam ko'zları allaqanday chaqnab. (Tavba, buni qayoqdan eshita qolibdi?!).

- Ha, o'sha kenjalari bo'lsa kerak. U Qoratoshda qolib, bular bu yoqni vatan tutishgan ekan.

- Keyin anuv gap-chi, uyam to'g'rimi? - dedi Sultonmurod akam labining chetida jilmayib qo'yib. - Nusrat pochcha aytib o'tiradilar-ku?

- Qaysi, Ulug'xo'ja buvamiz shahid ketganlarida tillani kepchiklab bo'lashishganimi? Ha-ha, biz yutsang g'oziy, o'lsang shahid degan odamlarning avlodimiz. Faqat, bugunga kelib, joni, mol-dunyosi ko'ziga shirin ko'rinish, urushdan qochadiganlar chiqdi-da. bo'lmasa, shahidlikdan ulug' martaba bormi Ollohnning nazdida?!

Tog'am bu gapni xuddi unga tekkizib aytgandek, Sultonmurod akam bir qo'zg'alib qo'ydi, miyig'ida bir g'alati achchiq jilmayish ko'rindi.

- Buvalarimizni qirgan, otalarimizni qatl etgan, yurtimizni qonga botirganlarni himoya etibmi?..

Tog'am gap qaytargan odamni yomon ko'rар edilar, og'rinib bir qarab qo'ydilar.

- Sen bu tarz gaplarinshi qo'y, jiyan, - dedilar haytovur nasihatga ko'chib. - Bularga ters qarab, kim baraka topdiki, sen topasan. Yaxshisi, bu xil fikrlaringni ichingta yut.

Sultonmurod akam kuldii:

- Mening ichim Kenja tog'amning bug'doy ko'madigan xumi ekan-da?!

- U qora kunga yig'sa, sen yorug' kunlaringni o'ylab ishir.

Sultonmurod akam bu gapni ham o'ziga olmay ijirg'ana boshlagan edi, oyim o'rta ga tushdilar:

- Tog'ang to'g'ri aytadilar. Qo'y, bolam, bo'lмаган bilan bo'lismha. Sen kimsan - Ulug'xo'jaboylar avlodidansan!
- Biz o'shanday buvalarimizning nomini ham yashirishga majburmizmi - majburmiz! - deb yubordi Sultanmurod akam allaqanday yonib-o'ksib.

Tog'am ko'z qisdilar.

- Bular hammasi vaqtinchalik hol. Muhimi, kimning surriyodi ekaningni unutma, tashindga sezdirmagin-u, ichingda g'ururlana bil.
- O'sha ich yonib ketsa-chi?

- O'zingni bosu ularning ruhi-pokiga bir kalima Qur'on tilovat qil. Ham taskin topasan, ham savob yuborasan, - dedilar tog'am. Sultanmurod akam noiloj jim qolib, tog'amga qaradi. Oyim (bu xil gaplarga chek qo'yigilari kelibmi) tamomi boshqa narsadan so'z ochdilar.

- Qo'l doshxo'ja, hamonki ko'chadigan bo'lsak, bugun kechqurunga bitta is chiqarib, to'rtta qo'shmini chaqirsak, ehson-xudoyi qilib yuborsakmidi?.. Necha yil shu joyda tuz-non yedik, qancha bolalarimni, otasini yerga topshirdim. O'shalarning ruhi xotirasi.

- Maylingiz. Unda vaqt o'tmasin, - dedilar tog'am.

Ko'chish. Har bir qarichi, har bir ustuni, hatto hidi ham qadrondan bo'lgan uydan ko'chish. Ichimda nimadir uzilganday bo'lib, shiftimizdag'i ko'hna toqilaru behi osiladigan uzun dorimizga tikilib qoldim. Nahot shularning hammasini ertaga qo'porib tashlaymiz? Qaldirg'och uyasini buzsang, qancha chirqillaydi...

Ich-ichimdan xo'rlikmi, xo'r siniqmi bosib kelib, ko'zim jiqla yoshga to'ldiyu sekin uydan chiqib keta qoldim.

### Bu Ohu Kimning Ohusi?

Qarindoshlar-chun tog'amning so'zлari qonun, aytganlari aytgan, ekan. Kun yallig'lanib chiqib ulgurmay, birin-ketin "Assalomu alayko'-o'm", deb kirib kelishyapti-kirib kelishyapti. Tog'amning o'zлari supaning to'rida "Ha, barakalla, falonchi!"; "Ha, keldingmi, pistonchi", deb kutib olayaptilar. Bitta-bitta ko'rishib, kim yonlariga, kim pastroqqa cho'kyapti.

- Duo qiling, oka, - deydar tog'am. Shirali, kuylaydigan bir ovozda Usmon tog'am duo qiladilar. Hammalari yuzlariga fotiha tortib, gangir-gungur bilan so'rasha ketadilar.

Faqat men to'msayibgina tolning tagida choy qaynatyapman. Aksiga olib samovar ham qaynay qolmaydi. Olovi yonib bo'lar-bo'lmas karnayini olib, o'tin tashlayman. Yonib turgan narsa burqsib tutay boshlaydi. Tutuni ko'zlarimga kirib achishtiradi, achishtirib yoshlantirs ham, nari jilmayman. Shu yaxshi, yoshlantirgani yaxshi. Birov, nega yig'layapsan, demaydi. Ko'chsangiz, qayoqqa ko'chasiz, tog'alaringning qavatiga borasiz-da, deb taskin-tasalli berib ham yurmaydi.

Hozir menga bir og'iz so'z ortiqcha. Yuragimga hech narsa sig'may turibdi. Yig'lab yuborishim, qarindoshlarning kulgisiga qolishim mumkin... Uyni buzayotganlarida bu yerda turolmasam ham kerak.

Axiyri bir piyoladan choy ichib bo'lismagan ham edi, kalxo'zning gaplashib qo'yilgan aptakachkasi yetib kela qoldi. Tog'am uni Sultanmurod akamga topshirib, "Senga ishondim, o'zing chiqqa qol", dedilar-da, akalariga o'girildilar:

- Qani, oka, fotiha bering, boshlay qolamiz.

U kishi qo'llarini ohib, "Omi-in", dedilar... men ko'chaga otildim. So'nggi eshitganim: "Shular ham borgan yerida tup qo'yib, palak yoysin, Xudoyimning o'zi..." deganlari bo'ldi.

Otlar mendan hurkib, o'zlarini bir orqaga tashlagan edilar, arava g'ijirlab, nari borib-beri keldi. Yaxshiyam tolga bog'log'liq ekan. Ular chindanam zo'r, gijjinglagan edilar-u, lekin hozir mening ko'zimga hech parsa ko'rinnas edi: negadir bir yerlarga ketib qol-gim bor, qoramni hech ko'rsgatim yo'q, arazim shunchalik!

Sultonmurod akam meni urishib bergisi bor edi-yu, avzoyimni ko'rib, hech kutmaganimda yumshadi. Keyin erkalab chaqirdi:

- Zap chiqdingda o'zing, pakana pari. Tog'amlardan so'rab olmoqchiydim, yur, ko'rib kelamiz yangi joylaringni.

Chindanam, bu yerda nima qildim, oyoq tagida o'ralashib... kirib-chiqib... tumsayib yurib? Ko'rmayinam-kuymayinam buzganlarini. Hammasiga chidarman-u, sho-kila-shokila xumchalab yotgan lolaqizg'aldoqlaru kelin gullarday yuz ochgan anuv nozuv chuchmo'malarni yakson Etib, tom ochishlariga... chidolmasman.

Ko'tar-ko'tar bilan ichkaridan avval sandiqlar, keyin ko'rpa-yostikdar olib chiqila boshladi. Ko'pchilikka hech gap emaskan, barcha lash-lush bir aravaga jo bo'ldi-ketdi. Sigir-buzog'imizni aravaning orqasiga bog'lab berishdi. O'zimiz yuklarning tepasiga chiqib oldik.

- Sapuraxonning bitta uyini bo'shattirib qo'yanman. Eshikka olib borsangiz, kennoyinglar tushirib olishadi o'zлari, - deb tayinladilar tog'am.

Arava g'ijirlab jilib, otlar yo'rg'ayay ketdi. Yuzga ukpardonam mayin shamol urilib, yellar odamni achenlab o'tisha boshladi. Yana o'ksik hislar bosmasin, deb orqamga o'girilib qaray olmayman. Ammo otlar qadamlarini tezlatgani sari g'ir-g'ir shamollar esib, meni ovutmoqni bo'yniga olgan kabi o'ynar, yulqar, g'uvillar, bir zum timmas edilar.

Uchinchi qatnashimizda sinchlар bilan toqilarni ortib berishdi. Tog'am damlagan oshni tol soyasida paqqos tushirib, uch-to'rt piyola choy ichqunimizcha naq peshin bo'ldi. Kun yozdagidek qizdirar, odam o'ziga soya axtarib qolgan, hech turgisi kelmas edi. Men arazlarim tarqab, Sultanmurod akamning yonidan jilmay qo'ydim. U nima buyursa, chopqillab bajarlar edim. qolaversa, yangi joylarimizni ko'rdik, zo'r bog'dan joy ajratishibdi. Devor olib, uy solinsa, boshqalarnikidan hecham qolishmaydi. Joy menga yoqdi. Hammasidan ham, shunday oldimizdan ko'cha yoqalab anhor o'tarkan. Suvlari bir tiniqli...

- Vaqt o'tmasin. Hali qancha yukimiz bor. Sultanmurod, sizlar tura qolinglar, - deb qistadilar tog'am.

Biz joy-joyimizga chiqib, Sultanmurod akam tizginni silkiladi va nariroqqa borib, men tomonga sekin qayrilib, ko'z qisdi:

- Qaytangga yaxshi bo'ldi, pakana pari. Bu gal yo'lni Qayumbek amaking tagidagi ayrlishdan solamiz-da, Cho'milishda to'xtab, bir-bir sho'ng'ib olamiz. Bo'ptimi?

Yo'lni eslab, yuragimga g'ulg'ula tushdi:

- Shoshmang, u yo'lning qiyamaligini bilasizmi?

- Bilaman. Qo'rqma, pakana pari, otlarimiz zo'r! Tizginni tortib tushsak, o'tib ketadi xudo xohlasa!

- O'zingiz bilasiz...

Olmazordan o'tishimiz-la (bir kenglikka chiqib, g'ir-g'ir shabadalarga yuz tutib boryapmiz) otlarning boshini o'z holiga qo'yib berib, Sultanmurod akam atrofga suqlanib qopti. Hech ko'z uzolmaydi u kengliklardan. Hali tegrimon tepasidagi shamollarga ko'ksini ohib, chayqalib-chayqalib yotgan (xuddi ustida bulutlar soyasi ko'chib yurgandek, tavba, ammo osmonda dona bulut yo'q) bug'doyzorlarga, hali bu yondagi qo'shilish tepalariga, undan u yog'i Achchi qirlariga tutashib ketgan kunbotar tomonlarga

bir g'alati sog'inib, ichikib tikiladi. Men o'zim ham shu Olmazorga kelib, bu yerlardan o'tadigan bo'lsmam, anuv Foziltepadan va unga yondoshib Izzaga qadar pastlab borgan tepachalardan ko'z uzolmay qolaman. Nazarimda uzu-un, bahaybat bir ajdar Izzadan o'rmalab chiqayotib... qotib qolgandek... tuyulaveradi. Bir mahallar shunday ertak eshitganman, o'shaning ta'siridami yo aslida ham shundaymi, bu tepalar ko'zimga ajdarday ko'rinaraveradilar.

- Ha, pakana pari, og'zing ochilib qopti? - dedi akam jilmayib.

- Turishi chirolyi-da.

- Foziltepami?

- Siz yonidagi tepachalar bilan birga qarang, birga ko'ring, - dedim men.

- Ho'-o've, kun chiqayotganda yo botayotganda ko'rsangmi? - dedi akam bir g'alati ta'sirlanib.

- Yo'g'e!..

- Undan keyin shomda yo bo'lmasa yomg'ir sharros quyib yotganda ko'r bu yerkarni! O, ajdarning o'zi deysan!

Men yoqamni ushladim.

- Bilarkansizda siz ham?

- Nimani?

- O'sha ertakni?

- Nega bilmay? Bilmagan odamni kim yakkabog'lik deydi?! - U otlar tizginini tortib, bir chirolyi bosh irg'adi. - Ammo asli bo'lakcharoq.

Men tutyaunmadim:

- Nimaning asli? Ertaknimi?

- Yo'q, Foziltepaning tarixi. Mening jonim kirib, o'ngarilib oldim.

- Aytin, ayta qoling.

U esa, o'sha tepalaru Qo'shilish qirlariga boyagidek bir ichikib, bir muhabbat-la tikildi.

- Mening bilganim - bu qirlar, bu tepalar ulug' bir davlatning eng chekka sarhadlari, ulardan qolgan yolg'iz nishonalar. Bu yerlarda suruv-suruv otlar boqishgan. Ayniqsa, bahor paytlari, lolalar ochilgan kezlarda bu qirlar jannatning davomiday bo'lib ketgan, yashnab yotgan. U tepalar esa - Foziltepayam, Xirmontepayam, Oqtepayam - qo'riqchi tepalarday uzoq-uzoqlardan ko'zga tashlanib turganlar. Birida o't yoqilsa, undan ko'tarilgan tutun narigisida bemanol ko'ringan. Va o'sha davlat sarhadlariga dushman oralamayoq uning xabari barchaga ma'lum bo'lgan. Shu tepalarda ko'kka o'rلان tutunlarga qarab, otlarga egar uraverishgan, lashkar jangga hozirlanib chiqavergan. Uzoq ajdodlarimiz shunaqa qudratli davlat qurishgan. Tarixda Qang'li davlati deb ataladi u.

- Qang'li?

- Ha-ha, bu joylar bekorga Katta Qang'li deb aytildimi? O'shandan qolgan, - dedi u ko'z uchirib.

Men yaqinroq surildim.

- Keyin-chi?

Sultonmurod akam "Eh, pakana pari, pakana pari, mening jonajon ukam, keyin nima bo'lardi", degan kabi mahzun tikildi.

- Keyin u davlatlar, u sultanatlar hammasi yemirila-emirila, biz o'z payimizni qirqa-qirqa shu kunlarga qoldik-da! Otsiz, lashkarsiz, taxtsiz...

Shu tob biz Izzaga kelib qolgan ekanmiz, yo'l pastlab, arava o'zining zalvori bilan otlarni surib keta boshladi. Sultanmurod akam jon-jahdi bilan otlarning tizginiga yopishdi va tortib o'zini orqaga tash-ladi. Otlar boshlari qayrilib, ko'zları shokosa bo'lgancha, yo'ldan chiqib ketmaslikka zo'r beradilar-u, ammo qadamlarini sekinlata olmasdilar. Yo'l shu yerga kelganda changal bosgan Jimittepani aylanib o'tib, ko'prikkka tushib borar, shunday o'tib olinsa, aravaning zalvori bilanoq soydan chiqib ketilar edi.

Ammo hozir otlar aravani emas, arava otlarni surib boryapti. Surgandayam shitob bilan pastga surib ketyapti. Bunga sari g'ildiraklar vahimali shaldiraydi. Aravaning o'zi mana hozir to'ntarilib ketadiganday, chayqalib borib-kelyaptiki...

Men esxonam chiqib, jon holatda nimalargadir yopishdim. Va shuning barobarida hov pastda, Izzanining cho'milish joyida suvdan chiqo o'zini pana-pastqamu yovvoyi yalpizlar ichiga urib borayotgan qizlarga ko'zim tushib, qotib qoldim. Yo Ollo! Kim o'zi bular? Parilarmi yo o'zimizning shu dala qizlari? Qarang-a, cho'miladigan payt kelibdi ekanmi? Qochishga ulgurolmay qolganlari sarosimada, kim qo'llari bilan ko'ksini to'sganicha, kim suv o'rtasida sekingina o'tira qolib, kimlari ko'ylagi badanlariga chippa yopishgancha, qotib turar edilar.

Biz bo'lak, qaldir-quldir bilan o'sha yoqqa tushib boryapmiz. Qo'rqib ketganimdan "O'libmiz!" deb o'yladimu... jon holatda akamga baqirdim:

- Otlarni qo'yvoring! O'z holiga qo'yvoring!

Aravaning shu shaldirashiyu cho'milayotgan qizlarning qiy-chuvida Sultanmurod akam mening ovozimni eshitdimi-yo'qmi, bilmayman. Ammo otlar ko'zları kosasidan chiqqudek bo'lib, osmonga sapchiydigan bir alpozda zo'rg'a yo'l topib borayotgan edi, arava naq ko'prikkha yetganda zarb bilan bir nimaga urildiyu men ustidan koptokdek uchib ketdim. Otlardan bittasi zorli kishnab, qizlar qichqirib yubordilar:

- Voi, o'ldi, ushlanglar!

Men yuz-boshim bilan bulturgi yovvoyi yalpiz ichiga sho'ng'ib, shaloplab suvgami, balchiqqami tushdim. Yalpiz hidi gurkirab, bo'g'zimga bemaza suv tiqildi. Shu o'zimni o'nglab, boshimni ko'taraman, deyman, qani ko'tara olsam! Qo'limni botqoqdan tortaman, deyman, qani tortolsam! Ammo shu payt kimdir ikki qo'lting'imdan dast ko'tarib olib, chimga o'tqazib qo'ydi. Yengim bilan ko'zimni artib qarasam, chit ko'ylagi hali selgib ulgurmagan bir qiz o'takasi yorilib, tepamda turibdi. Nuqul boshimni silab, quloqlarimni ishqaydi. Nimalardir deb hushimga keltirmoqchi-yu, eshitsam o'lay agar. Men uni ko'riboq, angrayib qopman. U bir paytlar boshiga shaftoli gulli uzun simro'mol tashlab chiqib, salom qilgan... Asol xolamning o'sha ko'hlik kelinlari edi, kennoyim edi. Uning yuzi, yo Xudo, bir tiniq, tiniqdan-tiniq ediki, umrimda bunaqa tiniq yuzni hozirgidek yaqindan, juda yaqindan hech ko'rmangan edim.

Uni yana uchratganimdan rosti, esim og'ib qolgandi.

Yuz-ko'zlarimda jon asari yo'qmi, nima balo, (balki balchiqqa bulanib chiqqandirman, yuz-ko'zlarimni yuvib olish kerakdir,) ishqilib, kennoyim dovdirab qopti, shoshib qolganidan qo'lting'imdan olib turg'azishni ham, shunday chimga yotqiza qolishini ham bilmaydi. Nimalardir deb...

Shu tob qulog'im jangillab ochilib, Izzanining bir chirolyi shovullashi aro uning tanish tovushini eshitib, o'zimga keldim.

- Hoy, uka, hoy, qaynijonim, menga qarang, o'zizga keling... - deb jovullardi u tepamda girgitton bo'lib.

Aylanib-o'rgilishi, "qaynijonim" deyishlari biram xush yoqib, ko'zim suzildi. Qo'rwmang, menga hech iima bo'lgniyoq, o'zim shunday... Sizni ko'rib, erib ketdim, degim bor-u, demayotirman. Yana birpas erkalashini, boshimni silab, ustimda o'lib-tirilishini istayman.

Hushimga kelganimni ko'rib, suyinib ketdi va shirin jilmayib, yelkamdan quchdi:

- Yomon tushmadizmi, ishqilib?

Uyalib ketdim va dikka turib oldim.

- Yo'q-yo'q, mana, otdekman.

U ham turib, ko'ksiga tufladi.

- Xayriyat, xayriyat. Xudo asradi. Alhamdulilloh, deng, qaynijon.

- Qo'rqib ketdinglarmi shuncha? - dedim dovdirab. Shunaqa uchib ketgan ekanmanmi?!

- Sekinroq aytasizmi, esxonamizni chiqarvordingiz-ku. Qolavursa... - deya yon tarafga o'girildi. Ko'prikan o'tiboq yo'lga cho'kkalab qolgan yolg'iz otga (berigisi ham orqasiga tisarilib ketay-tisarilib ketay deb titrab turibdi) achinib qaradi.

Bu vaqt otning tepasida akam pichog'ini qinidan sug'urib yalang'ochlab turar, ammo qaysi tizginchani qirqishni bilmay kalovlanar edi. Ana shu daqiqada u ham biz tomonga o'girildi va... bir zum shunday qotdi.

Kennoyimning yuzlari lov qizardi va sarosimalanib, meni turtkiladi, qulog'imga engashib (bir ajoyib bo'yilar taratib) shivirladi:

- Choping, qaynim, qarashvora qoling. Tag'in otdan ayilib qolmanglar.

Shundagina ko'rdim: arava bir mo'kijiza bilan ko'prikan chetiga ilinib qolgan, otlardan bittasi turolmay urinib yotar, Sultonmurod akam esa nima qilarini bilmay najot kutib turar edi.

- Aka, shoshmang!.. - deya baqirgancha, uchib ketdim. Sog' otning ostidan qanday o'tib bordim, akamning qo'lidan pichoqni qanday tortib oldim, bilmayman. Otning bo'yintiriqlarini kesib yuborib edim, sapchib turib ketdi. Arava ham bir silkindiyu yoniga og'ib, ustidan toqilar shaqira-shuqur Izzaga ag'darilib berdilar. Asrayman desa, oson ekan: yukdan bo'shagan arava joyiga o'ngarildi-qoldi. Faqat, Izzani yoppa enlab toqilarimiz oqib borar, qizlar qiy-chuv bilan uni tutib ulgurishmas edi. Toqilar bizga qarashli ekani esimga tushib, men ham o'sha yoqqa chopdim.

Sultonmurod akam hali o'ziga kelolmagan otning yonida qoldi. Dir-dir titroq badanini silab-siypab, otni aravaga qayta qo'sha boshladi. Har-har zamonda biz tomonga o'g'rincha qarab qo'yadi, xolos. Axiyi, otni qo'shib bo'lidi, sal tepaga yurgazib chiqdi va... Endi nima qiladi? Izza bo'yidagi chimzorda sochilib yotgan toqilarini aravaga ortishay desa, shundoq ham qizlar undan uyalib suvdan chiqisha olmayapti. Qarashmay desa, bir o'zim qachon tashib bo'lardim? Nihoyat:

- Sen otlarga qarab tur, pakana pari, men tutzordan bir-ikkita novda kesib kelay, - deya katta tepaning orqasiga qarab yurdi.

Sultonmurod akam nari ketishi bilan qizlar ham apil-tapil suvdan chiqqa boshladi. Kim etagini siqib, kim sochlarini tuzab, naridan-beri o'zlariga oro berar, ayni choqda nimadandir hurkib turar edi ular.

- Yo'g'ida ketib olaylik, qizlar? - dedi qora yuzli bijildog'i. - Senlarga qarayman deb... sal qolsa, Izzaga qulay dedi boyaqish.

- O'zlarining yigit kishini boshini aylantirvorasanlarda bo'z ko'yakda, - dedi boshqasi.

- O'-o'l, sen juda sipomisan? - deb hammalar kulishdi.

- Bo'ldi! Indamasa aynivotsanlar, undan ko'ra, ortishvoringlar, - dedi kennoyim - Asol xolamning kelini.

Toqilarni terib, qo'llariga taxlasharkan, bijildoq qiz kelinoyimga tegishdi:

- Jigarlaridan urganmi, nima balo, yordamlashgilari kepqopti?..

Qizlar qiqirlab kulishdi, kennoyim uni quvdi:

- Hu tilginang kesilsin, bichib-to'qigan!.. qarindoshim-ku u.

Bijildoq yana nimadir deb Izzaning bu betidan u betiga qochdi.

Men ot jilovimi tutgancha, hali unisining qiligidan, hali bunisining gapidan esim og'ib turardim. Nihoyat, ish tugadi. Haligi bijildoq qiz so'nggi quchoqni aravaga keltirib tashlab, kaftini qoqarkan:

- Ana, bo'ldi! Endi akachangizni chaqiravering, uyalmasinlar, biz ketdik, - dedi allaqanday tegajog'liq bilan.

- Ketdik-ketdik, izimizniyam topolmasin, - dedi kennoyim unga qo'shilib.

Ular jovur-juvur bilan ko'prikan chopib o'tdilaru ko'z ochib yumguncha Jimittepaning orqasida g'oyib bo'ldilar. Jiydazorning ichiga urib ketdilarmi yo changal gullari orasiga yashirinib yo'q bo'ldilarmi, bilolmay ham qoldim.

Sultonmurod akam bir dasta novda ko'tarib qaytganida, hayhotdek soylikda yolg'iz o'zim turardim.

Otlarning jini bo'ladi degan gap rost shekilli. O'zi zo'rg'a qutulib oldi-yu, hech jim tura qolmaydi.

Hali dumini yelpib, choviga shilp-shilp uradi, hali orqa oyoqlarini betoqat ko'tarib tashlaydi. Men jilovidan tutib turganim esa, so'lig'ini chaynab, hadeb yo'l yoqasidagi chimga talpinadi.

Bunga sari arava g'ichirlab, qiyamalikda dam oldga, dam orqaga borib-kelyapti. Yuk orqaga tortib ketmasaydi deb jonim halak: akamning yuziga qaraganim-qaragan.

Nihoyat u hech gap bo'limgandek qaytib, novdalarni eshib-eshib, aravadagi yukni har ehtimolga qarshi tortib bog'ladi-da, otlarga erk berdi:

- Ha, qani, jonivorlar! O'zimning jiyronlarim, tortdik!

Arava g'ichirlab borib, tezlab ketdi. Yugarishib, ustiga chiqib oldik. Shundan keyingina Sultonmurod akam chiroyli mo'ylovini silab, kulib qaradi.

- Qoyilman senga, pakana pari. Otni vaqtida bo'shatib yuborib, meni bir xijolatdan qutqarding-da. Izzaga tortib ketganda bormi, ho'-o'...

- O'luvdik, - dedim men.

- O'lish ham gapmi? Anuv qizlarning oldida yerga kiruvdik!

- Shuni aying! O'zi Cho'milishda bir maza qilaylik, debmiz-u, Xudo xohlissa, demabmiz-da.

- Egalari borligini qaerdan bilibmiz, - dedi kulib. Keyin asta qayrilib so'radi: - Rostdanam haligilar o'zimizzi qizlarmidi yo hurilarmidi?

- O'zimizning Kattabog'ning qizlari, - dedim xiyol ikkilanib.

- Unda anuv ohu... seni bulokdan tortib olgan qiz kim? Taniysanmi uni?

- Nega tanimay? Asol xolamni... olti oylik kelinlari-da.

- Qanday kelinlari? - U azza-bazza otlarning tizginini tortib qaradi: - Bahriiddinning chimildiqda qolgan xotinimi shu?

- O'sha, - dedim nimaga so'rayotganini o'yalamay ham. - Bahriiddin akam topilmagach, ketib qolgan.

Sultonmurod akam ko'zlarini bir daqqa yumdi. So'ng otlarning tizginini bo'sh qo'yib, behol silkiladi:

- Chu, jonivor...

### Barzan

Biz bog' etagiga, shundoqqina ko'cha yoqasiga to'xtaganmiz. Akrom tog'am bilan Axyor tog'am aravadan yukni tushirib olishyapti. Tuproq ko'cha yoqalab ergashib kelgan anhor shu yerda, azim yong'oqlar tagida kechikka o'xshab yoyilib oqadi: salqini ufurib yotibdi. Keyin u sal nariga borib, ko'prik tagiga, undan allakimning uyi osti bilan hovlisiga kirib ketadi. U yog'iga qayoqqa borishini bilmayman.

Hech ko'rman ekanman: shu yerdan Izzaning narigi yog'idagi o'smarang olmazor surmarang yong'oqzorlarga-cha, uning yonidagi soya-salqin tolzor ko'chamizu mitti qo'rg'onimiz va sal teparoqdagi xarobazorgacha barcha-barchasi ko'zga yaqqol tashlanib turar, judayam yaqning o'xshab tuyilar edi. Balki o'zim tug'ilib o'sgan joylar bo'lgani uchun shunday olovday ko'rinyotgandir. Ustiga-ustak, bugun o'sha yoqlardan ko'chib ketayotganimiz, ota yurtni tashlab, tog'alarimiz qavatiga qaytayotganimiz uchunam u joylar bir aziz ko'rinoqdadirlar. Bugina emas, ko'nglimning bir chekkasi nima uchundir g'ash tortib turibdi. Ichimda yig'i uyg'otadigan bir kuy, bir o'ksiklik tug'ilib kelmoqda. Uni ota yurtdan ko'chuv, ayriluv kuyi deb atamoq kerakmi yoki bolalik bilan xayrlashuv demoq lozimmi? Ishqilib, ko'zimda yosh aylanmoqda, ammo shu yosh ortidan ham u o'smarang olmazor bilan surmarang yong'oqzorni, soyaga g'arq bo'lib yotgan tolzor ko'chamiz va jondan aziz tomlarni aniq-tiniq ko'ryapman. U joylar shunchalik uzoqda, Izza soyining narigi yog'idagi sabzarang dalalar ortida bo'lalar ham, yaxshi ajratib turibman. U joylar endi bir umrga o'sha tomonlarga qoladilar. Juda-juda sog'inib ketsam, shu anhor bo'yiga chiqib, soatlab o'sha yoqlarga tikilib o'tiraverishim mumkin. Men u yerlarda bir nimamni, hatto tog'am hadya qilgan pichoqchadanda g'o'rroq bir narsamni qoldirib kelganga o'xshayman.

Shu mahal Olmazordan tikka Izzaga tushib kelgan mo'lda otining oyog'i yerga tegib-tegmay (ammo orqasidan vngil chang havoga o'rlab) uchib kelayotgan otliqqa ko'zim tushib, dong qotdim. Egarga qapishvolgan, to'nining ikki bari shamolda shunaqa parpirab kelyaptiki, tagidagi otmi yo qanotli bir narsami - ajratib olchi. Sal go'r bersa, bu jonivor, oyimlar aytmoqchi, Sulaymon payg'ambarga ko'rsatilgan uchqur otlar kabi havoga uchib, osmonu falakka ko'tarilib ketishi mumkiday.

Men o'rnimdan irg'ib turib ketdim:

- Uni qarang, uni qarang, Sultonmurod aka!.. Sultonmurod akam ko'chaning shu betiga o'tib kelib, kaftini peshonasiga qo'ygancha, turib qoldi va birdan:
- Iya, Barzan-ku! Oshnamiz-ku! - dedi hayratini yashira olmay. - Shuncha so'rasam mindirmovdi. O'zlariga mumkin ekan-da!
- Kim dedingiz?
- Kim bo'lardi, Haybat akang-da.
- Ha-a, - dedim: otini qizg'onmagan chavandoz chavandozmi!
- Barzanni o'sha?! Bu dunyoning otimas, qarchig'ay bu, qarchig'ay! - dedilar Akrom tog'am yuz-ko'zlari yorishib.
- Qo'yaver, jiyan. O'zim biir Keles tomonlarga opchiqaman seni. Ana o'shattada otning zo'ri. Bularga elanma, - dedilar Axyor tog'am.

Hamon qanotli otday uchib kelayotgan Barzandan ko'zini uzolmay turgan Sultonmurod akam:

- Ming qilsayam Barzan - Barzan-da, - deb qo'ysi. Izzaning yo'liga tikilib o'tirib, haligi qanotli ot soylikka sho'ng'ib ketgancha birdan qayoqqa yo'qolganini bilolmay qoldim. Mana, hozir bu yoqdan, Qayumbek amakining pastidagi yo'ldan uchib chiqadi, desam, badar ketyapti. Nima balo, Haybat akam otni Izzada cho'miltirgani opkelganmidi? Yo uyam bizga o'xshab soyga quladimi uchqur otini eplay olmay? Balki hozir...

Ichim g'urmishlab boryapti. Otmisan ot ekan o'ziyam! Bir minib ko'rsam, armonim qolmasdi.

Faqat menmi desam, suv yoqasida cho'nqaygancha, qo'lini chayib o'tirgan Sultonmurod akam ham xayoli og'ib qopti. Bir payt menga ko'zi tushib, shirin jilmaydi va qaddini ko'tarib, yelkamdan yengil quchdi.

- Ketdikmi, pakana pari, haligi parilar uchib ketmaslaridan? Anavi Barzan ham jo'navormasidan boraylik endi.
- Ha-ha, ketdik, - dedim men uchib-qo'nib. - Tezroq borib, Barzanni bir ko'raylik.
- Ha, xolavachchalar, tinchlikmi? - dedi Axyor tog'am, bizning shovqinimizga o'girilib.

Sultonmurod akam aravaga qo'shilgan otlarni anhorning pastak yeriga tushirib qo'yib, sug'orayotgan edi.

- Tinchlik-tinchlik, ammo biz ko'rgan narsalarni siz ikki dunyodayam ko'rmaysiz. To'g'rimi, Maqsud? - dedi ma'noli ko'z qisib. - Bizni qachondan beri kutib yotishibdi. Ana, Barzanni ham chaqirib olishdi, ko'rdingiz-ku. To'g'rimi, Maqsud, - deya otlarni tislatiib, yo'nga soldi-da, tizginni silkiladi. - Ketdikmi parilar mamlakatiga?

Otlar bo'sh aravaning g'ildiraklarini bir ko'tarib tashlab, hali tuprog'i o'ynamagan ko'chadan yo'rg'alay boshladiyu men chopib borib, aravaga bir amallab chiqib oldim. Anhor ustidagi ko'prikdan ham dupirlab o'tib, pastga sho'ng'idik. Sultonmurod akam oyog'inи kerib olgan. Tik turgancha, tizginni qo'ymay:

- Cho', jonivorlar! Bormisizlar! Oynonib ketay, bo'sh kelmaysizlar! - deb qichqiradi. Qiyqirib kuladi. Qalaysan, pakana pari, deganday orqasiga qayrilib qo'yadi. Qoshlarini o'ynatib, ko'z qisadi. Ishqilib, o'zida yo'q xursand.
- Tolzorga yetganimizda boshini bir yonga egib, tizgingayam bo'y bermay borayotgan qizil yo'rg'a soylikni jangillatib kishnab yubordi. Shu zahoti uning aks-sadosiday Izzaning narigi betidan bundanam kuchli kishnoq yangradi.
- E-ha, Izzaning narigi betida chopiq qilayotgan qizlar yo'l yoqasidagi jiydalarining tagiga chiqib olishgan, ariqning bu betida esa, Barzan goh gijinglab chir aylanar, goh oldindi oyoqlarini osmon baravar ko'tarib, orqa oyoqlarida tik turib olar edi.
- Qizlarga tomosha ko'rsatgani opkelgan ekanda Haybat akang?! - dedi Sultonmurod akam birdan rangi o'zgarib va kutilmaganda otlarning boshini chimzorga burdi.
- Yaqinroq boraylik, - deb yalindim men.
- Boraver o'zing, - dedi u ensasi qotib.

O'zi esa pastga tushib, otlarning so'lig'inи chiqarishga alahsib ketdi. Hozirgina Barzanni ko'klarga ko'garib maqtab turgan odamni birdan nima jin ura qoldi ekan?

Men Barzanni judayam ko'rgim bor edi. Aravadan ajrab tushdimu narigi betga yugurgilab ketdim. Jimittepani oshib, changallar orasidan chiqib borsam, o'h-ho', zo'r tomoshaning ustidan chiqibman. To'piqlari birday oppoq, tanasi qizil jezday yaltiroq, peshona-siga yulduz kabi qo'ngan go'zal oq xoli g'oyat yarashiqli Barzan Marg'u kennoyimning qo'lidan bir nimalar kemshimoqda edi. Egarda Haybat akam mag'rur o'tiribdi. Chopiqchi qizlar uch-to'rt qadam narida otning haybatidan hurkib turishibdi. Bir-

birlarining pinjilariga kirib ketgudek tifilishadi, kennoyimga "Qoch, Marg'u, o'lasan"lab chug'urlashadi. U bo'lsa, otga bir kaftini tutib turibdi-yu, ikkinchi qo'li bilan uning peshonasini - "yulduzi"ni silab-siypaydi. Erkalab, yengil shapatilaydi. Shu tob Barzan og'zidagi narsani qasir-qusur chaynab, bir pishqirib yubordi. Kennoyim beixtiyor ikki qadam nariga sakrab ketdi. Qizlar qichqirib qochishdi. Haybat akam avvaliga xoholab kuldil, so'ng kulgisini bosib, kennoyimni chaqirdi:

- Siz bunga mehribonlik qildiz, endi buning rahmatini olmaysizmi? Qo'rwmang, sizga rahmat demoqchi-ku.

Kennoyim hayiqibgina bir qadam olg'a bosdi.

- Kelavering, yeb qo'ymaydi.

Kennoyim kaftlarini ochib, ko'kragi baravar ko'targan edi, ot ham ikkala oyog'ini azot ko'tarib, orqa oyoklarida tikka turdi va uch bora salom va rahmat berib, so'ng asta tisarildi va o'ynoqlab, joyida gir aylana boshladi. Qizlar chapak chalib yuborishdi:

- Qoyil, qoyil!

Shuning barobarida pastdan do'pira-do'pir va shaldira-shuldur shovqinlar bilan Sultonmurod akamning aravasi otilib chiqdi.

Barzan ham, bizlar ham hurkib ketdik. Ana xolos! Nima qilmoqchi o'zi?

Barzan turgan yerida gir aylanib, birdan osmonga sapchidi va oldimizdan o'tib ulgurgan aravaning ortidan uchib ketdi.

Birpas uch ot qo'shilgan aravaday yonma-yon yelib borishdi, so'ng Barzan ilgarilab, Haybat akam to'nining barlari xuddi boyagidek shamolda par-paron o'ynab, qo'shghanotga aylandi. Ot ko'kka o'rlab uchib borayotgan haybatli qushga o'xshadi-qoldi.

### Ikkinci bo'lim

(Muqaddima Davomiga)

Bilmabimiz: biz ko'z ochib ko'rgan diyorlar xo'b g'arib ma'vo ekan. Bugun bor, ertaga yo'q deganday...

U diyorda jondan aziz narsalar ko'p edi. Hammasini bitta-bitta boy berib qo'yibmizu, mana, ma'yus xotiraday eslab o'ltilibmiz...

Qolaversa, ular kimga buyurib, kimga vafo qilibdilarki, judo bo'lganimizdan achinsak, kuyunsak?! Hammasi ham ko'zimizga to'tiyodek aziz edi, sadqai ko'zyoshlarine deyolmasdik. Ammo...

Yodimda: Dovlat laqabli itimiz bo'lguchi edi. Arslon deb atasak ham arzirdi, qoplon deb chaqirsak ham yarashardi. Shunaqa - oyoqlari yo'g'on-yo'g'on, o'zi kal-tabaqay, zo'r it edi. Anhorlarni, devor nahralarini ko'rdim demasdi, qoplonday sakrab o'tib ketavurardi. "Xudo bunga haybatdan bergen. Haybatidan ot tugul, odam qo'rjadi. Nima balo, devlar naslidanmi bu?..." - derdilar oyim. Bunga sari Nusrat pochcha boshlarini saraklatib, ta'sirlanib-ta'sirlanib kular edilar: "Bejiz Dovlat deb atamabsiz, Salomxon, bejiz atamabsiz. Dovlatdan qo'rqiymaydigan odam bormi?" derdilar allaqanday sirli-sha'mali qilib.

O'sha itimiz hirsday bo'lgani bilan kuchuk bolalarday o'ynashchoq edi. Bo'yim baravar-bo'yim baravar sakray boshlasa, ustimga bosib tushmasaydi, deb hayiqib turardim. Supagami, ko'chagami - balandroq yerga qochib qutulishni ko'zlardim. Ammo qayoqda! Dovlat bir o'ynashishga tushmasin, to'xtatib bo'lmasdi.

Menam axiyri chalpak do'ppimni atayin tushurib yuborib, uning ta'qibidan qutular edim. Dovlatga shu kerak, do'ppimni tishlab qochishga ishqiboz. Quvsam, gir aylanib qochavuradi: bermaydiyam, tutqazmaydiyam. Axiyri yig'lagudek bo'lib o'tirib olsam, u ham yotib oladi-da, do'ppimni oyoqlari o'rtasiga olib, avval yolg'ondakam, keyin chinakamiga piyপalashga tushadi. Ora-chora qarabam qo'yadi jahlimni qo'zg'ab.

Menam bittagina do'ppimni unga piyপalatib qo'yarkanmanmi? Sakrab tura, "Tashla! Ber-chi, ber"lab qupib qolarman! Dovlat esa, yana tishlab, gir aylanib, xaloplab qochishga tushadi. Qani bersa... Axiyri bitta tayoq topib, do'qayib bormagunimcha tashlamaydi. Ana shunday ajoyib itimiz bor edi. Men uning ko'ksini to'ldirib, astoydil "hovf-hovf"lab (!) vovullashiga borman. Uning ovozini eshitganda hatto katta ko'chada ketayotganlar taqqa to'xtab, olazarak bo'lib qolishardi. Unaqa-bunaqa odam yurak yutib, yaqiniga yo'lamasa, boshqasi yetti ko'chani aylanib o'tishga majbur edi. Shu Dovlat tufayli nalogchiyam, tabelchiyam bizning eshikka o'ylashib chaqirib kelardi. O'g'ri-ku bir chaqirim naridan yurardi.

Shu itimizning bitta aybi - nafsi yomon edi.

Kim nima tashlasa, xap etib yutib qo'ya qolardi. Bergani porami, allovmi - farqiga borib o'tirmasdi. Men bunaqa ochko'z, yebto'ymas itni ko'rgan emasman.

Shunga qaramay Dovlatning ishqibozlari ko'p edi. Nima qilsalaru ilib keta qolsalar! Ammo Dovlat anoyimas, olib kelgan shirinliklari, poralar tugaguncha ergashib boravuradi-da, bo'yniga qo'l yuborishlari bilan arslonday irillab beradi. Ana keyin o'takalari yorilib, qochishlarini ko'ring. So'ng Dovlat ikkinchi u odamni yaqiniga yo'latmaydi. Uzoqdanoq hurpayib, irillab kelaveradi. Men shunisiga borman. Aqli balo edi uning.

Ammo bir kuni qaysi o'chakishgan (!) shu itimizga nina berib ketibdi. Shu yo'taladi, shu o'xchiydi, boshini har devorlarga uradi, qani, qutulsa! Axiyri, tumshug'ini yerga berib, yotib oldi.

Ko'ksovdek yo'talaverib, ingillab g'ingshiyverib... bir haftada qopday shalvirab qoldi. Ko'zidan oqqan yoshlarni ko'rsangiz, mo'litrab tikilishlarini ko'rsangiz...

Qaysi bir kechasi uch marta uvlaganday bo'ldiyu (balki tushimda ko'rgandirman, g'ingshigani uvlaganday tuyulgandir), keyin tinchib qoldi. Ertalab tursam, hech yerda yo'q. Na loshi, na izi opti (!) Shu yo'qolgancha, qaytib qorasini ko'rsatmadni, badar ketdi Dovlat...

Keyin Haybat akam "Sizlarga xonakisi ham bo'lavuradi ekan", deb (!) mushukboladay bir targ'il kuchukcha olib kelib berdi.

Qurmag'ur juda pitir-pitir bo'lib, shirin edi. Shirinligi ham mayli, bo'ynidagi tumordek oq xoli biram yarashgan, yoqimtoyki... O'z-o'zidan uni Bo'ynioq deb chaqira boshladik. Qarangki, hech qancha o'tmay, tumor qorday oqarib, o'zi pista ko'mirdek qora tortib ketdi.

Izzaning bu yog'iga, tog'alaramiz qavatiga ko'chgan vaqtimizda u qayoqqa borsak, orqamizdan qolmaydigan pitrak mahali edi, aravaning orqasiga bog'langan targ'ilimizga ergashib bu yoqlarga keldi. Izzani ko'rdi, bedapoyalarning ichiga urib kirib chiqdi. Sharqiroq ariqlarni kechdi. Shu-shu sigirga ergashadigan bo'lib qoldi.

Men uni mol boqqani tushganlarimda ergashtirib Izzalarga optushar edim. Sigirimning arqonidan tortqilab yurgani-yurgan edi. Shunda kuchi yetmasa deng oldidan aylanib o'tib, akillab qaytara boshlaydi. Ammo bekor qolmasin, qoldi deguncha Izzanining u betidan-bu betiga sakrab, o'zini oftobga solib yotgan qurbaqajonlarni, moshak qushlarni quvishga, quvib o'ynashishga ishqiboz. Ba'zan esa paydo bo'lib qolgan tuproq uyumi ostidan ko'rsichqon inlarini topib olib kavlay ketadi. Ishqilib, o'zini zeriktiras, zerikmas edi.

Ancha yollar o'tib, biz yana ko'chadigan bo'ldik. Ammo Bo'ynog'imiz qani endi joyidan jilsa!.. Qang'lidan berilgan yangi joyimizga qani o'rgana olsa!.. Katta-bog'dagi uyimizning tomini ochib, yuklarni olib ketib bo'lganmiz, u yoqda hovliga chodir tikib, biyday

joyda loy changallab uy qurib yotibmiz, Bo'ynoqvoy erta saharden yo'qolib qoladi. Kun tikkaga kelar ham, nayzadan oshib o'tar ham, u yo'q. Allamahalda tili osilib, harsillab kirib keladi.

"Ha, og'ayni, bu nima qiliq?" deb o'grayib qarashimni bilaman, xuddi, bir qoshiq qonimdan kechinglar, degan kabi yerga yota oyog'im ostiga bosh urib emaklab kela boshlaydi... Ko'zlar mo'ltilagan, harsillab, bir surinadiki... Ahvolini ko'rsangiz! Balchiqlarga bulanib, shiltasi toza boshiga chiqibdi. Bo'ynidagi tumor demasa, g'irt begona...

Bir gal qattiq tanbeh berdim;

- Ha, seni qarayu! Izzada pishirib qo'ygan ekanmi?! - dedim tovushimni ko'tarib. Bo'ynoq yerga battar qapishib, yana oyoqlarim tagiga emaklab keldi. U okdan oyim o'rta tushdilar:

- Qo'y, bolam, so'kib-netma, o'rganibam qolar. Kechvorolmayotganda u yoqlardan boyaqish...

- Hammayoqni alg'ov-dalg'ov qilib, surib tashlab, bo'lishdi-ku, nimasiga boradi?! Bunaqada bir kunmas-bir kun mashinaning tagida qolib ketadi buniyz.

- Qo'y, yaxshi nafas qil, bolam. Bir-bir aylanib, yozilib kelayotgandir-da.

Bo'ynoq go'yo po'pisamni tushunadigandek:

- Arqonga solib qo'yaman, shunaqa qilavursa... ketib qolavursa! - dedim. So'ng "uzri"ni qabul qilgandek, "bor!" deb o'shqirib berdim.

Bo'ynoq aybdor boladay, ko'zimga qarayolmay, devor tagi bilan pastga surindi.

Ertasiga ertalab tursam, yana yo'q. Odatdagidek, kun chiqmasdan izg'ib ketibdi o'sha yoqqa. Hali kelsin, bog'lab qo'ymaganam nomard, deb jig'i-biyronim bir chiq-dp-yu, yana ishga urinib ketdim.

Kun tig'dan o'tib, soyalar aylandi. Oftob zavolga yuz tutib, shomga yetib bordi. Ammo Bo'ynoqdan darak yo'q edi. Kelib qolar bilan qorong'i ham tushdi. Xufton bo'lidi. Yo'q.

O'shqirganimga arazlab, eski qo'rg'onimizdan kelmay qo'ydimi, deb ich-ichimdan afsuslandim. Bir umr o'sha yodqa qolmas-ku, kelar-ku, axir, deb yotdim. Yo'q, ertasigayam, indinigayam qorasini ko'rsatmadni. Axiyri, izlab borishga majbur bo'ldim.

Qarangki, u yerdayam yo'q edi. Kechasi biron yerga kirib yotgandir, desam, iziyam yo'q. Ini-ku tomi ochib tashlangan uyimizdan ham battar huvillab yotibdi. Bu yaqin orada bosh suqqan emas. Ichim shig' etdi.

Bir oyoqli laylaklarga o'xshab qo'qqaygan kranlar tagi bilan va chala bitgan do'mlar oralab (ilgarigi bedapoya yoqalab) Izzaga tushib boryapman. Bu yodqa ikki surma shovqini olamni tutib, Qayumbek amakining tepaligidagi yong'oqlarni qo'porib yotibdi. Tepani ham surib tashlashadi shekilli. Ana, bir yong'oq qarsillab, ag'anab, shoxlari bilan o'sha "temir qo'ng'iz"ning ustiga bosib tushdi. Lekin shunda ham u shoxlar orasidan o'rmalab chiqib, bu tomonga aylanib o'tdi-da, iddiz-pildizi bilan jarga surgab ketdi. Esiz tepe, esiz yong'oqzorlar. Tepaning pastidagi jiyda qatorni-ku shunday-la ko'mib tashlashibdi. Har yer-har yerda tuproq uyumi orasidan shox uchlari chiqib turibdi...

U yoqdagi o'rikzor, Siddiq arrakashning bog'i, ishkomlari Izzaga qadar shu ahvol - kundakovga tushgan, itirqini chiqib yotibdi. Ichim achib, qadamimni tezlatdim. Ammo bu yodqa soylarga ham it tegib bo'pti: boyagidaqa "qora qo'ng'iz"lar tepalarini surib, jarlarni changitib yotibdi! Tar-tar ovozlar Qo'shilishga oshiqqan suvning sharqirashini ham ko'mib ketgan. Suv xuddi bu tepalar ostida qolib ketishdan qo'rqb, pastga qochib borayotgandek, chopadi-chopqillaydi. Izzaga sig'maydi...

Oh, dedim, suvki bu dahshatdan bosh olib qocha bosh-labdimi, boshqa narsalarga to'zim bersin! Endi bir paytlardagidek kechalari Izzaga to'satga tushishlar yo'q, kunduzlari baliq haydab ovlashlar yo'q ekan-da?! Endi u cho'milish joylarda itbaliqday yayrashlar, muzlab ketib, qaynoq tuproqqa bag'irni berib yotishlar... yo'q ekan-da?! Endi biron tolning soyasiga o'tib, chimga ag'anagancha kitob o'qishlar, Mimitbuva bilan suhbat qurishlar... yo'q ekan-da?! Soy bo'yiga uzala tushgan Yo'lbarstepta ustida chalqancha yotib, osmoni haftimda so'fito'rg'aylarning chuldirashiga qulqoq berishlar, olamni unutishlar... yo'q ekan-da?! Bo'ynoqning uydan qochib, bu yoqlarga tentirab ketishlari, kunlab yo'q bo'lib qolishlari bejiz emaskan-da! Vidolashgani bu yoqlarga kelayotgan ekan-da! O'zi qaerlarda qoldi ekan? Moshina-poshina urib yubormadimikan ishqilib? Tirikmikan?

Nazarimda, u hozir meni ko'rib, Izza bo'yidagi botqoq o'tlar ichidan, moshak qushlarni quvib-uchirib yurgan joyidan otilib chiqib keladigandek, nariroqda bir silkinib olib, keyin atrofimda girdikapalak bo'lib, qo'lim baravar sakrab o'ynasha ketadigandek edi-yu, chiqqa qolmasdi. Men esam, hali surib bo'linmagan Jiydalitepa ustiga chiqib olib, "Bo'ynoq"lab chaqirmoqchi bo'laman-u, xaroba tepaga chiqib borarga holim ham, madorim ham yo'q. Bo'ynoq allaqaysi jar yo jurda, tuproq uyumi ostida qolib ketganini, bu yerlardan kechib ketolmaganini anglab turibman. Lekin tan olgim yo'q. Aqlim bovar qilmaydi, bir itning ko'z ochib ko'rgan yerlarini tashlab ketolmaganiga... kecholmaganiga...

Uyga boriboq oyimlarga yorildim:

- O'sha kuni zanjirlab tashlasam bo'larkan. Bir kun g'ingshirdi, ikki kun g'ingshirdi, ko'nikardi, axir, - dedim achchig'imdan tusholmay.

- Bo'ynoqmi? - dedilar oyim nima demoqchiligidan oldindan anglab. - Siyog'idan ma'lum edi. Hali-beri ko'nikolmasligi. Odam emas-da, bolam...

Beixtiyor To'lavoy qozoqni eslab ketdim.

Yoshi ham oyimlar tengi, lekin buzilgan qo'rg'onidan beri kelmay, kelolmay yuribdi-ku. Xudoning bergen kuni o'sha yerdan. Kun yuz ko'rsatmasdan borib oladi. Qo'rg'onidan hech vaqo qolmagan: vayronasini ham bir chekkaga surib, do'ngtepa qilib qo'yishibdi. Uyi bukilganidan beri kichkina tortib ketgan chol qo'lini orqasiga qilvolib, o'sha tepa atrofida aylangan-aylangan. Chiviq topsayam chekkaga, guvala uchratsayam, bir yonga to'dalaydi. Ba'zan esa, surib tashlangan uyning o'rnida chalpak do'ppisini tizzasiga qo'ndirgancha, soatlab yer chizib o'tirib qoladi. Nima izlaydi, nimadan ko'ngil uzolmaydi, miq etib birovga og'iz ochsachi, yo'q! Har kuni kelgani-kelgan, o'tirgani-o'tirgan.

Birovlar "To'lavoy qozoq otasidan qolgan xazinadan umidvor", desa, boshqalar "Xeh, ulardan nima qopti, hammasini anavi kovkovda bitta qo'ymay opchiqib ketishgan-ku", deydi. "Qatiq to'kilsayam, yuqi qoladi-ku, bironta ko'zacha bordir-da", deydiganlar ham yo'q emas. Ishqilib, To'lavoy qozoq nima yo'qotgan, nima izlaydi, nimadan kechib ketolmaydi - hech kim jiddiyoq o'ylab ko'rmaydi.

O'zi ham miq etib birovga og'iz ochmaydi! Vayronada kezingani-kezingan. Esi kirarli-chiqarli bo'lib qolmasa edi, koshki, deymiz biz.

Azbaroyi achinib, oyimlarga aytib berib edim: - Ilohim, Xudoning o'zi to'zim bersin. Inson har yo'qotganiga aza ochaversa, bir umr azador o'tib ketardi-ku. Tug'ilgandan beri judo bo'lgan narsalarimizni sanab adog'iga yetib bo'larkanmi?! - dedilar. - Bu joylar hammadan ham qoladi. Hech kim orqalab ketgan emas. Bu judolik beshikdan "chin uy"gacha-yu, inson tushunmaydi-da, bolam,

Tushunsa, yo'qotganiga achinmasdiyam, kuymasdiyam. Qaytaga amallarini chirolyi etardi... Oyimning zohiran xotirjamliklari ostida qanday tug'yonlar kechayotgan bo'lsa?! Beqiyos sabrlari tagida nechog'li iztirobu alamlar bosilib yotgan bo'lsa! Xayolimdan men yo'qotgan eng aziz narsalar birma-bir o'ta boshladti: tog'am hadya qilgan o'sha pichoqcha ham, quloq radyolimiz, eski uylarimiz ham; Dovlat laqabli itimiz, bog'imiz ortidagi chetini safsar gullar bosib ketgan o'sha hovuz, tolzor ko'chamiz ham... yana Mahamat nalugchi sandug'imizni ochtirib opketgan, men bolamas da kiygan zar to'nim, ukparli do'ppim, surib, ko'mib yuborilayotgan Izzada bedarak yo'qolgan Bo'ynog'im ko'z oldimdan aylanib-aylanib o'tar edilar. Ko'-zim esa jiqqa yosh...

Biz esa, nihoyati Yakkabog'dan Kattabog'ga - tog'alarimiz qavatiga ko'chib borar edik. Hali Bo'yinoq ham yo'qolmagan, hali u soylar sharqirab-yashnab yotar edi. Hali Barzan Sulaymon payg'ambarga ko'rsatilgan otlar singari uchib yurar edi u soy yoqalarida. Hali Izzada qizlar o'g'rinchcha cho'milishlar omon edi. Sultonmurod akam demaganlar "Bu ohu kimning ohusi?", deb so'roqlab yurgan kezlar edi. Beg'ubor, betashvish damlar edi, safoli kunlar edi...

### Qizil Taram Olmaning Egasi

Tog'am bir ishni boshlamasinlar ekan, birovgayam tinim bermaskanlar, o'zlariyam tinchimaskanlar.

Biz "begona joy"da - Sapura kennoyimning uylarida bir kecha yotdikmi-yo'qmi, ertalab tursak, usta kepti.

Oyim ustaga bir piyola choy hozirlagunlaricha qarindoshlar "Hormanglar-ov, o'tanglar to'lsin-ov", deb kirib kela boshlab, yangi joyimizni ham odam bosdi.

Keyin Usmon tog'am "er egalari, joy egalari, buva-buvakalonlarimiz ruhi poklariga" bag'ishlab Qur'-on tilovat qilgach, oq fotiha berib, hamma ishga yopishdi: kim loy qorgan, kim reja tortgan, kim g'isht tera boshlagan.

Tog'am topgan ustalari ham bir ajoyib fe'lli, jahli tez odam ekan. U hammani shoshririb tashlagani-tashlagan, kim didiga yoqmasa, haydabam yuboraverardi. Bu yoqda kun yondiraman deydi-yu, u kishi "Ha, bo'l!" deb qistashini qo'ymaydi... Axiyri kun tikkaga kelib, soyalarimiz oyoq tagiga qochib kirgan mahal - hammani katta tol tagidagi bog'supaga tushlikka chorlashib, bizga ham ozodlik tegdi. Men loychelakni itqitib, ko'chaga - anhor bo'yiga urib ketdim. Suvga yotib olib, rosa baliq bo'layotsam, qayqdandir ishshayib Soli yetib keldi. Yong'oqning do'mpayib chiqqan ildiziga o'tira boshlagan edi, imladim:

- Tush. Maza bo'pti suv.

Soli tilini takillatdi:

- Bir joyga o'tib kelay.

Bir shumlikni boshlash payida ekanini sezib:

- Qaerga? - deb so'radim.

U ko'zlarini o'ynatib, tovushini pastlatdi:

- Bilasanmi, bir yerda... chillaki... Men qo'l siltadim.

- Chillaki uydayam bor, Usmon tog'am opkeptilar.

U sirli ishshaydi:

- Yana bir yerda... qizil taram olma...

- Halitdan-a?

- Qizarganda qandoq! Ko'zing o'ynaydi!

- Qaerdaykan?

- Sir bu...

- Rostingni ayt!

- O'lay agar! Shunaqa qarsillaydiki...

- Ketdik!

Suvdan otolib chiqdim. U ham sakrab turdi. oldinma-ketin quvalashib ketdik. Pastak devorlardan oshib, ishkomlar orasiga tushib oldik, barra o'tlar tizzaga urib yotibdi. Kimsasiz, salqin tolzor ko'chani kesib o'tib, allaqanday hovuz bo'yiga yetib bordik. Soli bosh sermab imladim:

- Bu yoqqa.

Gadoytopmas bir chakalakzorga kirib bora boshladik. Bog' qarovsiz edi. Behiyu olcha shoxlari bir-biriga matashib ketgan, hammayoqni maymunjon qoplab, onda-sondagina bahaybat toshnok tuplari uchrar edi. Devor yoqalab pastak tomli bostirmaga yetdik. U yerdan yana sarxoki yemirilgan devor va guvalakli uy boshlanib ketardi. Soli to'xtab, shipshidi:

- Keldik, sen manashi yerda tur. Chiqvolgach, chaqiraman - chiqasan. Xo'p?

- Bo'pti, - dedim, ammo yuragim gupillab urib yotibdi. Sekin devor tagiga cho'kdim. - Uzing optushaversang-chi?

- I-i-i, shundan shu yoqqa kelib-a? - deb tepaga ishora qildi: - Uni qara.

Rostdanam devorga qapishib o'sgan olma shoxlari yarmi oq, yarmi qizil taram olmalar bilan mush-mushakon edi. Nazarimda, bargidan ham ko'prog'ov. Beixtiyor qizil taram olmaning xushbo'yini tuyib, "zo'r!" deb yuborganimni sezmay qoldim.

- Ketdim. - Soli shipillab devorga, u yerdan olma daraxtiga tirmashdi.

Gardanim qotib, tepaga qaragancha kutyapman, kutyapman. Axiyri Soli ayri shoxga yetib imladi va men ham ketidan tushdim.

Olmaning tepasiga chiqib borarkanman, ko'zim birdan hovliga tushib, yo quadratingdan, deb yubordim.

Pastda ariq, ariq bo'y salqin rayhonzor, uning chekkasida esa, bo'yradekkina supa ko'rinnardi. Supaga joy solinib, xontaxta qo'yilgan dasturxonning bir chekkasi qayrilig' qolibdi. O'sha qayrilgan yerida yolg'iz o'sma siqilgan piyola: bo'yra cho'pi piyolaga suyalgancha turibdi. O'smani orzu qilgan qoshlar egasi esa, xontaxta yoniga asta cho'zilganu salqin elitibmi, pinakka ketgan.

Qo'llarini yostiqa tashlab, bir go'zal yotishini ko'rib, hushim og'ib qolibman. Soli gardanimga oyog'ini nuqmaganida, bilmadim, yana qancha bu ahvodka turardim.

- Hov, muncha anqayasan? Termaysanmi? - dedi yarim shivirlab.

Supada yotgan qizning uyg'onib ketishidan cho'chib, barmog'imni labimga bosdim: "Jim!"

Soli olma shoxiga qapishgancha, hovliga razm soldi va bir mahal:

- U-u-u, - deb yubordi shivirlab, - O'libmiz-kuv.

- O'lganing yo'q, ovsar, ko'rsa o'lasan-da, jim, - deb oyog'iga urdim.

- Hozir ko'radi! Hozir boshiga odam chaqirib, tutib beradi! - dedi yana Soli o'takasi yorilib. - Qochdik.

- O'l-e, shu yurak bilan sho'tga boshlab keldingmi? Uxlab yotibdi-ku. Qochsang, o'zing qochaver, men orqangandan yetvolaman.

Qaytaga bu o'pka daf bo'lgani ma'qul. Ham olma ustida yolg'iz qolaman.

- Xo'p. Senam tez bo'l, - deya mushukday ehtiyyotkorlik bilan shoxdan-shoxga o'tib, tusha boshlad. Ammo...

Hali bitta ham olma uzmasimdan bir narsa duv to'kilib berdi-ku! O'takam yorilib, pastga qarasam, solining qo'yni bo'shab, oq-qizil olmalar yer bilan bitta bo'lib yetibdi. Egasi cho'chib uyg'ongan, lekin hali iima gapligiga aqli yetmay, supada oyog'in osiltirib o'tirar edi.

Soli:

- Qoch, o'lding! - dediyu jon-jahdi bilan devorning naryog'iga o'zini otib, chakalakzorga urib ketdi.

Men bir qarichcha sirg'alib tushib ulgurdim, xolos. Oyog'im shoxning ayrisiga qisilib (o, qani tortib ololsam), o'tirganimcha qoldim. Qiz yalt etib, boshini ko'tardiyu ko'zi menga tushdi.

- Ie, sizmidiz, qaynim?

Qarang-a! Men uni tepadan, ham uxbab yotgan holida tanimabman! Axir, kechagina meni buloqdan tortib olgan kim ekan?! U o'sha ketmonchi qizning o'zginasi - Asol xolamning kelini edi!

- Ehtiyyot bo'ling, oyog'ingiz qayrib ketadi, - dedi kennoyim allanechuk mehribonlik bilan.

Yalang oyog'imni ayridan shu bo'shataman, deyman, qani bo'shata olsam! Axiyri chiqarib oldim. Ammo tovonim zirqirab og'rirdi. Kennoyim bo'lsa, hamon olmaning tagida girtiton:

- Endi tushavuring, qo'rqlmay tushavuring, bog'da hech zog' yo'q. Voy, sizni qarang-u, bu yerga qanday kep qoldiyiz?

- Bilmasam, - deb yelka qisdim. Lekin yoniga tushib borishga hamon betim chidamasdi.

- Tushing-tushavering. Aytdim-ku, mendan bo'lak hech zog' yo'q deb. Uy poyloqchi bo'lib qoluvdim! - U kului: - Rosayam zo'r poyloqchilik qilibmanmi?

- Zo'r, - dedim sal o'zimni tutib olib, - tepaga chiqvolibmiz ham, bilmaysiz.

Devorgacha tushdim-da, oyog'imni osiltirib o'sha yerga o'tirvoldim. Asol xolamning kelini ariqdagi suvda yuziyu qoshini chayib, ko'rpaşa ustida yotgan sochiqqa artindi-da:

- Shoshmay turing endi, - deya ariqchaga va rayhon ichiga sochilib ketgan olmalarni etagiga tera bosh-ladi. - Baxtiyiz borakan, bittasiyam ezilmabdi.

Men kuldim:

- Buni tergan allaqachon juftakni urvordi-ku. Men endi chiqqan edim.

Kennoyim yoqimli jilmaydi:

- Shunaqami? Sherigizam bormidi hali?

Bosh silkidim. Kennoyim tobora menga yaqin kelgan edi, rayhon islari gurkirab ketdi.

- Kimiydi? - deya so'radi qiziqsinib. - Mabodo... O'sha kungi sherigizmasmidi?

Rosti, hayron qoldim. Shunday ko'hlik (ko'hlik deyish ham kam! Mohi qiz. Oyim "mohitobon" deydilar) qayoqdagi qaroqchini so'rabs o'tirsa!.. Kimligini bilmaydi-da! Bilsa, betiga ham qaramasdi-ku! Unday desam...

Men bosh chayqadim: "I-im".

Asol xolamning kelini (javobimga parvo qilmay) ariqdan hatlab o'tib, etagidagi olmalarni bittalab uzata boshlad:

- Mang, u kishiga ham... obborarsiz. Negadir og'zimdan:

- O'g'rilik narsani-ya? - degan so'z chiqib ketdi.

- Voy, nega o'g'rilik bo'lzin, men beryapman-ku! - dedi kennoyim betimdan ko'zini uzmay.

- Mayli, obor desangiz, oboraveraman, - deb g'o'ladiradim.

U o'sma hidi anqib turgan nozik barmoqlari bilan yoqamni to'g'rilib, betimni siypab qo'ydi.

- Faqat, men bervorganimni aytmaysiz-da, xo'pmi?

- Xo'p.

Kennoyim olmadan bo'shagan etagini qoqib, ariqdan qaytib hatladi. Va uyalibgina qarab, jilmaydi:

- Shunaqa, kelib turing... olma yegani.

- Xo'p, ko'rib oldim-ku, mana, - dedim men ham chin dildan. Qolaversa, bir qo'yin olmalik bo'lib olib ham yo'q deymanmi?

- Xayr, - dedi u shirin kiprik qoqib.

- Xayr, - dedim zo'rg'a, hech ketgim kelmay.

U, yaxshi boring, qaynijonim, degan kabi im qoqdi. Men noiloj oyog'imni devorning bu yog'iga oshirdim. Sarxok shuvillab to'kilib, men bu yoqqa tushdim, kennoyim devor ortida qolaverdi.

Qo'yinmda bir talay olma, nimasinidir yo'qotgan darveshday chakalakzorda hayronu lol turibman. Ko'z oldimda boyagi shirin im qoqib turgan suvrati, "Tavba, shu yoqlarda turarkanmi Asol xolamning kelini?" deyman.

So'ng bir amallab hovuz bo'yiga chiqdim-u, u yog'iga yana qayoqqa yuramini bilmay qoldim. Tavba, qanaqa jin topmas joylar ekan bu yerlar?

Bunday qarasam, hovuzga suv bir yoqdan kirib, ikkinchi yoqdan chiqib yetibdi. Shu ariq yoqalab boraversam, anhorga chiqib olarman, axir, deya keta boshladim. O'zim suv yoqalab boryapman-ku, ko'z oldimdan bulturgi voqealar ketmaydi.

### Qizil Paranji

Biz nikoh oshiga borolmay qolgan edik. Borganlariing hikoyalariga mahliyo bo'lib, ariq bo'yida tizilishib o'tirar edik. To'yxonada gulxanu mash'alalarni yoqib qo'yib, kelinni kutishmoqda. Kuyovto'ra - Bahreddin akam jo'ralari bilan qo'shni Anvarxo'ja tog'anikiga kirib ketishgan, tortishmachoq oldidan jinday maishat qilishayotgan edi, chamasi. Kutilma-g.shda paq-puq o'q ovozlari eshitilib, to'yxonada qiy-chuv ko'tarildi. Biz sapchib turib ketdik.

- Voy o'lmasam, shunday kunda oblochi bosadimi? - dsdi xotin kishi chinqirib, - baloginaga yo'liqqur, oirovning to'yini azaga aylantiradimi?

- Qatni bosibdi? Qattaykan?

- Qani o'zi? O'zları qani?

- Kimni qidirib keptiykan? Kimni dediyiz?

- Voy, qochibdimi? Qochishibdimi?

Paydar-pay savollardan hech narsa anglab bo'lmasdi. Biz bolalar o'q chiqqan tomonga yugurib edik, xotinlar quvib solittdi:

- Senlarga nima bor-a, uylaringda o'tirsalaring-chi!

Xotinlarning hay-hayiga ham qaramay, ishkom oralab ketgan Aliakbar vahimali gap topib keldi:

- Kuyov yo'qmis, jo'ralariyam yo'qmish! Hammalari qayoqqadir urib ketgancha, qaytishmabdi.
- Oblochilar-chi?
- Quvib ketishgan mish Izzaga qarab.

Shu g'ala-g'ovur ichida bog' oralab: "Bahriiddin-uv! Bahriiddinginam-uv" lab chopgan Asol xolamni axiyri aldab-suldab, qaytarib olib kelishdi. Xolam izillab yig'lay-yig'lay, yig'ilarini yutolmay, kelin tushadigan uyning zinasida o'tirganicha o'tirib qoldilar.

Nihoyat, Tegirmon ko'chada yangalarning yor-yor saslari yangrab, ular tushgan arava qattiq yerda "qatirlab" kela boshladiyu biz ko'chaga chopdik.

- Yig'lama qiz, yig'lama,  
To'yxonada olov chirsillaydur, yor-yor,  
Yor-yorimiz eshitgan,  
Kuyovto'ram yuragi jizillaydur, yor-yor,  
deb kuylashardi ular.

Bu yoqda esa, kuyovto'ra qaysi jarga urib ketganini hech kim bilmaydi. Oblochi bosganida qo'shilishib qochgan jo'ralaridan birontasi qaytsa-chi, ular ham yo'q. Yaqinlashib kelayotgan yor-yor ovozini eshitib, zinada o'tirgan xolam bir yig'iga tushib berdilar, bir yig'iga tushib berdilar.

- Xudo-oy, bu kuningdan jonginamni olaqolo-oy! Hamma qolib mani asrandimni ko'ribdimi bularing-oy! - deb bir aytib yig'lay ketdilar, bir aytib yig'lay ketdilar. Katta ham qo'shilishib yig'ladi, kichik ham. Ayollar bir to'da, biz bir to'da bo'lib olganmiz. Hech kim ketolmaydiyam, yaqin bora olmaydiyam. Bir vaqt harsillab-lorsillab Nusrat pochcha yetib keldilar.

- Hay-hay, hay yanga, eldan burun bu nima ishingiz? Uyat bo'ladi-ku, - deb xolamni ichkari olib kirib ketdilar. So'ng qaytib chiqib, hammani tartibga chaqirdilar: - Hoy yaxshilar, omon bo'lgurlar, sizlarga nima bo'ldi? Qudalarni shunday kutib olasizlarmi? Boringlar, har kim o'z ishini bilib-bilib qilsin. Kelinimizni izzat-ikrom bilan tushirib olinglar. Hoy, Faridabonus, bolalarga aytинг, olovga o'tin tashlasinlar! Dasturxonchi qaerda? Moxoraga qaramaysizlarmi? - Keyin darvoza oldida dovdirab turgan surnaychilarga buyurdilar: - Hoy, metal, chalmaysanmi, to'y to'yga o'xshasinda bunday.

Yana chop-chop, g'ovur-g'uvur avjga mindi. Yana mash'alalarga jon kirib, surnay o'z navosini yangitdan boshlaganida kelin kelib tushdi. Sochqilar sochilib, palak ostida olov atrofiga olib kela boshlashdi. Bizning bir ko'zimiz sochqida bo'lsa, bir ko'zimiz palak ostida. Kelinni ko'rib qolarmikanmiz deb maroqlanamiz. Lekin yangalar ham anoyimas. Sariq duxoba palakni sal baland ko'tarisha qolmaydi. Yor-yor bilan picha o'yin-kulgi qilib turgan bo'lishdiyu, so'ngra tortishmachoq bo'ladigan uyga kirib ketib, u yerda jim-jim go'shangha ortiga o'tkazib yuborishdi. Derazadan xiyol ko'rib qolganim shu bo'ldiki, kelin olovdek qizil duxoba paranjida ekan! Allamahalda Bahriiddin akamning jo'ralar qay-tib kelishdi. Ammo o'zi ham, eng yaqin kuyovo'rasni ham yo'q edi. Ular haqida hech kim hech narsa bilmasdi. Shunda "oblochini Akmal o'ris chaqirtirgan ekan", degan shivir-shivir yurib qoldi.

Bir haftadan keyin esa, kuyovjo'rasini tutib, askarlikka jo'natishibdi, degan xabar chiqdi. Ammo o'zidan biron darak bo'lmadi. Kennoyim shu tushganicha, olti oy kutdi. Keyin ketdi... Mana, qaerda turarkan...

Tavba, ariq yoqalab yurganim sari uning berib toborgan olmalar qo'ynimda shirin-shirin siypalanar edi: endi bu olmalar Bahriiddin akamgamas, boshqa birovga atalgan edilar.

### Beda Gulida O'riliadi

Tomsuvoqdan keyinoq yangi joyimizga ko'chib chiq-sak kerak, deb o'tiruvdim. Yo'q, Sayidorif pochcha paxsaga suv bostirib, loy yotqizishga, hovlimizni gir aylantirib devor urishga tushib ketdilar. Qo'ldosh tog'am shunaqa deb tayinlaganmishlar: uyning suvog'lari shamollab-quriguncha devor ham bitsinmish.

Bir hisobda yaxshi. Hozir shu yangi uyimizga kirdim deguncha, achigan loyning hididan boshim aylaniblar ketadi. U qurib-selgish oddidan shunaqa zo'r gurkirar ekanki, tavba. Lekin bir chiroyli uylar chiqdi.

Bugun qo'lni orqaga bog'lاب, kechgacha loy tepidik. Dunyoda eng bemaza ish shu loy tepish bo'lsa kerak: selkillab tepavurasan, tepavurasan, bir izingdan o'n-yuz borib kelasan, qani pisha qolsa, bu loy deganlari... Bel taxtadek qotib, oyoqlaring loyga aylanadi, hech narsani sezmay ham qoladiki, qani ish tugasa. Kech tusha qolsayu Izzagami, bir yoqlarga qochib ketsang...

Nihoyat, uzundan-uzun cho'zilgan kun ham ketib, oftob nurlari daraxtlarning ustiga ina boshladi. Arzimagan narsalar ham uzun bir soyalar tashlab, salqin epkin bilan kechki shabada yurdi. O'choqdagi olov yanayam gurilladi. O'sha yoqda kuymalanib yurgan oyim ovoz berdilar:

- Hoy, bolagina, sigiringga boraqolgin. Qarovsiz qolib, uchov-ro'dasi uzilgandir. Bedapoyada edi. - Ozodlik tekkanidan quvonib, shataloq otib ketishimni bilganday, qo'shib qo'ydilar: - Ozgina o'tlatib kelarsan?

- Xo'p, oyjon.

Birpasdan keyin shunday pastimizda - Izzaga qadarli cho'zilib ketgan yangi o'rilgan bedapoyada cho'kirtaklari tovonimga botgani ham bilinmay chopib-o'ynoq-lab borardim. Hali quyosh uzokda - Xudo bilsin, Achchi qirlaridan ham naridadir - ufkda bir tog'ora o'tday yonib-yallig'lanib turar, uning zarhal qorilganday nuri yupqa zar ro'moldayin dalalar ustida yotar, har zamon kunbotardan esgan bir epkin uni tagidan ko'tarib, pirpiratib turgandayin edi.

Hamma yoqdan bir ajib hidlar anqib, bedazorda yugurging-elging, o'mbaloq oshib yayraging keladi. bedaga o'roq tushib, olamni beda gulining hidi tutib kettanki, qo'yavurasiz. Shu tobda bir g'aram bedaning ustiga chiqib cho'zilsang bormi, oh, buning gashtiga nima yetsin.

Dumbasi selkillab qolgan qo'zilar onasining atrofida dikong-dikong sakraydi. Qorni do'mbira bo'lib ketgan mollar ham pishillab-pishqirib o'tga yopishadi: qorong'i tushguncha qoringa kirgani harna g'animat-da.

Hamma qaytyapti-ku, bir men bedapoyaning o'rtasidan o'ynoqlab-yugurib, Izzaga tushib bormoqdaman. Sigirim o'sha pastda.

Tezroq borib yechib yuborsam, birpas yayrab qoladi. Keyin o'zim yumshoq joy topib, biir cho'zilsam...

Yaxshi niyat yarim mol-da. Sigirimni qoziqdan chiqarib, bunday qarasam, bir arava beda ortilgancha tog' bo'lib turibdi. Otlari hali aravaga qo'shilmagan ham. Nariroqda bo'yinlarini bo'yinlariga qo'yib, beozor o'ynashmoqda. Panshaxa oxirgi bog' bedaga sanchilgancha qolgan.

Aravakash Sultonmurod akam bo'lsa kerak, otlari tanish, lekin o'zi bu atrofda ko'rinxmaydi. Hoynahoy Izzaga tushib ketgan.

Kelgunicha bedasining ustida bir cho'zilmaymanmi! Shipillab aravaning tepasiga chiqib ketdim va o'zimni beda ustiga otdim! Oh-oh, bunaqa mazani qaerdan ham topasiz??

Oynadek osmonga qaragancha, chalqancha yotibman - tanim, oyoqlarim, belim bir yayrayapti, hech narsani o'ylagim, hatto qimir etgim kelmaydi. Ko'zlarimni ham yumib olganman. Qani endi shu yotgancha g'aramga singib ketsam. Birov bir narsa demasa, hech kim topolmasa...

Unday desam, Sultonmurod akam shuncha bedani ortib qo'yib, o'zi qayoqda yuribdi ekan? Xayolim qochib, o'ngarildim! Qarasam, Izzaning narigi betida birov ko'rinati. Shunday qiyamalikda, ko'prik yoqasida. Chimzorga yon-boshlab, yo'l poyleyapti. Demak, akajonim anuv jigaridan urganni kutyaptilar. Ko'rgilari kepqopti.

G'ashim kelib, bu yonboshimga o'ngarilib oldim. Poylasi, poylab o'tmaydim! Bahonada men bir maza qilay. Rohat-ku bu yotish. Bundan ortiq mazani yana qaerdan topaman?

Loy tepaverganimdan taxtaday qotib ketgan belimga, boldirlarimga yumshoq beda shunday yoqyaptiki, naryog'i yo'q.

Beda gurkirab allalaydi. Allaqaqday bir o'tning boshog'ini qo'limga olaman-da, bandini hardamxayol chaynagancha... ko'zim ilinibdi. Bir mahal ular tushimda (yo tavba!) boshlashib, men tomon kelishayotgan mish. Aniq-taniq ko'rib turibman. Ulardan boshqa hech kimmas. Bir o' (lari. Izzadan chiqib kelishyapti. Akamdan bir qadamgina oddinda sochini o'rganchami, o'ynaganchami, u...).

Ana, sochini orqasiga bir chiroyli itqitdiyu, akamga kulibgina qarab qo'ysi. Bahiddin akam qolib, endi upi topib olibdimi? Uni o'ldiga chiqarib, xolamni qon-qon yig'latib, hali shu yo'llarga kiribdimi? Shoshmay tursin, shoshmay!..

Qonim qaynab, sakrab turib ketgim keladi-yu, nimagadir qaddimni ko'tarolmayman. Xuddi birov ko'kragimga ming pudli tosh bostirib qo'yganday. Na qo'limgi, na oyog'imni qimirlata olaman. Na o'ngarila olaman, na yuzturban tushib, yuzimni bedalarga burkay olaman. Bundanam ortiq xo'rlik bo'larmi?!

Xafalar bo'lib ketgan joyimda birdan bu nihojati tush ekanini eslab, yengil tortib ketdim. Xudoga shukur-ey, tush ekan-ku, uyqumni buzishga arzimaskan-ku. Yotibman-ku, axir bedaga ko'milib, maza qilib. Bunday rohat qaerda bor? Bormi? Bir umr shunday yotaversam edi... Ko'zimni ochgim kelmaydi. Lekin atrofdagi tiq etgan tovushgacha, barchasini eshitib yotibman. Qaerdadir to'rg'ay chuldirab, ustindan bir gala chumchuqlar uchib o'tdilar. Uzoqda buzoq onasini qo'm-sab, o'ksib-o'ksib, ma'raydi. Izzaning narigi betidagi ekin ichida bedana "vog'-vo, vog'-vo"lab qo'yadi-yu, sayrab yuborolmaydi.

Bir mahal shunday pastda, hoynahoy aravaning bu yonida birov entikkanday bo'ldi. Qiz bola shekilli? Yo menga shunday tuyuldimikan? Keyin... yalinchoq ohangda shivirlagani eshitildi:

- Qo'ying, endi men boray, jon Sultonmurod aka...

G'alati bo'lib ketdim. Lekin qimir etolmayman, qimirlasam qani. Qilt etsam, sezib qolishadi.

- Birpasgina sabr qiling, Marg'u, - deya o'tindi akam, - sizga gaplarim bor.

- Aytadiganingizni aytin, o'tinaman sizdan. Bu ahvolda turmaylik, qo'yvoring endi.

- Xo'p, ana... Faqat, aybga buyurmay, ochig'ini aytasiz.

U bo'shaddi shekilli, ikkisi ham shivirlashga tushdilar.

- So'rayqolning, sizdan nimani ham yashiray.

Sultonmurod akam chaynalgansimon bo'lib:

- Bilasizmi, men uning taqdirini, o'zi nima bo'lganini bilishim kerak. Bilishga... qasam ichganman. Aniqlay olmasam, Sultonmurodligim bekor! Tushunyapsizmi? - dedi.

Marg'u kennoyimning xo'rsinig'i eshitildi:

- Men nimayam dey. O'zlarini yaxshi-yoriq ko'rman... bo'lsam. Achinaman, ammo ilojim qancha...

Akam o'zi bilmay qoldi shekilli, ovozi bir baland chiqib, so'ng yana shu zahoti shivirlashga o'tib, dedi:

- Yo'q, siz tushunmadingiz. Men birona yanib yo qasdlashib yurgan bormidi demoqchiman.

- Voy, rostdanam... Anuv Akmal o'ris o'lgur bir kun yo'limni to'suvdi.

- To'ydan oldinmi?

- Ha, ancha oldin.

- Nima deydi?

- Agar o'shangta tegsang, eringgayam, o'zinggayam javr qilasan, bir kunam turg'azmayman, devdi.

- Keyin dim-dim ketdimi yo?..

- Yaqinda ko'rdim.

- Xo'sh?

- O'ylama, mendan qochib qutulolmaysan, deb ishshayadi, baloga yo'liqqur.

- Siz-chi?

- Ikki dunyodayam... tegmasman, o'sha lo'q ko'zga.

- Meniyam yo'ldan surib tashlasa-chi?..

- Hech-da. Topgan gapingizni-chi!.. Basharasi qursin uning! - dedi u azza-bazza xafa bo'lgannamo ohangda.

Sultonmurod akam erkaldi.

- Hazillashdim. Sizni unga berib qo'yarkanmanmi! Hali shoshmay tursin!

Asol xolamning kelini birdan yana ketish dardiga tushib qoldi:

- Endi men boray, shusizam qancha qolib ketdim,- dedi.

- Birpas turing, Marg'u? Hozir oy chiqadi go'zal bo'lib...

- Sizning birpasingiz ko'p.

- O'sha ko'pi yaxshimasni?

- Ozi yaxshi. Bo'lmasa, shirini qolmaydi, - dedi Marg'u kennoyim, yulqinib chiqdi shekilli, chopib ketayotgani eshitiddi. Sal nari borib (endi menga ham yaqqol ko'rini turardi): - Xayr, o'sha oyni sizga Vera qoldim, - deya shitob keta boshladni.

Bu yoqda Sultonmurod akam "xayr" deganicha jim qoldi. Ammo ovozi bir oz siniqroq edi. Keyin u ham oglari tomon jildi.

Men yana yolg'izdan-yolg'iz qolaverdim. Turay deyman, turolmayman. Ko'zimni ochay deyman, ocholmayman. Hozirgina beixtiyor eshitganlarim o'ngimmidi, tushimmidi? Ko'zimni ochsam, o'ngim bo'lib qolishidan qo'rqaman. Ochmay yotaversam, akam hozir qaytib keladi...

Balki bular hammasi xayoldir? Ammo aniq eshitib yotibman: Izzaning narigi yog'ida bedana "pat-palaq"lar, bu yoqda Sultonmurod akamning otlari kishnab, gir aylanib chopar edilar.

Nima balo, alamini ulardan olmoqdami? Jonivorlarda nima ayb?

- Marazlar! Pa-pa-paranjingga uray! Yo'qol! - deya so'kina-so'kina suv kechib, botqoqlarga botib, qora mo'ndiday qoraygancha, Izzaning u betidagi tepalikka tirmashdi. Zo'r-bazo'r chiqib tikkaydi-da, qornimizni ushlab, chimga ag'anab-ag'anab kulayotgan bizlar ham qolib, Izzani kechib o'tolmay turgan Oyjamolga o'shqirdi:

- O'l-a! Utolmading-ku! Bu kuningdan battar bo'l!

"Bu gapga chidayolmagan Oyjamol" lippalarini ko'tarib, azza-bazza suv kecha boshlagan edi, birdan paranjisi boshidan sirg'alib tushib, u o'zimizning qora Tolib bo'lib chiqdi!

Biz chimga dumalab-dumalab kulamiz, ichimiz uzilib ketmasin, deb qorinlarimizni changallab olganmiz. Bir payt Mirzarahim tashlab qochgan tolchiviqdagi baliqlarni tog'avachcham o't orasidan ko'tarib olayotganini ko'rib qoldim. Kulgin ham qochib ketdi: "Voy, iblis, voy, ablal-ey! Hali shundaymisan? Bu sening ishingmidi?", dedim o'zimcha va asta turib unga yaqinlasha boshladim. U o'z qilmishidan mammun, ishshayib turar, mening niyatimdan g'aflatda edi. Dabdurstdan uning yuziga tarsaki tortib yubordim. U qalqib, tolchiviqdagi baliqlar yerga uchib tushdi.

- Ol! - dedim ortiqcha gapga o'rinn qoldirmay. U oldi.

- Bu yoqqa ber!

Hamma nima gapligiga aqli yetmay, turgan yerida turib qoldi.

- Mana, shumi? So'rasang, beravuraman-ku! - dedi Soli baliqlarni uzatib.

Men esam o'zimni bosolmasdim:

- Qilgan bo'lsa, Xudo uni shunday qilib qo'ygan, endi o'shanikini ham tortib olgin!

- Boplading, Maqsud! - dedi kimdir.

- O'chir ovozingni! - dedim qayrilib.

Bolalar yer suzib qolishdi. Men tepara - Mirzarahimning oldiga chiqib ulgurmagan ham edim, o'sha yoqdan ikki odamning qorasini ko'rindi. Birinchisini bir qarashdayoq tanidim. U biz bolalarning jon-dilimiz - po'chtachi Mirhomid amaki edi. Bu odam qo'llari kalta-kalta, o'zi xunuk, xuddi bukriga o'xshab enkayib yuradi, lekin po'kislarini ko'rsangiz! Ko'zlarimizni baqraytirib, qo'llarini tepamizda aylantirib turib, kimning qulog'i, kimning biqini, yana kimning qo'ltig'i tagidan hali yong'oq, hali qurut chiqarib beraveradi, beraveradi. Qoyil qolmay ko'r-chi?

Ana shu odam notanish bir yigit bilan birga Mirzarahimning yonida turardi.

- Ie, qo'shni, do'ppingni ustiga kaptar bola ochib ketipti-ku, - deb hazillashdi u.

Mirzarahim qo'lini silkidi:

- Boring, boring-e.

Po'chtachi gapidan qolmadi:

- Ishonmaysammi?

Mirzarahim endi undan nari qocha boshladi:

- Kap-kap-kaptarizzi pishirib yeng!

- Xo'p, mayli. Unda balig'ingni opket. Opang pishirsalar, opchiqarsan, - dedi u nihoyat murosaga kelib.

So'ngra birdan meni ko'rib qoldi.

- Iya, pakana piston, o'zingmisan? Zap uchrab qolding. Endi bu yog'iga bu mehmonni o'zing opketasan.

Mehmon soch qo'yib, kepka kiygan bir yigit edi. Egnidagi oq jujuncha ko'yak-shimi hilpirab, ko'zlar olma-kesak terib turardi.

Nari borsa Sultonmurod akam tengi, lekin g'irt begona. U menga boshdan-oyoq qarab chiqib, iljaydi:

- Okasini tukigayam... O'xshamaydi-ku? Mirhomid amaki ham bo'sh kelmadni:

- Bu bola boshqacha bola, okasi buning tukigayam... O'xshamaydi. Hali ko'rasiz.

Mehmon po'chtachining yelkasiga qoqib kuldi:

- Rostdanam qiziq odam ekansiz, boboy. Gaplaringizni sog'insak, toptirib ketamiz. Yo'q demaysiz-da?

- Jonim bilan, - Mirhomid amaki ikkala qo'lini ko'ksiga qo'yib, mulozamat qildi: - Bir og'iz xabar berdirsanglar, bas.

- Ruxsat, boboy, ruxsat. Shu tomonlarga o'tsak, albatta, do'lanchizdan yeb ketib turamiz.

Men ichimda kuldim. Mirhomid amaking shunaqa odati bor: fokuslarini ko'rsatayotganida, to'daga kelib ko'shilgan o'tkinchilarining ikkala cho'ntagini do'lana to'dirib qo'yadi. Ana shundan keyin ham unga ishonmay ko'rsin-chi!

Men baliqlarni Mirzarahimga tutqazib, mehmonga ham qiziqsinib, ham yoqtirmaygina o'girildim:

- Sizga kim kerak, o'zi? Biz bu yoqlardan ko'chib ketganmiz.

- Qang'li desa, "qani, qani"lab zo'r'atdan topib keluvdim. Endi okang "Tuvayuja tushib ketgan mish. Xo'b, maza joyni topibdi-da!

- Mehmon o'zining as-kpyasidan o'zi zavqlanib kuldi.

Men tumtaydim.

- Tuvak emas, Tuban, Past ko'cha degani. Oxiri berk.

- O'-ho', rostdanam boshqacha ekansan-ku. Zardangam zo'r, bilimingam. - U yelkamga qoqib, sekin itardi: - Boshla, pakana pari.

Men uning yuziga yalt etib qaradim:

- O'zingiz-chi, nimasiz? Naynov-anqovmi?

- Nima desang, shu. Lekin sen chindanam pakana parisan. Yur, yur.

Men uning oldiga tushib, yo'l boshlarkanman:

- Sultonmurod akam aytgan-da, shundaymi? - deya so'radim.

- Niman, "pakana pari"nimi? Hech-da, turishing aytib turibdi-ku. Sen bo'lsa, achchig'lanib o'tiribsan. Faxrlan, bu kallang, farosating bilan, pakana pari, hali uzoqqa borasan. Okangga ergashma, - U Izzadan sakrab o'tib, menga tanbeh bera ketdi: - Unga o'xshama.

Jahlim chiqdi:

- Akamga nima qipti? U yamlandi:

- O'-o'!.. Albatta, hech kim okang bo'lolmaydi. Unday mard, tanti, nima desam ekan, javonmardni ikki dunyodayam topolmaysan.

- Javonmard deganingiz nimasi?

- Javonmard... haligi, hech kim oldiga tusholmaydigan odam.

U oldinga o'tib olib, picha jadallahdi. Men pildirab ergashdim:

- Jangchimi?

- Jangchiniyam qo'rmasi! Bo'y bermaydigani!

- Qaroqchi ekan-da?
- Qaroqchiniyam mardi!

Men kuldim.

- Shuning uchun bu yoqlarda... yurgan ekan-da? Kutilmaganda mehmon qayrilib, yelkamga chovutini tashladi:
- Sen, bola, nimalar deb valdirayapsan? Bir urib yerga kirgizib yuborsam, ana undan keyin bilasan uning kimligini. Tag'in ukasi emish! Mishig'ingni eplasang-chi avval.

So'ngra u yana yurib ketdi.

- Nega unda odamlar...
  - Og'ziga kuchi yetmaganlar har baloni to'qiyveradi-da. Qo'li bilan ushlagan joyi borakanmi? - dedi u yo'lakay yana o'girilib.
  - Yo'q.
  - Vo! Hammasi puch gaplar! Sen bo'lsa, or qilib yuribsan. Yana "pakana pari" emish! O'zing anqovsan, biling?!
- Aybi bo'yniga qo'yilib, suvga pishib-pishib olingen bolakayday g'ing deya olmay qoldim. Jimgina aylanib o'tib, yana oldiga tushdim-da, yo'l boshlab ketdim.

Devor Ortini Ko'radigan Odam

- O'zi qatta? - dedi anchadan keyin mehmon boyagi hovridan tushib.
  - Kalxo'zda, arava minvotti.
  - Bugunam ketganmi?
  - Ketgan.
  - Topa olamizmi?
  - Bo'lmasam-chi! Avval otxonaga kirib o'tamiz. Aravasi ko'rinsama, shiyponda bo'ladi. U yerdayam bo'lmasa...
  - Ha, ana endi o'zingga kelding. Menga tezroq topib bersang, bo'ldi. Rov ko'ramanu rov qaytaman.
- Men bu oq jujun ko'yvak-shimli, tag'in yozda oq kepka kiyib olgan tasqarani qoshdan qovoq qaytarmay boshlab ketyapman-u, tinmay o'layman. Bu qitmir-kepka kim bo'ldi ekan? Sultonmurod akamni poshshoday ko'rishidan bular bir tovkadan shekilli? Tag'inam boyagi gapim uchun boshimga urib, po'la qilib qo'ya qolmadi. Men ahmoq buning jig'iga tegadigan gap qilib o'tiribman-a. Hali oshnasi bu yoqqa o'rashib olsin, bunaqa so'rab kelguvchi daydilarning hisobiga stib bo'lmay qolinsa kerak.
- Bittasi anuv kungisimi? Mo'min tog'anikiga tushib, Parpi bebaxtlar bilan olishib yurgan? Balki bu oq kepka ham o'shalarning bittasidir, uni juda yaxshigina taiir, nima bo'lganini bilar? (Do'xtirxonadan tuzalib chiqib ketdimikan yo?.. Hali qasdini oglani kelibam qolar.) Ichim qizib, sekin ijkilashga tushdim:

- Siz akamning hamma o'rtoqlarini taniysizmi?
  - Qanaqa o'rtoqlari? Qil o'tmas oshnalarinimi? - U sezgir ekan, aftimga g'alati qarab qo'ysi.
- Men u kungi chapanini qaysi toifaga qo'shishni bilmay (jonajoni desam, orqasidan kelib yuribdi, yana yonidan suvrati chiqibdi, jonajon demasam, akam uni izvoshta solib, do'xtirlarga opketdi), harqalay:

- Eng yaqinlarini-da, - dedim.
  - Eng yaqini? - Oq kepka yana ham ajablandi. - Nimaydi, pakana pari?
- Men oyog'imiz ostidagi (biz ikki paykal oralab chiqib boramiz) so'qmoqda g'imirlagan chumolilar karvonini (ular allaqanday o'tning boshog'ini ortmoqlab olibdilar) bosib olmaslikka tirishib, ilgarilar edim:
- Anavinda sizga o'xshab bittasi keluvdi. U sergaklanib, kaftini kiftimga tashladi:
  - So'roqlabmi?

Men izlab deyishni ham, ergashib deyishni ham bilmay yelka uchirdim.

- Qachon? Ancha bo'ldimi?
  - Uch hafta bo'lgandir-da. Qoratoshlik ekan. Balki tanirsiz?
  - Ko'rinishi...
  - Ko'rinishi naynov, sochi qoshining ustiga tushib ketavuradi... O'ziyam xo'b chayir, xo'b chitton ekan: ko'z ochib yunguncha uchtasini cho'ziltirib tashlasa bo'ladi!
  - E-ha, umi? Turg'un chochol deydilar uni. - Biz Qayumbek amakingning tepasi yoqalab, yong'oqlar tagi bilan chiqib bora boshladik.
  - Qo'liga tushgulik qilmasin! Qo'li gurzi-ku uning!..
  - Unga nima bo'lganiniyam bilasizmi? - dedim men.
- Hozirgina tanib, bilag'onlik qilib turgan odam... birpasda og'ziga talqon solib, tumshayib oldi-qo'ysi. Bir narsa so'rashga haddim sig'may ham qoldi. (Ammo oldinma-ketin boshlashib ketyapmiz.) Nihoyat, u chirt etkazib, chetga tupurdi:
- U akangning hech qanaqa do'stiyammas, tamishiyam. O'tirib chiqqan, zakun vor! - dedi allaqanday zarda bilan, xuddi bilmasang bilib ol, degan kabi. - Akang - galvars, ikki dunyodayam birovga el bo'lmaydigan odamni - Xudoning boshli-ko'zli g'azabi-ku! - O'shani o'limdan saqlab qopti! Bir-birining go'shtini yeb o'lmaydim! Nima qiladi aralashib?!
  - Men bilmasam, - dedim qo'rqiб ketib. Lekin uning o'sha Murjumandagi olishuvi, Parpinining yigitlarini bittelab cho'ziltirgani ko'z oldimdan o'tib, bu yo mahovat qilyapti, yo birov bilan adashtiriyapti, deb o'yladim. Rost-da, shunaqa qahri qattiq odam Mo'min tog'aning oldiga kelib, haligi gapni aytarkanmi? Tavba yo'lini so'rarkanmi? Hech-da!
  - Chiqibdimi tuzalib? - dedim sekin.
  - Tuzalish ham gapmi?! Nom-nishonsiz daf bo'pti!
  - Qayoqqa?
  - Qayoqqa bo'lardi, o'zining mamlakatiga-da. Aristonlari orasiga, - dedi u.

Tushunmadim: Mo'min tog'a aytgan taraf-chi? Bormaptimi baribir? Men azza-bazza to'xtab, mehmonning aftiga angraydim:

- Kimlar orasiga dediyiz?

Oq kepka iliq jilmaydi. Kutilmaganda boshimni qo'lting'iga tortib, o'zicha erkaladi:

- Tushunmaganing ham, bilmaganing ham yaxshi, pakana pari. Havas qilma ularga! Ular bo'lak mamlakatning odamlari. Ulardan yaxshi odam chiqmagan. Ketdik-ketdik. Sen menga akangdan kel. Uni tezroq top. Tezroq, - dedi bu gaplarga nuqta qo'yib.
- Men esam: "Sizlar-chi, akam-chi, qaysi mamlakatning odamlarisiz?", deb so'ragim kelib turibdi-yu, so'ray olmadim. Iymandim, rosti.

Akam otlarini yong'oq tagiga qantarib qo'yib, o'zi shiyponga qo'r to'kkani, Sa'dulla do'kay ikkisi hovuz bo'yiga joy soldirib, maishat

qilishayotgan ekan. Urim bino bo'lib bunaqa zo'r bahavo joyni birinchi ko'rishim edi. Og'zim ochilib qopti. Shiypon shundoq tepalikka, g'ir-g'ir shabadalarga ko'kragini olib qurilgan, pastda bir ajoyib dalayu bog' oftobning jivir-jiviri ostida yotar edi. Shundoq ostimizda qator-qator ishkomlar. Biz turgan tepalikdan bir-biriga mingashib ketgan Bo'zsuv adirlarini, hatto undan u yog'ini ham - ko'z ilg'amas yershargacha - soatlab tomosha qilsa bo'lardi. Yana do'nglikdagi hovuzdan salqin ufurib, ariqlarda suv chuldirab yotibdi.

Rayhon isini gurkiratib, bir ko'sanamo odam oldi ochiq oshxonadan pildirab chiqib keldiyu xuddi tovuq ko'rigandek tovushini pastlab, bizni hayday ketdi:

- Hay, fisht, fisht deyman! Tezda quringlar bu yerdan! Hay, man sizlarga aytvotman, opovsilar.

Tavba, qilig'i qiziq ekan bu odamning. Xotin desang, xotinchamas, erkak desang, erkakchamas. Shunaqasi qam bo'larkanmi? Bu orada u tepamizga kelib, endi erkakcha "hayqira" boshladи:

- Men nima dedim? Quriysizlarmi-yo'qmi? Shu k, amchinim bilan bir uray - O'lasizlar...

Qamchini bir tolchiviq edi, ko'rib kulib yubordim. Shu mahal hovuz bo'yidan shirakayf ovoz keldi:

- Haydarbek aka, kim u, sizzi xit qivotgan? U endi bizning yonimizni olishga tuttdi:

- Hozir, hozir. Mana, ketishvotti, opovsi. Adashib kirib qolishipti. Kechirasizlar-da, bir qoshiq qonlaridan o'tasizlar-da, o'rgilaylar! Boshqa payt bo'lganida, dumalab-dumalab kular edim: odam ham shunaqa tez tuslana oladimi? Bir qarasang, dupper-durust erkak, bir qarasang... nima balo, atay qilvottimi? Qiziqli bo'lsa kerak-da. Bog' qorovuli qilib ishga olinadi-da, kelgan-ketgan mehmonlarning ko'nglini xushlab yuradi. Xo'b alomat odamlar bor-da: o'zini ming ko'ya soladi, yana uyalmaydi.

- Endi keta qolinglar, o'rgilaylar. Birgadimizning achchiqlari tez-a.

U azza-bazza yo'limizni to'sib, yelkamizga qoqib-suqib, hayday boshladи. Hayratim asta-sekin nafratga aylanib, uning yumshoq qo'lini siltab tashladim.

- Qanaqa odamsiz o'zi?! Men akamni qidirib keldim! Unga mehmon opkevotman. Ko'rmayapsizmi, axir.

Bog' qorovuli surma qo'ygandek suzuk ko'zlarini javdiratdi.

- Kimga dediyiz? Yigitlarning guli Sultonmurodxongam?

- Ha-da.

- Avvalroq shunday demaysizmi, o'rgilay.

- Gapirgani qo'ysangiz ekan.

U o'girilib, qilpillaganicha hovuz bo'yiga qarab pildiradi. Nariroq borib, u yerdagilarga ovoz berdi:

- Hoy Sultonmurodxon, o'zingizga qarashli odamlar ekan. Nima qilay, o'tavurishsinmi?

- O'tavurishsin, o'zimizga tegishli bo'lsa. Keyin bir yo'la qozonkabobniyam suzvorasiz-da, akaxon, - deb buyurdi akam yonboshlab yotgan yeridan ko'tarilmayin ham.

Bir haftaga qolmay bu yoqlarni birkad-pirgadi bilan o'ziniki qip opti-ku. Ajabo, qanday erisha qoldi?

Mehmonni sekin imladim:

- Yuring, poshshoyi olam aynib qolmaslaridan... U oq kepkasini to'g'rilab, ta'sirlanib kului:

- Qaynonamiz suygan yigitlarmiz-da, har kim ham qozonkabobning ustidan chiqsin-chi! Nima deding, pakana pari?!

- Shuni ayting, - dedim men ham og'zimning tanobi qochib.

Biz o'n qadamcha yurmovidik, birdan akamning ko'zi hamrohimga tushib, mosovsirab qoldi. O'ngimmi-tushimmi deganday, yotgan yerida ko'zlarini yumib-ochdi, keyin o'rnidan sakrab turib ketdi:

- Ey Charli, o'zingmisan? Qayoqdan kun chiqdi?! - U quchoq ochib kela boshladи va shartta bag'riga bosgancha, dast ko'tarib, gir aylantira ketdi. - Obbo, oshnam-ey! Obbo, og'aynichalish-ey! Boshimni ko'kka yetkazding-ku topib kelib! Shu dunyoning bir chekkasida bir g'arib oshnam bor, ko'nglini olay debsan-da? O'yin-qaroq, beg'ubor kunlarimizni bir esiga solay debsan-da? Jonim tasadduqlar bo'lsin senga. Yur, yur, shunday jannatday joylarda seni biir mehmon etay. Sen bilan bir otamlashaylik, ezilishaylik... - Sevinganidan o'zini qo'yarga joy topolmay, oshnasini bag'ridan bo'shatmay, hovuz bo'yiga surgay ketdi.

Ko'rib turibman: Sultonmurod akam yaxshigina shirakayf edi, lekin tilidan yanglishmas, gaplari ham samimiy edi. Men oq kepkali unaqa-bunaqa odam emas, rostmana kissavur yoki qimorboz deb taxmin qilgan, hech qursa, qarzini qistab kelganlardan hisoblagan edim. U bo'lsa, qiz o'rtog'idek kutib oldi. Yoki bularning tovkasida rasm shundaymi? Boshqalarga sir oldirmay qo'ya qolishadimi? Harqalay, ko'nglimda shunga o'xshash gumon-shubhalar yo'q emas, g'imirsib-g'imirsib qo'yardi.

Hovuzdan salqin epkin esib, tepadagi yong'okda zarg'aldoq sayradi. Bu yershargacha yarashiqli biyov-biyovi yana bir qaytarilib, o'zimga keldim.

- Ha, pakana pari, kelmaysammi? - dedi mehmon yoniga imlab.

Men istab tursam-da, bosh chayqadim:

- Yo'q, sigirim qolgan, borishim kerak.

- Sigiringni... it yemas.

- It-ku yemaydi, lekin Chibitko degan bir maxluq bor. Ekin-pekinga tushsa, dumini chopadi. Men esa, dumsiz mol boqishdan... uyalaman.

Birgad yonboshlab yotgan yerida avval xaxolab, keyin dumalab-dumalab kula boshladи. Shunday barzangi, buning ustiga, shopday mo'ylovli odamning yumalab-yumalab kulishi bir qiziq edi.

- Topding, bolasi tushmagur, topding. Unaqa maxluqni odam bolasi tug'maydi.

Charli bir qadam men tomon yurdi:

- Kim deding? Chigirtko deysanmi?

- Yo'q, Chibitko.

- Xohlasang, o'sha Chibitko degan ertagayoq iniga kirib ketadi. Istaysanmi? - dedi u jiddiy turib.

Men nima deyarimni bilmay, dovdirab qoldim.

- Bir og'iz ha desang, bas, pakana pari, - dedi u yana.

Men uning niyatini fahmlab, birdan qo'rqib ketdim va boshimni sarak-sarak tebratdim:

- Keragi yo'q, oyim eshitsalar, urishib beradilar, - deya oldim zo'rg'a.

- Unda, boraqol, pakana pari, oying urishib yurmasinlar, - dedi u suyib ham erkalab.

O'girilib keta boshladim-u, lekin endi ulardan ajralayotganidan pushaymon edim.

Farishtalar Omin Demasidan Burun

G'alati-g'alati (hech tashlayolmaydigan) odatlarim bor. Birov qarqunoq boqishga o'ch: naynovdek bo'lib ham uvatlarda chigirtka tutib yuradi. Birov saharmertandan kimgarningdir tuzog'i qarab chiqishga ishqiboz: bir izg'ib kelmasa, ko'ngli joyiga tushmaydi hech. Men esam, sigirimni Izzaga qo'yvorib, o'zim biron ovloqqami, bedapoyaning ichigami, urib ketsam. Bedaning o'siq bir joyiga kirib olib, sekin cho'zilsamu miq etmayin yotaversam, yotaversam. Naq tepamda popilti-riq chiqarib, dala yellarida chayqalib yotgan to'p g'umayning biron uzun shoxiga bedapoyaning jiblajibon-jimit qushlari kelib qo'nsa va behadik-bearmon chuddiray ketsa. Unga uzoq-yaqindan boshqalari jo'r bo'lqa, bo'laversa. Men tinglab to'ymasam...

Yonginamdag'i beda poyachalarida xonqizlari o'rmalab yursa, yuraversa. Men ko'z uzmamasam... Allaqaerdan g'umay bargida paydo bo'lgan beshiktervat uning belida to'xtab, ko'k beshigini tebrataversa, tebrataversa. Yengil shamolda haligi g'umay poyasi qo'ngan qushchasi bilan silkinib-silkinib, chayqalib borib-kelaversa, borib-kelaversay u ham chuldur-chuldurini qo'ymasa.

Shu yotishimda kech bo'lqa, shom tushsa, boshini ichiga tortgancha to'xtab qolgan ulkan toshbaqaga o'xshash anuv Jiydali tepe tagiga... kennoyimning yo'lini poylagani chopsam...

Uni o'sha Cho'milishda ko'rganimdan beri, keyin o'sha bir etak qizil taram olmasini opkelib, hech kimga ulashmasdanoq yeb bitirganidandan buyon shunaqaman. shunaqa odat chiqarganman.

Shom tushdi deguncha o'sha tepaga chopaman. Boramanu Olmazorga qaragan yon bag'riga chiqvolib, changallar orasida yo'l poylaganim-poylagan. Kennoyim daladan ba'zan yolg'iz o'zi, ba'zan Kattabog'li qiz-juvonlarga qo'shilib qaytadi. Yolg'iz kelsa, jonim kiradi! Pildirab oldiga tushib boraman. Keyin birga-birga ketamiz. O'shanda ko'rsangiz meni!..

Ammo, men sizga aytsam, keyingi paytda uning yo'liga ko'z tikadigan boshqalar ham chiqib opti. Izzaning narigi betidagi xilvadta tutib olib, soatlab gapga soladiganlar bor. Keta qolaylik, deb tipirchilayversa, qopini ham, o'zini ham aravasiga soladiyu oladi-ketadi.

Aravasini shundaygina yonginamdan shaldiratib o'tib, meni changga botirib ketadi. Kennoyim, kennoyijonim aravaning shunday yon chekkasida, uchib ket-maslikka tirishib - ham qo'rilib, ham kulib-qiyqirib borarkan, men alam-achchiqdani boshimni changallagancha qolaveraman. Keyin chidab bo'lmas bir xo'rlik bosib kelib, o'krab yuboraman:

- O'g'ri! Qaroqchi! Birovlarning kennoyisini tortib olguvchi! O'h! Sengayam boqqan balo bordir!

Tepamda yulduzlar ko'zdagi yoshday miltiraydilar. Soylikni qorong'ilik bosib, hech nimani ko'rib bo'lmaydi. Faqat, Izza suvi burilishda bo'g'iq shovullab, o'ksi ichiga sig'magan bolakayday, menday hiqillaydi go'y...

Shundan keyin ham yo'l poylashga tushib yuribman. Zora bu gal yolg'iz o'tsa, jilla qursa, o'tini ko'tarishib ketsam, debman.

Bir vaqt... boshida bir bog' o't, Jimittepa so'qmog'idan, changallar oralab bir qiz tushib kelyapti. Yo tavba, o'zi-ku! Yolg'iz-ku! Suyunchdan ukpardonam yengil tortib ketdim-ov. Ammo (qaerdanam ko'zim tushdi?!) Jimittepani aylanib o'tgan arava yo'lda yana birov - bir otliq ko'rinish... yig'lab yuboray dedim. Yana menga xalaqit qilishdimi?..

Mundayroq qarasam, ot Barzan, otliq Haybat akam ekan. Obbo, endi bunisi kam edi!

Haybat akam Barzanni qichab, kennoyimning yo'lini to'sib chiqishga shoshilar edi.

Maqtanchoq! Barzanni minmasalar nima edi!

G'ashim kelib, burnimni jiyirdim-u, lekin... lekin rostini aytsam, ot - otmisan ot edi. Shunaqa sollanib, viqor to'kib kelardiki... taq-tuq, taq-tuq...

Bu ovoz so'likdan chiqyaptimi, tuyoqlaridanmi yoki har ikkalovi qo'shilibmi - ajratish qiyin edi. Shunaqa chiroyli yurib qo'yarkanki...

Ana u, yo'l qayrilib, so'qmoq bilan uchrashgan joyda o'zidan-o'zi sekinlab, Haybat akamning bir himosi bilan to'xtab qoldi va chiroyli bosh silkib, pishqirdi.

Kennoyim hurkibgina o'zini yo'l chetiga oldi va otliqning o'tib ketishini kutgan kabi to'xtadi.

Haybat akam esa, turibdi iljayi-ib. Na yuradi, na ko'zini uzadi. Xuddi uning qayrilib, o't ostidan qarashini kutayotgandek.

Axiyri, bir g'alati tomoq qirdi:

- Yaxshimisiz, yaxshi qiz? - Va qamchili qo'lini cho'zdi: - Beraqoling, ko'tarishib ketay.

Bizning soylarda ovoz bunaqa paytlari jangillab chiqadi. Haybat akamning ovozi ham hayajondan bir oz qaltirab, yangrab ketdi.

Buning ustiga, tagidagi oti xuddi tayinlab qo'ygandek (balki Marg'u kennoyimni tanibdir, axir, qo'lidan qandalar yemaganmi?), salomlashgan kabi, bosh silkib-silkib pishqiradi. Qo'yib bersa, o'ynoqlab, hov birdagidek tomosha ko'rsatsa. Kennoyim o'tini uzatmadni.

- Qol'limni qaytaryapsizmi, Marg'u? - dedi Haybat akam araz qorishiq bir g'alati o'ksik ovozda.

Kennoyim qayrilmay ham titrab-qaqshadi:

- Keragi yo'q, keting.

Men ularning ovozlarini shunday-la eshitib turibman. Boshqa, zog' ham yo'q soylikda. Hamma ketib-ketib bo'lgan. Ammo ular kelisholmay turibdilar.

- Sazamni o'ldirmang, Marg'u. Kela qoling, - deb yalinardi u.

- Keting, dedim, keting! Meni uyatga qoldiryapsiz.- Kennoyim battar titrab-qaqshadi.

- Nima, mendan shunchalik hazar qilasizmi? Kennoyim yo'lni chetlab, sekin yura ketdi.

Men akamning qiz bolaga elanishini birinchi ko'rib turishim edi. (Shunday mag'rur, badjahl odam-a, tavba!) Ham achindim, ham g'ashim keldi.

Kennoyim esa, g'iq etmayin yuraverdi. Bu orada ular ko'prikka tushib kelishdi. Izza sokin shovullaydi. Hatto ot tuyog'ining ko'prik ustidagi bo'g'iq dupuri aniq eshitilib turibdi. Shunday o'yoqi Barzan ham kennoyimning oldida muloyim tortib qolgan.

Ko'priqdan so'sziz o'tdilar. Yo'l ko'tarilib, ot tuyog'i havasni keltirarli taqirlashga tushdi. (Ular hov birda bizning aravamiz to'ntarilib ketay degan joyda, birga-birga, yonna-yon kelishyapti). Ammo Marg'u kennoyim hamon o'ng'aysizlanyapti shekilli, atrofga hurkak kiyikday bezovtalanib qaraydi, yo'ldan chetlanga-ni-chetlangan... Soylidkan chiqsa, bilmadim, nima qilar ekan?

- Aytib qo'yay, Marg'u, mendan qochib qutulomlaysiz, bir kunmas bir kun...

- Nima bir kun?.. - deb kennoyim birdan to'xtadi, ammo o'girilib ulgurmadi.

Haybat akam u tomon engashdiyu bir harakat bilan o'sha boshidagi o'tni ko'tarib oldi va:

- Mana shunday qilamanu... bir kuni egarga o'ngarib, opqochaman-ketaman, - dedi o'tni tizzasiga bosib. - Topib bo'ptilar keyin!..

Kennoyim avval allaqanday dovdiragan bo'ldi, so'ng rostmana achchig'i chiqib, yuzini ters burib oldi. Hatto shu achchig'i ham o'ziga yarashib turardi.

- Yaxshi niyat qiling, Haybat aka! - dedi u titrab.  
 - Bilasiz-ku, meni, Marg'u. Bir aytganimdan qolganmanmi hech?  
 Kennoyim arazli bir vajohatda keskin orqaga burildi. Ammo Haybat akamning o'tni tizzasiga o'ngargancha beparvo ketib borayotganini ko'rib, noiloj qaytdi va yalinishga tushdi.  
 - Haybat aka, jo-on, Haybat aka! Meni malomatlarga qoldirmang. Ayam...  
 - Nima ayangiz!  
 - Ayam o'ldiradilar! Shuni istaysizmi! Qasdingiz bo'lsa, aytin.  
 Haybat akam ham endi elangannamo qaradi.  
 - Siz ham bir galcha xo'p deng. Bir galgina. Yo shu upshgizni ko'tarishib borishga ham arzit.... maysizmi? - U otining boshini burib, yana tenglashib keldi. - Shundaymi?  
 - Shu bilan bir narsa o'zgarib qoladimi? - dedi mpnoyim joyidan jilmay, yerga termulgancha.  
 Ular tepaning shundoqqina yonbag'rida turishar, Haybat akam men tomonga qarabam qo'ymas, umuman, bu yaqin orada odam bor deb o'ylashmasdi ham. Men esam, nafasimni ichimga yutib, bu mashmasha nima bilan tuKjshnshi kutib o'tiribman. Changallar orasidan chiqolmayman.  
 - O'zgaradi, - dedi kutilmaganda Haybat akam ovozi qat'iyashib va nimadandir qaysarligi tutib, - O'zgarmaguncha ketingizdan qolmayman.  
 - Shunaqaligini bilsam, shunaqaligizingizni bilsam... - Kennoyimning ovozi o'zgarib kelib, yig'lab yubordi. - Ey Xudoyim, gunohim nima edi, shu kunlarga qoldim? O'zingning rahming kelsin, rahming...  
 Haybat akam ot jilovini tortib, birpas to'xtadi. Avval achingan kabi, so'ng suqlanib tikilib turdi-turdi-da, kutilmaganda o'tni chimzorga otdi:  
 - Mayli, yig'la, siqta, qarg'a, ammo mendan qochib qutulib bo'psan! O'ylama ham! - dediyu otiga qamchi bosdi va kelgan yo'lidan choptirib ketrovdni.  
 Men qani endi o'rnimdan qo'zg'alolsam, yolg'iz qolgan kennoyimning oldiga tushib borolsam. Alammi, ginami, uyatmi - bir nima turishga ham, ko'rinishga ham qo'ymaydi. Tushib nima qila olaman? Yupatamanmi? Menga kim qo'yipti yupatishni?! Umuman, men kimman uning oldida? Ularning oldida? Bir jinqarcha, bir bolakay-da. Bolaga kim qo'yibdi o'zidan kattani suyushni? Kattalarning ishiga aralashishni?..

### Chimda Qolgan Sirli Izlar

Mening arazimga ham, shodligimga ham taraf yo'q.  
 Oyim bozorga jo'nay turib: "Sultonmurod akangni uyg'otib qo'yarsan", degan edilar. Men esam, ensam yor bermay supamizda o'tirgancha o'tiribman.  
 O'zimga qolsa, kun yoyilib ketmay sigirimni yetaklab, Izzaga qochvorar edim. U yerda birov ko'rib, birov ko'rmagan bir o'yinim bor. O'shangal alahsirmi edim...  
 Siz bilmaysiz, Izza chimzorlarini tongga dovr shabnam yuvib, chirildrqlar qo'riqlab chiqadilar. Ikki qadamgina bosing, izlaringizdan ham bilasiz buni.  
 Hatto tong yorishar-yorishmas soy oshib o'tib ketgan tulki izlari ham yam-yashil turadi. O'sha jimit izlardan borib ininida topmoq mumkin. Menga ham ayni mavridi, birov ko'rib, birov ko'rmagan o'yinimga tezroq kirishmasam, kun yoyilib ketadi, ulgurmay ham qolishim mumkin.  
 Behi tagida bir mayna "choq-choq"ladi. Anhor ortidagi nokzorda zag'izg'on sayradi. Ko'chadan do'qirlab arava o'ta boshladni. Men o'rnimdan turdim: uyg'otsam, uyg'otib keta qolay.  
 Sekin borib, ichkariga mo'ralasam, akajonim yotibdilar yostiq quchoqlab...  
 Tavba. Yostiq quchoqlash bunga odat shekilli. Eski uyimizda ham shunga o'xshab (xuddi yaralangan yo'llbars sudralib kelib, cho'zilib qolgandal) uxlاب yotuvdi. Ho-zir ham (kechasi bilan qay go'rarda sang'igan) tosh uyquda yotibdi, yostiqni ko'ksiga bosib.  
 Nimaning dardida tentirardi?! Yo kennoyimni izlab borgan, yo kunduzi biron otni ko'z ostiga olib qo'yib, kechasi gum qilgan. Ikkisidan biri.  
 Negadir g'ashim keldi. Eshikni sekin betiga yopib, ketib yubordim. Sigirimni yetaklab chiqdim ham, darvozaning tambasini tushirdim ham, bilmadi. Jilvordim Izzaga qarab.  
 Targ'ilimi Yakkatol yonidagi (men hov birda qobil buvaga mehmon bo'lgan joy) chimzorda qoldirib, (qarasam, oftob Izzanining, u boshidan yonar tojday chiqib kelyapti, shoshmasam, kechikaman) pastga chopdim. Bir maza! Yalang oyokdarimni shabnam yuvib, gilam bo'lib yotgan chimzordan chopib boryapman. Lekin Izza bo'yida ochiqroq-sakrab o'tadigan joy ko'rinnmaydi. Suv yoqasini tizzaga uradigan, undan baland yovvoyi yalpizlar tutib, o'rab yotibdi. Pochalarimni shimarvolmasam, jiqqa ho'l bo'ladijanman. (Keyin biron tepaga chiqvolib, o'zimni allavaqt oftobga solib o'tirmasam qurimaydi. Unga vaqt qani!) To'xtab, qayirib ola qoldim va rosa shoxlab, ham bargi shabnamdan egilishga kelgan yalpizlar yoqalab borib, siyraklashgan joydan narigi betga sakradim. Biz bu yerni ot qamalgan qo'riq deb ataymiz. Chindan ham o'zi shunaqa joy. Bir vaqt yarmi uchgan jomashovimiz bo'lardi.  
 O'shangal o'xshab buning ham Izza tomoni ochiq, qolgani chim bosgan do'ngtепа bilan o'ralib kelgan. Agar rostdan ham bir otni optushib, bu qo'riqqa tushovlab qo'vorsangiz, ming zo'r bo'lsin, chiqolmaydi! Necha kun desangiz, turaveradi.  
 Ana shu qo'riqqa o'tvolib, tepani taglab chopra ketdim. Orqamda bir ajoyib yashil izlar qolyapti. Tepaning "tagidagi o'tloq" ajralib boryapti. Shu izimdan bir borib kelsam, u yog'i oson. Keyin chim bosgan do'ngtепа qiyalamasiga chopib chiqib-chopib tushaveraman. Bu yoqda izimdan "tug'ilgan" tik jar tepasida bir kenglik - osmon yuz oolib boraveradi, boraveradi. Va men o'sha kenglikda yolg'iz o'zim bilgan yo'nalishda yugurib borib-yugurib kelsam, qiling o'rgilsin bir iz - "arg'amchi tashlab uchgan turnalar" paydo bo'ladijar. Uni hozir bu yerda turib tasavvur qilish qiyin. O'ni ko'rish uchun hov Izzanining narigi betiga qaytib o'tish kerak. Siddiq arrakashning bog'i etagidagi tepachaga chiqvolib, tizzani quchoqlab, o'tirvolish kerak. Ana o'sha yerdan ko'rsangiz buni!..

Ungacha hali ot qamalgan o'tloqqa qaytib tushishim, ming ehtiyoj bilan yana yolg'iz o'zim biladigan joylardan yurib, chimda izlarimni qoldirishim, (goh tovonim-la shudringlarni sidira-sidira, goh cho'kkalab bo'lajak otimning yollarini taray-taray), tushov uzib osmonga sapchigan Barzandalayn otimning rasmini chimga tushirishim kerak.

U ba'zan bundayroq chiqadi. Rostmana tushov uzgandalay, bir sakrashda o'ngirdan hatlab chiqib ketadiganday ko'rinnmaydi. Ba'zan

shunaqa zo'r chiqadiki, o'zim ko'rib, tanamga sig'may-la ketaman. Nazarimda, u yashil otimga jon bitib, mana hozir Ot Qamalgan Qo'rikdan sakrab chiqib ketadigandek... O'zim ham hovliqib qolaman. Turnalarim-chi, turnalarim! Ular ham ko'z o'ngimda asta qo'zg'alib, qanot qoqa boshlaydilar. Hatto "qur-ey, qur-ey" lagan bir tur ovozlarini eshitganday bo'lib ketaman. Izlarim shunaqa yashil tortib, jonlanib ko'rinaldilarki... balki yolg'iz o'zimgagina shunday tuyular, shunday ko'rinarlar. (Hatto o'sha izlar o'zimni ekaniga ishonmay qola boshlayman, tavba!) Lekin bular hammasi oftob bir terak bo'yiga kelguncha, ko'tarilguncha. Keyin chizmordagi izlarim o'ngiy borib-borib, o'rnida yana o'smarang chizmordan bo'lak narsa qolmaydi.

Chimlarning ko'zlaridagi shuncha shabnam, shuncha billur tomchilar qayoqqa yo'qoladilar, otim, turnalarimga qo'shilib uchib ketadilarmi, o'chib ketadilarmi - bilmasdan, bilolmasdan qolaveraman.

Shunaqa. Har o'yining ham oxiri bor: tugaydi. Lekin biz biri tutasa, boshqasini boshlaysiz, boshqasini topamiz.

Men ham Siddiq arrakashning bog'i etagidagi do'ngdan tushib, narigi bedapoyaning pastidagi tepachaga qarab ketdim. U ham o'ziga yarasha bir ajoyib. Ayniqsa, Izzaning narigi betiga o'tvolib, Jartepaning bo'yida oyoqni osiltirvolgancha tomosha qilsangizmi! Chindanam. Bedapoyaning etagi soyga kelib, juda g'alati uzun tepe bo'lib tugaydi. Xuddi soy bo'yida o'zini oftobga solib yotgan bir yo'lbars kabi va u mana hozir asta boshini ko'tarib qoladiganday.

Uning cho'zala tushgan tanasiyu uzatib yuborgan oyoqlari, bo'yni, hatto dumaloq boshigacha shunday o'xshash, o'z o'rnidaki, ataylab ham bunday tepe yasash qiyin. O'ziyam Yakkatoldan Jiydalitepa yonidagi qo'riqqacha cho'zilib borgan. Hammasidan ham ajoyibi, tagida (ikki oyog'i o'rtasida) har kim ekin ekip yuradigan bo'ltak yer borligi. Babaqlari va boshi yonlarini tikangul bosib, changalzor bo'lib yotibdi. Endi tasavvur qilavering biz ustida quvlashmachoq o'ynab charchamaydigan bu yassi tepani. Oftobga o'zini toblab yotgan yo'lbarsdan qaeri kam?!

Men endi shu tepaning ustiga chiqib, asta maysa uzra cho'zildim. (Albatta, chalqanchasiga. Tepamda - osmoni falakda qanot qoqib chuldirayotgan so'fito'rg'ay. Undan ko'z uzmayman. Bir o'tning poyachasini labimga qistirvolganman. Yotibman o'shani o'ynab.) Oftob xush yoqib, bir ajoyib elitayotir. Qimirlagim yo'q. Kipriklarimni ochsam, bu beqiyos mazani bordan qochirib yuboradigandekman.

Ammo hech qancha o'tmay quyosh qizdira boshlab, qocharga joy qidirib qoldim. O'ngarilib qarasam, tepaning yarmi haliyam Yakkatolning soyasida; ko'm-ko'k bo'lib, jilva qilib turibdi. Ikki dumalasam, soyaga yetaman. Bu o't ustida men dumalamay, kim dumalasin.

O, ana rohat! Dumalash bir rohat, oftobdan soyaga qochib o'tish bir rohat! Oftob endi Yakkatolning tepasidan chiqay-chiqay deb turibdi. Orqasida laxcha cho'g' bo'lib turgan oftobdan pir-pir tol barglari yonib ketay-yonib ketay deydi. Lekin yonishga ulgurmuy, oftob yuqorilab, tol uchlariga chiqadi.

Bunga sari tolning qay bir eng pastki shoxiga qo'nib silkinayotgan qarqunoq "qiyov-qiyov" lab, uchirma polaponini yoniga chorlaydi. Ergashtirib allaqayoqqa olib ketmoqchi-yu, u "g'alcha" tushuna qolmaydi.

Yonimda, shunday yonginamda bir pushtirang qanotli chigirtka paydo bo'ldi. U maysalar ichidan o'rmalab chiqib, otboshara boshini mag'rur tutib, o'zini oftobga solib turdi-turdi-da, qanotlarini yoyib, oyoqlarini kerdi va uchmoqqa shaylandi. Qimirlasam, sakrab qochvorishi tayin. Shu bois soya ustidan sirg'alib tushib, quyosh peshonamni qizdira boshlasa hamki, qimir etmadim, chidab yotaverdim. Chigirkaxon nima qilar kin deb. Burnimning ichi qichishib kelib, aksa urib yuboray deyman, zo'rg'a o'zimni tiyaman, u bo'lsa, oyog'ini keradi-yig'adi, qanotlarini yoyadi. Axiyri bir sakrab ko'tarilgan ham edi, allaqaerda tayyor turgan bir chumchuq pir-r uchib kelib, ildi-ketdi. Qanotlari naq peshonam ustida parillab, cho'chib tushdim. Azot turib, o'tirib olibman.

Ko'zimni ochganimda, u chitto qushcha Izzaning narigi betidagi o'pirilgan jar yoqasiga (hoynahoy o'sha yerda ini ham bor) yetib bo'lgan, chigirkaxon uning tumshug'ida "sayr qilib" borar edilar. Bu uning umrida eng uzoqqa "uchgan" kuni bo'lsa kerak.

Men uning sakrong'ich oyoqlari qanday uzib tashlanib, qanotlari qanday yulib tashlanayotganini tasavvur etib o'tirmayoq, yana asta cho'zildim.

Kuragimga chim yumshoq botib, rohatlanib uzangan edim, tepaning bedapoyadan bir g'alati nozik ovoz tarala boshladim. Mahliyo bo'lib qoldim.

- Kur-kut, kur-kut, kur-kut...

Xuddi biron jonivor boshqasini erkabal chaqirayotgan kabi. Ammo-lekin har kirkatidan keyin bir bedana patpalaqlab sayrab beryaptiki, shu tepaning bedapoyada sayrayaptimi, soyning u yog'idami - hech ajratolmayman. (O'zi menin atrofimda sayrab, ovozi u yoqdan kelayotganga ham o'xshaydi, tavba.) Zab sayratma ekanmi?! Yotgan yermida (xuddi o'ngarilsam, cho'chib ketadigandek) patpalog'ini sanay boshladim: ...O'n bir, o'n ikki... qoyil! Zo'ri ekan-ku juda!

Sekin qaddimni ko'tarib, o'ngarilib qarasam, bedapoya ichida cho'nqayib o'tirgan birov borakan:

- O'tir-e, o'tir! - deb qo'l silkilab, urushib berdi.

Sekin joyimga cho'ka qoldim. Kallai saharlab bedana tutishga chiqqan kim ekan, deb bunday nazar tashlasam, bir oyog'ini sudrab bosadigan anuv bedanavoz - jikkak, sariq odam. Hamisha yelkasida to'r, oldida shalrangquloq anqayma iti, bedapoya-ma-bedapoya izg'igani-izg'igan. Falonchi sariq, demasa, birov tanimaydigan kishi.

O'sha amaki ro'paramda yarim orqa o'girib o'tirvolib (shipillavolib qachon kelganini ham, qachon to'rinib yoyib ulgurganini ham sezmabman), qo'lidagi tupchasini xo'b o'rinnatib chalayotgan ekan. Bir me'yor chaladi-da, nafas yutmay, jim qoladi. Bu chorlovdan mast sayroqi esa, ko'zi tinib, hushi og'ib, to'r tagiga yo'rg'alab kelganini bilmay ham qoladi. Yo'lakay to'xtab-to'xtab, patpalog'lab sayrab yuboradi. (Shunda amakin ko'rsangiz: sayratma qaerga kelib qolganini bilmochiday boshini cho'zib, sayrayotgan joyga tikilgancha tosh qotadi. Cho'chitib yubormay, deb qimir etmaydi, ammo-lekin ko'zini ham uzmaydi. Dukurlagan yuragi bo'g'ziga tiqilib, qanday chidayapti - hayronman.) Tupchali qo'lga jon bitib, o'sha avrovchi ovoz tarala ketdi yana:

- Kur-kut, kur-kut...

Sayroqi bu gal yo'rg'alashga ham sabri chidamay, bir porillab ko'tarildi-yu, uch qulochcha beriga, ko'rpa bo'la boshlagan beda ichiga kelib tushdi.

Ammo amaking sabriga qoyil! U hamon qilt et-masdi: o'sha-o'sha yelkasini ichiga tortgancha, qotib o'tirar, barmog'ini tuphasidan olmas edi. Yana o'sha ovoz uning tizzalari orasidan, yer bag'irlab uchdi:

- Kur-kut, kur-kut...

Bu allov sayroqi to'r tagiga kirib kelguncha davom etdi (kirib kelganini qanday bildi - hali-hanuz aqlim yetmaydi), keyin amaki bir himo bergen edi, xoldor iti yotgan yeridan otlib chiqib, to'r atrofini gir aylana boshladim. Men qotib qopman.

Keyingisi oson ekan: amaki pusib o'tirgan yeridan sakrab turdi-da, yarim engashgan ko'yil to'rini silkidi. Bedana porillab ko'tarilib to'rga urildiyu pitir-lab qoldi. Bedanavoz o'zini uning ustiga otdi.

Men ham qanday turib ketganimni o'zim sezmay, yoniga uchib bordim.

Amaki sayroqini to'r tagidan chiqarib olib, tumshug'ini namlar ekan, o'zida yo'q iljaydi:

- Ha, zang'archa, qo'lga tusharkansan-ku! - Keyin munchoq ko'zları pitrab turgan hurkak bedananing qanotlarini silab, yoruqqa solib, maqtandi. - Uch haf-tadan beri dumini tutqazmaydi-ya, ayyor. Xo'b, mast paytida avrab tutib oldimmi?!

- Tupchangizam zo'rakan, - dedim men besh ketib. Amaki bo'yinni bir g'alati cho'zib:

- Ho', sen bilmaysan, men buni qaerlardan topdirib kelganman! - dedi.

- Qaerdan? - dedim qiziqishim ortib.

- Naq Turvotdan! Ko'ryapsanmi terisini? - U chap bilagiga osvolgan kirkatini yuqori ko'tarib ko'z-ko'zlagan edi, ustiga sirilgan narsaning och jigarrang patlari mayin yiltirab ketdi. Men uni ushlab boqishdan o'zimni tiya olmadim.

- Zo'r-ku! Nimadan qilingan?

- O'rdakning bo'yin terisidan! Shuniyam bilmisanmi? - dedi kulib. So'ngra bedana qanotini bir kerib qo'ydi-da: - Ammo-lekin bu undanam zo'r. Ho', sen bilmaysan, - dedi.

Amaki rostdanam bedananing oshig'i ekan. Hatto erkalab, qanaqadir tovushlar chiqarib, tumshug'idan bir-ikki o'pib ham oddi. Keyin menga sinovchan qaradi.

- Men bilan bir joyga borasanmi, yigit? Menga nima, sarguzasht bo'lsa bo'ldi-da. Shuning uchun hech o'ylab o'tirmay:

- Boraman, - dedim. - Qayoqqa?

- Izzaning hov narigi yog'ida yana bitta shunaqasi bor. Necha kundan beri chap berib yuribdi. O'shani tutib kelamiz. Bo'ptimi?

- Bo'pti! - dedim ich-ichimdan shodlanib. - To'rni surgashvoramanmi?

- Surgashvorsang, birpasda tutvolamiz. - U belbog'iga osilgan oq surp xaltachasining og'zini ochib, sayroqini avaylab sola boshladi. Iskovuchi bo'lsa, jil-panglab aylanadi-keladi, aylanadi-keladi, oyoklariga tarmashadi.

- Men ko'tarvolay, - dedim chindanam bir ushlab ko'rgim kelib.

Ammo amaki bedanaxaltaning og'zini tugib, azza-bazza qo'yniga joylay boshladi.

- He, yo'q, buni hech kimga ishonilmaydi. Bilmay ezib qo'ysang, men nima qilaman?

- Darrov o'la qolibdi-da!

- I-i, ha, sen bu qanaqa bedanaligini bilasanmi o'zing?

- Qanaqa ekan?

- Yuzta bedanaga alishmasman buni, - dedi u behazil.

Menga nasha qildi:

- Yuztadan a'lo bo'lsayam, otminan tuyu bo'larmidi?!

- Bo'lganda qandoq! - U to'rini yig'ishtirgani kirisha turib, to'xtadi: - Hali qo'lga o'rgatvolay, sayrashga tushsin - ko'rasan. Bitta otni yetaklab kelib, tashlab ketadilar. Sen nima deb o'layapsan buni?!

- Barzandaqasiga... almashasizmi? - dedim hayratga tushib.

U bedana to'rini uchidagi qoziqchasi bilan ilib-ilib yig'ishtirarkan, miyig'ida kulib qo'ydi:

- Qaniyi, lekin kech qopmiz. Men tushunmadim.

- Nimaga... kech qolasiz?

- Gum qilib ketishibdi-ku shovvozlar.

- Barzanni-ya?

- Ha-da.

Men anqayib qoldim.

- Qachon, kim?..

- Kim bo'lardi! Ot jinnilari ozmi! Barzan nomini eshitsa, hushi uchib, esi og'ib qoladiganlardan birortasi mo'ljallab yurgan-da...

Beixtiyor Sultonmurod akam xayolimga keldi: yolg'iz o'zi katta uyga kirvolib, yetti uyquni urib yotishi qiziq edi. Nahot Sultonmurod akam?

Hovliqib amakingeng yengidan tortqiladim:

- Qachon dediz? Shu kechasimi?

- Qayoqda! Bir kun bo'lyapti-ku! Eshitmadinglarmi?

Men hayratda bosh chayqadim. Biz-ku, mayli, eshitmay qolgandirmiz, lekin akam-chi? Hech narsadan xabari yo'q odamday kun chiqqunchayam uqlab yotishi g'alati. Yo bilsayam?..

Amaki to'rni beda ustidan sidirib-tortib, tirsagiga o'ray boshladi:

- Javr-javr - chavandoz bilan ot qorovulga javr bo'pti.

- Nega? Ularning bo'yniga qo'yishdimi? - dedim shoshib. (Axir, Haybat akam!..)

- Daragi chiqmagach, rais melisa chaqirib, shularni qamatib qo'yanlmish.

- Haybat akamni ham-a?

- Hazilakam otmidi Barzan? Musobaqlarda sovrin olib yurgan...

- Haybat akam-chi, u kim ekan? Chavandoz-ku, axir.

- O'grining izi chiqmagach, shuda. Boshqa kimni ushlaydilar? - Amaki to'rni tirsagidan chiqarib, aylantirib-aylantirib tutdi-da, yelkasiga tashladi, kuchugini ergashtirib, pastga yura boshladi. Keyin to'xtadi. - Darvoqe, anuv bor-ku... arava minayotgan okang.... O'shangaytib qo'y, ko'zdan nariroq yura tursin.

Damim ichimga tushib ketdi. Serrayib qopman o'zimam. Amaki yelkamga qoqib, hushimga keltirdi.

- Har ehtimolga qarshi-da. Tag'in unga ag'darib yurishmasin, - dedi allanechuk mehribonlik ila.

It bir nimaning isini olib, pildirab beda ichiga kirib keta boshlagan edi, urishib chaqirdi:

- Max-max-max, Olaquloq.

Ammo Olaquloq boshini ko'tarib ham qo'ymay ketordi.

- Oblochingit itidanam battar chiqdi-da. Is oldimi - yugurgilab ketavuradi falonchiga o'xshab...

Maroqlandim:

- Falonchi kim?

O'zining gapi o'ziga nasha qilibmi, endi rostmana yuzi yorishib, kuldi:

- Ha, bor-ku anuv... O'pka?! Hah, nimayam edi oti? Men yelka qisdim:

- Bilmasam men...
- Nega bilmasakansan? Uni bilmaydigan bormi? Axir anuylarning iskovuchi: xabar beradiganiyam, boshlab yuradiganiyam-chi?!
- Ha, bolalar ko'rsayoq tiraqaylab qochadiganmi? - dedim.
- Balli, topding, - deya yelkamga qoqd u, - O'sha ko'zi sovuq, mo'ndiday odam . Uyam bir ilashsa, tutmay qo'y maydi shu itimga o'xshab... Ertaga urushlariyam tugor, bu mansablariyam bitar, demaydi. - Kutilmaganda u iqi suyib, pastga boshlab qoldi. - Yurdikmi, pakana pari, Izzaning naryog'iga?

Men ichim qurib, ergashdim:

- Yurdik! To'rni surgashvoramanmi?
- Surgashvorasan. - U o'tirilib itini chaqirib qo'ysi: - Max, Olaquloq, max-max-max.  
Bu gal iti birpasda shipillab kela qoldi. Biz Yo'lbarstepa yoqalab, Yakkatol tagiga qarab ketdik. Tol soyasi tepadan sirg'alib tushib ulgurgan bo'lسا-da, haliyam allaqancha joyni tutib yotar, shudring ham o'sha joylardagina qolgan edi.
- Ha, esladim zang'arni, - dedi kutilmaganda amaki orqasiga qayrilib qarab qo'yib, - Akmal juvonmarg-da.
- Xotinlarga o'xshab, qarg'anib gapirgani nasha qilib, kuldim. So'ngra paytdan foydalanih, anchadan beri meni qiyab kelayotgan bir savolni berdim:
- Unda Asol xolamning o'g'illariniyam shu sotgan ekan-da?
- Anuv nikohida oblochi bosgan xolavachchangnimi?
- Ha-da. Tanirmidingiz?
- Taniganda qandoq! Shunday yigitni yetim demay, o'n gulidan bir guli ochilmay, yo'q qilib yuborishdi-ya, zang'arlar. Surishtiradigan yo'q bo'lga, shuda. Ey, bularga ham boqqan balosi bordir Xudoyimning! - U tuchali qo'lini bir siltagan edi, bilagiga urilib, beo'xshov "kirkat"lab ketdi.
- Rostdanam o'sha ishga aralashgan bo'lسا, Sultonmurod akam sog' qo'y maydi, ko'rasiz hali! - dedim-u, tilimni tishlab qoldim.
- Kim deding! Haligi arava minayotgan okangmi? - deb amaki yelkasi osha qarab qo'ydi.
- O'sha, - dedim noiloj. U bosh chayqadi.
- Ammo okingga aytib qo'y. Hazir bo'l sin undan. Naq iblisning boshli-ko'zli balosi-ya! Bir o'chakishsa, qo'y maydi. Shunaqa dog'uli, ilonning yog'ini yalagan.
- Shu payt tashlama ariq bo'yidagi o'tlar orasidan bedana parillab ko'tarilib, chuluq-chuluqlagancha soy oshib ketdiyu Olaquloq bir narsa qilishga ulgurmayoq anqaygancha qolaverdi. Amaki uning shu turishiga besh ketib, kulib yubordi.
- Oblochini iti bo'lisingga ancha borakan. Shu makishlarga ovora bo'lib yuribsanmi, ovsar? - Keyin erkalab qo'shib qo'ydi. - Hay, mayli, burning bir gal pand bersa beribdi. Bugungi ovimiz bir yilga tatiydi! Max-max-max...
- Biz tolu tutlar tagidagi chimzordan o'tib, soylikka tushib borarkanmiz, orqada ertalabkidek bir alomat yashil izlar qoldiranimizni ko'rib (hatto Olaquloqning jimitdek izlari ham chimda aniq-taniq ko'rinih turar edi), amakidan:  
"Shunday Barzanning izi qolmabdimi, axir, uni ham shu soydan olib o'tishgandir?" deb so'ramoqchi bo'ldim-u, yana so'ramay qo'ya qoldim.
- Axir, hamma menga o'xshab saharlab tushib yuribdimi bu yoqlarga? Qolaversa, bugun emas, kecha tushmaymanmi? Chimda qolgan u sirli izlarni ko'rgan bo'larmidim!
- Jonivorni endi qanday topishar ekan?

### Akmal Juvonmargning Hiylasi

Targ'ilimni yong'oqzorga soyalatib, tepaning yonbag'ridagi oq o'rikdan bir-ikki tatib, nihoyat ugya kirib borsam, katta tolning tagidagi supamizda oq-oppoq bo'lib, xontaxtaning bir yonini to'ldirib, opog'oyim o'tiribdilar. Haybat akamning oyilari. U kishi oq-sariqdan kelgan, yuzlaridan nur yog'ilib turadigan katta xotin edilar. Uzoqqa borolmasdilar. Borib qolsalar ham, ikki kun tizzalarini uqalab o'tirardilar. Ko'chib kelganimizdan beri kelmagan edilar. Endi, mana, uyimizga nur kirgandek, bir yarashib o'tiribdilar.

Men salom berib, chopib bordim va supaga tizzalab bo'ynimni egdim. Opog'oyim o'tirgan yerlarida bag'rilariga tortib ko'rishdilar. Peshonamdan o'pib, kuraklarimni siladilar.

- Xudo-oy, yetimlarning baxtini o'zing bergin. Oying ne umidlarminan katta qildi, ilo-oy rohatingni ko'rsin, - deb duo qilib, oyimga o'girildilar:

- Voy-hoy, Salomxon, shu Maqsudxo'jangizmi-a, kichkina no'xatingizmi? Tuf-tuf-tuf, ko'z tegmasin, yomon ko'zlardan o'zi asrasin. Bo'yulari bir cho'zilib, ovozlari do'rillab, katta yigit bo'p qoptimi? Yaqinda qiz qidirib qolarkanmiz-da? To'ylarini ko'rarkanmizda buningizning?..

Men uyalib, turib ketvorarimni ham, qolarimni ham bilmayman. Ketvoray desam, o'zimning opog'oyim. Shundan shu yoqqa bizni deb keptilar. Qolay desam, uyaliblar ketyapman bu gaplaridan.

Oyim qutqardilar meni.

- Hali o'yin bolasi-ku, opog'oyisi. Bola bo'lmasa, kallai saharlab ketganicha endi kirib keladimi peshin qilib?! Na choy ichibdi, na non olibdi.

O'rtoqlarim optushgan narsalaru o'zimiz Siddiq arrakashning bog'idan uzib chiqqan uzum bilan Yakkatolning tagida bir chiroyli nonu angur qilib olgani-mizni, keyin Izzada baliq ovlab, peshinga qovurmoqchiligidimizni aytib bo'ladimi ularga.

- Ertalabki qaymog'ing ham joyida turibdi, olib kela qol, - dedilar axiyri oyim.

Qutulganimga jon-jon deb tura qoldim. Hali tog'orachaga bir burda non to'g'ramagan edim, so'rab qoldilar:

- Sen-ku, mayli, Sultonmurod akingga nima jin urdi? Shunday ketvoribdi? Kelsam, choy ham ichilmagan, dasturxon ham yozilmagan?

Men to'g'risini aytolmay yerga qaradim.

- Qachon qaytarkan, aytmadimi?

Mana, aytilgan ishni qilmaganimning oqibati! Uyg'otib qo'ysam-ku, shu gaplar yo'q edi.

- Men ketayotganimda... uxlab yotib edilar, - deb ming'irladim zo'rg'a.

- Unda kelib qolarkan peshinlarga. Eshikni tambasini shunday tushirib ketibdi. Ko'ngli bo'lmas, bir xabar olib o'tmasa, - dedilar opog'oyimga.

U kishi xayollanib, dasturxon chetini silab qoldilar. Men ularni hech bu ahvolda ko'rgan emasdim. Unaqa-bunaqa tashvishlarni

ko'rdirim demasilar. Boshqalarga: "Hoy egachi, shunga shuncha ko'z yosh, diydiyomi, orqangizga tashlavoring-e! Xudo olsinzyai, Sizzi ko'z yosiz bilan o'nglanib qolarkanmi?! Unglaydiganiyam O'zi, qo'llaydiganiyam O'zi. Xudoga solib qo'yavering", deb nasihat qilib yuradigan odam... bunday o'tiribdilar. Yana harsillab-lorsillab oyimning oldilariga keptilar. Haybat akamning ishi chatoq, shekilli. Tavba, Barzanni birovlar o'g'irlab, Haybat akam javob beradi ekanmi?

- Unda birpas kuta qolayinmikan? Yo kun isib ketmasdan... - dedilar opog'oyim ko'zlarini allaqanday yoshlanib kelib.
- Voy, kennoyi, shu issikda qayoqqa borasiz, ozmuncha yo'lmi Qoratosh?! - dedilar oyim hech rozi bo'lmay. - Keldizmi, kuting. O'zi bir yoqli qilib beradi. Haybatillayiz shunga uchrang deptimi, bir narsani bilib aytgan.
- Dadajonga bora qolaymi, devdim. Harholda, past-balandni biladi. Zakunni biladi.

Oyim ilkis bosh chayqadilar:

- Zakunidanam burun ot topilishi kerak. Ot topilmasa, zakuniyam ish bermaydi, kennoyi. Endi birpas sabr qilasiz. Kelmasa, ana Maqsudxo'jam bor, topib-chaqirib keladi. Umid bilan keldizmi, o'tiring. Sultonmurodniyam qo'li ancha joyga yetadi, bu yoqlarga endi kelgani bilan. Oling, dasturxonga qarab o'tiring.

Opog'oyim "xo'p, mana, ovotman, ichib o'tiribman", deb piyolani qo'llariga oldilar, ammo hadeganda chiroylari ochila qolmasdi. Men qo'zg'aldim.

- Bo'lmasa, shiyponga o'tib kela qolay. Aytishar qaerdaliginiB ?
- Qaniydi, toychoq, qaniydi? Opog'oying o'rgilsin, o'zim to'ylaringda oying bilan bosh bo'lay. Chimildiqli uylaringni poylab chiqay. Borib kelaqol. Maniyam ko'nglim tinchisin. Yana kimlarga yalindim, boraqol. - Opog'oyim kuraklarimni silab, duo qildilar: - Iloho, shu uylarda ungin-o'sgin. Tup qo'yib, palak yoyg'in. Yurtda martabalar topgin.

Men ham bir og'iz shirin so'zning gadosiman, bu duodan Sultonmurod akam dunyoning narigi chekkasida bo'lса, aytib kelgudek holga tushib, o'nimdan turdim.

- Tez borib kela qol, biz poylab o'tiramiz. Aravasini qo'shib kelsin. Birato'la opog'oyinglarni tashlab qo'yadi, - dedilar oyim tayinlab.

- Xo'p, - deya men ko'cha eshik qolib, o'rtadagi yo'ldan opamlarnikiga chopdim. O'shanaqasi tutzorning ichi bilan kesib chiqmoqchi edim. Ammo jiydaning tagiga yetganimda tepa yo'lda arava shaldiraganday bo'lib, to'xtab qoldim: Sultonmurod akammi? Bu yoqlarda undan bo'lak kim ham bo'lsin. Qaytdim.

Chiqsam, chindanam o'zi! Arava Saynabi domlaning qayrilishidan chiqib kelyapti. Faqat, ilgarigi shaxti yo'q. Tizginni bo'sh qo'yanicha, aravaning yurishiga monand chayqalib kelyapti. Shunaqa xayol surib ketibdi. Bo'lmasa, otlarini o'z holiga qo'yib qo'yarmidi?! Ayniqsa, shu qiyamalikdan tushishda?! O'nidan tik turvolib, bir qo'li-la tizginni silkilab, qamchinni shotiga chars-churs urganda ko'rsangiz uni! "Qiyov-qiyov"lab otlarni qistaganda ko'rsangiz! Shaddirab borayotgan arava to'n-tarilib ketay-ketay deb yana o'nglanib olganda ko'rsangiz uni! Ho-ov, bir olam zavq topardi akam bundan. Ana uni haqiqiy Sultonmurod, g'ayrati olamga sig'magan yigit desa bo'lardi. Butun peshonasini tang'ib olgan qiyig'ini demasa, nimasi bor, nimasi qopti?

Rostdanam, u keyingi kunlarda bir g'lati - kamgap, ichimdagini top bo'lib qoldi. Ilgarigidek tegishib, hazillashishlari, sharaqlab kulishlari yo'q. Izzada ham kam ko'ryapman: kennoyimning yo'lini kutishlari, jiydazorda gapga tutib, aravasiga solib ketishlari yo'q. Yo men arazlab bormay qo'ydim, yo ular arazlashib kelmay qo'yishdi. Haybat akam esa, nega ko'rinxmaydi desam, ish chappasiga ketgan ekan. Bedanavoz amakingin aytgani rost chiqdi, ana, opog'oyim kelib o'tiribdilar. Sultonmurodga boring, otni topishvorsin, bo'lmasa, meni bo'shatmay, kesib yuborishadi, deganmish.

Bu kishim esa, hech gap bo'limgandek, (axir, Barzan ustida o'lib qolay deganlarini kim ko'rmabdi!) kelyaptilar. Yo qilar ishni qilib qo'yib...

Men xayolimdan o'zim qo'rqib ketdim. Anhor bo'yiga o'tirayotgan joyimda turib oldim. Akam indamay o'tib borib, aravasini tolqator tagiga burdi-da, tushib, otlar so'lig'ini chiqara boshladni. Keyin ularni qantardi. Arava ichidan belbog'ga tugig'liq bir narsa olayotib, kimmidir izlaganday atrofga alangladi. Men chopib bordim. U shaxti past alpozda iljaydi:

- Hm, arazlashganday... tumtayib opsan, tinchlikmi?
- O'ziz-chi? - dedim men ham.
- Meni qo'yaver, meni jin urmaydi, - dedi zo'rma-zo'raki jilmayib va nari yurdi.
- Yaxshi ko'rgan Barzanizzi jin urib ketibdi-ku?..
- Xabarim bor, - dedi u sovuqqina.
- Opog'oyim keb o'tiribdilar. Haybat akamni...
- Unisidanam....

Hayron bo'ldim. Hammasidek xabari bor odamning yurishini qarang! Jilla qursa, Haybat akamga achinsa bo'lardi!

U esa, otlarning bo'yinbog'lariga yana bir qarab qo'yib, qaytdi. O'sha yerdanoq bosh irg'ab:

- Gaping rost bo'lsa, o'sha belbog'dagidan bir-ikki bosh chayib kir, bor, - dedi xuddi angrayib qolganim yoqmaganday.
  - Xo'p, - deb men noiloj surindim. Sultonmurod akam boyagidan sal yumshab, ichkari qarab yurdi va qamchinini yo'lakay eshik zulfinida qoldirib, kirib ketdi. Anhor bo'yiga borib, belbog'ni ochsam... voy, uni ko'ring! Oqliqqa ham topilmaydigan daroy!
- Saharda uzilganday dirkillab turibdi. Uzumlarning poshshosi! Bunaqasi faqat Kattabog'dayu Siddiq arrakashning bog'ida bitishi mumkin. Ishkomidan g'ir-g'ir shamol o'tmaydigan joyda ovora bo'ladi.

Uzumning ikki boshini chayib, hovliqib kirib borsam, ular ko'rishib bo'lib, o'tirishayotgan ekan. Taqsimchaga solib chiqib, o'rtalariga qo'ydim.

- Voy, Salomxon, yanglishmasam, Asol opamni daroyillardan-ku. Yo bu yoqlargayam ko'chatidan kelganmi? - dedilar opog'oyim uni ko'riboq.

- Kelgan emas, sho'ttan borgan. Hammasi Vahob pochchamni bog'laridan tarqagan. U kishidan mirishkori bu dahada yo'q, - deb oyim Sultonmurod akamga qarab qo'yilar. - Yana bir bo'lsa, Nusrat pochchamning bog'larida ko'rgandayman.

Sultonmurod akam yalt etib, boshini ko'tardi, bir oyimlarga, bir uzumga qarab, jilmaydi.

- Rostdanam, xolam so'rab yubordilar. Kechki payt o'tarmiz, deb shuni bervordilar, - dedi.

Naq bo'lmasa men galvars boshqacha xayollarga borishimga sal qoluvdi. Nusrat pochchaning bog'laridan ekan-ku, qariyb o'zimizniki hisob. Nusrat pochcha kim? Xolamning erlari. Bu xolamgilar o'zlar shahar hovlilarida turishadi-yu, yozda ikki oygina shu dala bog'lariga yengil-elpi ko'chib chiqishadi. Men ko'p borganman, ammo bog'ni unchalik tintimagan ekanman. Bo'lmasa, bilardim!

- Olinglar. Oling, kennoyi, omonlik-somonlik, - deb dasturxonga qistadilar oyim.

- Yetkazganiga shukr Xudoyim o'zining shunaqa ne'matlariga. Mana, men oldim, - deb opog'oyim bиринчи qo'l urib berdilar.
- Kutib turib hammadan keyin men ham bir shingil oldim-da, og'zimga soldim. Oh, olamda shunaqa uzumlar bor-a! Karsillashini aytmaysizmi buning!
- Oyim yana bir shingil olib, menga uzatdilar:
- Maqsudxo'ja, ma, Qudrat ayanglarnikiga chop. Opog'oyim keldilar, degin. Aytmabsan, deb yurmasinlar.
- Ayani ovora qilasizmi, Salomxon? Bemalol - yotadigan bo'lib kelganimda chiqarmiz, hozir... - deb xijolatga tushdilar opog'oyim. Men, qani chiqmay qo'ya qolsam, deb turibman. Haybat akamni nimaga qamab qo'yishganiyu Barzanni qanday o'g'irlatib yuborishganini shunday bilgim kelyaptiki, bu yerdan bir qadam jilgim yo'q. Yana, Sultonmurod akam nima deydi? Ishqilib...
- Kennoyim eshitsalar, xafa bo'ladi. Boraqlol bolam, diyord g'animat! - deb oyim unamadilar. Balki yugurib borib kelsam, ulgurarman, deb zing'lladim. Daroyi ham xontaxtaning chetida qolaveribdi. Qaytib kelganimda, Sultonmurod akam o'sha o'tirgan joyida, bosh silkib: "Xo'p, opog'oyi, xo'p", deb qo'lini ko'ksiga qo'ygancha o'tirar, ammo chiroyi unaqa ochiq emas edi.

- Ayam bir yoqqa ketgan ekanlar. Machimpamlarga aytib chiqaverdim, - dedim men.
- Endi men qayta qolay, gaplashib yotadigan bo'lib boshqa kelarman. Javob bera qoling, Salomxon, - deb opog'oyim ketishga chog'lana boshladilar.

Shu mahal ko'chada otlar kishnab yulqindi. Arava g'ijirlab, borib-keldi. Sultonmurod akam o'rnidan turayotib, meni shoshirdi.

- Chop tizginni uzib ketmasidan.  
Men o'kday ko'chaga otildim. Chiqsam, aravaga qo'shilgan ayg'irlar quturib, orqa-oldilariga borib kelishyapti, yosh tolni egib, tizginni uzbekude... Men avval tishlashib-kishnashyapti debman. Ko'chadan biya mingan odam o'tib boryapti ekan. Tizginni uzib ketsalarmi, ko'rardik tomoshani!

- Dr-r! Tis-e, biya ko'rmaganlar! - deb yuboribman.  
Kutilmaganda otliq biyasining boshini yong'oq tagiga burib, egardan tusha boshladi.  
Qo'rqiб ketdim. Unga tegadigan nima gap qila qolibman?

U bo'lsa, jilovni otning boshidan oshirib, menga o'girildi. I-i, habashday qora anuv maymunbashara-ku! Ko'k movut kitel-shimini hech chechmaydigan??!

U xunuk ishshaydi:

- Biya ko'rmaganlarmi... Obbo sen-ey!  
Bu yoqda otlar yulqinishni qo'ymaydi, u yoqda maymunbashara biyasining arqonini yong'oqning butog'iga bog'layolmay halak.

Nima balo, opke ayg'irlaringni, deb qoladimi? Bir kulgim qistaydi.

- Mol egasiga o'xshamasa, harom o'ladi, deyishardi, rost ekan, - dedi u ishshayib. - Okangning o'zi qani?  
U sultanat qilganday galife shimining changini qoqib, kamarini to'g'rilaqancha, kela boshladi. Shundagina yoniga nalikchilarnikiga o'xshagan papkayu nagan taqvolganini ko'rdim. Ichim shuv-v etdi: o'ldi akam! deb o'yladim. Yo devor oshib qochvordimikan?..

- O-kam? Qaysi okam? - deb g'udrandim nima deyarimni bilmay.  
- Asrandi okang-chi! Qiziq bola ekansan-ku! O'zini ovsarlikka solishini ko'ring. Voy saniyu, xuvari! - U ta'sirlanib kuldi.  
Nazarimda Sultonmurod akamning devor oshib, gumdon bo'lishiga imkon tug'dirayotgandek, o'zimni battar go'llikka soldim.  
- Olim akammi?

- Qanaqa Olim akang? - U shunaqa akam borligini eslay olmay, yag'ir movut kepkasini jildirib, boshini qashladi. - Shoshma-shoshma, bu, anuv, xalq dushmani bo'pketgan qarindoshlaring bo'lardi, o'shaning jinqarchasimiB ?

Uning bu gapidan damim ichimga tushib, qo'rqa-pisa yolg'onladim:

- Siz adashyapsiz, kimgadir o'xshatib...  
- Ola, xuvari! - U yana boyagiday kului. - Xo'p, qaytda o'sha qochoq okang?  
- Qochoq?  
- Ha, menga ko'rinxay yurganidan keyin, nima bo'ladi?!

- U hech qanaqa qochoq-pochoqmas, shaharga o'qishga yuborishgan uni. Melisalikka o'qib yotibdi.

- Yo'g'-e? Meni juda qo'rqtivording-ku!..

Shu mahal ko'cha eshigimiz ochilib, ostonada Sultonmurod akam ko'rindi. Movut kepka yalt etib qarab, birdan sergak tortdi. Yuziga nimadir soya tashlab o'tib, zo'rma-zo'raki kulimsiradi.

- E-e, ukaginam Sultonmurodxon, bormisiz, ko'radigan kun ham borakan-ku o'zingizni?!

Voy yaldoqi-ey! Voy tulki-ey! Hozir dimog'idan qurt yog'ib turgan odamni ko'ring.

U bilagidagi qamchinni salanglatgancha, ko'rishgani qo'l cho'zib bora boshladi:

- Yo'qlab borganakansiz, yo'g'akanman.

Akam uni ko'rib, ensasi qotdi. Xushlamaygina qo'lini oldiyu (bevaqt kelgani yoqmaganday) otlariga ovora bo'la boshladi.

- Xizmat, ukam! Necha yilda bir ishingiz tushibdi: qo'lidan kelsa, jonim bilan... - deb maymundek qiyshongladi.

Miyamga birdan bedanavoz amakingin gapi tushib, bu odamning bolalikdag'i bir qarich dumchasini yaqqol tasavvur qildimu kaftimni og'zimga bosdim. E, bu o'sha odam-ku: Akmal juvonmarg, deb ta'riflaganmidi! Yana nima devdi? Ha, oblochingit!

Hammani zir titratadigan shu odam akamga yaldoqilik qilib keptimi? Balki ayyorlik qilayotgandir?

Akam otini silab tinchlantirarkan, to'rsayib qaradi:

- Men sizni qaerga chaqirtiruvdim?  
- Ho've, xezalak, - dedi Sultonmurod akam, - bora olasammi-yo'qmi, shuni ayt?  
- Menam sen bilan boshqa yerda gaplashaman, qarab tur!  
- Shoshma! - dedi akam ovozini birdan ancha pastlatib. - Ikkala qulog'ing bilan eshitib ol! Agar biron yerga g'ing deb borarkansan yoki aytgan joyimga kelmasakansan... O'zingdan ko'r! Ayab o'tirilmaydi. Hozir senga juvob! Ikkinch'i qorangni ko'rmay bu yerda. Jo'na!

Akmal o'ris ko'cha o'rtasida turib-turib, noiloj orqasiga burildi. Biyasi dumini ikki bo'ksasiga chilp-chilp urgancha itpashshalarni quvar, bunga sari aravaga qo'shig'liq ayg'irlar quloqlarini ding qilib, bezovta pishqirar edilar. Qani, bo'shana qolsalaru gijinglab-o'yoqlab o'sha tomonga chopsalar! Lekin men bir narsadan hayronu lolman: shuncha vaqtidan beri Sultonmurod akamning kimligini bilmas ekanman! Akmal o'risday odamlar uning oldida pildirab qolsa-ya. Yo tavba! Unda akam o'zi kim? O'g'riboshimi yo hukumatning kattasi? Hali shunaqa odam biznikida yotib yuribdimi?!

Sultonmurod akam aravani qaytadan qo'sha boshladi.

Omonat

Opog'oyim jo'naydigan bo'ltilar men bitta ko'rpacha opchiqib, taglari to'shab bordim. U kishi aravaga chiqib, oyoqlarini uzatib o'tirib oldilar. Sachvonlari yonlarida, och kulrang sidirg'a paranjilariga o'ranvolganlar. Ko'zlarini hech bizdan uzmaydilar, uzolmaydilar:

- O'zlarining boringlar, bunday, otalaringiz yurtiga. Arvochlarni shod etib.
  - Yloy, yaxshi kunlarda ko'rishayluk, - deb oyim aravaning yonidan borib, quchoqlab xayrlasha boshladilar.
- Yuzlari salga yorishib ketadigan opog'oyim ko'zlar yoshlanib, bizni ko'ksilariga bosarkanlar, ichkaridan Sultonmurod akam chiqib keldi.

Kamgap. Aftidan xayoli joyidamas. Axiyri, u otlarni toldan yechib, aravaning boshini yo'lga burarkan, meni imladi. Yugurgilab bordim. Soat cho'ntagidan buklog'liq bir qog'oz oldi.

- Mana shu... senda tursin, so'raganimda berasan, xo'pmi? - dedi.

- Omonatmi? - deya oldimu qo'yinimga tiqdim.

U jilmaydi va suyib qo'yib, so'ngra oyimlarga qaradi:

- Duo qiling, biz borayluk. Oyim qo'llarini ochdilar:
- Kushoyish berguvchi Ilohim mushkullaringizni o'zi oson etsin, xonadonlarimizdan xotirjamlikni aritmasin, yaxshi boringlar.
- Iloho omin, - dedilar opog'oyim ko'zlar yana yeshlana boshlab.

Arava jildi. Akam oyog'ini g'ildirak ustidan oshirib, o'tirib olgan edi. Beixtiyor ergashdim:

- Men ham borishib kelay?

Akam eshitmadni, opog'oyim, "chiq, chiqaqol", dedilar. Ammo oyim jim edilar. Bunga sari bir sog'inch ichimni o'rtab, kuydiriyaptiki... Otlar jadallab, arava shaldiradi. Men chopdim. Ruxsat tegmagan bo'lsada, aravaning bir yonini ushlab olganman. O'zimga qolsa, osilib chiqib olgim, biz tashlab kelgan joylarni bir ko'rib kelgim bor. Opog'oyim kelib, o'sha joylar hidini tuydimmi, ichimda bir sog'inch qo'zg'olib qoldi. G'ir-g'ir shabadalar makoni - u tolzor ko'chamizu chetlarini baland safsar gullar o'rab yotgan hovuz bo'yulari, biz berkinmachoq o'ynab charchamaydigan u yong'oqzoru o'rikzor bog'lar ko'z oldimdan o'tib... orqaga - ilinj-la, oyimlarga alanglayman, qani javob bera qolsalar... Akamga maza. Jilla qursa, o'zlarining xaroba qo'rg'onlarini ko'rib, aylanib keladi, hovurini yozadi. Bizning uylar qanaqa xarobaga aylanib qoldi ekan? Ko'rganlar bu kimning qo'rg'oni edi, deb so'rasa, nima javob qilishayotgan ekan? Umuman, u yoqdarga - Yakkabog'ga nima bo'lgan, hamma birin-sirin ko'chib-ko'chib ketib, xarobalarigina qolyapti? Birovlar ko'chirmaga tushib, birovlar yaqinlari qavatiga ko'chib, yana birovlar Sultonmurod akamning otalariday qamalib ketib? Yo Yakkabog'ga shunday duo ketganmi? "Oxirida yolg'iz bir bog' qolsin!", degan?

Ichim achib, Xudoning o'zi asrasin, deyman-u, hech ko'nglim yozila qolmaydi. Ko'zim ham yoshlanib, achishib kelayotir.

Axiyri arava Sultonbek amakining ko'prigidan do'pirlab o'tib, pastga qarab burildiyu men qaytdim. Lekin endilikda bor-yo'g'i o'ntacha qo'rg'on qolgan Yakkabog'imizdan - saratonning jivir-jivirlariga ko'-milib yotgan o'sha aziz diyordan ko'z uzolmayman. Nazarimda, Barzan o'g'irlanib, o'sha yoqdan bir balolar bosh-lanib kelayotganday. Bo'lmasa, nega Haybat akamni qamab qo'yishdi? Gumonsirabmi yo topasan debmi? Uchi, kelib, kelib opog'oyimni Sultonmurod akamning oldiga yuboribdi! O'sha biladi, o'shaning aqli yetadi, deganimi bu? Akam-chi? Nega hech chiroyi ochila qolmayapti? Balki...

O'tiribman anhor yoqasidagi do'ngda. Ana, ushgag aravasi Qayumbek amakining pastidagi soyga tushib, bir muddat yo'q bo'lib ketdi-da, Jimittepa orqasidan chiqib bordi. Uzokdan qo'sh chigirtka qo'shilgan mitti aravachaga o'xshab ketardi. Lekin yuki borday juda sekin jilyapti. Ilgari shunaqa paytlarda akamni ko'rsangiz. O'la qolsa otlarini tinch qo'ymasdi hech. Bu shaxtidan Barzanni topib, Haybat akamni qutqarvolishi ham dargumon.

Bo'ksamni bir nima chaqib, jonholatda o'sha yerimni changalladim. Sekin ichdan qo'limni yuborsam... chumoliga o'xshaydi. Yopishib opti, hech ajralay demaydi. Tura, lippamni olib, ko'ylagimni qoqa boshlagan edim, ichimdan bir narsa anhorga uchib tushdi. Qarasam, akamning boyagi omonati oqib boryapti. Anhoring u betidan-bu betiga sakrab, chopdim-ku! Zo'rg'a tutib oldim. Silkib tashlab, qatini yozsam, bir chekkasiga nam urib, siyohi yoyilib qopti. O'ldim! Birov odam deb ishonib bergen edi, rasvosini chiqaribman. Endi unga nima deyman?! Alamimdan yig'lavoray deb, beixtiyor xatning boshiga ko'z yogurtirdim. Bir-ikki satr o'qidimu...

Xat Yakkabog'ning Izzasida Parpi bebaxt otib qo'ygan... O'g'ridan edi.

"Men o'sha dardisarman o'zing izvosh topib, Arpapoyaga yetkazib kelgan, - deb boshlanardi xat, - Rahmat, uka. Tanimagan-bilmagan g'animingta shunchalik odamgarchilik qipsan. Kezi kelsa, jigar-jigarga shuncha yaxshilik qilolmaydi. Bir qorindan talashib tushganlar qo'llay olmaydi shunchalik! Sen qilibsan!

Avvalo, nomimni eshitalsaroq do'xtirlari oyoqqa qalqadigan joyga yetkazib kepsan. Boshqa joyda o'lib ketsam, birov bilib-birov bilmasdi. Bu yerda harqalay Turg'un chochal nomim bor, butun Beshog'och daha, u yog'i Qoratosh, bu yog'i Xadra taniydi. Meni oyoqqa turg'azmay kimni turg'azishsin. Qolavursa, Qoratoshga surishtirib borib, voldai mehribonimizga xabar berib ketibsan. Eshitib ko'p ta'sirlandim!

Men kim edimki, Xudoymen mening ishimni senga tushiribdi, marhamatli odamlarga yo'liqtiribdi? Axir, sendan bo'lak bir kimsaga ro'para qilsa ham, it o'limida o'lib ketsam ham, haqi bor edi. Nega asrab qoldi? Panoh beryapti? Ochig'ini aytasam, keyingi vaqtda shunaqa g'aroyib voqealar boshimdan kechdiki, nimalar bo'lyapganiga ba'zan aqlim bovar qilmaydi. Men nima topshiriq bilan orqangdan ergashib chiqdim-u, o'zim nima bo'lib qaytdim? Yorug' kunda, kuppa-kunduzi seni qanday yo'qotib qo'ydimu o'zim o'sha qo'rg'on atrofida gangib-o'ralashib qoldim?

Kaltakni yeb-eb, keyin qutulib ketishim-chi? Qo'rg'on egasi, anuv cholning Xizrday yetib kelib, ajratib olishi-chi?

Hammasi tushga o'xshaydi, bizning akdimiz yetmaydigan bir narsalarga o'xshab ketadi. Xudoning o'zi yorlaqadi shekilli, sen mening changalimdan qanday qutulib ketding, men esam ko'rga o'xshab seni ko'rmay qolavurdim? O'zim qazgan chohga o'zim qulab, qonga belanib yotganimda yana sening yetib kelishing-chi? Qanday tushunish kerak?

Rostimi aytasam, bu yoqqa chiqarishmasidan sal burunroq g'aroyib bir voqeasodir bo'lidi. Unga ham haligacha aqlim yetmaydi. Bizni yarim kechada uyg'otib, o'lim kamerasida yotgan bir mahbusning yoniga kiritib yubordilar. Yarim tun bo'lgach, o'zing tushunib olaver. Bekorga kiritmaydilar. Bilamiz, hukm ulardan, ijro bizdan.

Kirdik. Eshik sharaqlab berkilib, qadamlar uzoqlashib ketdi hamki, yo tavba, men joyimdan jilolmay, o'zimga kelolmay turibman. Qotib qolibman.

Qarshimda birov... nega birov bo'lsin, otam rahmatlining o'zginasi! Qibлага qarab namoz o'qib o'tiribdilar. Boshlarida o'sha oq to'r

do'ppilari, oq oralagan soqollaridan, kulcha yuzlaridan nur yog'ilyaptiki, qo'yaverasan. Tag'inam sal qiya o'tiribdilar. Bir yuzlariniyu keng yag'rirlarini ko'rib turibman. (U kishi shunaqa yag'rindor edilar.) Usha-o'sha basavlatlar, hech cho'kmabdilar. Unday desam, o'tganlariga qancha zamon bo'lyapti. Astag'firulloh, odam odamga shunchalar o'xsharkanmi, deb yoqa ushlayman. "Kimni bizga ro'para qilishyapti? Nahot biz o'z otamizga o'xshaganlarni?..." dedimu seskanib ketib, jon holatda sherigimning tirsagidan ushладим.

- O'tir, o'tir ovsar, birov namoz o'qiyotgan paytda tik turmaydilar.

Qayoqdan bu gap xayolimga keldi, o'zim bilmayman.

Cho'kdik. Qari mahbus esa, xotirjam namozini o'qiyapti. Turarkan, egilarkan, sajda qilarkan, shivirlar, har "Allohu akbar" deyishlaridan meni sir bosib, sehrlanib borayotibman. Tavba, ovozlari ham ayni! Otam ham ko'ksilaridan chiqarib, shunday chiroyl takbir tushirar edilar... Balki ko'pdan u yoqlarga qaytmaganim, azbaroyi uydagilarni sog'inganimdan bu odam otam bo'lib ko'rinyotgandir? Ovozlari o'xshab ketayotgandir?

Bir mahal sherigim hansirab, shipshib qoldi.

- Namozda teginolmasligimizni bilib, o'tiravuradi shekilli?

- O'-chir! - dedim biqiniga turtib va shu zamoni bir vaqtlar eshitganim Hazrati Alining qotili haqidagi rivoyat yodimga tushib, seskanib ketdim.

Vo darig'o, bu rivoyatni bolaligimda shu otamiz aytib bergan edilar. Yodimga tushgan mahalini qara!

Hazrati Alining asrab olgan o'g'ilchalari bo'lgan ekan deb aytib o'tirar edilar otam. U hech yonlardan jilmas, hatto namozga turganlarida ham qo'ndoqdek bo'lib qavatlarida o'tirar ekan.

Ana shu bola bir kuni:

"Ota, ota, sizdan kuchlik kimsa bormi?", deb so'rabdiymish.

"Yo'q", debdilar u zot.

"Nega?", debdi bola.

"Xudoyim meni shunday yaratgan. Shohi Mardon nomim bor, bilasan".

"Demak, qilich ham olmaydi sizni?"

"Olmaydi", debdilar Hazrat.

"Nayza ham o'tmaydi?"

"O'tmaydi, bolam".

"Mumday erimaysiz hech?" debdi asrandilari.

"Eriyman ba'zan", debdilar Hazrati Ali.

"Qachon, aytинг?"

"Namoz payti, bo'tam. Faqat namozda mumday erib o'tiraman. Undan bo'lak vaqt ovora bo'ladilar...", deb jilmayib qo'ygan ekanlar.

Qaraki, shu voqeadan qancha o'tib, u kishining dushmanlari xonaqohda pichoqlab ketishga muvaffaq bo'lishibdi. Shunga o'xshab, biz ham bir mo'minni namozda o'tirgan kezida pichoqlab, qotil qavmida ketarkanmiz-da? Shu o'ydan, senga yolg'on, Xudoga chin, mo'ylarim tikka bo'lib ketdi!

Xullas, u namozini tugatib qo'zg'aldi. Biz salomga shoshildik. Basavlat qariya ekan. Yaqinimizga kelib o'tirdi. Biz unga tig' tugul, qo'limizni tekkiza olmadik.

Ertasiga eshitsak, qo'liga hukm qog'ozini tutqazib, javobini berib yuborishibdi. Haligacha anglab yetolmayman: begunohdan-begunoh kimsa o'lim xonasiga qanday mahbus bo'lib tushdiyu qanday osongina qutulib ketdi? Shuning orasida bizga otam qiyofasida ko'rinish, lol qolganimiz-chi? Buni birovga qanday tushun-tira olasan? Men-ku oradan yarim-bir oy o'tib, bu voqeani unutgan ham edim. Ammo keyingi ishlar bundan ham o'tib tushdi.

Bo'lmasa, jim o'tlab yurgan ot... miltiq otganini kim ko'rgan? Bir chetda yotgan qirqmani bexos bosib olsa, kifoya ekan-ku, men qay o'ngirdan biqinib otdi, deb sherdek sapchib turib ketibman! Yo'q, o'sha Parping gunohkormas! U mening nomimni eshittandayoq, hurmatimni joyiga qo'yib, otdan tushgan, keyin biz tol soyasida, chimda yonboshlab gaplashib o'tirgan edik.

Falokat ot tuyog'i ostida ekan.

Hay, nima bo'lsa, peshonadagini ko'rdim. Muhimi, oxiri yaxshi chiqdi. Va men bugun bu yerdardan bosh olib ketmoqdaman.

Qolib, aytganim-aytgan, deganim-degan bo'lib, yeganim oldimda, yemaganim orqamda, ko'zir bo'lib yurishim mumkin, lekin oxiri chiroyl chiqmasa, buning nima keragi bor?

Bu dunyo hayoti hammasi bir sinov, bir imtihon shekilli. To'g'ri yo'lni topsa - topdi, topmasa - keyini voy?... Usha "voy"ga qolmaslik uchun ham bu "do'stlarim"dan aloqani uzib, qo'l yetmas yerlarga ketayotirman. Sendan iltijoim, goh-goh onamizni yo'qlab tur. O'g'limning shunday do'stlari bor ekan, deb ko'ksilari o'ssin. Xayr.

Darvoqe, yolg'iz o'zingga gapim bor edi. Xatga qo'sholmadim. Har xachir ot sanalmaganidek, har begonadan do'st chiqmas. Afsus, bizning do'stligimiz uzoqqa cho'zilmadi. Duolarimizda unutmaylik.

Turg'un".

\* \* \*

Akam yana bemahal yuradigan, yarim kechalarda qaytadigan odat chiqardi. Qaerlarda tentiraydi - bilmaymiz.

Kecha ham opog'oyimlarni olib ketganicha yetti xuftonda qaytibdi. Qachon yotib, qachon turib ketgani noma'lum. Tursam, o'rni yig'ishtirig'liq. Faqat taxmon adyolini tushirib ketishniyu deraza tokchasida yotgan moxorka xaltachasini olishni unutibdi.

Haybat akamning iltimosini o'rinnata olmagan shekilli? Shuncha izg'ib, Barzanni topisha olmagan bo'lsa, ish opog'oyim o'ylaganlaricha oson emaskan-da?

Ammo targ'ilimni bedapoyaning pastidagi qo'riqqa olib tushib, o'zimiz Izzada (hov o'sha ko'prik pastidagi Cho'milishda) baliq bo'lib yotsak, bir mahal Jimittepa orqasidagi yo'ddan aravasini shaldiratib kelib qoldi. Arava ko'priordan o'tayotganida Izzaga shuvillab tuproq-kesak to'kilib, suv yuzida bir narsa sariq ilondek bilonglab kela boshladi. Kim qichqirib qochdi, kim xaxolab kului. Haligi tuproq suv yuzida loyqalanib, xuddi sariq ilondek "oqib kelar" edi...

Men o'zimni qirg'oqqa ota, akamning orqasidan chopdim. Aravada tik turvolgancha tizginlarni qo'yvormay "qiv-qiv"lab, "Ha, jonivorlar, o'zim oynanaylar!" deb qiyqirib kelayotgan akam, nazarimda, ko'priordan o'tayotib meni imlagandek, imlab chaqirgandek edi.

Arava katta tepadan oshib o'tib, yo'lga chiqqanida, yetib oldim. Akam tizginlarni tortib, otlar sekinlar-sekinlamas menga o'girildi:

- Hov, baliqvoy to'ra, yetar shuncha yayragan! Itbaliqdan shoh chiqmagan. Sigirni opchiqsang, bir yerga o'tib kelardik.
- Bahonada o'ynab ham kelasan.

Men jon-jon deyman-ku.

- Hozir... yetvolaman, - dedim o'ynoqlab.

- Mana, bog'imizdan uzganimiz bor. Quruq kirmaymiz, - deb ko'nmadni.

Men unga qoyil qoldim. Birovning haqiga teginmaydigan ekan-ku, buni nima deb yurishibdi.

Men uni anuv (kasalxonaga olib borib tashlagan) oshnasini surishtirgani kiradimi desam, aravani katta ko'chaning bir chetidan haydar ketyapti-ketyapti, boradigan yerimizga yetay demaymiz. Qaytaga men ko'chaning u chetidagi temir izdan hali u yoqqa, hali bu yoqqa jing'llab o'tayotgan tramvaylarga, uning ichida oynasini tushirib, shamolga yuzini tutib borayotgan (shuning orasi bizning aravaga qo'shilgan otlarga besh ketib, "uni ko'r-uni ko'r" qilayotgan bolakaylaru) odamlarga anqayib charchamayman. Nima uchundir oldi ochiq oq yaktak kiyib, peshonasini qishloq aravakashlaridek qiyiq bilan tang'ib olgan chapanisifat akamga ham (zo'-o'r otlari borakanmi deb) havaslanib anqayganlar qancha!

Bir mahal do'qir-do'qir bilan o'sha temir izni kesib o'tib, devorlari oqlangan, serdo'koncha bir guzarga chiqib bordik. Bu yerlar allaqanday tanishday, men tushimda bir vaqtlar ko'rganday edim. Tanib ulgurmasimdan, aravamiz qaldirab-shaldirab bir tor ko'chaga kirib bora boshladi. Bu ko'chalar umrida ot-arava ko'rmaning, ot tuyoqlari bir ajab taqirlab, tor ko'chaning ichida shunaqa jo'r bo'lib chiqadiki, odamning havasi kelib ketadi. Hali u eshikdan, hali bu eshikdan chiqib, orqamizdan chopgan, anqaygan bolalar qancha!

Axiyri jar yoqasidagi bir maydonchaga chiqib bordik. Sultonmurod akam ot tizginlarini tortib, arava to'xtar-to'xtamas, ustidan sakrab tushdi. Va otlarni tislatib, yo'lagi uzun, darvozaxonasi oddinga chiqarib qurilgan, ikki tarafida qo'sha-qo'sha ustunlaru supachalari bo'lgan eshikka yaqin olib bora boshladi.

Men jarga pastlab ketgan yolg'izoyoq yo'lni ko'rgandayoq ichim bir jig' etdi. Bu yerkarga bir kelganman, shekilli? Hatlab o'tsa bo'ladijan, qo'ng'iroq-qo'ng'iroq suv o'tlari bosib yotgan soydan chiqib, hov anavi tomonga - kinoxonaga borgan emasmizmi? Manavi chekichlanganday eski darvoza ham... Tanidim! Qishda kelganmiz! Rosa sovuq, qora sovuq edi. Yangi ylgachayam qor yog'magan, men uchinchidami o'qiydigan vaqtim, oyimlar bilan kelganmiz. Avval Qoratoshdagi qarindoshlarimizniga, keyin ertasiga bu yoqqa chiqqanmiz.

Akam, Sultonmurod akam bularni qaerdan tanirkan?... Yo shaharda turganida... kelib yurganmi? O'shaning xotirasi, ko'rgani kelayotibdimi?

- Uzataqol chelaklarni...

Bu orada u otlarni eshikning ustuniga bog'lab ulguribdi. Aravaning bu yonidan keldi. Avval uzum chelakni, keyin narigisini uzatib, ketidan o'zim ham sakradim. Akam olma chelakni tutqazdi.

- Ma, ko'tarishib ola qol. Ko'p o'tirmay qaytamiz, - dedi u.

Aftidan, tezroq qaytsak, muzqaymoqlarga ham ulguramiz, demoqchi. Men esam, tamomi boshqa xayoldaman: O'shanda kinolarga optushishgan shaharlik qarindoshlarimiz meni tanisharmikan? Hozir qanaqa bo'lib ketishgan ekan? Qizlari ham bor edi shekilli? Hammadan ham burun anavi oq yuzli, chiroqli xotin - Huri amma-chi? Oyimlarni bag'rilaridan qo'yib yubormay: "Voy, kennoyijon, bormisiz, islaringizdan aylanay, bo'yлaringizdan o'rgilay, sizlarni ko'radigan kun ham bor ekan-ku, muncha sochilib ketduk, uzoqlashib ketduk"lab ko'ziga yosh olgan qarindoshimiz. Tanirmikan?

Bunga sari Sultonmurod akam jilmayib:

- Yur-yuraver, qisinma. Judayam begona joymas, sen egasini bir ko'rgansan, bilasan, - deydi qulog'imga shivirlab.

Qorong'i yo'laqda men uning yuzini yaxshi ko'rmayotirman. U ham meni ko'rmayapti shekilli. Ko'rsa, ichimdan nimalar kechayotganini bilardi. Lekin u aytayotgan kim ekan?

Hech qancha yurmey to'xtadi va yo'talib qo'yib, ovoz berdi:

- Turg'un aka! Hov, Turg'unboy aka!

Turg'uni kim ekan? Ammaning shunday o'g'illari bor ekanmi?

Hovlida yuzini to'sgan ozg'in ayol qorasini ko'rinish, yo'qoldi.

- Karima, qaravor, qizim, kimlar kelishibdi? Men g'ishtlari qirrasi bilan tikka qilib, doira shaklida terib chiqilgan zinadan ko'z uzolmay turibman. (Keyin qarasam, yo'lkarlar ham shunaqa musulmon g'ishtdan ekan, faqat azbaroyi zax tepchib ketganidan loy rangiga kirib ketidi. Bular ham esimga tushdi.)

- Ha, oyijon, nima dediz?

Zina tepasidagi eshik ochilib, ostonada bo'ychangina qiz bola ko'rindi-yu, yo'lakka ko'zi tushib, "voy" deganicha o'zini ichkari urdi.

Akam miyig'ida kului:

- Sen kirib boravur, sendan qochishmaydi.

Men bir qadam bosib, xayollanib qoldim. Kelib yurgan joyim bo'lsa ekanki...

Ammo shu mahal haligi qizcha boshiga bir narsa ilib, zinaga chiqdi, kalishini kiyguncha bo'lmay bizni tanib, chapak urib yubordi:

- Voy, oyi, opoqbuvu! Qarang, kimlar kelishibdi! Adamning o'rtoqlari! - deya hovlini boshiga ko'targancha yon tomondagi oynavand ravonga qarab yugurdi. U yerni ham derazasini ochib yuborib, turgan yerida o'ynoqladi: - Bir marta kelishgan edi-ku, o'shalar!

Qizaloqni... qo'ng'iroqday ovozidan tanidim. Kulib turadigan yuzi ham lop etib xotiramga keldi. U o'sha - kinoga borgunimizcha ham bijirlayverib, hammamizni kuldirib tinchimagan qizaloq edi.

Ravondagilar shoshib qolishdi.

- Iy, shunaqami? Xizrni yo'qlasak bo'larkan, kecha eslovdig-a. Chaqir-chaqir, bu yoqqa chaqiravur. Hoy, kelinposhsha, qayoqdasiz, joy sola qoling. - Opoqbuvining ovozlari Hidoy xolamlarnikiga o'xshab yumshoq, quloqqa moydek yoqadigan edi. Nahot o'sha amma bo'lsalar?

Nihoyat, oq-oppoq bo'lib, nim zangori (zar uqasiyam bormi-ey) ro'molda (ikki uchini ikki yelkalaridan oshirib tashlagancha) ravon eshigida ayol kishi ko'rindi. Yangi tuqqan oyday cho'ziq yuzlariga ko'zim tushib, ichimda: "Ha, o'shalar-ku! Huri amma-ku!" deyman-u, ovozim chiqmaydi.

- Voy, bo'yalarizga qoqindiq. Kirib kelavurmaysizmi? Sizni ko'rsak, o'g'limizni ko'rganday bo'lamic-ku! O'g'limiz kelganday

boshimiz osmonlarga yetadi-ku! Oyoqlariz gardi ko'zlarimga to'tiyo bo'lsin. Kela qoling, o'rgilay, - deb amma o'sha yoqdanoq bir qo'llari tizzalarida, bir qo'llarini oolib, zinadan tushib kela boshladilar.

Biz chelaklarni chetga qo'yib, ko'rishgani oshiqdik. Akam salom berib, yelkasini tutib bordi. Men orqadan navbat kutib turibman. Hali menga ko'zlar tushganicha yo'q. Akamdan ortmay turibdilar. Quchoqlaridan qo'ymay yelkalarini, kuraklarini silaydilar, yengil qoqib alqaydilar.

- Iloy, sizning yengil qadamlaringiz bilan o'ziyam kirib kela qolsin. Kirib kelib, uylarimizni to'ldira qolsin. Ollohimning o'zi panohidan qo'ymasini, yo'llarini ochvora qolsin. Sizga o'xshab, bizning duolarimizni olib yursin. Izzat qilib kelibsiz, ro'y-xotir qilib kelibsiz, sizni Xudo izzatlasin. Ikki dunyo kam qilmasin, - deb turib akamning peshonasidan o'pib qo'ydilar.

So'ngra akam bir qadam tisarilgan edi, men oldinga "o'tib" qoldim. Ammaning yuzlari xiyol xazinlik ila kulib turibdi-yu, ammo qiyiq ko'zlarida jiqla yosh. Bu yosh ortidan meni tanimayotgan bo'lalar ham kerak. Iymanib-la turibman, o'tolmayotirman oldilariga. Ammo amma akamning ortida birov borligini unutmagan ekanlar. Yosh ilinib turgan ko'zlarini uzmayin ham menga quchoq oolib yurdilar:

- Keling, toychoq bola. Akaginasiga qora bo'lib kelgan sizday mehmon boladan o'zim o'rgilay. Ot bosmagan joylarga toylar yetgan. Sizni ham yetgulik qilsin o'sha kunlarga, - deb ifor hidlar taratib bag'rilariga oldilar.

So'zlaridan bol tomadigan, yuzlaridan nur yog'adigan ammani rostmana tanidim, lekin sezib turibmanki, hali ular taniganlari yo'q. Bir marta oyim bilan bu xonadonlarga mehmon bo'lib kelganimizni, o'sha qang'lilik bolakay men ekanimni eslayolmay turibdilar. U kishigina emas, anavi supurgi-xokandozlarni ko'zdan nariroqqa tashlab kelib, zinadagi kalishlarni to'g'rila bizga yo'l ochayotgan qizaloq ham tanigani yo'q edi.

"Keling-keling"lab o'sha ravonga boshlashdi, tagimizga ikki qavat ko'rpachalar solib, dasturxonlar yoyishdi. Anchadan keyin amma dasturxonning poputini barmoqlari orasida yumaloqlab turib, endi sal boshqacha ohangda qayta-boshdan so'rashishga tushdilar:

- Aybga buyurmaysiz, o'g'lim. Biz sizni tuzuk-quruqroq ham bilmaymiz. O'sha birrov ko'rganimiz. O'ziz yaxshimisiz? U yoqda elu elatlari, yaqinlaringiz, oyiz, padari buzrukvorinigiz?..

Akam "rahmat-rahmat"lab, tagidagi ko'rpachani to'g'rila shinga urindi. O'zini sezmaganga solyapti. Mening esa, ichimdan qirindimi, bir narsalar o'tib boryapti. Demak, amma ko'p narsani bilmaydilar. Bizning Sultonmurod akam bilan qarindoshligimizniyam, keyingi kechgan voqealarni ham...

Lekin amma sezgir ekanlar, shaqirlab qaynab turgan samovar ko'tarib kirgan kelinlariga (boyagi ayol, shekilli) ish buyurib, chalg'igan bo'ldilar-da, birdan akamga:

- Bu kim, opovsi, qosh-ko'zlar biram tanish?.. - deb qoldilar.

Akam miyig'ida jilmaydi:

- Xolavachcham. Bu zo'r, menga qora bo'lib keldi, opog'oyi. Bo'yi ham cho'zilib qoldi, shaharni ko'rib qo'yisin dedim.

Men maqtovdan (yoqib turgan bo'lsa ham) uyalib yer suzdim.

- Shunaqami? Istarasi issiq yigitcha bo'lyapti ekan, men kimgadir o'xshatibman-da, qarichilik qursin, - dedilar u kishi xijolatga tushib.

Mening ichimdan: "To'g'ri, adashmayapsiz!" degan gap otilib chiqib ketay deyapti.

Amma non ushatishga alaxsidilar. Akam, ha, senga nima bo'ldi, deganday xontaxta tagidan tizzamga turtib qo'ydi. Men shunda o'zimni bosolmay, uning qulog'iga:

- Biz bir marta bu yerga kelganmiz. Oyimlar bilan kelganmiz, - deb shivirladim.

- Qanaqasiga? - dedi akam hayron bo'lib.

- Shunday. Oyim opkelganlar. Amma sergak tortdilar:

- Ha, bolam, tortinmay aytavur, o'z uyingdek bilavur, - deb akamga qaradilar.

U noiloj jilmaydi:

- Bu uyda mehmon bo'lganmiz, deydi.

- Menam aytdim-ku, qosh-ko'zi tanish, deb... Qani, bir yaxshilab esla-chi, - dedilar u kishi.

- Kelganimdayoq eslaganman, - dedim men cho'kkalab olib ham yoyilib ketib. - Oyimlarni taniysiz siz!..

Amma, qo'llarida bir likopcha ushatilgan kallak qand, yuzimga tikilib qoldilar va yuzlari yorishib-nurlanib kela boshladi. Men ularidan ham oldin aytishga oshiqdim.

- Men Salomxon kennoying o'g'illariman. O'sha...

- Voy, o'sha qang'lilik Salomxon yangamizni-ya?! Oyto'raxonlarning qo'shnisi. Voy, Murjumonlar omonmi, Yakkabog'lar omonmi?

Kel, bolam, qaytadan ko'rishay. O'zimizning tomir ekansan-ku. Ulug'xo'jaboylar avlod... - deb o'tirgan yerlarida ona qaldirg'ochday quchoq ochdilar.

Men turib borib, qarshilariga cho'kkaladim. Iforlaridan to'yib-to'yib, evaziga peshonamdan o'pich berib qaytdim.

U kishi ko'zlar boyagidanam yoshsanib, ro'mollari chetini mijjalariga boshdilar. Akam ham ta'sirlanib ketib cho'kkalab olibdi.

Nuqul hayratlanib menga tikiladi. O'zi esa:

- Obbo, pakana pari-ey, senda gap ko'p ekan-ku, - deb qo'yadi.

Haligi men tengi qiz uzum chayib kirdi, olma, noku gulobilardan olib keldi.

- Dalaning ne'matlaridan o'rgilay. Qarindoshlarimizning bog'idan ekan-ku. Jannatning isi keladi-ya, jannatning. Yakkabog' bog'larini ko'rganday bo'ldim-a. Buvalarimiz qo'li tekkan mevalardan ekan-ku! - Ammaning shodliklari bo'lakcha edi. - Olinglar, dasturxonga qaranglar, endi bizniki bo'ldi. Olishib o'tiringlar. Sizlarning qadamingiz bilan bu uylarga ham fayz kirib keldi, olinglar.

Vah, gaplariyam, qistashu iltifotliyam oyimlarnikiga, xolalarimnikiga o'xshaydi-ya.

Amma biz tomonlarni ta'riflab charchamaydilar:

- U yoqlarni kim jannatday joylarga aylantiribdi! Hammasi urug'larimizni bo'lgan. Qoratosh shahar hovlilari bo'lsa, u yoqlar dala joylari edi. Hammalari bir palaqdan. Faqat biz katta hovlining chirog'ini yoqib qolganmiz, sal uzilishib ketdik. Qani ilgarigi bordikeldilar, u oqibatlar?..

Akam xuddi ignaning ustida o'tirganday, zo'r berib tizzasini uqalaydi, ammaga tikiladi. Biroq amma o'z dardlari bilan bo'lib, buni sezmaydilar.

- Turg'unimning boshiga shu ishlar tushmasa, bunaqa siqilib qolmasmidik. Sizlar bilan uzilishib ketmasmidik. Bir vaqtlardagidek,

har bahor, har yoz chiqib yotib kelarmidik. Qanday zamonalarga qoldig-a. Adolat qilaman, deb shuncha yilga kesilib ketdi-ya, bolam boyaqish.

- U kishi... Turg'un akam tuzalibam kirmadilarmi? - dedi akam birdan hayratlanib.
- Nega, kirdi, - dedilar amma mahzun tortib, - bir kecha yotib ketdi, bolam boyaqish. Bormasa bo'lmas ekan.
- Qayoqqa bormasa? - dedi akam battar hayratlanib.
- Men bilmasam, aylanay. Muddatim tugamagan, meni bu yerda bir kun ham turg'azmaydilar, dedi.
- Aytdilarni qayoqqaligini?

Men anqayib qopman. O'sha odam... O'sha Murjumonda Parpi bebaxt yigitlarining adabini bergen o'sha chitto, keyin Parpi otib qo'yib, akam izvoshda shaharga olib ketgan oshnasi shu ammaning o'g'llari ekanmi? Qarindoshimiz ekanmi? Uning akamga yozgan xati esimga tushdi. Yo, tovba!.. Bir-birlarini tanimay do'st chiqib turishsa...

- Aytmadi, - dedilar amma xo'rsinib ham ko'zları yoshlanib kelib. - Yoshligidan shunaqa: bir so'zli, chochol... Adasi rahmatli erkabal, chocholim, derdilar, shundayligicha qoldi.

Yodimga uning qamoqda ko'rgan tushi, tushida otasi bo'lib ko'ringan odam bilan kechgan voqealar tushib, qichqirib yuboray deyman. "Amma, siz qo'rwmang! U kishining asraguvchisi bor! Asraydigani bor!", degim keladi-yu, aytolmayman.

Akam esa, o'sha-o'sha, ammaga tikilgancha o'tiribdi.

Amma ham nimanidir tushunib, asta bosh ko'tarib, uning yuziga andisha ila qaradilar.

- So'raganning aybi yo'q, siz boyta bu toychoq-la xolavachchamiz dedingizmi yo men yanglish eshitdimmi?
- Shunday, opog'oyi, - dedi akam iymanib. - Otamiz Abdurahim eshon pochchani...
- Voy, xudoym! - Ammaning yuzlari boyta biz birinchi ko'rgandagidek (xuddi yangi tuqqan oydek) yorishib ketdi. - Qarichilik qursin! Eshon pochcham qaysi urug'dan ekanlar, Zumradxon qaysi bo'g'indan ekan?!

- Yopiray! Hammamiz bir avlod, bir urug' deng? - dedi akam ang-tang qolib. - Qanaqasiga sizlar?..  
- Bo'lmasa-chi, sizlar hozir qaerda o'tiribsiz ekan? - dedilar amma ochilib-sochilib va bir yashnab. - Bu joylar o'sha Ulug'xo'ja buvangizdan qolgan ko'p tabarruk joylar... - So'ng iymanib qo'shib qo'ydilar. - Harqalay men kelin bo'lib tushganimda rahmatli qaynotam, qaynonam "Shu sizlarga omonat gap", deb aytar edilar. Turg'unim shu uylanda tug'ilgan... Ish-qilib, o'zi omon-eson qaytsin. Shu tabarruk joylarda tup qo'yib palak yozsin, ilohim.

Men vassajuft toqili shiftga, uning quchoq yetmas qizg'ish-qo'ng'ir to'sinlariga tikilar ekanman, boshim bir aylanib ketgandek bo'lidiyu yana o'zimni tutib oldim.

Akamga qarasam, u ham shu ko'yga tushgandek shiftga tikilib qopti. Bir qo'li bilan xontaxtani mahkam changallab olgan. Bir mahal o'ziga keldi.

- O'sha buvalarimiz ruhi-poklari haqqi-hurmati bir kalima Qur'on tilovat qilib yuborsak, - dedi.

- Yaxshi o'ylabsiz, o'g'lim. O'qing, har qalay siz erkak kishisiz, - dedilar amma.

Men umrimda tuymagan bir halovatni tuyib o'tirardimu o'ylardim: bu kishining o'g'llari Turg'un chochol ham bilarmikan shu gaplarni?! Biz bir palakdan ekanimizni?

## Hukm

Shomdan beri meni yogurtirishadi. Hali, Usmon tog'angni aytib kel, ayang ham birga kelsinlar. Hali, Xabira xolangnikiga o'tib kel, pochcham ham borsinlar ekan, de. Hali, Hidoy xolangnikidan qaytishda Mubor xolangnikiga kirib o't. Borarkansizlar, de.

Shunaqqib, uloqchi Usmon tog'am bilan boshlashib, Qudrat ayam kirib keldilar. Qo'ltilqlaridagi qiyiq-tutunchani dasturxonga to'kkani edilar, har bittasi boshmaldoqdek oq o'riklar zo'l dirday ko'ksultonlar, qo'shaloq-qo'shaloq qora giloslar xontaxta bilan bitta bo'lib, dumalab ketdi. Ko'zim o'ynab, voy-vu deb yubordim.

- Jannatning isi keladi-ya mevalariydzan, - dedilar oyim.

Men ko'rpachaning ustiga dumalab tushgan ko'ksultonlarni dasturxonga olib qo'yib, danaklariyu tomir-tomirlarigacha manaman deb ko'rini turgan shishadek tiniq bittasini tomosha qila boshladim.

Hali ular o'tirib ulgurishmay, dimog'imga qovurilgan baliq hidi urildi. O'girilib, hamisha pildirab-shoshib yuradigan Anvar kennoyimlarni ko'rdim. Ular bir lagan qip-qizartib qovurilgan baliq ko'tarib, avliyosifat kenja tog'amni "Yura qoling, boy bo'lqur", deb ergashtirib-qistab kelar edilar. Chuvak-kina tog'am nimalardir deb ming'irlab qo'yadilar. Lekin nima deyayotganlarini o'zlaridan bo'lak kimsa eshitsa, o'lay agar. Chumoliga ham ozor bermaydigan shu tog'amni armiyaga chaqrib turganmish. U kishi qanaqqib jangga kiradilar, odam o'ldiradilar - aqlim yetmaydi.

Ularning ketidan eng ko'hlik Sapura kennoyim bilan boshlashib, oyimning qarchig'ayday ukalari Islom tog'am ko'rinishdi.

- E-e, hamma jigargo'shalar jamuljam-ku. Hovli to'yini o'tkazvorsangiz ham bo'larkan, opa, - deb hazillashdilar tog'am. (Shu tog'am bir haftadan keyin urushga jo'nab ketdilar. Keta turib Qo'l dosh tog'amga: "Oka, xayr endi, diydor qiyomatga qoldi.

O'shanaqasi Makkaga o'tib ketaman. Bizga hijrat nasib etib turibdi, Xudo xohlasa", deganmishlar. Bu gapni Qo'l dosh tog'am qirq yil ichlariga solib yurib, yaqinda aytdilar.)

Hali o'rtada bir piyoladan choy aylanmagan edi, bir ro'mol oqachchiq ko'tarib Hidoy xolam, orqalarida Mubor xolam kirib kelishdi. Mubor xolam bir tog'oracha laroyi tugib olibdilar. Yelkamga qoqib, peshonamdan o'pib ko'rishdilar. Shunaqa paytda oyim ko'pincha: "Bor, oyoqni tagida o'ralashma", deb haydab solardilar. Negaki, shu xolamning "ko'z"lari bor. Mijjalaridagi ajinga o'xshab ketadigan allaqanday xollari ko'zlarining o'tkirligidan nishonaday edi. "Xol Lang yaxshilab kdrasalar, o'ynoqlab borayotgan otni ham yiqitadilar, xdzir bo'lish kerak", deydir oyim. Qo'ni-qo'shnilar ham xolamni ko'rdir deguncha, chaqaloqlarini berki-tib, kelinlarini qochirib yuborishadi. Xolam bu ishlarni sezadilar, lekin zig'ircha xafa bo'lmaydilar, Qo'l dosh tog'amga o'xshab, sassiz kulib qo'ya qoladilar.

Hidoy xolam esa, ularning tamomi aksilari. Oq-sarikdan ke. Igan yuzlaridan hamisha nur yog'ilib turadi, vujudlaridan qalampirmunchoq hidi anqib, quchoqlariga olganlarida bag'irlariga singib ketging kelaveradi odam. Bir chiroyli nimchalar, kamzullar tikadilar.

Suv olib, tirsillab turgan daroyidan yegim kelayotgan bo'lsa-da, odob saqlab, tugunchalarni sekin xontaxta ustiga olib borib qo'ydim.

Shunaqqib, bir tog'oracha chillaki uzum ko'tarib, Nusrat pochcha bilan boshlashib Oyposhsha xolam kirib keldilar. Shunaqqib, bir peshonabog' qizil taram olma ko'tarib, Habira xolam ko'rindilar. Qarindoshlarning gangur-gungurlari toza qiziganda, Norxo'ja pochcha bilan Jo'ra xolam yetib kelishdi.

- Ie, savzi qani, savzitaxtalar qani, Nusratxo'ja? - dedilar Norxo'ja pochcha dabdurustdan.
- Savzi nimasi? - dedilar kenja tog'am gapga tushunmay. - Dasturxon to'la ne'mat, yana nima kam sizga, pochcha?!
- Ha, biz kichkina Mahmudxo'janing chil-chil hassa to'yi oldidan maslahat oshi bor deb eshitdik-ku, - dedilar u kishi.
- Men ko'zlarim olazarak bo'lib, atrofga alangladim: "Bu yig'in hali shunga ekanmi? To'yim allaqachon o'tgan, usta kesgan joyi bilinmay ham ketgan-ku".
- Hov, pochcha, adashyapsiz. Buni dumalatib olganimizga, vallohi a'lam, necha yil bo'votti-ku, - dedilar kulib Nusrat pochcha.
- He-yo'q, aniq esimda. Yolg'ondakam dumalatib olingan bu, Usta kelmay qolgan... shunday bo'lganmi? - Norxo'ja pochcha azza-bazza oyimga qarab o'girildilar.- Salomxon, aytin bularga: usta kelmay qolgan-a?
- Uyalganimdan qip-qizarib ketdim, shekilli, quloqlarimning tagigacha lovullab yona boshladi. Go'yoki zarda qilib, hovliga qarab yurdim.
- Hazilingiz bor bo'lsin. Yigit bo'p qoldi-ku. Yaqinda uylantiradi-ku Salomxon buni, - deya koyib berdilar xolam kaftlariga yo'tala-yo'tala. (Shu xolam o'sha vaqtida kasalvand edilar. Oradan ellik yil o'tdi. Shu o'rtada shunday qvnoq Norxo'ja pochcha, qo'sha-qo'sha kelinlar, qarchig'ayday bir o'g'illari o'tib ketdilar. Lekin xolam umrlari uzun ekan, karavotda yota-yota kichkina tortib, mushtdek bo'lib qolsalar ham, ko'zlar ko'rmay, yurolmay qolsalar ham, namozlariyu toat-ibodatlarini kanda qilmay, Xudo bergan dardlariga sabr qilib, jannati bo'lib, yaqindagina o'tdilar. olloh yarlaqagan bo'lsin.)
- Unda kuyov oshining maslahati denglar? - deya qiziqchilikni qo'ymasdilar u kishi.
- Yo'q, pochcha, boshqa maslahat bor, Qo'ldoshxo'jani kutyapmiz, keling, o'tiring, bu yoqqa o'ting. - U kishiga to'rdan joy ko'rsatib, meni hazil-huzullaridan qutqrishdi. Duodan so'ng yana meni eslab, izlab qolishdi:
- Aytmoqchi, darakchimiz qani? Xabar olsa bo'larmidi tog'asidan...
- Hoy Maqsudxo'ja, chiqib kelasamni?
- Yugur, yana bir xabar olchi.

Men yana ikki xonadon nariga zing'illadim.

Qaytib kelsam, Nusratilla pochcha kaftlaridagi piyolani asta aylantirgancha, ichidagi choydan ko'z uzmayin, amri ma'rufga tushib ketibdilar. Mehmonlar bir supa bo'lib, qo'r to'kib o'tirishibdi. Buvamizdan qolgan uzun, serbar xontaxtaning o'rtasida to'nkarig'lik kosa, kosaning ustida qirqinchi chiroq, atrofida yozning oldi mevalari. Sapura kennoyimning yonlarida samovar jig'illab "ashula"sini aytib yotibdi. Pochcha esa, to'rda, chiroli kuzalgan soqollariyu yapasqi oq yuzlaridan nur yog'ilib, so'zlayaptilar. Sekin kelib, rayhon ariq yoqasiga cho'ka qoldim.

- ... ana shu jannat xalq etilgach, Jabroyil alayhissalom uni tomosha etib aylanib yursalar, bir vaqt ko'shkdan bir hur tushib, u zotga ko'rinish beribdi. Jabroyil alayhissalomning hamma ko'rganlariyam bir bo'ptiy bunisiyam bir bo'pti. Yo Boriyyu yo Musavvir, deb Ollohga tasannoym hamd aytibdilar. Keyin u hur bu zotga qiyo boqib, tabassum qilgan ekan, tishining oqligidan butun jannat ravshan tortib ketibdi. Jabroyil alayhissalom bu ravshanlikni Olloh taoloning nuridan gumon qilib, behush yiqilibdilar. Shunda ustlariga boyagi hur kelib:

"Yo Aminulloh, boshingizni ko'taring", debdi asta.

Jabroyil alayhissalom ko'zlarini ochib, qarabdilar-da:

"Subhonolloh!" debdilar yana chiroyidan lol qolib.

"Ye Jabroyil, mening kim uchun xalq qilinganimni bilmaysizmi?", debdi hur.

"Bilmayman", debdilar Jabroyil alayhissalom.

"Yo Jabroyil, Ulug' Tangri meni o'z nafsining xohishidan Ollohning rozilagini afzal ko'rguvchi bandasi uchun yaratgan", debdi u. "Subhonolloh! Ollohim suygan bandasiga shunday ajru mukofotlar atab qo'ygan ekanmi?!", debdilar Jabroyil alayhissalom...

- Voo, uni qarang-a! Uni ko'ring-a! - deb yubordilar Islom tog'am ta'sirlanib. U kishi bunaqa paytda qo'llarini bir g'alati sermab, qosh kergancha qotib qolar va yuzlariga asta kulgi yoyila borar edi. Ta'sirlangan u kishi, lekin Sapura kennoyim lavlagidek qizarib, yer suzib qoldilar. Hammalari kulishib, chek-ka-chekkadan hazil-mutoyibalar yog'ildi:

- Bo'lsa, Sapura kelinimizcha bordir-da, o'sha hur, Islomxo'ja?

- Pochcha, oshirvormadiyizmi mabodo?

- Ha, darvoqe, darvoqe, - deb o'zlariga kelib, uyalinqirab kuldilar Islom tog'am.

- Sultonmurodxon ham o'shandaqa kashmirisiga yo'liqmadimikan ishqilib? - dedilar chiston qilib Anvar kennoyi.

- Bo'lsa bordir, bo'lsa bordir, - dedi kimdir.

- Asolni kelini shunaqa ta'rifi ekanmi? Salomxon, sen o'rtada turganmiding? - dedilar Jo'ra xolam.

- Angishvonaga solib yutib yuboradigan bo'lmasyam, ko'hlikkina edi, - dedilar Hidoy xolam tasdiqlab. - Buvisi Xudoyorxonga kanizmi-manizmi o'tgan ekan-ku.

- O'zi emas, taqdiri ko'hlik bo'lsin. Ana, Bahriddingga bilan unashib nima bo'ldi, - dedilar oyim.- Uyam chiroyiga uchib, opamni qo'yarda-qo'y may, shuni olsam ham olaman, olmasam ham olaman, deb kuydirgan edi. O'zi bunaqa bo'p ketadi deb kim o'yabdi?

- Chiroyini maqtab yotibmiz, shumqadamroq ekanmi, nima balo? - dedilar Anvar kennoyim bidirlab.

- Sen nimani bila qolding, taqdir deydilar buni, - deb urishib tashladilar kenja tog'am.

- Xo'p, boy bo'lqur, xo'p, - deb zo'rg'a qutuldilar kennoyim.

Nusratilla pochcha pishillab, og'ir qo'zg'aldilar:

- Hoy, shu xil gaplarni qo'yinglar, bo'ladijaniga ko'chinglar. Maqsudxo'ja qani, chiqib keldimi? Qo'ldoshxo'jadan darak bormikan? Men o'tirgan yerimdan turib yuzlandim.

- Tog'am qaytmabdilar. Kennoyim eshikka qarab o'tiribdilar.

- Unaqa kech qolmasdilar-ku, mulla akam. - Sapura kennoyim xavotirlanib, Islom tog'amga qarab qo'ydilar.

- Oyibam boyaqish kuyib ketdilar, desangiz-chi,- deya qo'shildilar Anvar kennoyi.

Endi Habira xolam jerkib berdilar:

- Eldan burun vahma ko'tarmanglar. Bilasizlarmi, qaerga qatnab ishlaydi - naq Chalaga borib keladi har kuni. Hazilakam joymi?

- Ishqilib, tinchlik bo'lsin, - dedilar Qudrat aya. Nusratilla pochcha yengil yo'talib, tomoq qirdilar:

- Hoy, vallohi a'lam, Qo'ldoshxo'jasiz bitmaydimi shu ishingiz?

- Boshqa vaqtida tiq etsa, chopib borovuz, usiz hech narsani hal qilmayvuz. Endi kutmaysizmi? Qo'ying,- Oyposhsha xolam shasha doka ro'mollarini qayta o'rab, pochchadan nariroq surilib oldilar. Bu ishlari u kishining qizishganlarini ko'rsatardi.

Usmon tog'am ulokda lat yegan tizzalarini siladilar.

- Rostdanam, Nusratxo'ja, shar'iy tomoni qanday bo'ladi? Bahriddingga aza ochilsa, bo'lak gap edi, ochilmagan-ku?  
 - Asol opamning yuzlari-chi, qanday o'tib sovchi yo'llayvuz?  
 Men sergak tortdim. Bir alam qaynab keldi: Ie, bu yig'in, bu mashmashalar shungamidi hali? Shumqadamga chiqarib-chiqarib, yana sovchi yo'llashmoqchimi?

Pochcha yuzlari aralash soqollarini siladilar:

- Men u betavfiqning yonini olmoqchi emasman, lekin bu yerda mone bo'ladijan hech narsa yo'q.  
 Hayron qoldim: kim betavfiq? Sultonmurod akammi? Shunchalik elga doston bo'lib ketishibdimi?  
 - Erta-birisi kun Bahriddinning daragi chiqsa, nima degan odam bo'lovuz, - dedilar kenja tog'am ming'irlab. - Nozuv ishga bosh qo'shyapsiz, pochcha.

- E, nozuvmiyo'qmi, sen shoshma, - deb kesdilar Habira xolam, keyin pochchaga yuzlanib, dedilar: - Tushuntiribroq aytинг, pochcha. Idda muddatiyam o'tib ketgan, devotsizmi?

Pochcha miyig'larida jilmayib, bosh chayqadilar:

- Undaymas. Aza ochilganida, idda lozim edi. Hozir shunday holki, qiz nikohlangani bilan, nima desam bo'ladi, na go'shangaga birga kira oldi, na bir yostiqa bosh qo'yib ulgurdi. Bunday paytda shariat ma'lum vaqtadan keyin tomonlarning rizoligi bilan qizning boshini ochib qo'yadi.

- Asol opam ikki dunyoda rozi bo'lmaslar. Qayoqdagi gapni gapisiz? - Oyposhsha xolam yana boyagiday qizishdilar.

- Senam qiziqsan, Sanobar. - Pochcha ilkis qarab, xontaxtaga sekin mushtladilar. - Ko'chini olib ketishganda indamagan odam, endi nima derdilar?

- Hecham-da. Opam o'shanda indamaganlari bilan ichlaridan kuyib yotibdilar, siz qaydan bilasiz?

- Bilmasam... bilmasam, borib so'rarmiz. Oldilaridan o'tarmiz.

- O'ting-da, innaykeyin gapiring. - Xolam yana yuzlarini burib oldilar.

- Hay, sanga bir narsa bo'lganmi? - Pochcha juda jahllari chiqqanda yengil kuladigan odatlari bor edi, hozir shunday kulib qaradilar. - Menam esimni yeb qo'ymagandurman.

Xolam mushtlarini xontaxtaning chetiga bosib, shart qo'ydilar:

- Bo'lmasa, siz shu ishga bosh qo'shmang, tamom-vassalom!

Bunga sari pochcha pishillab-xaxolab, yayrab-yayrab kuldilar:

- Shu xolosmi, shu xolosmi? - So'ng mijjalarini arta-arta: - Voy Sanobar tushmagur-e, voy onasi tushmagur-e, - deya oldilaridagi sovub qolgan choyni ho'plab, xontaxtaga bag'rilarini berdilar. - Xo'-o'sh, sizlaram shu tarafmisizlar, shuning yonini olasizlarmi? Aytaveringlar ochiq, - dedilar boshqalarga.

Kim ko'zini chetga oldi, kim nima deyarini bilmay andishada javdiradi. Faqt Qudrat aya o'sha-o'sha hurpayibgina o'tirar edilar, avzoylari o'zgarmay:

- To'g'ri, Sultonmurod ham begona emas, o'z jigarimiz, - dedilar sekin. - Lekin Bahriddin boyaqishning daragi chiqmay turib, uning nikohidagi narsaga o'zimiz sovchi yuborishimiz... elning oldida yaxshimas. - Ayam pochchaga yarim o'girildilar. - Siz, Nusratxo'ja, ko'p kitob ko'rgan odamsiz. Yaxhilab bir surishtiring-chi, bu muallaqa ayollar qatoriga tushib qolmaganmi ishqilib?.. - Yo'g'e, kennoyi, unaqamasdir, tushmas u toifaga.

- Har qalay, surishtirgan yaxshi-da. Hozir beva bo'lib bevamas, taloq qilinib taloq qilinganmas.

- Ha, o'sha muallaqaning o'zi! Sultonmurodingiz ham qiziq. Shundan boshqa qiz qurib qolganmi?! - Oyposhsha xolam hamon rozi bo'lolmas edilar.

Pochcha yana kulib yubordilar:

- O'zing kelin qilib tushirvotganday sakraysan-a, Sanobar. Bolaning ko'ngliga ham qaraylik-da. Qolaversa, Bahriddin bilan bir kungina umr qilgan bo'lsayam, mayli ekan... shu tavqi la'natlarni peshona-siga yopishtirsak. E, barakalla, e, barakalla.

- Shuni aytинг, pochcha. Boyaqishda nima gunoh? - dedilar bir chekkada qisinib, choy quyib o'tirgan Poshtsha opam.

- Uyidagilar ham, tengi chiqsa, uzatvoradigan holatda emish, - dedilar Sapura kennoyim o'choqboshidan kela turib.

- O'lsin, olov yoqmay, atay shunday gap tarqatgan! - deb qo'l siltadilar Habira xolam.

- Hamonki Sultonmurodning ko'ngli borakan, olib beravurish kerak, qo'ynidan to'kilsa qo'njiga qabilida. Asolga tushuntirarmiz. - Hidoy xolamning bu gaplari olovga moy quygan bilan baravar bo'ldi. Xolalarim har chekkadan bobillab berishdi.

- Xudodan qo'rqing, opa.

- Bahriddinni o'ldiga chiqarib-a?

- Asol opamni tiriklay go'rga tiqamiz-ku.

- Hay-hay, baraka topkurlar, bu maslahat-ku, buncha jonlaringiz chiqmasa?! - Usmon tog'am xontaxtani tapillatib, xolalarimni insofga chaqirdilar. Lekin ular qaynab turgan doshqozonday vaqirlab, gaplaridan qolishmas edi.

- Bahriddiningan daragi chiqmaguncha, u xonadonga borishni o'ylamanglaram. Kutsa, ana, olarmiz, qayta kelin qilib. Kutmasa, o'zi biladi. Ikkinci och-maganimiz bo'lsin eshigini...

- E, afsus, afsus. - Pochcha tizzalarini uqalay-uqalay o'rnilardan tura boshladilar. Buni ko'rib oyim pgoshib qoldilar:

- Hoy, pochcha, oshni damlab qo'yibmiz. Qayoqqa turypsiz?

Pochcha indamay supadan tushdilar. Kavushlarini topib kiygachgina:

- Men xuftlonni o'qib, o'zimga kelib olmasam, bo'lmaydi, kallam qaynab ketdi, - deya hazilga burdilar-da, obdastani ko'tarib nari yurdilar.

- Namozni o'qib olovraylik bo'lmasa, - deya boshqalar ham birin-sirin tura boshlashdi. Hech kim endi boyagi gapdan og'iz ochmay qo'ya qoldi.

Ana xolos! Sho'rlik Marg'u kennoyim! Agar ikkinchi eshigini ochib borishmaydigan bo'lsa, akam nima qilib yo'llarini poylab yuribdi, kimning qizi bu ohu, deb mendan surishtirib so'rayotibdi? U-chi, uning o'zi-chi? Nima qilib qizil taram olmalaridan ilinib yuribdi akamga? Nima qilib Izzalarda kuttirib, aravalariqa chiqib yuribdi agar bu uylarga kelin bo'lib kelolmasa? Xolamgilar qo'yishmasa?

Turib-turib ungayam, Sultonmurod akamgayam achinib ketdim. Xo'rligim kelib, hovlidan chiqib borarkanman, hech kim topolmaydigan kimsasiz bir joylarga ketib qolgim, ikkalasini qidirib topgim, hamma-hammasini birma-bir aytib bergim kelaverar edi.

Tavba. Kechagina uni Sultonmurod akamdan qizg'onib yurmabmi edim, nega endi bugun xolalarimning hukmidan noroziman?

Osmonga Bog'obod tomondan bir g'alati kemtikkina oy chiqibdi. Xuddi odamning yuziga qaray olmay mung'ayib turgan kelinchakday...  
Bu savdolar nima bilan tugarkin - hech aqlim yetmasdi.

So'roq

Oppoq oydin. Hammayoq - daraxtlaru dalalar ko'z yetguncha bari sutdek nurga cho'mgan. Faqat anhor bo'yidagi azim yong'oqlarning soyasi ko'chani yarmigacha egallab, hov Qo'l dosh tog'amning burilishigacha cho'zilib borgan. Anhor ham shu soyada chilpillab oqib yotibdi . Goh-goh joylarida oyning bir bo'lagi elakka solib, oqizib qo'yilganday... suv tagida lipillaydi nuqlu.

Men anhor bo'yidagi do'ngga chiqib o'tirganimcha o'tiribman. Suv chilpillaydi, Hakimbek amakinining nokzorida har zamonda mushtdek bir narsa xunuk sayrab o'chib o'tib qoladi, chirildoqlar chirillaydi - shularni demasa, atrof sokin.

Hovlida ham jimjitlik. Aftidan, tog'alarimu xolalarim (xolalarim opamlarnikida, tog'ayu pochchalar biznikida, Nusrat pochcha imomlikka o'tib) haliyam xufton namozini o'qishyapti. Osh suzilsa, gangur-gungur bilan supaga chorlab qolishardi.

Shu tob hov narida anhordan bir narsa lip etib o'tdiyu ko'cha yoqalab shu tomonga shipillavolib kela boshladni. Uning nimaligini dabdurustdan farklab bo'lmasdi. Hamon shipillagancha, shu tomonga yugurgilab kelyapti. Yuragim shuvillab, o'tirgan yerimda paypaslanib, kesakmi, bir narsa izlab qoldim. Ammo boyagi qora o'n qadamlarcha beriga kelganda tikkayib, ko'chani kesib o'ta boshladni va eshigimizga burilgan joyda yoruqqa chiqib, ingichka soyasi yerga uzala tushdiyu yengil tortdim. U o'zim tengi bola edi, lekin na yuzini ko'rib, na o'zini tusmollab bo'lardi. Kim ekan? O'rnimdan turishim bilan ko'zi menga tushib, qayrildi.

- Maqsud, o'zingmisan?

Ovozidan tanidim, Soli ekan. Halloslab oldimga kela boshladni.

- Namuncha yov quvlaganday yugurmasang? Tinchlikmi?

- Jur tez! - U tortqilab shoshirdi. - Antiqa so'roq bo'lyapti. Chopdik! - Keyin orqa-oldiga qaramay, kelgan yo'liga burildi.

- Hov, shoshmasang-chi! Qayoqqa? Qanaqa so'roq?

- Jur degandan keyin juraver. Bunaqasi tushinggayam kirmagan. Bo'l. - U anhordan bir hatlashda sakrab o'tib, chopib ketdi.

Qorama-qora yugurdim, ammo qani u chittonga yetib ololsam. Qayumbek amakinining o'qarig'i bilan pastlab boryapmiz. Tepadan oshib, katta tolning tagiga yetganda chapga - Siddiq arrakashning bog'i tomonga burildi. Bog'ni ichidan kesib o'tib, ishkom oralab hallosladik. Ishkom tagi goh nimqorong'i, goh olachalpoq edi. Tizza bo'yi o'tlar oyoqqa urilib, shuvullaydi. Ba'zan uzum boshlari peshonamga, boshimga urilib, silkingancha qolaveradi. Yugurgilashib borishimizdan bilmagan odam o'g'ri deb gumon qilishiyam mumkin edi.

Axiyri sabrim chidamadi:

- Hov, o'pka! Qayoqqa boshlayapsan o'zi, aytasanmi-yo'qmi?

U sal sekinlab:

- Oz qoldi, hozir yetamiz, - dediyu yana chopqilladi.

Vaqt allamahal bo'lib ketgan. Shu paytda kim kimni so'roq qilaran, dodini berarkan?

Biz Izza yoqalab, oydinda ilonning po'stidek oqarishib yotgan so'qmoqdan tegirmon tomonga yugurgilashib ketyapmizu butun soylikni, Izza bo'ylarini chirildoqlar ovozi tutib ketibdi, biri olib, biri qo'yib chirillab yotibdi. Xuddi har bitta o't, har bitta chim tagiga chirildoq kirib olganday. Oy botmaguncha bu hol davom etadiganday.

Ikkita qo'riqni oshib o'tishimiz bilan oppoq oydinda yolg'iz o'zi qorayib, eski tegirmon ko'rindi. U bir vaqlar - biz tug'ilmasimizdan ancha burun, yassi tepaning bag'rige qurilgancha, keyin Izzani teparoqdan to'sib, unga suv keltirishadi. O'shanda ekilgan tollar hozir tegirmonboshini qayrag'ochday tutib ketgan edi. Tangadek oftob tushmaydigan shu joyga biz mollarimizni bog'lab, qoq peshinlarda cho'milganimiz-cho'milgan. Hozir tollar uchi xuddi birov ustiga oq jujun mato tashlaganday yarqirar, tegirmon esa, shu tollarning soyasida qolib, kichkina tortib ketgan edi.

Bu tashlandiq makonda kim bo'lishi mumkin? Eshik-derazasiga taxta qoqib tashlangan bu joyga biz hatto kunduz kunlari oralashga ham hayiqar edik. Og'izni qiyshaytirib qo'yadigan jinlardan kim qo'rqlaydi deysiz? Bemahalda hatto kattalar ham bu tegirmonni chetlab o'tishadi. Bizni cho'chitibmi yoki rostdanmi, bu tollarning yonidan yolg'iz o'tma, soyasida yotma, deb tayinlashgani-tayinlashgan. Hozir qanday mard yurak yutib u yerga kiribdi ekan?

Yaqinlab bordik. Chindanam tegirmon ichida birov borga o'xshar, taxta qoqib tashlangan darchasidan yerga ojiz nur tushib turar edi. Shivirlab, Solidan ijikilay boshladim:

- Kim bularing? Yo qaroqchilarmi?

U qadamini sekinlatib, bosh chayqadi. Uzoq chopganidan, nuqlu hansiraydi, bir narsa deyolmaydi. Unga sari mening sabrim chidamasdi.

- Oblochilarmi yo?.. - dedim yutoqib. Rost-da, urushga borishdan qochib yurganlarni tutib olgan bo'lishsa, shu yerdoyoq so'roqqa tortishdimikan?

Hovliqmasang ko'rasan, deganday Soli qo'l siltab yuraverdi va saldan keyin o'zi qulog'imga engashib, shipshidi:

- Orqadan o'tib, ichkariga kiramiz.

Men undan bir qadam orqada soyama-soya ergashib boryapman. Engashsa, engashaman, tepaga tirmashsa, men ham tirmashaman. Nihoyat, nov tepasiga chiqib, alanglab turib qoldi. U yerdan tomga osongina chiqish mumkin bo'lsa-da, ichkariga kirishning hech iloji yo'q edi. Na tuyruk, na tirkish bor. Faqat nov ichi qorayib turibdi. Pastda esa Izza shovullaydi.

- Sen qimirlama sho'ttan, - dedi u axiyri qulog'imga shivirlab, - O'zim chaqiraman...

Shunday deya novga uzala tushib, pastga sirg'alib kirib keta boshladni. Ichkaridan bo'g'iq so'kinish bilan arqonningmi, kamarningmi, balki qamchindir, shilt-shilt etgan toyushi keladi. Ora-chora bir ovoz:

- Vahshiylar, shoshmay turlaring senlar! - deb baqirib qo'yadi. Yanib so'kingani sari qattiqroq kaltak yeb, ingraydi.

Soli esa, novdan kirib ketganicha, daragi yo'q. Hov pastda, balki Cho'milishdag'i katta tepadadir, chiyabo'rilar uvlab, odamning yuragiga battar vahm soladi. Ovozi ba'zan uzokdan, ba'zan yaqindan eshitilib, ular hozir yopirilib keladiganday, novdan ichkar kirib ketgim keladi. Kemptik oy ancha havolab, tollar soyasi o'zining tagiga tortilib borar, tegirmonning bir chek-kasi soyadan chiqay-chiqay deb turar edi. Shu mahal pastdan Solining boshi qorayib ko'rindi: u novda yotgancha qo'l silkib chaqirardi:

- Tush, tusha qolsang-chi!

Yuragim qinidan chiqqiday bo'lib dukurlaydiu hadeganda novga uzala tusha olmayman. Nihoyat, tirsaklarim shilina-shilina,

novning ikki yonini qo'yib gobormay, asta sirg'ala ketdim.

Tegirmonning tagiga bir alpozda tushib bordik. Osilib, tortqilashib tosh ustiga ham chiqdik. Undan tegirmonning do'li yoni bilan bir amallab, jon hovuchlab don to'kiladigan joyga o'tib oldik. Pastga qarasam, voy-vo'!.. pastda, to'singa osig'liq fonus chiroq yorug'ida, orqasiga bahaybat soya ilashgan odamlar ko'rindi! Hammalari bo'lib to'rt kishi-ku, o'rtadagi bukri ustunga bir tepakal odamni arqon bilan chandib qo'yishibdi! Boshi fonus yorug'ida xuddi chirmandaga tortilgan echki terisiday yaltiraydi.

Yoqavayron. Bosh kiyimi (Ie, anuv movut kepka-ku, Akmal o'ris-ku!) oyog'inining tagida tegirmon gardiga qorishib yotibdi. Bu yoqda uch kishi... Bittasi Ahmad cho'loq o'zi uchun qoqishtirib-yasagan qiyshiq kursida oyog'ini chalishtirib, chekib o'tiribdi. (Qaeradir ko'rgandyaman bu oq kepkalini.) Boshqasi ustunga suyangancha tek qotgan. Yana biri qo'lida to'qali qayish kamar, Akmal o'risning ro'parasida turibdi. U chiroqqa orqa o'girib turganidan yuzini ko'rib bo'lmaydi. Lekin yelkalari keng-keng, qo'llari uzun-uzun, bo'yish shiftga yetgudek, negadir juda tanish...

Ana, u Akmal o'risga yaqin borib, qayishli qo'l bilan dahanidan ko'tardi:

- Ko'zimga qarab ayt: uni qayoqqa gum qilgansanlar?!

Yo tavba! Sultonmurod akam-ku, o'sha-ku! Shu yerni aytgan ekan-da, sen bilan alohida gaplashaman deb?

U dona-dona qilib so'rар, to'g'risini aytmasa, ko'radiganini ko'rsatishi shundoq anglashilib turar edi:

- Askarga jo'natgan bo'l salaring, unisini ayt, jo'natmagan bo'l salaring, bunisini! Yo surishtiradigani yo'q deb o'ylovildilaringmi?..

Senga aytayman!

Jahldanam Xudo bergen ekan. Jazavaga tushib bir baqirsa, Soli ikkimiz sakrab tushibmiz. Akmal o'ris esa, bir ingrab g'ujanak bo'ldi-qoldi. Yo dahaniga musht tushirdi, yo tizzasi bilan butiga tepib, nafasini chiqarmay qo'ydi. Ikkisidan biri.

Soli pusib o'tirgan yerida yelkasi bilan sekin turtdi:

- Akang zo'r-ku. Qo'rboishi bo'ladijan ekan. Men undan xafa bo'lib, achchig'im keldi:

- Qo'rboishing nimasi! Esing joyidami?..

- Yo'q, sen yaxshilab qara, - dedi u shivirlab.

- Xo'sh, nima bo'pti? - dedim qaysarlik bilan. - Nari borsa Akmal o'risning adabini beryapti.

- E, qiziq ekansan! - Soli biqinimga yaxshilab tushirdi-da: - Shunaqlar bo'lmasa, bilasanmi, bu Akmal o'rislar nima qiladi? - dedi qulog'imga.

- Nima qiladi?

- Hammaning yelkasiga minib oladi! Ana undan keyin tushirib ko'r. Malades akang! Ko'zirlarning ko'ziri ekan.

- Havasing kepti-da, - dedim kesatib. U kifti bilan kifitimga turtib qo'ydi:

- He, seni qara-yu! To'dasiga olsa, jon-jon derdim...

Shu mahal akam toqati toq bo'ldi shekilli, sheriklariga o'tirilib:

- Xo'sh, hamonki aytmas ekan, nima hukm chiqaramiz? - dedi fe'li aynib.

Kursida oyog'ini chalishtirgancha chekib o'tirgan oq kepkali (E, uni ham tanidim: anavinda yo'qlab kelgan kissavur do'sti-ku!) burnini jiyirdi:

- Uzidan ko'rsin. Itga it o'limi!

Akam "Sen-chi, sen nima deysan?" deganday ustunga suyangan sheringiga qaradi. U gapirib o'tirmay, bo'yniga ko'lili sirtmoq qilib shiftni ko'rsatdi.

- Ana xolos! - deya shipshidi Soli. - Shu yerning o'zida osishmoqchi!

Shu mahal Akmal o'ris xunuk bir hayqiriq bilan xo'ngrab yubordi. Biz hatto dovdirab qoldik. U bog'dan chiqishga urinib jon-jahdi bilan yulqinar, tobora olborar edi:

- Jon ukalar, o'ldirmanglar! Aytaman, hammasini aytib beraman! Uni biz bosmaganmiz. O'zi qochib borib, anuv Parpilarga uchragan. Ular otib qo'yan! Biz uni bosmaganmiz. Boshqani deb borganmiz, ukalar...

- Tiling bor ekan-ku, iblis, - dedi akam undan irganib.

- Bor-bor, bor, uka. Faqat, Parpidan qo'rquvdik. Lytolmovdik.

Akam turgan yerida yarim o'girilib, unga qattiq tikildi:

- Yuylashtirsak-chi? Tonsang-chi?

Akmal o'ris bir daqiqa qotib qoldi, esxonasi chiqib ketgan odamdek angrayib turib-turib:

- Nega... tonay? - dedi zo'rg'a.

Oq kepka o'tirgan yerida labining chetida kuddi:

- Axir, Parpidan qo'rqasan-ku. Shu gaping uchun u seni... sog' qo'yadimi?

Akmal o'ris birdan lattaday bo'shashib, piq-piq yig'lashga tushdi, keyin o'pkasi to'lib, yuz-ko'zları jiqla yoshga bulanib, xotin kishiday hiqilladi:

- Jon ukalar, rahm qilinglar. Menam... menam jo'jabiday jonman, musulmonman...

Akam tegirmon ichini larzaga keltirib, sharaqlab kulib yubordi.

- O-la! Musulmon ekaning endi esingga keldimi? Xudoni tanir ekansanmi? Qo'rkar ekansanmi Xudodan?

Akmal o'ris yerga qaragancha qolib, o'pkasini tutolmay hiqilladi.

- Alhamdulilloh... hamma qatori...

- Nima qatori? - dedi akam hayratlanib.

- Musulmon farzandimiz, qo'rquamiz...

Ko'rib turibman: Sultonmurod akamning tepe sochi bo'lib, uning ko'zlariga qattiq tikildi.

- Munofiq, - dedi ichiga sig'dirolmay. - Xudodan qo'rqqan odam bir mushtiparning to'yini oblochi boshlab kelib, azaga aylantirib ketarkanmi? Xudodan qo'rqqan odam quruq tuhmat ko'chasiga kirib, nomardning ishini qilib yurarkanmi?

- Xudo ursin, men hech kimga... - deb qasam icha turib, Akmal o'ris birdan yana jimib qoldi.

- Uradiyam, - dedi akam ijirg'anib, - urib qo'ygani mana shu...

- Yana nima qilgan ekan? - dedi Soli menga.

- Eshitsang-chi, gapga suqulmay.

Men uni jerkib ulgurmay ham, Akmal o'ris ularga yalinishga tushdi. Biz jimib qoldik.

- O'lay agar, Sultonmurodxon, birovga atay yomonlik sog'ingan bo'lsam... O'limdan xabarim bor, bu gaplaringizdan...

- Shunaqami?

- ISHONING.

- Unda Barzanning o'g'irlanganiyam bekor, Haybatning qamalganiyam bekor, otning hozirgacha topilmaganiyam bekor - shundaymi?

U kutilmaganda g'iq etolmay qoldi. Boshi ko'ksiga tushib ketdi.

- Gapiring. Ot kimning chorbog'iga bog'lab ketilishi kerak edi?

U o'sha-o'sha jim. Boshini ko'tarolmaydi.

- Nega indamaysiz? Va qachon bostirib borib, kimni badnom etmoqchi edingiz? Rejangiz nimaga chiqmay qoldi? Ayting!

- Hech qanaqa reja... bo'lgan emas. Ot yo'qolgan - vassalom, - deb to'ng'lladi u.

Akam unga qarab, bir qadam bosib bordi.

- Bekorlarni aytibsiz, - dedi engashib. - Maxfiy suhbatlaringiz ham, tuzgan rejalarining ham ma'lum. Otni Qo'l dosh tog'anining chorbog'iga bog'lab, qaytib borishi kerak bo'lgan odam shu yerda. Chaqiraymi?

Akmal o'ris ilkis alanglab, tipirchilab qoldi.

- Kim... shu yerda?

Qorong'ida ustunga suyangan naynov qo'zg'alganday bo'ldi-yu, joyidan jilmadi. Akmal o'ris uni tanib, esi og'ib qolayozdi.

- Toyir?

- Yoruqqa chiqsinmi yo hojati yo'qmi? - dedi akam.

- Nega chiqmaydi? Ko'rsin! Bu dunyoda hamma o'ziga o'xshab, ablah emasligini! - dedi o'rnila o'tirolmay oq kepka ham. U chekib turgan papirosini chertib yubordi, u cho'g'lanib uchib borib devorga tegdi-da, mitti mushakday to'zib to'kildi.

- Men, - deb oldinga chiqdi u naynov kutilmaganda. - Siz meni kim deb o'ylovdingiz? Hamma ot jinnisi esini yeb qo'yaveribdimi?

- Xoin, - dedi tutoqib Akmal o'ris, - Qo'limga tushmading, tushganingda etingni bittalab shilardim.

Sultonmurod akam kuldii.

- Kim xoinu kim xoin emasligini ko'rib turibmiz. Kim kimga choh qazidiyu kim o'zi kelib tushdi unga?! - Akam boshini saraksarak qilib unga tikildi. - Bir umr oshig'im olchi deb o'ylagan ekansiz-da! - So'ng qayrilib shaharlik oshnasiga yuzlandi: - Nima qildik, Charli? Mana, ko'rning, eshitding hammasini. Oxirgi hukm sendan.

Charli chetga qarab, noaniq qo'l silkidi va chirt etkazib tupurdi.

So'ngra birdan ot jinnisiga o'girilib buyurdi:

- Yech buni!

U esa, oyog'inining ostida ko'l vor ilondek o'ralib yotgan arqonga qaradi.

- Shuminan osavuramizmi? Ingichkalik qilmaydimi?

Akmal o'ris tildan qolib, ko'zi ola-kula bo'lib ketdi. Charli bosh chayqadi.

- Avval Parpi bilan yuzlashtiramiz, keyin.

- Undan ko'ra os, sho'tta os, ablahlar! - Akmal o'ris birdan jazavaga tushib, baqirarkan, Sultanmurod akam kulimsirab unga yaqinlashdi.

- Ho? Nomardning ishini qilib, mard bo'lib o'lmoqchimisiz hali?

- Bahriiddinning o'limida tirnoqcha aybim yo'q mening! Bu yog'ini Parpidan so'raysizlar? Gunohi uning bo'ynida!

- Shunaqami?

- Biz uni bosmaganamiz, unga teginmoqchi emasdik.

- Ertagingni enangga aytasan! Kelinga nima deb valdiragansan? Hech kim bilmaydimi? Birovning to'yini azaga aylantirganing uchun ham seni otish kerak! Ammo biz sen o'yagan nomardlardan emasmiz. To'g'ri kelgan yerda osib, otib ketavuradigan!

Aybingni bo'yningga qo'yib, keyin otamiz. Yo bo'lmasa, ko'chingni orttirib, katta yo'lga chiqarib qo'yamiz. Yech buni, Toyir! Parpinikiga boshlab boradi.

Toyir naynov bukri ustunga chirib tashlangan kimsaning chilvirlarini yecharkan, akam tegirmon to'siniga ilig'liq tosh fonusni ola boshladi. Chiroq yorug'ida uning to'sin tomon cho'zilgan qo'li, yo tavba, qip-qizarib, xuddi qonli qo'l day ko'rinar edi. Mana hozir ular chiroqni o'chirib, taxtasi ko'chirilgan eshikdan chiqadilar-da, yana o'ziday qilib qoqib qo'yib, Akmal o'risni oldilariga solgancha jo'nab ketadilar. Parpi bebaxtni yotgan yeridan turg'azib chiqib, yana qaysidir ovloqda bu bilan yuzma-yuz qiladilar.

Asol xolamning yolg'iz asrandisi nima bo'lganini bilib, hukm chiqaradilar va... ertaga butun qishloq...

Men tasavvur qilib bo'lgunimcha, akam chiroqni o'chirib qo'ya qoldi. Toyir ot jinnisi esa, Akmal o'risning ketiga tepib, olib chiqib ketdi. Keyin qolganlar ham chiqib, kimdir eshik taxtasini oydinda joyiga qoqa boshladi. Biz bo'lsak, hamon tegirmon do'lining tepasida pusinib o'tirbmiz.

Ko'rganlarim holva ekan. Endi bu ajinalar makonida yolg'iz qolayotganimizni va bu yerdan qanday qaytib chiqib ketarimizni o'ylab, vujudimni battar dahshat chulg'ab oldi.

"Sultonmurod aka, bizlaram bormiz!", deyishga esa, til qani, yurak qani!

AvvalgiI- qismB Keyingi